O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MEHNAT TA’LIMI KAFEDRASI

# «HARBIY TARIX»
fanining

# O‘QUV METODIK MAJMUASI




**Bilim sohasi:** **100000** – **Gumanitar soha**
**Ta’lim sohasi:** **140000** – **Pedagogika**
**Ta’lim yo‘nalishi:**

QARSHI-2019

Ushbu fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 201____ yil “ ___ ” avgustdagi ___ - sonli buyrug’ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro’yxati tasdiqlangan **“HARBIY TARIX”** fanining o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** ________________________________ **/ o’qit. O.Ro’zimurodov/**

Imzo

**Taqrizchilar:**

________________________________ **/ p.f.n. E.Turdiyev/**

Imzo

Universitet O‘MK yig`ilishi bayonnomasi №___ ____avgust 2019-yil.

## O‘UM MUNDARIJASI


| № | BO‘LIMLAR | |
|---|---|---|
| 1. | O‘MMning kelishilgan varag‘i | |
| 2. | O‘MM ning mundarijasi | |
| 3 | Annotatsiya | |
| 4 | Tayanch konspekt | |
| 5 | Mundarija | |
| 6 | O‘quv materiallar (amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlar) | |
| 7 | Nazorat uchun savollari | |
| 8 | Umumiy savollar | |
| 9 | Tarqatma materiallar | |
| 10 | Adabiyotlar ro’yxati | |
| 11 | Xorijiy manbalar | |
| 12 | Mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar | |
| 13 | Glossariy | |
| 14 | Muallif haqida ma’lumot | |
| 15 | **ILOVALAR** | |
| 1 | Fanning o‘quv dasturi | |
| 2 | Fanning o‘quv dasturi | |
| 3 | Fanning ishchi o‘quv dasturi | |
| 4 | Test savollari | |
| 5 | Ta’lim texnologiyasi | |

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

# "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI"

**FANIDAN**

**TAYANCH MA'RUZALAR MATNI**
**(KONSPEKT)**

**QARSHI-2019**

**Nazariy (ma'ruza) mashg'ulotlarning mavzulari, maqsadi va ularga ajratilgan soat**

| № | Mavzular mazmuni | Ajrat ilgan soat | Bajarilish muddati | Imzo |
|---|---|---|---|---|
| **1-modul. Harbiy san'atning rivojlanishi. Urushlarning sabablari va harakteri 8 soat** | | | | |
| 1 | Quldorlik va feodal jamiyati urushlari.<br>Harbiy tarix fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Eramizning IV-V asrlarida O'rta Osiyo xalqlarining qurollanishi va Harbiy sanoati | 2 | | |
| 2 | Amir Temurning Harbiy yurishlari va Harbiy san'ati.<br><br>Amir Temur XIX-XV asirning buyuk sarkardasi. Amir Temurning Harbiy mahorati. | 2 | | |
| 3 | Amir Temurning Harbiy yurishlari va Harbiy san'ati.<br>Amir Temur XIX-XV asirning buyuk sarkardasi. Amir Temurning Harbiy mahorati. (davomi) | 2 | | |
| 4 | Yangi va eng yangi davrlardagi urushlar. Fuqarolar urushi va Ikkinchi jahon urushi oralig'ida qurolli kuchlar tuzilmasi xususiyatlari.<br>Xonliklardagi qo'shinlarni yig'ish tartibi va qo'shinlarni qurol-aslaxalari. Xiva xonligini tashkil topishi. XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi. Qo'qon xonligini tashkil topishi. | 2 | | |
| **2-modul. Ikkinchi jahon urushi yillarida qurollanish va taktika, qurolli kuchlar va qo'shinlar turlarining rivojlanishi. 12 soat** | | | | |
| 5 | Ikkinchi jahon urushi.<br>Urush boshlanishidagi harbiy-siyosiy ahvol. Ikkinchi jahon urushini sababi va xarakteri. | 2 | | |
| 6 | Ikkinchi jahon urushining Harbiy-siyosiy natijalari. Fashist Germaniyasini xujum strategik rejasini barbod bo'lishi. Ikkinchi Jaxon urushida tub burilishning xarbiy - siyosiy axamiyati. Fashist qo'shinlarini mudofaa janglariga o'tishi. | 2 | | |
| 7 | Ikkinchi jahon urushining Harbiy-siyosiy natijalari. Fashist Germaniyasini xujum strategik rejasini barbod bo'lishi. Ikkinchi Jaxon urushida tub burilishning xarbiy - siyosiy axamiyati. Fashist qo'shinlarini mudofaa janglariga o'tishi.(davomi) | 2 | | |
| 8 | Sobiq ittifoq erlaridan Dushmanning to'liq quvib chiqarilishi Evropa xalqlarning ozod etilishi (1944-1945 yil).<br>Dushmanni Sobiq Ittifoq xududidan to'liq quvib | 2 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | chiqarish. Sobiq ittifoq qo’shninlarini qishki va bahorgi hujumlari. Harbiy san`atning o’ziga xos xislatlari. | | | |
| 9 | *Ikkinchi jahon urushida Ittifoqdosh armiyalarning* harbiy harakatlari.<br>Ittifoqdosh davlatlar armiyalarining g‘arbiy evropadagi harbiy harakatlari. Normandiya operatsiyasi. 1945 yili avgustda uzoq sharqdagi vaziyat. Urush sabablari va xarakteri. | 2 | | |
| 10 | *Ikkinchi jahon urushida Ittifoqdosh armiyalarning* harbiy harakatlari.<br>Ittifoqdosh davlatlar armiyalarining g‘arbiy evropadagi harbiy harakatlari. Normandiya operatsiyasi. 1945 yili avgustda uzoq sharqdagi vaziyat. Urush sabablari va xarakteri (davomi) | 2 | | |
| **3-modul. Ikkinchi jahon urushidan keyingi qurolli kuchlarning qurilishi. 8 soat** | | | | |
| 11 | Ikkinchi jahon urushidan keyingi qurolli kuchlarning qurilishi.<br>SHimoliy atlantika ittifoqi (NATO) ning vujudga kelishi. SHimoliy atlantika ittifoqiga a’zo davlatlar Qurolli Kuchlarining ikkinchi Jaxon urushidan keyingi tuzilishi. Sovuq urushning boshlanishi | 2 | | |
| 12 | O’zbekiston Respublikasi Quroli Kuchlarini tashkil topishi.<br>O’zbekiston Respublikasining mustaqil davlat maqomini olishi. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topishi. | 2 | | |
| 13 | XX asr oxiri XXI asr bosHidagi lokal urushlar tajribasi va ulardan kelib chiqadigan xulosalar. Jahondagi lokal urushlar. Afg’onistondagi 1979-1989 yillardagi urush sabablari. | 2 | | |
| 14 | XX asr oxiri XXI asr bosHidagi lokal urushlar tajribasi va ulardan kelib chiqadigan xulosalar. Jahondagi lokal urushlar. Afg’onistondagi 1979-1989 yillardagi urush sabablari.(davomi) | 2 | | |
| **Jami** | | **28 soat** | | |

# 1-modul. Harbiy san'atning rivojlanishi.
# Urushlarning sabablari va harakteri.

## Mavzu:1. Quldorlik va feodalizm jamiyatlari urushlari.

**Reja:**

**O'quv maqsad:**

1. Talabalarga harbiy tarix fanining predmeti, maqsad va vazifalari bo'yicha nazariy bilim berish.
2. Talabalarga eramizning IV-V asrlarida O'rta Osiyo xalqlarining qurollanishi va Harbiy sanoati bo'yicha nazariy bilim berish.
3. Talabalarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

O'quv savollari:

1.Harbiy tarix fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

2.Eramizning IV-V asrlarida O'rta Osiyo xalqlarining qurollanishi va Harbiy sanoati.

Vaqti:2 soat;

Joyi:O'quv xonasi;

Uslubi: Tushuntirish, so'zlab berish, ko'rsatish;

Shakli: ma'ruza.

Tayanch suzlar:

Strategiya – (grekchadan stratos-qo'shin va olg'a boshlab boraman);

Harbiy san'at-harbiy xarakatlarni tayyorlash va ularni quruqlikda, xavoda va dengizda olib borish nazariyasi va amaliyotidir;

Taktika – grekcha tasso-qo'shinni saflayman so'zidan olingan, taktika-qo'shinni saflash san'ati);

1.Harbiy tarix fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

M.a. VII-IV asrlarda O'rta Osiyoda, kanallar va ariqlar orqali erlarni sug'orib kelgan, o'troq-dexqonchilik bilan shug'ullangan xalqlar va cho'llar, tog' yon bag'irlari va dexqonchilik voxalari chekkalarida joylashgan ko'chmanchi chorvadorlar qabilalari yashaganlar.

Yozma manbalar baqtriyaliklar, so'g'dlar, parfiyaliklar, xorazmiylar va marg'iyonaliklarni o'troq-dexqon xalqlari sirasiga kiritadi. Ular O'rta Osiyoning asosiy daryolari vodiysidagi yirik viloyatlarga nomlar berganlar: Amudaryoning (Oks) o'rta oqimi bo'ylarini - *Baqtriya*, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarini -*So'g'diyona*, Amudaryo deltasini - *Xorazm*, Murg'ab vodiysini - *Marg'iyona* deb nomlaganlar.

Evroosiyoning bepoyon cho'l zonalarida *saklar, massagetlar, daxlar* qabilalari joylashganlar.

O'rta dexqonchilik viloyatlarida shaxarlar erta qad ko'tara boshladi. M.a. VII asrning oxirida Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyonada erta qad ko'targan shaxarlar ma'lum. Aynan shu erlarda birinchi bo'lib o'rta osiyo xalqlarining davlatchiligi shakllana boshladi. m.a. viii asrda poytaxti baqtra bo'lgan qadimgi baqtriya podsholigi to'g'risidagi ilk ma'lumotlar bizgacha etib kelgan. bu davlatning qo'l ostiga marg'iyona va so'g'diyona kirgan.

M.a. vi asrning boshlarida birinchi shaxarlar chap soxil Xorazmda paydo bo'la boshladi, bu erda taxminlarga qaraganda janubdan Baqtriya va Kopetdog' tog' yon bag'irlaridan ko'chib kelgan qabilalarning madaniyatlari shakllana boshladi. Baqtriyaliklar va boshqa xalqlar maxalliy davlatchiliklarining rivojlanishi, m.a. VI asrning o'rtalarida Axmoniylarning bosqinchiliklari tufayli to'xtab qoldi. Konfederatsiya va qabilalar uyushmasiga birlashgan ko'chmanchi xalqlar, saylangan o'z yo'lboshchilari raxbarligida bosqinchilarga ancha qattiq va muvaffaqiyatli qarShilik ko'rsatdilar.

Qadimgi Yunoniston tarixchisi Gerodot o'zining mashxur «Tarix» kitobida Amudaryoning o'ng qirg'og'idan Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylarigacha bo'lgan xududda yaShagan massagetlar qabilalari to'g'risida yozgan. Ularni Gerodot piyoda va ot jangining moxir

ustalari, ko‘psonli jangchilar deb tavsiflagan, saklarning otliqlarini esa eng yaxShi jangchi chavandozlar deb yozgan. Yunonistonlik sayoxatchi Dionisiy Pereegit oradan ko‘p asrlar o‘tganidan keyin Gerodotning fikrlarini tasdiqlagan, Yaksartning (Sirdaryoning) quyi oqimi bo‘ylarida yashagan saklar qabilalarini tavsiflab, ularni eng yaxshi mergan kamonchilar xisoblagan, ularning kamon o‘qlari doimo nishonni bexato urgan, deb yozgan.

Qadimgi Baqtriya podsholigi xalqlarining Harbiy anjomlari qadimgi sharq davlatlari Harbiy san’atining erishgan yutuqlari xisobidan ancha takomillashdi.

M.a. IV asrda O‘rta Osiyoning qurolsozlik ishi o‘zining yuqori rivojlanishiga erishdi. Jangchilar xujum qurollarini moxirlik bilan iShlatganlar va dastasi qimmatbaxo qilib bezatilgan temirdan yasalgan (ayrim xollarda bronzadan) xanjarlar va qilichlarni keng qo‘llaganlar. Qo‘l jangida O‘rta Osiyolik jangchilar *akinak* nomi bilan mashxur bo‘lgan kalta qilichlardan foydalanganlar. Akinakni *o‘ng tomonga* taqib yurganlar. Ularda uzun (1,2 m gacha) qilichlar xam bo‘lgan. Jangda ko‘p xollarda jangovar boltalar-*sigarislar* qo‘llanilgan. Bunday ikkala tomoni xam keskir jangovar boltalar qabrlarni qazish chog‘ida ko‘plab topilgan. Gerodot va Strabonning ma’lumot beriShicha, massagetlarning sekirlari (sopi uzun oybolta) misdan yasalgan bo‘lgan. Bronza va temir uchli uzun nayzalar katta axamiyatga ega bo‘lgan. To‘qmoqlarning roli ancha past bo‘lgan. Gerodot massagetlarni «nayzachilar» deb atagan.



Uzoqqa zarba beruvchi qurol sifatida, avvalom bor, kamon qo‘llanilgan. M.a. V asrdan O‘rta Osiyoda skiflar namunasidagi murakkablaShtirilgan kamon qo‘llanilgan. U otish uzoqligi oshirilganligi va samadorligi bilan ajralib turgan. bunday kamonlarning bir nechta turi ma’lum: baqtriyaliklar xamda so‘g‘diyonaliklar, parfiyaliklar va xorazmliklar kamonlarni yasash uchun qamishdan foyda-langanlar. kamon o‘qlarining uchlari temirdan (yoki misdan) yasalgan. gerodot, ksenofont, arrianning manbalarida sak va massagetlarning «kamonchilari», «otliq kamonchilari» esga olinadi. murakkab «skif» ka-monlari yaxshi jangovar si-fatlarga ega bo‘lgan. kamonning o‘qdoni teridan va yupqa yog‘ochdan yasalgan. o‘rta osiyolik jang-chilar palaxmonni moxirlik bilan ishlata olganlar.

jangchilar mudofaa sovutlari bilan ximoyalanganlar. kvint kursiy rufning (makedoniyalik iskandarning yurishlari tarixchisi) yozishicha, O‘rta Osiyoning cho‘llik jangchilari «temir plastinkalardan» iborat bo‘lgan sovutlarga ega bo‘lganlar. Arrianning ma’lumot berishicha jangchilar jangda temir sovutlar bilan «yaxshilab yopilgan» bo‘lganlar. Temir dubulg‘alardan xamda xar xil shakl va o‘lchamdagi qalqonlardan xam foydalanilgan. Gerodotning yozishicha, massagetlarning otlari ko‘krak sovutlari bilan ximoya qilingan. Arxeologiya ma’lumotlariga ko‘ra O‘rta Osiyo, otlarni ximoya anjomlari bilan birinchi bo‘lib jixozlash joriy qilingan joy bo‘lgan. O‘rta Osiyoda kashf etilgan bu muxim yangilik g‘arbga-Forsga, janubga-Xindistonga, sharqqa-Xitoyga tarqalgan.

So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm jangchilari botir, qo‘rqmas va ajoyib chavandozlar bo‘lganlar.

O‘troq va cho‘lning ko‘chmanchi xalqlarining chavandozlari uzangisiz engil egardan yoki to‘qimdan foydalanganlar, etiklarining yonboshida otni niqtash uchun tig‘lar bo‘lgan. Ko‘p xollarda egarlar oltin bilan bezatilgan.




Saklar boShlig‘ining kiyim-boshi va jangchining anjomlari.

Ko‘chmanchi qo‘shinlar otliq jangchilardan tashkil topgan. Xatto ayollardan maxsus otryadlar tuzilgan. Yunonistonlik tarixchi Klavdiya Ellanning ma’lumotlariga qaraganda kuyov uylanishidan oldin qiz bilan kurash tushishi kerak bo‘lgan. Agar u yutib chiqsa qizga uylangan, agar engilsa u qizning asiriga aylangan. Bunday an’ana faqat erkak jangchilarni emas, balki ayol jangchilarning xam tarbiyalariga o‘z xissasini qo‘shgan. Ayollarning erkaklar bilan birga turib jang qilishlari muqaddas burch xisoblangan.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda xar bir xukmdor yaxshi qurollangan yollangan jangchilar otryadiga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, qabilalar yoki to‘dalar

boshliqlari, o‘q-yoy, nayza va qilichlar bilan jangni olib borgan o‘z qabiladoshlari yoki urug‘lariga raxbarlik qilganlar. Qabilaning xar bir jangchisi o‘zi bilan safarlarda oziq-ovqatlari (tolqon, qurut), yarim qaynatilgan go‘sht, suv idishlarini olib yurgan.

Bronza asridayoq O‘rta Osiyoda fortifikatsiya inshootlarini qurish san’ati joriy etilgan. Yunon-makedonlar bosqinigacha O‘rta Osiyo, istexkomlar bilan kuchli mudofaa qilingan shaxarlarga ega bo‘lgan davlatga aylandi. Umumshaxar istexkomlaridan tashqari, yirik shaxarlar qo‘rg‘on ko‘riniShidagi qudratli fortifikatsiya tarmoqlariga ega bo‘lgan.

Qadimgi shaxarlar va qal’alar baland devorlar bilan o‘rab olingan. Devorlar mustaxkam g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, minoralari xam bo‘lgan. Minoralarda maxsus tuynuklar yasalgan, ulardan Shaxar ximoyachilari dushmanga kamondan o‘q yog‘dirganlar. Mudofaa devorlari suv to‘ldirilgan chuqur xandaqlar bilan o‘ralgan. Shunday qal’alar qadimgi Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Xorazm, Farg‘ona, Chochda qad ko‘targan. So‘g‘diyonaning yirik shaxri *Smaraqanda* xisoblangan (xozirgi Samarqand), greklar uni *Maraqanda* deb ataShgan. Makedoniyaliklar bosqinchiligi davrida Shaxar ikki qismdan iborat bo‘lgan: devorlar va chuqurliklar bilan o‘ralgan qo‘rg‘on va devorlarining uzunligi 70 stadiyaga, ya’ni 12-12,5 kilometrga teng bo‘lgan. (Kvint Kursiy Rufning ma’lumotiga ko‘ra).

Xorazm davlatining rivojlanishi bilan xam yangi shaxarlar va qal’alar qad ko‘tara boshladi. Misol tariqasida Jonbosqal’ani keltirish mumkin, u to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurilgan bo‘lib, ikki qator mustaxkam devor bilan o‘ralgan. Uning kirish joyiga katta e’tibor berilgan, beshta burilishli oraliqlar qurilgan va ichki devorlari otish uchun qo‘shimcha tuynuklar bilan jixozlangan. Minoralarning bo‘lmaganligi uchun otish uchun maxsus tuynuklar burchaklar bo‘ylab, o‘ng burchak, chap burchak va to‘g‘riga otish uchun qulay qilib joylashtirilgan, devorlarda esa devorlar bo‘ylab otish uchun uchta otish tuynugiga ega bo‘lgan yarim aylana ravoqlar bo‘lgan. Dushmanga qarshi kamondan yaxshi otish uchun otish tuynuklari chuqurlaShtirilgan va ulardan pastga tomon bo‘rttirib qiya qilingan jo‘yaksimon devorlar qurilgan. Shuning uchun devorlar yarim ustunlar bilan to‘silgan degan tasavvur paydo bo‘ladi.



Jonbosqal’a. Qadimgi Xorazm m.a. III-II asrlar

Qal’a devorlaridagi ko‘psonli otish tuynuklarining borligi, mudofaa uchun axolining xammasi jalb qilingan degan xulosaga kelishga majbur etadi. Shaxarning butun fortifikatsiya tizimi ko‘chmanchilarning bosqinchiliklaridan ximoyalaniSh uchun yagona mudofaa tizimi yaratilganidan dalolat beradi.

Xorazmliklar, baqtriyaliklar, saklar Axmoniylar davlati armiyasining Harbiy kontingentining ko‘pchiligini taShkil etgan. Misol uchun, Yunoniston-Fors urushi paytida, Marafon jangida Fors piyodalari bilan birga afinaliklar jangovar tartibining markazini chekiniShga majbur qilgan saklarning *otliqlari o‘z qaxramonliklari bilan ajralib turganlar*. Saklar Plateya va Fermopil janglarida xam qaxramonlik va matonat namunalarini ko‘rsatdilar. Fors sarkardasi Mardoniy Yunonistonni zabt etish uchun o‘zining saralangan otryadiga forslar va midiyaliklar bilan bir qatorda baqtriyaliklar va saklarni xam kiritgan. Sak jangchilari kema ekipajlari saflariga kiritilgan. Sak jangchilari ifodalangan terrakotlar va plastinalar Axmoniylar davlati xududidan topilgan.

O‘rta Osiyo qo‘shinlari aloxida qo‘shin turlariga bo‘linishni bilganlar: bo‘linma-bo‘linma bo‘lib jangovar safga tizilish qo‘llanilgan, xujum ayrim xollarda bo‘yiga chuqur eshelonlashtirilgan ixcham bo‘linmalar bilan olib borilgan. Shu bilan birga boshqa taktik qoida-strategik chekinish xam ma’lum bo‘lgan, unda otliq qo‘shinlar to xujum qilgan, to boshqa yo‘nalishdan shiddatli zarbani berish uchun ortga chekingan. Umuman odatda, xujumkor jang «yopirilib» bostirib borish bilan boshlangan, bunda otda Shiddat bilan xarakatlanib ximoyalanayotganlarning ustiga kamon o‘qlari va nayzalar yog‘dirilgan, g‘anim bilan yaqinlashib qolinganda qat’iy xujumga o‘tilgan, keyin qo‘l jangi boshlangan va chekinayotgan dushmanni ta’qib qilish bilan xujum nixoyasiga etkazilgan. xal qiluvchi davrda jangga zaxira kiritilgan.

O‘rta osiyolik jangchilar o‘zaro xamkorlikni moxirlik bilan amalga oshirganlar. Ko‘p xollarda otliqlar va engil piyodalarning birgalikdagi xarakatlari variantlari ishlab chiqilgan: otda ikki kiShi bo‘lib o‘tirgan chavandoz-daxlar dushman bilan yaqinlashishda xam otliqlar, xam piyodalar sifatida xarakatlanganlar-ulardan biri otda, Ikkinchisi esa otdan tushib piyoda safda jangni davom ettirgan.

Qadimgi tarixchilar sak jangchilarining fazilatlarini yuqori baxolaganlar, bunga greklar Yunoniston-Fors urushi paytidayoq amin bo‘lganlar. Bunga keyinchalik makedoniyalik Iskandarning xam bir necha marotaba tan berishiga to‘g‘ri keldi-birinchi marta Gavgamela jangining boshida sak-baqtriya otliqlari Iskandarning avangardini chekinishga majbur qilgandi (Arrianning bergan ma’lumoti).

O‘rta Osiyo xalqlarining Harbiy ishlarini tadqiq etuvchilar quyidagi xulosalarga kelganlar:

O‘rta Osiyoliklarning qurol-yarog‘lari o‘sha davrning eng takomillashgan qurollaridan bo‘lib, xatto ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha yunon-makedon qo‘shinlarining qurol-yarog‘laridan xam ustun bo‘lgan.O‘rta Osiyoda xujum va mudofaaning turli taktik qoidalari ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan.

Axmoniylar davlatining greklar bilan urushida, shu jumladan makedoniyalik Iskandarga qarshi janglarda (O‘rta Osiyodan tashqarida) ishtirok etganligi tufayli, Axmoniylar va yunon-makedon armiyalari singari, O‘rta Osiyo xalqlari jangchilari qurol-yarog‘ va jang olib borishning taktik qoidalari bilan yaxshi tanish ekanliklarini ko‘rsatdilar.

M.a. VI-IV asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarining Harbiy potensiali juda yuqori bo‘lgan, bu o‘z navbatida chet ellik bosqinchilarga qarshi kurashda muxim omil yaratgan.

Ko‘p xollarda bizning o‘tmish ajdodlarimiz dushman ustidan nafaqat kuch bilan, balki Harbiy xiyla bilan g‘alaba qozonganlar. Bunda ular ko‘plab pistirmalar va dushmanni taktik chalg‘itishni qo‘llaganlar. Qadimgi saklar, massagetlar va so‘g‘dlarning asosiy ustunliklari xarakatchanlik va moxirlik bilan manyovrni amalga oshirish bo‘lgan. Ularning Harbiy tayyorgarliklarining kuchsiz tomoni-yaxshi ximoyalangan qal’alarni xujum bilan zabt eta olmaganliklaridir.

O‘rta Osiyo xalqlarining Axmoniylarga qarshi kurashi. To‘maris, Shiroq.

O‘rta Osiyo xalqlari chet ellik bosqinchilar tomonidan o‘zlarini qul qilinishlariga qarshi qattiq kurashganlar. M.a 530 yilda Fors podshosi Kir II massagetlarga qarshi yurishida ko‘rsatilgan qattiq qarshilikni to‘lig‘icha bostira olmadi. Gerodotning Ta’kidlashicha, Kir II shimol tomonga qancha ko‘p xarakatlangan sari, Shuncha ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgan.

Qariyib butun Kichik Osiyoni va Vavilonni bosib olgan Kir II, ko‘chmanchi-massagetlarni qul qilish va boyliklarini egallash maqsadida o‘z qo‘shinlarini O‘rta Osiyoga boshladi. Massagetlar o‘z xukmdorlari malika To‘maris raxbarligida qudratli dushmanga qarshi chiqishga axd qildilar. Massagetlar qudratli kuchga ega edilar. Ularning qo‘shinlari tezkorlik bilan xarakatlanadigan va manyovrlarni moxirlik bilan bajara oladigan jangchilar bo‘lganlar. Ularning asosiy ustunliklari-o‘z vatanlari tuprog‘ida janglarni olib borishlari edi.

Fors qo‘Shini m.a. 529 yilda Oksni (Amudaryo) kechib o‘tdi va massagetlarning ilg‘or otryadlaridan birini tor-mor etdi. To‘maris o‘z qo‘shiniga, dushmanni o‘z xududining ichkarisiga boshlab kirish va qirib tashlash uchun chekinishga buyruq berdi. Bu muvaffaqiyatdan ruxlangan forslar massagetlarni ta’qib qila boshladilar va avvaldan tog‘lar orasidagi darada tayyorlangan tuzoqqa tushdilar. Bu darada butun fors qo‘shinlari qirib tashlandi va kir ii ning o‘zi xam xalok bo‘ldi.

Gerodotning ma’lumot berishicha, bu jang varvarlar (grek bo‘lmagan axoli) ishtirok etgan eng shiddatli jang bo‘lgan. Dastavval ikkala tomon xam bir-birlarini kamon o‘qlari bilan yakson qila boshladilar. Kamon o‘qlari tugaganidan keyin ular otlarda qilichlar bilan jangni davom ettirdilar. Jang uzoq davom etdi, xech kim yon berishni istamas edi. Oxir-oqibat massagetlar g‘alaba qozondilar.

Rivoyatlarga qaraganda malika, Kirning kesilgan boshini qonga to‘ldirilgan meshga tashlashga buyruq berdi va uning shafqatsizligini qoralab shunday deydi: «sen xech qachon qonga to‘ymading, mana endi to‘yguningcha ich».

M.a. 519-518 yillarda Doro I O‘rta Osiyoning sak qabilalariga qarshi yurishni amalga oshirdi.

Bu urushda saklar fors qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchradilar va ko‘plab jangchilar xalok bo‘ldilar va asir olindilar. Lekin saklar va dushman tomonidan bosib olingan boshqa xalqlar Fors bosqinchilariga qarShi qaxramonona jang qildilar. Bu xaqda Shiroq to‘g‘risidagi rivoyat guvoxlik beradi.

Kunlarning birida forslarning lageriga sak cho‘poni Shiroq keldi. Uning quloqlari va burni kesilgan, yuzlarida xam yaradorlik izlari ko‘rinib turar edi. Shiroq, uni qabiladoshlari shu ko‘yga solganligi va ulardan qasdini olishi kerakligini aytdi. U Fors qo‘Shinlarini, uning yolg‘iz o‘ziga ma’lum bo‘lgan qisqa yo‘ldan saklar qo‘shini ortiga olib chiqishini aytdi. Cho‘lma-cho‘l etti kun yo‘l yurilganidan keyin forslar aldanganliklarini sezdilar. O‘ziga o‘lim taxdid solib turganiga qaramay Shiroq, shunday dedi: «Men g‘alaba qildim, o‘z yurtdoshlarim, saklarni o‘limdan saqlab qoldim, forslarni suvsizlikka va ochlikka duchor qildim». Forslar bu matonatli cho‘ponni qatl qildilar, Doro I ning qo‘shinlari katta talofat ko‘rdi.

O‘rta Osiyoning erksevar qabilalari va xalqlari doimo Axmoniylar podsholarining zulmlariga qarshi turib kelganlar. Mustaqillik uchun kurashlar natijasida xorazmliklar m.a. IV asrda Axmoniylardan mustaqil ravishda o‘z davlatlarini tashkil etdilar. Shu vaqtdan boshlab saklar Axmoniylarga qaram bo‘lmadilar.

So‘g‘dlar, saklar va massagetlarning yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi. Spitamen. Doro III ning o‘limidan keyin makedoniyalik Iskandar, Axmoniylarning vorisi xisoblangan Baqtriya va So‘g‘diyonaning noibi - satrapi Bessni (Doroning qotili) ta’qib qila boShladi. Iskandar O‘rta Osiyoga yuriShining rasmiy sababi Bessni jazolash, deb e’lon qildi. M.a 329 yilda Makedoniya armiyasi Baqtriya va So‘g‘diyonaga bostirib kirdi . Bu armiya besh kun ichida Oksni (Amudaryoni) kechib o‘tdi.

Maxalliy xukmdorlar Makedoniya podshosining niyatini bilib, Bessni qo‘lga olib unga etkazdilar. Iskandar Bessni jazoladi, lekin yuriShni to‘xtatmadi.

Iskandarning qo‘shini *Nautaki* (xozirgi Kitob xududi) orqali o‘tdi va Maroqandani (Samarqandni) egalladi. Undan keyin Makedoniya armiyasi Yaksart (Sirdaryo) daryosi

bo‘ylariga chiqdi, uning qirg‘og‘ida kuchli mudofaalangan *Chekka Aleksandriya* Shaxri barpo etildi, lekin So‘g‘diyonada mustaxkamlanish maqsadida, o‘z mustaqilligi uchun kurashgan Shaxarlar va qabilalar bilan uch yil qattiq kurashishiga to‘g‘ri keldi.

So‘g‘diyonada makedoniyalik bosqinchilarga qarshi kurashga, sak qabilalari bilan ittifoqchilikka tayangan iste’dodli sarkarda -Spitamen raxbarlik qildi. Dushmanning kichik otryadlariga va uncha katta bo‘lmagan garnizonlariga xujum qilgan So‘g‘diyona axolisi matonatli qarshilik ko‘rsatdi.

Yaksart daryosi vodiylarida joylashgan, bosqinchilarga qarshi bosh ko‘targan ettita shaxar axolisi makedoniyaliklar garnizonlarini tor-mor etdi. Iskandarning yana boshdan bu Shaxarlarni qamal qiliShiga to‘g‘ri keldi. Spitamen qo‘mondonligi ostidagi otryad Maroqandada makedoniyaliklar garnizonini qamal qildi. Saklar Yaksartning o‘ng qirg‘og‘ida jamlandilar. Makedoniya armiyasi qiyin axvolda qoldi. Yaksartning o‘ng qirg‘og‘idagi Shiddatli janglardan keyin saklar o‘z davlatlarining ichkarisiga chekindilar. Cho‘l bo‘ylab ularni ta’qib qiliShga Iskandarning yuragi dov bermadi.

Bosqinchilar Maroqandaga xarakatni davom ettirdilar. Spitamen vaziyatni to‘g‘ri baxoladi, jangga kirishmadi, Maroqanda qamalini echib, saklar bilan birlashish uchun chekindi. Unga makedoniyaliklarning kichik bir otryadi etib olishga xarakat qilib ko‘rdi.




M.a. 329 yildagi Politimet daryosi bo‘yidagi jang

Spitamen jiddiy jangga kirishmay vaqti-vaqti bilan makedoniyaliklarga xujumni amalga oShira boShladi. Bu xol makedoniyaliklarni chekinishni boshlashga majbur etdi. Dushmanning kamon o‘qlaridan kam talofat ko‘rish uchun makedoniya otryadi politimet (zarafshon) daryosi bo‘ylaridagi butazorlarda to‘xtadi va shu erdan jang boshlandi.

Makedoniyaliklar daryoni kechib o‘ta boshladilar. Spitamenning kamonchilari daryoni kechib o‘tayotgan dushmanni ro‘paradan kamonlar yordamida qirib tashlay boshladilar. Shu bilan bir vaqtda spitamenning otliqlari daryoga tashlandilar va daryoning o‘rtasidagi orollarning birida yashirinishga xarakat qilgan dushmanning qanotlariga xujum qildilar.

Spitamen otryadi makedoniyaliklarni tom ma’noda kamonlardan tor-mor etdi. makedoniyaliklarning bir qismi saklar tomonidan yaratilgan pistirmaga tushdi. bunda makedoniyaliklarning xamma Harbiy boshliqlari o‘ldirildi, faqatgina 40 otliq va 300 piyoda jangchilar qochishga ulgurdilar.

Spitamenning xarakatchan otliq otryadi, jangga kirishmasdan, dushmanni tuzoqlarga kirishga majbur qilib, pistirmalar uyushtirib, Makedoniya armiyasining yirik otryadini tor-mor etdi.

Iskandar o‘z otryadiga yordam ko‘rsatish uchun katta kuch taShladi, bu kuchlar uch kun mobaynida 280 km yo‘l bosib kelganiga qaramay ancha kechikdi.

Makedoniya qo‘shinlari xalok bo‘lganlarni dafn etdi va saklar xududiga ichkarilab ketishdan xayiqib Baqtriyaga qaytdi. Butun qish davomida Makedoniya armiyasi yangi kampaniyaga tayyorgarlik ko‘rdi va shu bilan birga, Baqtriya va So‘g‘diyonaning qo‘zg‘olon ko‘targan xalqlari bilan kurashni davom ettirdi.

Iskandar Sharqqa yurishni boshlaganida, u xali xam o‘zining ustozi Arastuning (Arestotelning), «varvar va qul tabiatan ikkalasi bir xil» -degan o‘gitlariga ishonar edi. Lekin, Iskandarning o‘ziga noma’lum bo‘lgan uzoq yurtda ko‘rganlari, uning «varvarlar» to‘g‘risidagi

tuShunchasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu erda u qullarcha ta’zim va erksizlikni emas, varvarlik va nodonlikni emas, balki matonat va yuqori insoniy qadr-qimmatni ko‘rdi.

Spitamen bir kun xam dushmanni tinch qo‘ymadi Uning uchqur otliq otryadlari bosqinchilarga xujum qilib, unga sezilarli talofatlar etkazdilar.

M.a. 328 yilning baxorida Iskandar o‘z armiyasini besh qismga bo‘ldi, So‘g‘dning u chekkasidan bu chekkasigacha xarakatlanib, 120 ming kiShini qirib tashladi. Shu yilning kuzida Spitamenning Iskandar bilan Maroqanda uchun oxirgi jangi bo‘lib o‘tdi. Bu jangda ikkala tomon xam katta talofatlar ko‘rdi. Spitamen yana cho‘lga chekindi. Bu erda ko‘chmanchi qabilalarning raxbarlari sotqinlarcha unga xujum qildilar va Arrianning yozishicha, -«uning boshini tanasidan judo qilib Iskandarga yubordilar, shu bilan o‘zlariga taxdid solib turgan xavfni bartaraf etdilar».

Axmoniylar dunyosini zabt etgan Iskandar So‘g‘diyonada xalq qo‘zg‘olonini oxirigacha bostira olmadi. Faqatgina maxalliy zodagonlarning xoinligi va yunon-makedon armiyasining Harbiy ustunligi tufayli so‘g‘dlarning qaxramonona qarShiligi bostirildi. O‘rta Osiyo erlarini zabt etish uchun Iskandarning qariyb uch yil vaqti ketdi, lekin Shunga qaramay u o‘ziga uncha katta bo‘lmagan xududni: So‘g‘d, Baqtriya va tog‘ viloyatlarining kichik qismini bo‘ysundira oldi. Xorazm va ko‘chmanchi qabilalar o‘z mustaqilliklarini saqlab qoldilar.

Maxalliy zodagonlarni o‘z tomoniga og‘dirib oliSh uchun Iskandar, So‘g‘dning tog‘ viloyatlaridan birining xukmdori VaxShuvarning (Oksiartning) qizi Roxshanakka (Roksanaga) uylandi.

Spitamenning qo‘zg‘oloni qiyinchilik bilan bostirildi, lekin xali xam Paretakena (paretaklar mamlakati-Surxondaryoning shimoliy xududidagi tarixiy viloyat) qarshilik ko‘rsatayotgan edi, bu erda qabila boshliqlari Avstan va Katan raxbarligida baqtriyaliklar qaxramonona jang qilayotgan edilar. Bu qo‘zg‘olon qonga botirildi. Makedoniyalik Iskandar uchun g‘alaba qimmatga tushdi va mag‘lubiyat bilan teng bo‘ldi. Sirdaryoga etib kelib u saklar bilan xujumni davom ettirishga botina olmadi.

Spitamen, Avstan, Katan singari iste’dodli sarkardalari, jang olib borish qobiliyati yuqori bo‘lgan otliq otryadlari bo‘lgan ajdodlarimizning matonatlari, makedoniyaliklarni Baqtriya va So‘g‘diyonani bosib olish uchun ko‘p kuch va vaqt sarflashga majbur etdi. Makedoniya armiyasi katta talofatlar ko‘rdi. Iskandarning o‘zi bir necha marta yarador bo‘ldi.

2.Eramizning IV-V asrlarida O’rta Osiyo xalqlarining qurollanishi va harbiy sanoati.

M.a. 327 yilda uning armiyasi Xindistonga yurishni boshladi.

O‘rta Osiyo davlatlarining antik davr va ilk O‘rta asrlardagi Harbiy tarixi. M.a. IV asrda Xorazm mustaqil davlat bo‘ldi. Xorazmliklar xatto Fors davlatiga bog‘liqlikdan rasman ozod bo‘ldilar. Xorazm xukmdori Farasman (Xvarazman) m.a. 329 yilda 1500 otliq qo‘Shin bilan Iskandarning xuzuriga kelib, kolxlar va amazonkaliklarga (Shimoliy Kavkaz xalqi) qarShi ittifoq tuzishni taklif etdi. Spitamenga qarshi kurash bilan band bo‘lgan Iskandar taklifni qabul qilmadi, lekin Farasman bilan do‘stona ittifoq tuzdi. Shu bilan Xorazmning mustaqilligi saqlanib qolindi.

Iskandarning davlati tarqalib ketganidan keyin Parfiya, Areya, Baqtriya va So‘g‘diyona Selevkiylar davlati safiga kirdi, Xorazm esa o‘zining maxalliy sulolasi xukmdorligi saqlanib qolindi.

M.a. III asrdan O‘rta Osiyo o‘lkasiga birin-ketin Evroosiyo ko‘chmanchilari bosqinchilik xarakatlarini boshladilar. Natijada ushbu xududda podsholik qiluvchi sulola, ko‘chmanchilardan etiShib chiqqan bir nechta podsholiklar shakllandi. Parlar qabilasidan bo‘lgan Arshakiylar boShchiligidagi bu Parfiya podsholigi, Orolbo‘yidagi daxlar qabilalari ittifoqining bir qismi edi. M.a. II asrdan Xorazmda podsholik qilgan oldingi sulola, bir necha asrlar davomida xukmronlik qilgan boshqa sulolaga o‘zgardi.

Xorazm xukmdori o‘z tangasini chiqardi, uning orqa tomonida otliq jangchi tasvirlangan.
Qabilalarning eng yirik konfederatsiyasi Qang‘yuy yoki Kandzyuy (Xitoy manbalariga qaraganda) davlatlari xisoblanib, ular Fors yozma manbalariga (Avestoda) Kangxi nomi bilan maShxur.

Manbalar, sharqda Farg‘onadan, Shimoli-g‘arbda Orol bo‘ylarigacha ulkan xududni egallagan bu davlatlarning yarim ko‘chmanchi xarakterini ta’kidlaydi. Xitoy manbalarining guvoxlik berishicha Volgadan Uralgacha bo‘lgan xududda yashagan cho‘l va cho‘l o‘rmon qabilalari xam Qang‘yuyga bo‘ysungan.

Qang‘yuy safiga beshta kichik mulklar kirgan. Xitoyliklarning ko‘rsatishlaricha ularning safiga Xorazm, Choch (Toshkent o‘lkasi) va So‘g‘dning g‘arbiy, markaziy va janubiy erlari to Boysun tog‘larigacha va Qo‘xiton kirgan. Davlat milodiy V asrgacha mavjud bo‘lgan, keyin bir nechta kichik mulklarga bo‘linib ketgan va ularning ko‘pchiligi eftaliylar davlati tarkibiga kirgan. Qang‘yuy katta armiyaga ega bo‘lgan, manbalarga qaraganda uning safi 125 ming kiShiga etgan, armiyaning asosini og‘ir va engil otliqlar tashkil etgan. Qadimgi grek tarixchisi Strabon «ular kamonlar, qilichlar, sovutlar, mis boltalar bilan qurollangan yaxShi jangchi bo‘lganlar, jangda ular oltin kamarlar va oltin belbog‘lar taqqanlar»-deb yozgan edi.

Qang‘yuy jangchilari butun tanani ximoya qilib turgan plastinali yoki tangachali zirx (katta xajmdagi temir plastinalar tikilgan teri pocha-po‘stin) kiyib ustidan oltin kamar taqib yurganlar va uzunligi to‘piqlarigacha keladigan yaktag kiyganlar. Plastinali zirx bilan otning xam butun tanasi ximoya qilingan.

Katafraktar-chavandozlar boShlariga tepa qismi bo‘rttirilgan aylana yoki konussimon dubulg‘a kiyganlar. Dubulg‘aning old qismi o‘rtasidan uchburchak shaklda peshanaga tushib turgan. dubulg‘aning orqa tomonida boshning orqa tomonini ximoya qilib turish uchun tangachali to‘r osilib turgan. Ko‘p xollarda bo‘yinni baland zirxlangan yoqalar ximoya qilgan.



Qang‘yuy katafraktarlarining jangi. Jangchining qabridan topilgan suyak plastina.
M.a. I asr Orlat, Samarqand viloyati.

Jangchilar uncha katta bo‘lmagan aylana qalqon olib yurganlar. Qilichlari uzun va to‘g‘ri bo‘lib, dastasi krestsimon bo‘lgan, uni chap yonga taqib yurganlar. Ayrim jangchilar gurzilar bilan qurollanganlar, ularni uloqtirish quroli sifatida xam ishlatganlar.

Qang‘yuyning xamma jangchilari o‘q-yoylar bilan qurollanganlar. Kamon o‘qlari xam o‘qdonlarda, xam *goritalarda* (kamon bilan birga olib yuriladigan maxsus o‘qdonda) saqlangan.

Chavandozlar nayzalar bilan qurollanganlar, bu nayzalardan uloqtiriSh uchun xamda qo‘l jangida foydalanilgan va jangovar boltalar-chekanlar, uzun qilich xam (sarmatlar qilichi) qo‘llanilgan. Ular otning ustiga og‘ir qurollangan chavandozlar uchun qulay qilib yasalgan egarlarda o‘tirganlar. Xujum qurolining maxsus turi sarisa turidagi, *kantos* deb yuritilgan uzun nayzalar (6 m gacha) bo‘lgan, ularni chavandozlar ikki qo‘llab ushlab jangga kirganlar.

Ximoya vositalari bilan o‘ralgan og‘ir qurollangan otliqlar, xudi Shunday ximoyalangan otlarda jipslashgan safda jang qilganlar. Dushmanga yopirilib kamonlardan o‘q otganlar. Dushmanning jangovar tartibi buzilgandan keyin katafraktar-chavandozlar uni ikkinchi tomondan o‘rab olganlar va kamon o‘qlarini yog‘dirishni davom ettirganlar.

DuShmanning qarshi zarbasi, ataylab chekiniSh va undan keyin dushmanning qanotlariga va front ortiga qat’iy zarbalarni berish bilan bartaraf etilgan. Kuchli o‘q yomg‘irlari, gurzilarni uloqtirish va uzun nayzalarni qo‘llash bilan jangchilar dushmanni o‘z saflariga yaqinlashishiga yo‘l qo‘ymaganlar.

Bunday taktika cho‘lning o‘rtasida joylashgan o‘lkani ximoya qilish uchun qulay bo‘lgan. Bunday taktikani mukammal egallagan parfiyaliklar xam qudratli Rim armiyasiga qarshi uni muvaffaqiyatli qo‘llaganlar. Shuni Ta’kidlash lozimki, ko‘pgina xalqlar og‘ir qurollangan otliqlar bilan jang olib boriSh taktikasini bizning ajdodlarimizdan olganlar.

Qadimgi Farg‘ona aloxida davlat bo‘lib, Xitoy manbalarida «Davan» (Tayyuan) nomi bilan yuritilgan. U g‘arbda Qang‘yuy bilan chegaradosh bo‘lgan.

Qadimgi Davanda qishloq xo‘jaligi, xunarmandchilik va qurilish juda rivojlangan. Qadimgi Farg‘ona ayniqsa o‘zining argamaklari-otlari bilan maShxur bo‘lgan, ularni xitoyliklar «osmon tulporlari» deb ataganlar.

Qadimgi Davan qo‘shinlari xitoyliklarning ma’lumotlariga qaraganda 60 ming kishini taShkil etgan va ular kamonlar va nayzalar bilan qurollanganlar. Ayniqsa qadimgi Farg‘ona jangchilari otda turib kamon otishning moxir ustasi bo‘lganlar. Qo‘shinning asosiy qismini chavandozlar tashkil etganlar. Farg‘onalik jangchilar Qang‘yuylik jangchilar singari ximoya kiyimlarini kiyganlar, otlariga xam sovutlar kiygizganlar. Balki xitoyliklar bu qurolni qadimgi farg‘onaliklardan o‘rgangandirlar.

O‘z davlatlarini mudofaa qilish uchun farg‘onaliklar qal’alar qurganlar. Qadimgi Davanning poytaxti Ershi shaxri (xozirgi Andijon viloyatining Marxamat shaxri) ikki qator (ichki va taShqi) devor bilan o‘ralgan. Shaxarning ichida omborlar va oziq-ovqatlarni, qurol-yarog‘lar va boShqa kerakli anjomlarni saqlash uchun binolar qurilgan.

Qadimgi farg‘onaliklar o‘z otlarini ayab-asraganlar. Farg‘ona xukmdorining Xitoy elchisiga otlarni sotiShdan boSh tortganligi, Xitoy qo‘Shinlarini Davanga bostirib kiriShiga sabab bo‘ldi. M.a. 104-101 yillarda Xitoyning 60 minglik otliq va piyoda jangchi qo‘Shinlari Davanga bostirib kirdi.

Birinchi yuriSh mustaxkamlangan axoli punktlarining qarShiliklarini sindira olmagan xitoyliklarning tor-mor etiliShi bilan tugadi.

M.a. 101 yildagi ikkinchi yurishda xitoyliklar Ershi shaxrini qamal qildilar. Xitoyliklar Shaxarni egallay olmaganliklaridan keyin, shaxarning suv ta’minotini buzib taShladilar, lekin Shaxar ximoyachilari quduqlar qazib suv ola boshladilar. Bir necha ming otlarni olgan xitoyliklar uruShni to‘xtatdilar, shaxarning ichkarisiga kira olmadilar va ortga qaytdilar.

O‘rta Osiyoning uShbu davrdagi uchinchi davlati o‘z ichiga janubiy O‘zbekistonni, xozirgi Tojikistonning katta qismini xamda Afg‘onistonning qo‘Shni rayonlarini olgan bo‘lib, uni *yuechjilar* barpo etgan, yuechjilarni qadimgi mualliflar *toxirlar* deb nomlaganlar.

Grek-baqtriya xukmdorlari ustidan qozonilgan g‘alabadan keyin yuechjilar Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylariga joylaShdilar. Yuechjilar sharqiy Turkistondan siqib chiqarilgan ko‘chmanchi qabilalar bo‘lgan. Taxminan m.a. 140 yilda yuechjilar So‘g‘diyona va Baqtriyaga bostirib kirdilar. Xitoyliklarning ma’lumotlariga qaraganda, yuechja qo‘Shinlari 100 mingdan 200 mingtagacha bo‘lgan. Qo‘Shinning asosini chavandozlar taShkil etgan.

M.a. 124-123 yillarda toxirlar o‘zlarining qo‘shnilari parfiyaliklar bilan urush qildilar. Bo‘lib o‘tgan jangda Parfiya xukmdori Artaban og‘ir yarador bo‘ldi. Faqat Parfiyaning keyingi podShosi Mitriadatning tezkor xarakatlari tufayli ular toxirlarni (yuechjilarni) to‘xtatib qoldilar.

Milodiy I asrda beshta yuechjilar qabilasidan biri davlatda xukmdorlikni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Bu qabilaning nomi guyshun (kushon) bo‘lganligi uchun davlat xam Kushon davlati deb atala boshlandi.

Keyinchalik Kushon xukmdorlari o‘z davlatlari safiga butun Baqtriyani va Xindistonning Shimoli-Sharqiy qismini kiritdilar.

KuShon davlatining eng qudratli podshosi Kanishka bo‘lgan (taxminan m.a I asrning oxiri, m.a. II asrning birinchi choragi). Uning xukmdorlik paytida Kushon davlatining chegaralari Markaziy Xindistongacha etdi. Bundan tashqari Kushon xukmdorlari xokimiyati

Farg‘ona va sharqiy Turkiston axolisini tan oldi.

Kushon davlatining tayanchi ko‘psonli va yaxshi qurollangan qo‘shin bo‘lgan. Kushon podSholigi qo‘shini 150-200 ming kishiga teng bo‘lgan degan taxminlar bor.

Sharqiy Turkistonda Xitoy qo‘shinlariga qarshi urush vaqtida 70 minglik Kushon davlati qo‘Shini xarakat qilgan. Qo‘shin otliq va piyoda jangchilardan iborat bo‘lgan, kavaleriya sovutlarda jangga kirgan.

Jangchilar maxalliy qurolsozlik ustaxonalarining maxsulotlaridan foydalanganlar. Uzoqqa zarba beruvchi qurol -kamon bu davrda ancha takomillaShgan.

Suyak va shox plastinalardan yasalgan, beshta butlovchi qismlardan tashkil topgan kamonning murakkab maxsus turi rivojlandi. Bunday qudratli qurolning vatani O‘rta Osiyo bo‘lgan, keyinchalik u Eronga keng tarqaldi.

Keyinchalik kamonning bu turi O‘rta Osiyodan sarmatlargacha, ulardan g‘arbda Shotlandiyagacha, janubda Eron va Xindistongacha, Sharqda Xitoygacha keng tarqaldi. O‘rta Osiyoda yodgorliklarni kovlash ishlari olib borilganda kamonni yasashda iShlatilgan suyak va shox plastinkalar topilgan, ayrim xollarda ishlov berilishi mumkin bo‘lgan kamonning butun boshli konstruksiyasi topilgan.

Kamon o‘qlari yog‘ochdan yoki qamishdan tayyorlangan, ularning uchlari bir necha turli bo‘lib temirdan yasalgan. Ayniqsa uchi o‘tkir va uchta kaftchali uchli o‘qlar keng tarqalgan. Ushbu davrning oxirida murakkab profilga ega bo‘lgan bosh qismli o‘tkir uchli o‘qlar yaratildi.

Jangchilar xanjarlar va qilichlar bilan qurollanganlar. O‘rta Osiyoda milodiy birinchi asrlarda saklar, massagetlar, xorazmliklar va baqtriyaliklarning kalta qilichlari o‘rniga temirdan yasalgan ikki tomoni xam kesadigan uzun Shtangasimon dastali qilichlar (uzunligi 1,2 m) paydo bo‘ldi.

Boshqa qurol turlariga nayza, bolta, palaxmonni misol qilib keltirish mumkin. O‘rta Osiyolik muxandis-fortifikatsiyachilar katta yutuqlarga erishdilar. Bo‘rttirib yasalgan minoralar bilan kuchaytirilgan qal’alarning qudratli devorlari, murakkab darvozalar inshootlari, ko‘plab muxsus tuynuklar-bular xammasi o‘z zamonasining eng yaxshi yutuqlari darajasida bo‘lgan. Qal’alar odatda baland va qalin tashqi devorlar bilan to‘silgan. Tashqi devorlardan tashqari shaxar xukmdorining qo‘rg‘onini ximoya qilib turgan ichki devorlar xam bo‘lgan.

Kushon davlatining inqirozi ko‘p tomonlari bilan grek-baqtriya va Rim davlatining tarixiy taqdiriga o‘xshash. Bu davlatlarning xammasi tarqalib ketishidan oldin cheksiz urushlar olib borishga majbur bo‘lganlar. Tashqi to‘qnashuvlar va ichki
nizolar tufayli kuchsizlanib qolgan bu davlatlar, yangi tashqi dushman bilan kurashish uchun kuch topa olmadilar. Milodiy IV asrda Kushon davlati asosiy xududlaridan maxrum bo‘ldi va bir nechta kichik mulklarga bo‘linib ketdi.

Milodiy IV asrda siyosiy saxnaga eftaliylar qabilasi chiqdi. Ular VI asrning o‘rtalarida mintaqa xayotida xal qiluvchi rol o‘ynadilar.

Eftaliylarning kelib chiqiShlari to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Manbalarda ularning kelib chiqiShlari to‘g‘risida turli xil rivoyatlar keltirilgan. Ayrim olimlar ularning kelib chiqiShlarini turk xalqlari bilan, ayrimlari yuechjilar bilan bog‘laydilar, yana birlari ularni boShqa qabilalar bilan ittifoqdagi Baqtriya-Toxiristonning maxalliy axolisi deb yuritadilar.

Eftaliylar qo‘Shinlari katta kuchga ega bo‘lganlar. Jangchilar gurzilar, kamonlar bilan qurollanganlar, lekin ularning asosiy qurollari o‘tkir qilichlar bo‘lgan. Jang paytida otliqlar xal qiluvchi rol o‘ynaganlar. Eftaliylar jamiyatida Harbiy-qabilaviy demokratiya an’analari saqlanib qolingan. Xukmdorlar o‘z atroflariga yaqinlarini-«birga o‘liShga tayyor»larni yiqqanlar. Agar jangda xukmdor xalok bo‘lsa, uni qo‘riqlab turgan atrofdagilar xam xalok bo‘liShlari kerak bo‘lgan.

Milodiy IV asrda eftaliylar davlati tomonidan yig‘ilgan kuchlar Eron qo‘shinlari bilan to‘qnashdi. Bu qarama-qarshilikning aloxida voqealari Daqiqiy va Firdavsiyning «Shoxnoma» poemasida yozilgan.

Eftaliylar katta xududni bosib olishga muvaffaq bo‘ldilar. O‘rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkiston va shimoliy Xindistonning aloxida viloyatlari ushbu davlatning safiga kirdi.

Eftaliylar Eronning Sharqqa xujumini to‘xtatib qoliShga muvaffaq bo‘ldilar. 453-454 yillarda ular Eron shoxi Ezdigerd II ning qo‘shinini tor-mor etdilar. 457 yilda eftaliylar podshosi Vaxshunvar Chog‘aniyon, Toxiriston va Badaxshonni bosib oldi.

Eron Shoxi Peroz (459-484 y.) eftaliylarga qarshi kurashda o‘z tomoniga xatto vizantiyaliklarni og‘dirib oldi. Lekin u mag‘lubiyatga uchrab, eftaliylarning qo‘liga asirga tuShdi. Katta to‘lovlar evaziga ozod qilingan Peroz eftaliylarga qarshi yana urush boshladi. 484 yilda eftaliylar yana forslarni tor-mor qildilar. Ayrim mualliflarning guvoxlik berishlariga qaraganda eftaliylar jangdan oldin yaxshi niqoblangan chuqur xandaq (ayrim tarixchilarning

fikricha u suv bilan to'ldirilgan)-bo'ri jari (qopqon-chuqurlik) qaziganlar. Peroz Eron qo'Shinlarining katta qismi bilan birga mana shu bo'ri jarida xalok bo'ldi.

Eftaliylar Harbiy qudratining isboti sifatida ularning eronliklarga qarshi muvaffaqiyatli olib borgan urushlari xizmat qiladi. Bir necha marotaba Rim qo'shinlarini tor-mor etgan Eron, O'rta Osiyolik ko'chmanchi eftaliylarning qarshisida qo'rquvdan titrar edi. Lekin keyinchalik eftaliylar davlati Shimoldan turklar tomonidan va janubdan eronliklar tomonidan bir vaqtning o'zida berilgan zarbalarga bardoSh bera olmadi va ularning erlari g'alaba qozonganlarning qo'liga o'tdi.

Turk xoqonligi va ilk o'rta asrlar davridagi O'rta Osiyo davlatlarining Harbiy ishlarida o'tkazilgan isloxotlar. Turk xoqonligining boshlanishi (551-744 y.) 545-547 yillarda Bumin raxbarligidagi qabilalar ittifoqi bilan boshlandi. Yirik davlat - turk xoqonligi g'arbda Dneprdan boshlab, sharqda Amudaryogacha va shimolda Eniseydan to Tibet tog' tizmalarigacha bo'lgan yirik xududda yashagan xalqlarni birlaShtirgan.552 yilda Bumin, Jo'jan podsholigiga qaqshatqich zarba berdi va turklarning jo'janlarga qaramlikliklariga barxam berdi. Uning o'g'li Muxan-xoqon (553-572) turk birlashmasini imperiyaga aylantirdi. To'xtovsiz urushlar va ichki nizolar natijasida xoqonlik ikki qismga-sharqiy va G'arbiy turk xoqonligiga bo'lindi.G'arbiy turk xoqonligi ko'ch-manchilar cho'llarini va O'rta Osiyo shaxarlarining dexqonchilik taraq-qiy etgan o'lkalarini mustaxkam birlashtirdi.

Istami-xoqon (553-576) Markaziy Qozog'iston, Ettisuv va Xorazmni bo'ysundirib, Orol daryosigacha borib etdi. 558 yilda turklar Volgagacha etib bordilar.

Keyinchalik ular eronliklar bilan sulx tuzdilar va birlashib 565 yilda eftaliylarni tor-mor etdilar. Eron bilan turk mulklari o'rtasidagi chegara Amudaryo bo'ylab o'tdi. VI va VII asrning boShlarida O'rta Osiyoning So'g'diyona, Toxiriston (Baqtriya), Farg'ona xududlarida bir nechta yarim qaram bo'lgan davlatlar vujudga keldi, Xorazm va Choch davlatlari mavjud edi. Bu mulklarning ko'pchiligi G'arbiy turk xoqonligining ixtiyoriga o'tdi. Turk xoqonligining yaratilishi va rivojlanishi bilan kavaleriyadagi yangi isloxotlar chambarchas bog'liq, yangi isloxotlarning o'tkazilishi barobarida Evroosiyo cho'llarida qattiq egar-jabduqlar, uzangilar va yangi turdagi chopish qurollarining (uzun to'g'ri shoplar va qilichlar) tarqalishi boshlandi.

Turklarning asosiy mashg'ulotlari ko'chmanchi-chorvadorlik bo'lgan. Ko'chmanchilar jangda o'zlari bilan kamida 2-3 otni olib kelganlar, bu ularning xar birlariga o'zlarining otlari bo'lishini ta'minlagan.

Turklar engilmas jangchi shuxratiga ega bo'lganlar. Turklar armiyasida metin intizom o'rnatilgan, komandirlarning buyruqlari muxokama qilinmagan, qattiq tashkiliy tizim xamma qo'shinda mavjud bo'lgan. Armiya o'n, yuz, ming, o'n minglik bo'linmalardan tashkil topgan, ularning eng yirigi tuman deb atalgan, u o'ng ming degan ma'noni bildirgan va o'zining bayrog'iga ega bo'lgan: bo'rining bosh suyagi yoki boshqa xayvonning tasviriga ega bo'lgan va oltin bilan bezatilgan yog'och dastaga o'rnatilgan ot yoki yovvoyi xo'kizning dumi.

Turk armiyasining asosini a'lo darajada tayyorlangan otliqlar tashkil etgan, ammo uning safida piyodalar xam bo'lgan. Turklarning ekipirovkalari va qurol-yarog'lari quyidagicha bo'lgan: otning tanasi sovut bilan, boshi esa bronza plastina bilan ximoya qilingan. Jangchi plastinali sovut va kolchuga (temir xalqachalardan bir-biriga o'tkazib to'qilgan ximoya kiyimi) kiygan, qo'lida qalqoni va oddiy sovuq qurol xisoblangan uzun va ingichka nayzasi, jangovar bolta va qilichi xamda kamoni bo'lgan.

Turklar armiyasining taktikasi xujumkor xarakatlarga yo'naltirildi. U to'satdan berilajak zarbani qaytarishga doimo shay bo'lgan va o'zi xam ko'p xollarda to'satdan zarba berish omilini qo'llagan. Agar turk jangchilari devorlarning panasida yashirinsalar, xar doim ko'p sonli dozor tayinlaganlar. Turklar qal'alarni qamal qilish texnikasiga ega bo'lmaganlar, lekin shunga qaramasdan shaxarlarni osonlik bilan bosib olganlar. Daryolarni ular kechuv joylaridan suzib o'tganlar yoki sollarda o'tganlar. Ular uxlab yotgan duShmanga tunda yoki tongda xujum qilganlar. Turklar dushman tomonga katta tezlikda ot solishni xush ko'rganlar, dushmanning jangovar tartiblariga yaqinlashishlari bilan orqalariga osilgan o'qdonlardan kamon o'qlarini olib shiddat bilan otishni boshlaganlar.

Tarixchilar turk chavandozlarining yuqori manyovrchanliklarini ta’kidlab, shunday yozganlar: «Qarshilikka duch kelgach ular tomonlarga tarqalganlar, lekin shunday tezlik bilan yana jipslashganlar, oldinga eldek uchib yana tarqalganlar». turklar manyovrni amalga oshira turib, ayrim xollarda qochganlar va dushmanni uzoq masofada ushlab turishga xarakat qilganlar, keyinchalik ularni kamon o‘qlari bilan qirib tashlaganlar.

Bunda ular ortga qolib ketgan dushman otryadlariga va uning arergardiga «asalarilar to‘dasi singari» xujum qilib, asosiy kuchlaridan ajratib qo‘yganlar, ularni yakson qilib, zaxiralarini egallaganlar. G‘animning xujumini qaytarib ular yoppasiga mudofaani egallaganlar yoki o‘zlarining kapalari ortiga yashiringanlar.

Ushbu davrda O‘rta Osiyo jamiyati tizimida er zodagonlari tabaqasi - *dexqonlar* ajralib chiqdi, ularni xaqli ravishda Evropa ritsarlari bilan taqqoslash mumkin. Ular erga, suvga egalik qilganlar va axolining asosiy qismi - jamoachilar dexqonlarga qaram bo‘lganlar. Dexqon qal’alari qishloq joyining o‘ziga xos elementi bo‘ldi. Yaxshi mustaxkamlangan, zabt etib bo‘lmaydigan bu inshootlar o‘zining mudofaa imkoniyatlari bilan erta o‘rta asrlar davrining yuqori rivojlangan fortifikatsiyasi darajasini namoyish etadi. Jamiyatda ritsarlik qonun-qoidalari va Harbiy shon-shuxrat masalalari ishlab chiqildi: xalq og‘zaki ijodining markazida engilmas qaxramon namunasi paydo bo‘ldi, janglar, musobaqalar, ov ularning kundalik mashg‘ulotlari sifatida maShxur bo‘la boshladi.

Bu davrda qurol-yarog‘lar majmuasi va jang olib borish taktikasi ishlab chiqildi, uning markazidan sovutlar bilan ximoya qilingan dexqon jangchilarning og‘ir otliqlari o‘rin egalladi. Dastavval turklarning cho‘lli axolisida joriy qilgan murakkab tuzilishdagi kamonlar takomillashtirildi. Kamon o‘qlarining uzunligi 90 smgacha bo‘lgan, ularning uchlari og‘irlashtirilgan bo‘lib, tom ma’noda ular sovutlar bilan ximoya qilingan otliqlarga qarShi qo‘llanilgan. Bu o‘qlarni o‘qdonlarga solib uchlarini tepaga qilib olib yurganlar. O‘qdon endi kamondondan (*sadoqdan*) ajratildi va o‘ng yonga osib yuriladigan bo‘ldi. Kamondonning ichiga iplari bo‘shatilgan ikkita zaxira kamonlarni solib chap yonga tasmaga taqib yurganlar. Qurol-yarog‘ namunasida saqlanib qolingan kavaleriya nayzalari - piklar zirxni teshib o‘tish uchun og‘irlashtirildi.

Turklar zamonida sanchuvchi-chopuvchi qurollarni tanlaShda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Ikki tomoni o‘tkirlangan qilichlar saqlanib qolindi, shu bilan birga bir tomoni o‘tkirlangan uzun to‘g‘ri qilichlarga o‘tish rejalashtirildi. VII asrga kelib keskir joyi egri qilib yasalgan shamshirlar joriy qilindi.

Jangchilarning ximoya kiyim-boshlarida xam o‘zgarishlar bo‘ldi, an’anaviy plastinkali sovutlar bilan bir qatorda kolchugali kamzullar joriy qilindi. Bu majmua, boshga kiyish uchun temir plastinalardan yasalgan dubulg‘alar bilan to‘ldirildi. Qo‘Shin tarkibiga engil otliq kamonchilar va xalq lashkarlari piyodalari xam kiritildi.

O‘rta Osiyo xalqlari Harbiy san’atining rivojlanishiga xulosa yasab quyidagilarni Ta’kidlash lozim: qo‘shinning asosini otliq jangchilar tashkil etgan, ular g‘animga qarshi o‘ziga xos xarakat taktikasini ishlab chiqqanlar va undan foydalanganlar: «yopirilib» jangga o‘tish; strategik chekinish; dushmanni chalg‘itib «qopqonga» tushirish va pistirmalar yaratish; masofadan turib dushmanga birvarakayiga kamon o‘qlarini yog‘dirish; qanotlar va front ortini o‘rab olish. Mudofaada asosiy e’tibor, fortifikatsiya inshootlari xisoblangan qal’alar va qo‘rg‘onlar Qurishga qaratilgan.

# MAVZU:2-3. Amir Temurning harbiy yurishlari va harbiy san'ati.

Reja

O'quv maqsadlari:

1. Talabalarga Amir Temur XIX-XV asirning buyuk sarkardasi mavzusi bo'yicha nazariy bilim berish.
2. Talabalarga Amir Temurning Harbiy mahorati bo'yicha nazariy bilim berish.
3.Talabalarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

Vaqti:2 soat;
Joyi:O'quv xonasi;
Uslubi: Tushuntirish, so'zlab berish, ko'rsatish;
Shakli: ma'ruza.

O'quv savollari:

1. Amir Temur XIX-XV asirning buyuk sarkardasi.
2. Amir Temurning Harbiy mahorati.

Tayanch suzlar:

Muvarounnahr-Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan xudud;
Seyiston- hozirgi Eron va Afg'onistondagi viloyat;
Arroda-tosh uloqtiruvchi to'p;
Manjaniq- devor buzuvchi moslama.

1.Amir Temur XIX-XV asirning buyuk sarkardasi.

Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida Kesh viloyatining hozirgi Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida yirik barlos begi–amir Muhammad Tarag'ay oilasida dunyoga keldi.

Temurning bolaligi va o'spirinligi KeSh tog'larida o'tdi. Yoshligida u ov va otda musobaqalarni, nayza uloqtiriSh va kamondan otiShni xuSh ko'rardi, harbiy o'yinlarga moyilligi sezilib turar edi. U o'n yoShga to'lgach, Tarag'ayning xizmatida bo'lgan murabbiylar – *otabegilar* Temurni harbiy san'atga va sport o'yinlariga o'rgatdilar. Yoshi ulg'aygach u ko'pchiligi barloslardan bo'lgan bolaligidagi do'stlarini yig'di va yaxshi qurollangan otryad tashkil etdi.

Amir Temur harbiy xizmatni mahalliy hukmdorlarda boshladi. U kichik lekin yaxshi qurollangan otryadga ega bo'ldi, u bilan birgalikda harbiy-taktik tajriba orttirdi. Tez orada Temurbekning jasorati butun Qashqadaryo vodiysida mashhur bo'ldi. Shon-shuhrat Temurbekni Movarounnahrning obro'li amirlari bilan yaqinlashtirdi.

XIV asrning o'rtalarida Chig'atoy ulusi ikkita mustaqil davlatga bo'linib ketdi: bittasi Muvarounnahrda, ikkinchisi esa Mo'g'ulistonda, ikkalasida ham hokimiyat chingiziylarning qo'llarida saqlanib qolindi. Mo'g'uliston Muvarounnahrda hukmronlikni da'vo qilib bosqinchilik siyosatini olib bordi. Muvarounnahrda amirlar o'rtasida doimo uruShlar davom etib turdi, chingiziylarning hokimiyati esa kuchsizlanib qoldi.

1360–1361 yillarda Mo'g'uliston xoni To'qlug' Temur Movarounnahrga bostirib kirdi. U hech qandan qarshiliksiz Qashqadaryogacha etib keldi. To'qlug' Temurning qurolli kuchlari ustunligini hisobga olgan yigirma uch yoshli Temurbek, Mo'g'uliston xoni bilan muzokaralarni olib bordi va uning xizmatiga kirdi. Amir Temur o'zining bu harakati bilan Keshda qon to'kilishini oldining oldi.

Mo'g'uliston xoni Movarounnahrda o'z o'g'li Ilyos Xo'jani hukmdor etib tayinlaganidan keyin Temurbek unga xizmat qilishdan bosh tortdi.

1362–1363 yillarda Amir Temur chingiziylarning amiri Husayn (Qazag'anxonning nabirasi) bilan yaqinlashdi va uning singlisiga uylandi. Ular ikkalasi bir necha bor Ilyos Xo'ja qo'shiniga qarshi harbiy harakatlarni uyushtirdilar. 1364 yilning oxirida ular Ilyos Xo'ja qo'Shinini Movarounnahrdan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. Shu vaqtga kelib amir Husaynning bo'ysunmas hukmdorlar bilan kuraShi kuchayib ketdi, bunda Temurbek unga faol

ko‘maklashdi. Saklar yashaydigan Seyistonga (hozirgi Eron va Afg‘onistondagi viloyat) harbiy yuriShni olib borgan vaqtida Temur o‘ng qo‘li va o‘ng oyog‘idan yaralandi va bir umrga oqsoq bo‘lib qoldi. Shuning uchun uni Temurlang (fors tilidan «Temur cho‘loq») deb atashgan. Evropaliklar uni «Tamerlan» deb yuritganlar, G‘arbda u Shu nom bilan maShhur bo‘ldi.

To‘qlug‘ Temurning o‘limidan keyin Movarounnahrdan haydalgan Ilyos Xo‘ja o‘zining mag‘lubiyatini tan oliShni xohlamadi. 1365 yilda u katta qo‘Shin bilan yana Movarounnahrga qo‘shin tortdi. Ikkala amirlarning xon bilan kurashi 1365 yilning 22 mayida Chinoz yaqinida, Chirchiqning qirg‘og‘ida bo‘lib o‘tdi. Jang paytida Shunaqangi do‘l yog‘diki, hamma yoq botqoqqa aylanib ketdi. Bu jang tarixga «Loy jangi» nomi bilan kirdi. hal qiluvchi vaqtda Husaynning qo‘shini qat’iyatsizlik qildi, jang boy berildi. Temurbek va Husayn qo‘shinining qolgan qismi bilan avval Samarqandga, keyin esa Balx viloyatida yashirindi.

Ilyos Xo‘ja o‘sha muvaffaqiyatidan so‘ng o‘z g‘alabasini mustahkamlash maqsadida Samarqandga yurish qildi. Shahar yana mo‘g‘ullar bosqini xavfi ostida qoldi, Shaharning mudofaasini *sarbadorlar* boshchiligidagi tinch aholi o‘z qo‘liga oldi. Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Xurosonda maydonga keldi. Unda kichik savdogarlar va hunarmandlar ishtirok etganlar, ularning shiorlari quyidagicha bo‘lgan – «mo‘g‘ullarga xizmat qilgandan ko‘ra dorga osilgan ma’qul». Ularning laqablari «sar» –bosh, «dor» – dor, boshini dorga tikkanlar so‘zidan kelib chiqqan.

Samarqandning mudofaasiga Mavlonzoda va boshqalar boshchilik qildi. Aholining hammasi 12 yoshli bolalardan to keksalargacha qo‘liga qurol oldi. himoya taktikasi takomillashgan darajaga etdi. Shaharning bosh ko‘chalari ochiq qoldirildi, lekin ichki ko‘chalar to‘siqlar bilan to‘sildi, tepasida esa zanjirlar tortildi. Qulay joylarda kamonchilarning otishlari uchun tuynuklar yaratildi. Mo‘g‘ullar bir necha bor harakatlanish mobaynida shahar atrofiga yorib kirishga harakat qildilar, lekin katta talofatlar ko‘rib chekindilar. Keyin otliqlar jangga tashlandi, ular o‘zlarining uchqur harakatlari bilan Shahar himoyachilarini esankiratib qo‘yishlari kerak edi. Lekin sarbadorlar esankirab qolmadilar. Ular chavandozlarni tor ko‘chalarga kiritdilar, keyin esa to‘satdan ularga o‘q yomg‘irini yog‘dirdilar, toshlar va yog‘ochlar bilan ularga zarba berdilar. Mo‘g‘ullar chekinishga majbur bo‘ldilar. O‘lat vabosi tarqalib, ular otlarining katta qismidan mahrum bo‘ldilar.

1366 yilning bahorida sarbadorlar rahbarlarining orasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganidan foydalangan Temur, Husayn bilan birga Samarqandga etib keldi va sarbadorlar o‘rtasida tartibbuzarliklarni chiqarganlarning ustidan sud o‘tkazdi. Shunday qilib, Husayn va Temur Samarqandning va butun Movarounnahrning to‘liq hukmdoriga aylandilar.

Husayn mamlakatning yo‘lboshchisiga aylandi, Temur esa uning o‘ng qo‘li bo‘ldi. Lekin tezda ularning munosabatlari keskinlashib ketdi. Husayn Amir Temurning harbiy boshliqlaridan katta tovonlarni to‘lashni talab qilib qoldi va yangi istehkomlarni qurib Balxni mustahkamlay boShladi. Temur janubga Qashqadaryodan Termizga, Amudaryo bo‘ylariga tushdi, daryoni kechib o‘tib 1370 yilda Balx Shahrini bosib oldi.

Husaynning ustidan qozonilgan g‘alabadan keyin Temurbek Movarounnahrning hukmdorlari o‘rtasida boshliq bo‘ldi. Balx egallangandan keyin vazirlar, beklar va armiya qo‘mondonlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qurultoyda Temurbek Movarounnahrda cheksiz hokimiyatga ega shaxsga aylandi.

Shu yili Amir Temur poytaxtni Keshdan Samarqandga ko‘chirdi va tez orada mustahkam devorlar va qal’alar qurdira boshladi. Davlatni boshqarish bilan birga u harbiy yurishlar tashkil etib, Movarounnahrdagi –Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi erlarni, Farg‘ona va shosh viloyati erlarini o‘z davlati tarkibiga kiritdi.

Amir Temurning keyingi asosiy vazifasi Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatni barpo etish, uning xavfsizligini Ta’minlash va yangi erlarni o‘z davlati tarkibiga qo‘shishdan iborat edi.

Amir Temur Kepakxonning davridan amal qilib kelingan ma’muriy tizim–tumanlarga bo‘linish, ya’ni o‘ng minglik qo‘shinni etkazib berish qobiliyatiga ega bo‘lgan viloyatlar tizimini saqlab qoldi. Amir Temur davrida Samarqand viloyati ettita tumandan iborat bo‘lgan.

Markazlashgan davlat hokimiyatining asosiy tayanchi, davlat chegaralari barqarorligini va yangi erlarni zabt etish quroli bo‘lib xizmat qilgan harbiy kuch hisoblandi.

Amir Temur armiyasi markazlashgan va o‘ta intizomli bo‘lib, o‘ng ming, ming, yuzlik va o‘nliklarga bo‘lingan edi. har bir o‘nlik o‘z komandiriga ega bo‘lgan, har o‘nta o‘nlikning komandirlaridan bittasi yuzlikning komandiri etib tayinlangan va hokazo. Har bir qo‘shin bo‘linmasi safarda ham, lagerda turganda ham o‘z o‘rnini va vazifasini yaxshi bilgan. hech kim o‘z o‘nligidan, yuzligidan, mingligidan yoki o‘n mingligidan boshqa yoqqa ketishga haqqi bo‘lmagan.

2. Amir Temurning Harbiy mahorati.

Armiyaning asosini Amir Temurning avlodlari, ya’ni barloslar tashkil etgan, ulardan katta-katta qo‘shin birlashmalarining qo‘mondonlari tayinlanib, ular jangda muvaffaqiyat va mag‘lubiyatlar uchun javobgar hisoblanganlar.

Chig‘atoylardan ishonchli gvardiyani, tom ma’noda barloslar avlodidan tashkil etish muhim ish bo‘lib hisoblandi. Gvardiya katta imtiyozlarga ega bo‘lib, davlatning tayanchi bo‘ldi. Uning yordami bilan Amir Temur Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi erlarni hamda Farg‘ona va hozirgi Toshkent viloyatidagi hududlarni birlashtirdi.

Lekin hali ham Mo‘g‘uliston tomonidan solinib turgan xavf-xatar tugagan emas edi. Mo‘g‘ullarning *Oltin O‘rdasi* ham mavjud bo‘lib, u ham *Oq O‘rda* singari Jo‘chi ulusining bir qismi edi. O‘sha paytda Amir Temur davlati bilan Oltin O‘rda o‘rtasida Xorazm joylashgan bo‘lib, u qadimdan Movarounnahr bilan umumiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Mo‘g‘ullar davrida Xorazm ikki bo‘lakka bo‘lingan edi: markazi Urganch bo‘lgan Shimoliy Xorazm – Oltin O‘rda safiga kirgan, poytaxti Kat hisoblangan Janubiy Xorazm – Chig‘atoyning ulusiga tegishli bo‘lgan. XIV asr 60 yillarining boshlarida Xorazmning ikkala qismi ham So‘filar sulolasidan etishib chiqqan mahalliy hukmdor Husayn tomonidan birlashtirildi (1361–1372).

Amir Temur davlatining asosini Movarounnahr tashkil etgan bo‘lsa ham, ayrim amirlar uning hukmdorligini qonuniy deb tan olmadilar, chunki ular chingiziylarga qarashli edilar. Davlatning shimoliy va sharqiy chegaralariga doimo mo‘g‘ullar va Oq o‘rda hujum qilib turdi. Ayniqsa bundan sharqiy Farg‘ona va O‘tror, Yassi (Turkiston) i Sayramning cho‘lli chegara hududlari katta azob-uqubatlar chekdi. 1370–77 yillarda Mo‘g‘uliston hukmdori amir Qamariddin (Ilyos Xo‘janing o‘g‘li) bir necha marta Toshkent va Andijonga hujum qildi. 1376 yilda esa u Farg‘ona vodiysining katta qismini bosib olishga muvaffaq bo‘ldi va shahar-qishloqlarni vayronaga aylantirdi.

Bu hol Amir Temurni Mo‘g‘ulistonga qarshi ketma-ket bir nechta harbiy yurishlarni amalga oshirishga majbur etdi. Bu yurishlar natijasida davlatning sharqiy chegaralari xavfsizligi ta’minlandi va uning hududlari Guljgacha kengaydi. 20 yil ichida (1370–1390) Amir Temur hammasi bo‘lib Mo‘g‘ulistonga etti marta harbiy yurish uyuShtirdi.

Xorazmni o‘z davlatining ajralmas qismi deb hisoblagan Amir Temur, Xorazmga beshta yuriShni amalga oshirdi. Birinchi yurish 1371 yilda Kat shahrini egallanishi bilan tugadi. 1373–1375 yillarda uyushtirilgan ikkinchi va uchinchi yurishlar muvaffaqiyatsiz tugadi. Xorazm hukmdori Yusuf So‘fi 1376 yilda o‘z qo‘shini bilan bostirib kirib Buxoro va uning atroflaridagi shaharlarni taladi. Xorazmga navbatdagi yurish 1379 yilda amalga oshirildi. Jang paytida evropalik ritsarlar musobaqalariga o‘xshash manzara bo‘lib o‘tdi. Yusuf So‘fi Amir Temurni yakkama-yakka kuraShga chaqirdi, Amir Temur bu taklifni qabul qildi va qal’aning yaqiniga kelib raqibini chaqirdi, lekin u so‘zida turmay kurashga chiqmadi.

Shundan so‘ng Amir Temurning jangchilari jangni boshladilar va shaharni egalladilar. Xorazm hukmdori mag‘lubiyatini tan oldi va Amir Temur bilan sulh tuzdi. 1388 yilda Oltin O‘rda xoni To‘xtamish qo‘shinining bir qismini Xorazmga qoldirdi. Bu hol Amir Temurni navbatdagi–beshinchi yurishni uyushtirishga majbur etdi. Ushbu harbiy yurishdan keyin Xorazmning butligi tiklandi va u Amir Temur mulkiga kiritildi.

O‘z davlatini mustahkamlab, Amir Temur qal’alarni mustahkamlashga katta e’tibor berdi. 1380 yilning bahorida Amir Temur shahrisabz atrofida qal’a devorlarini qurdirdi.

Movarounnahrning mustaqilligiga ikkita mo‘g‘ul davlatlari Oq O‘rda va Oltin O‘rda katta xavf solib turardi, ayniqsa ularning yagona bir davlatga birlashishi ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun Amir Temur Jo‘chi ulusida bo‘layotgan hodisalarni diqqat bilan kuzatib turdi va ularning birlashishlariga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi va har qanday qulay vaziyatdan o‘z manfaati uchun foydalandi. Oq O‘rda taxtiga o‘z odamini qo‘yishi kerak edi.

1376 yilda Amir Temur Oq O‘rda va Oltin O‘rdani birlashtirishga harakat qilganligi uchun, Oq O‘rda xoni O‘risxon tomonidan qatl etilgan Tuy hoji O‘g‘lonning o‘g‘li To‘xtamish o‘g‘lonni qo‘llab-quvvatlay boshladi. Amir Temur To‘xtamishga katta sovg‘a-salomlar in’om etdi va Sabran viloyati va Signak shahrini unga berdi. 1377-yilda Dashti-Qipchoqqa uyushtirilgan yurishidan keyin va O‘risxon olamdan o‘tganidan keyin Sohibqiron Oq O‘rda taxtiga To‘xtamishxonni o‘tqazdi. Lekin keyinchalik To‘xtamiSh Amir Temurga xoinlik qildi, u O‘risxonning izidan bordi. 1380 yilda To‘xtamish, rus qo‘shinlaridan chekkan mag‘lubiyatidan kuchsizlanib qolgan (Kulikovo jangi) Mamayxonni tor-mor etdi va Oltin O‘rda taxtini egaladi. SHunday qilib, u Oq O‘rda va Oltin O‘rdani birlashtirdi. Keyingi voqealar shuni ko‘rsatdiki, To‘xtamiSh Amir Temurning ashaddiy dushmaniga aylanib qoldi.

Amir Temur davlatining yaratilishi. Movarounnahr va Xorazm erlarini birlashtirishni oxiriga etkazgach, Amir Temurning keyingi bosh vazifasi, avval uchta g‘arbiy mo‘g‘ul uluslariga qarashli bo‘lgan hududlarda yagona davlatni barpo etishdan iborat bo‘ldi. 1380 yilga kelib unga tobe bo‘lmagan ulus, Eronni o‘z safiga olgan Xulagid ulusi edi xolos.

Janubiy viloyatlarni zabt etish Xurosonga yurish bilan boshlandi. Xurosonning poytaxti hirot muhim harbiy-strategik ahamiyatga ega edi. 1381 yilda Amir Temurning qo‘shini hirot, Tus, Kelat va Sabzavor shaharlarini egalladi. 1382 yildan 1385 yilgacha Amir Temur Xurosonga, Mazandaronga, Shimoliy Eronga (Sultoniya Shahrigacha) va Ozarbayjonga bir–nechta yangi harbiy yuriShlarni amalga oShirdi.

Bu yuriShlar natijasida Amir Temur davlati tarkibiga Xuroson, Afg‘oniston, Seiston, Mozandaronning bir qismi, Eronning Shimolidan Sultoniyagacha bo‘lgan hududi kiritildi.

Erondagi Xulagid ulusining qolgan-qutganlarini tugatish maqsadida Amir Temur 1386 yilda o‘zining uchta katta, uzoq muddatli yurishlaridan birinchisi hisoblangan uch yillik harbiy yurishini boshladi. O‘z harakatlari bilan Amir Temur Eronni mo‘g‘ullar tomonidan yangitdan bosib olinishini oldini oldi, chunki 1386 yilning boshida To‘xtamish 90 minglik qo‘shini bilan Darband orqali Tabrizga keldi va Ozarbayjon Shaharlarini vayronaga aylantirdi va Eronga xavf soldi. Uch yillik harbiy yurishlar davomida (1386–1388 y.) Ozarbayjon va Fors (Erondagi viloyat) ishg‘ol etildi. Amir Temurning qo‘shini Eronning shimoliy erlarini, Armanistonni, Van ko‘ligacha bo‘lgan erlarni bosib oldi.

Sheroz (Fors viloyatining poytaxti) shahrida turgan Amir Temur, To‘xtamishning Movarounnahr hududlariga bostirib kirgani, hamda Sayram va Toshkent shaharlarini Mo‘g‘uliston qo‘shini tomonidan talanganligi to‘g‘risida xabar oladi.

1388 yilning boshida Amir Temur shoshilinch ravishda Movarounnahrga qaytdi. Shu yili To‘xtamishning qo‘shini Xorazmda tor-mor etildi, Xorazm butunlay Amir Temur davlati tarkibiga kiritildi.

1389 yilning yozida Sohibqiron Mo‘g‘ulistonga yurish uyushtirdi. Bu yurishdan Amir Temur 1390 yilning boshida qaytdi, Mo‘g‘ulistonning qudratiga ancha putur etkazildi.

1389 va 1391 yillarda Amir Temur ikki marta Oltin O‘rdaning xoni–To‘xtamishga qarshi yuriShni amalga oshirdi. 1391 yilda Volgabo‘yi cho‘llarida, hozirgi Samara bilan Chistopolning o‘rtasida joylashgan Qunduzcha degan joyda u To‘xtamishga qaqshatqich zarba berdi.

1392–1396 yillardagi besh yillik urush paytida Eronga va Iroqning Fors qismiga harbiy yurish amalga oshirildi. Amir Temurning qo‘shini 1392 yilning iyunida Samarqanddan chiqib ketdi. Fors, Iroq va Gruziya orqali o‘tib u qo‘zg‘olonchi shohlarni tartibga soldi. Uni davlatining g‘arbiy chegaralari Suriyaga va kichik osiyoga etdi. Endi Amir Temur davlatining poytaxti bilan yangi g‘arbiy chegaralar oralig‘igacha bo‘lgan masofa 5 ming kilometrni tashkil etdi.

Ushbu harbiy yurish paytida u yana bir bor o‘zining ashaddiy dushmani To‘xtamish bilan to‘qnashdi. Uning harakatini to‘xtatib qolish maqsadida Amir Temur qo‘shini shimoliy Kavkaz hududiga etib keldi. Ikkala armiya 1395 yilning aprelida Terek daryosi bo‘yida to‘qnashdilar. shu erda bo‘lib o‘tgan jangda Oltin O‘rda armiyasi tor-mor etildi. To‘xtamish qochishga va yaShiriniShga ulgurdi. Amir Temurga Volgabo‘yiga, Oltin O‘rdaning poytaxti Saroy Berkaga yo‘l ochildi. Volganing qirg‘og‘i bo‘ylaridagi, shimoliy Kavkazdagi, Qrimdagi, hamda dengiz bo‘yidagi shaharlar bosib olindi. Oltin O‘rdaga qarshi olib borilgan kurash shu tariqa tugadi.
Amir Temur tomonidan Oltin O‘rda xoni To‘xtamishning tor-mor etilishi rus knyazlarining taqdiriga, ularning mo‘g‘ullar qulligidan butkul qutulishlarida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Sohibqironning Forsga, Iroqqa va qipchoq cho‘llariga besh yillik urushi davlatning hayotiy manfaatlarini va savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minladi, Kavkazdan Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan hududlarni zabt etilishiga olib keldi. Besh yillik yurishdan Amir Temur 1396 yilning avgustida qaytib keldi.

Besh yillik yurish davomida erishgan ajoyib g‘alabalardan keyin 1398 yilning martida Amir Temur 90 mingdan ortiq qo‘shin bilan Hindistonga harakatlandi. Hindiston yurishi 1398 yilning dekabrida Dehli sultoni Mahmud qo‘shinining tor-mor etilishi bilan tugadi.
1399 yildan Amir Temur katta urushga tayyorgarlik ko‘ra boshladi va uni G‘arbda olib borishni rejalashtirdi. Avvalom bor, u Kichik Osiyoda usmoniylarning mulklarini bosib olishni va Suriyada Misr mamluklarini tobe qiliShni ko‘zda tutdi.

Etti yillik uruSh (1399–1404 y.) Amir Temur olib borgan urushlarning eng yirigi bo‘ldi. Uning natijasida Suriyaning katta shaharlaridan Xaleb (Aleppo), Kumis, Balbek, Damashq, Bog‘dod va Kichik Osiyoning katta qismi buysundirildi. Shu vaqtda Amir Temur qo‘shinlarining Gruziyaga hujumi amalga oshirildi.

Shu vaqtga kelib usmoniylar davlatini ichki nizolar va tobe etilgan xalqlarning qo‘zg‘olonlari holdan toydirib bo‘lgan edi, salbchilarning va G‘arbiy Evropa hukmdorlarining uruShlari ham ularni kuchsizlantirib yubordi.

Etti yillik uruSh paytida Amir Temur, o‘rta asrlar davrining yirik sarkardasi bo‘lgan sulton Boyazid qo‘mondonligidagi turk-usmoniylari qo‘Shinlari ustidan g‘alabaga eriShdi. 1402 yilning iyulida Anqara yaqinidagi jangda u sulton Boyazidning armiyasini tor-mor etdi.
Butun Evropa bo‘lajak bu yirik jangning natijasini diqqat bilan kuzatardi. Gap shundaki, XIV asrning o‘rtalaridan evropaliklar qudratli turk ekspansiyasiga qarshi hech qanday qarshilik ko‘rsata olmadilar. Usmoniylar Frakiyani, Bolgariyani, Valixiyani, Makedoniyani, Serbiyani egalladilar, Yunonistonga yorib kirdilar, Konstantinopolni qamal qildilar. Germaniya, Fransiya va Vengriyaga katta xavf tug‘ildi. Bu xavfni oldini olish uchun ushbu davlatlarning birlashgan kuchlari turklarga qarshi salb yuriShini boshladilar. Tish-tirnog‘igacha qurollangan german, fransuz, polyak, venger jangchilari bilan sulton Boyazid Yildirim boshliq turk askarlari o‘rtasidagi jang 1396 yil 25 sentyabrda Bolgariyaga qarashli Nikopol Shahri yaqinida bo‘lib o‘tdi. Bu jangda salbchi ritsarlar tor-mor etildilar. Lekin baribir Evropa uchun umid yulduzi charaqlaganday bo‘ldi. Sharqdan usmoniylar imperiyasiga sarkarda Amir Temur boshchiligidagi katta otliqlar armiyasi yaqinlashib kelardi. Temur saroyiga xristian hokimlarining elchilari usmoniylarga qarshi kurash uchun yordam so‘rab yugurgilab qoldilar.

Turk qo‘shinlarining Anqara yaqinidagi mag‘lubiyati usmoniylar imperiyasining markazlaShuv jarayonini ancha vaqtga to‘xtatib qo‘ydi, turklarni Vizantiyani bosib olishlarini 50 yilga ortga surdi va Evropaga ularning hujumlarini ancha kechiktirdi
Amir Temur 1405 yilning boshida 200 minglik katta qo‘shin bilan Xitoyga yurish boshladi. 1405 yilning yanvarida armiya O‘tror qal’asiga etib keldi. Bu erda Amir Temur betoblanib qoldi va 1405 yilning 18 fevraliga o‘tar kechasi olamdan o‘tdi.

Amir Temurning harbiy yurishlaridan asosiy maqsadi – markazlashgan davlat barpo etishdan, o‘z davlati va xalqini tashqi dushmandan asrashdan, aholini tinch hayotini ta’minlaShdan iborat edi. Uning g‘olibona yurishlari, markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan, savdo yo‘llari xavfsizligi ta’minlangan yirik imperiyaning tashkil etilishiga olib keldi.

O‘rta Osiyo va Egey daryosining g‘arbigacha bo‘lgan ulkan hudud Amir Temur davlati tasarrufiga kirdi. Sharqning ikkita yirik imperiyasi, Turkiya va Misr buyuk sarkardaga tobe bo‘ldi.

Amir Temurdek daho mahorati oldida bosh egib, uning harbiy san’ati, ya’ni strategiyasi va taktikasidan haqli ravishda mag‘rurlanamiz. harbiy san’at unga buyuk sarkarda shuhratini keltirdi. Uning janglari jahonning ko‘pgina harbiy akademiyalarida o‘rganiladi. Amir Temur buyuk hukmdor, tashkilotchi va ajoyib shaxs bo‘lgan.

U baland bo‘yli, keng elkali, kallasi katta, ser qosh, ser soqol bo‘lgan, oyoq-qo‘llari uzun, baland ovozli, qudratli kuch va jasurligi bilan ajralib turuvchi, o‘limga tik boquvchi inson bo‘lib, umrining oxirigacha tiniq xotirasini saqlab qolgan. U bolaligidan turk va fors tillarini bilgan, mazmunli va qiziqarli so‘zlay olgan, mutola eshitishni xush ko‘rgan. U harbiy taktika va strategiya bo‘yicha, turklar, arablar, eronliklar tarixi to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lgan. Foyda keltiradigan hamma fanlar –tibbiyot, astronomiya, matematika, arxitekturani qadrlagan.

Temuriylar davlatida ma’naviy madaniyatning hamma javhalari misli ko‘rilmagan darajada yuksaldi. Ushbu davrda fan va adabiyot, arxitektura va shaharchilik (shahar qurish), xalq an’analari va urf-odatlari, bayramlar, sport o‘yinlari shunday rivojlanib ketdiki, u to‘liq asos bilan *Sharq Renessansi* nomini oldi va jahon madaniyatining keyingi rivojlanishiga turtki berdi. Temuriylar davlatida fan va madaniyatning yuqori darajada rivojlanishi turli maorif markazlarini yaratiShga va kengaytirishga imkon berdi.

Amir Temur Samarqandni o‘z davlatining poytaxtiga aylantirdi, u erda Xorazm, Isfaxon, Sheroz, Xaleb, Tabriz va boshqa shaharlarning ajoyib saroylar, machitlar va maqbaralarni quriSh bilan band bo‘lgan ustalarini ko‘rish mumkin edi. Samarqand Amir Temurning rejasiga ko‘ra davlatning poytaxti bo‘lib, er sharining eng chiroyli shahriga aylanishi kerak edi. Undan 150 yil oldin Chingizxon tomonidan shahar buzib tashlangan bo‘lib, shu davrgacha yirik qurilish ishlari olib borilmagan edi. Amir Temur davrida Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi. Uning hukmdorligi davrida Samarqandda Ko‘k saroy, bog‘lar va shahar atrofida saroylar, jome’ machiti, alohida maqbaralar, jumladan shohi-zinda ansambli qurildi va Go‘ri-Amir maqbarasining quriliShi boshlandi. Yo‘llar o‘tkazildi, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari ustida ko‘priklar qurildi va kanallar o‘tkazildi. O‘z zamonasining misli ko‘rilmagan darajada shaharlar, qishloqlar, hammomlar va maqbaralarni qurish ishlari keng miqyosda boshlab yuborildi. Samarqand atrofida jahonning mashhur shaharlarining nomlari bilan ataluvchi – Misr (Qohira), DamaShq, Bog‘dod, Forish (Parij), Sultoniya, sheroz kabi bir qancha aholi punktlari barpo etildi. Ko‘psonli asirlarning oralaridan olimlar, madaniyat arboblari, to‘qimachilar, tosh uymakorlari, naqqoshlar, duradgorlar, qurolsozlar, rassomlar Samarqandga olib keltirildi. Buxoro, Kesh (Shaxrisabz), Yassi (Turkiston) Shaharlari yangi binolar bilan bezatildi. Amir Temur KeShda Oqsaroyning peShtoqida «Kimki bizning kuch-qudratimizni ko‘rmoqchi bo‘lsa, biz qurgan binolarni ko‘rsin» deb yozib qo‘yishni amr qilgan.

U turk harbiy zodagonlarining vakili bo‘lib, o‘zini doimo islom diniga masub ekanligini ta’kidlagan. Davlat siyosatchisi bo‘la turib ruhoniylar bilan do‘stona aloqalarni saqlab qoldi, o‘zining yonida ruhoniy Shayxni olib yurgan, u jangdan oldin Amir Temurning g‘alabasi uchun duo qilgan. Lekin Amir Temur siyosiy hisob-kitoblarni baland qo‘ygan. Shuning uchun u, ham sunilarni, ham shiyilarni manfaatlarini ko‘zlagan, so‘filarni himoya qilgan.

Armiyaning tashkil etilishi va tuzilishi. Jangovar tartib va jang taktikasi. harbiy quriliSh borasida Amir Temur o‘z zamondoShlaridan o‘zib ketdi, armiyani yaratish va takomillashtirish tizimini iShlab chiqdi va amalga oShirdi.

Sohibqiron qo‘mondonlik safiga yuqori talablarni qo‘ygan. U qo‘mondonlik safining doimo o‘zlarining jangovar, ma’naviy psixologik sifatlarini doimo takomillashtirishini kuzatib borgan.

Amir Temurning Shaxsan o‘zi sarkardalarni tanlagan va tarbiyalagan. O‘n begilar, yuz begilar, ming begilar va tuman begilarni to‘g‘ri tanlash armiyaning jangovar muvaffaqiyatini aniqlab bergan. Amir Temur tajribali jangchilarga alohida e’tibor bergan. Ko‘pgina yirik janglarda

ishtirok etgan va harbiy harakatlarni oʻzining asosiy mashgʻuloti deb bilgan tajribali jangchilar safardan oldin bir joyga yigʻilgan. Ular davlat maoshlarini oluvchilar roʻyxatiga kiritilgan.
QoʻShin oʻnlikka, yuzlikka, minglikka va oʻn minglikka (tumanga) boʻlingan. Iste'dodli harbiy boShliqlarni tanlashga katta e'tibor berilgan.
Amir Temur turli unvondagi harbiy boshliqlardan jasurlik, sezgirlik, topqirlikni talab qilgan.

Har bir harbiy boshliq oʻzining oʻrinbosariga ega boʻlgan. Agar harbiy boshliq safdan chiqsa uning oʻrnini oʻrinbosari (*noibi*) egallagan.
Amir Temur katta jasoratlari uchun turli xil ragʻbatlantirishlardan foydalangan. Uning «*Tuzukot*»ida: «Men, dushmanning podsholigini zabt etganligi yoki uning armiyasini tor-mor etganligi uchun amirlarga uch turdagi mukofotni oʻrnatdim, unga «qoʻrqmas» unvonini berdim... Men uni oʻzimning kengashimga kirishiga ruxsat berdim va keyinchalik chegarboʻyi viloyatlaridan birini boshqarishni topshirdim.

Qandaydir bir shahzodaning qoʻshini ustidan gʻalaba qozongan amir xuddi shunday mukofotga sazovor boʻladi».
Amirdan unvoni kichik boʻlgan boshqa komandirlar uchun ham har xil moddiy va ma'naviy mukofotlar belgilangan.

Boshliqlarni tanlashga Amir Temur katta e'tibor bergan. «Hukmdorligi – degan edi u – qamchi va tayoqdan past boʻlgan boshliq unvonga munosib emas». Oʻnliklar oʻn begilar tomonidan tanlangan, yuzliklar, mingliklar va yuqori boshliqlar qoʻmondon tomonidan tayinlangan.

Amir Temur qoʻshinining asosini koʻchmanchi qabilalar tashkil etib, ular otliqlar va kamonchilarni etkazib bergan. Oʻtroq xalq armiyaga piyodalarni va yordamchi xoʻjaliklar uchun ishchilarni va shaharlarni qamal qilish uchun jangchilarni, ya'ni katapultalarni ishlatuvchi, taranlarni uruvchi, yonib turgan kamon oʻqlarni va neft aralaShmasidan tayyorlangan yonuvchi granatalarni  otuvchi askarlarni etishtirib bergan.

Amir Temur armiyasidagi jangchilarga doimiy maoshlar toʻlangan. Maoshning hajmi xizmatni qanday olib borilishiga bogʻliq boʻlgan. Oddiy askar 2 tadan 4 tagacha otning bahosiga teng boʻlgan maoshni, oʻn begi – oʻz oʻnligining maoshiga teng miqdordagi maoshni olgan (Shuning uchun u oʻz jangchilarining yuqori maoshga erishishlariga manfaatdor boʻlgan); yuz begiga oltita oʻnlikning maoshiga teng miqdordagi maosh toʻlangan va hokazo. Intizomiy jazolarning turlaridan biri maoShning oʻndan bir qismini ushlab qolish boʻlgan.

Armiyada engil piyodalar ham boʻlib, ular safarda otlarda harakatlanganlar, jang olib borishda esa, arablarga oʻxshab kamondan nishonni bexato urish uchun otlardan tushib piyoda holda jang qilganlar. Piyoda jangchi qilich, 30 ta oʻqqa ega boʻlgan kamon bilan qurollangan. Engil piyodalar baland pastliklarda harakatlanish va shaharlarni qamal qilish uchun qoʻllanilgan. Bundan tashqari Amir Temur togʻlarda harakatlaniSh uchun maxsus otryadni (togʻ piyodalarini) tashkil etgan.

Qoʻshin qat'iy tashkiliy tizimga va aniq saflanish tartibiga ega boʻlgan. har bir jangchi oʻz oʻnligidagi joyini biliShi, har bir oʻnlik yuzlikdagi joyini biliShi kerak boʻlgan va hokazolar. Harbiy qismlar saflarda yaxshi harakatlana olganlar va anjomlari, kiyim-boshlari va bayroqlarining rangi bilan bir-birlaridan ajralib turganlar.

Ayrim otryadlar otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Amir Temur davrida harbiy yuriShdan oldin koʻriklar oʻtkazish toʻgʻrisidagi qonun ogʻishmasdan bajarilgan.

Jang uchun katta va tekis maydon tanlangan, bunda suvning va otlar uchun em-xashakning yaqin boʻlishiga, quyoshning oʻz jangchilarining koʻziga tushmasligiga katta e'tibor berilgan. Jangovar tartib front, ayniqsa chuqurlik boʻylab yoyilgan. Markazni kuchsizlashtirish hisobidan, dushmanni qurshab olish vositasi hisoblangan qanotlar kuchaytirilgan. hal qiluvchi zarbani berish uchun Amir Temur kuchli zaxirani yaratgan.

Yirik janglar davrida rang-barang jangovar bayroqlar bilan bezatilgan Bosh Qoʻmondonning chodiri (*bargoh, saroparda*) jangni boshqarish oson boʻlishi uchun balandlikda oʻrnatilgan. Odatda Bosh Qoʻmondonning chodiri oldida harbiy orkestr uzluksiz chalib askarlarning jangovar ruhlarini koʻtargan.

Jangni qo‘riqlov xizmatini bajarayotgan engil otliqlar, yoki avanpostda turgan engil qo‘shinlar o‘qlarni otib, drotiklarni uloqtirib boshlaganlar, keyin avangard jangga kirgan. Ularni qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘lgan paytda jangga o‘ng qanot avangardi (*Shaqovul*), keyin chap qanot avangardi (*chapovul*) kirgan; agar yana madad kuchlari kerak bo‘lib qolsa jangga o‘ng qanotning chap tomon yarmi va chap qanotning o‘ng tomon yarmi kiritilgan; ularning kuchlari etarli bo‘lmasa jangga ikkala qanotning qolgan qimslari kiritilgan va vaziyat to‘g‘risidagi axborot Amir Temurga etkazilgan. Agar mana shu kuchlar ham etarli bo‘lmasa qo‘mondonning Shaxsan o‘zi (*amiri lashkar*) bosh kuchlari (*qo‘l*) bilan, ya’ni zaxira bilan, to‘qqizinchi hujum g‘alaba keltiriShiga komil-ishonch bilan jangga tashlanishi kerak edi. «To‘qqizinchi hujum – degan edi Amir Temur – g‘alaba keltiradi».

Jang maydonidan dushmanning chekinish alomatlari sezilsa, uni ta’qib etish va to‘g‘ilicha tor-mor qilish uchun chavandozlar otryadi ajratilgan.

Amir Temur qo‘shini to‘g‘ri safga va bir nechta jangovar chiziqqa ega bo‘lib, ular birin-ketin jangga kiritilgan, va oxirida ketma-ket hujumlar bilan dushman holsizlantirilganidan va kuchsizlantirilganidan keyin eng yaxshi jangchilardan tashkil topgan, doimo g‘alabani ta’minlovchi qudratli zaxira jangga kiritilgan.

Chekinib, mustahkamlangan inshootlarda yashiringan g‘anim qamal qilingan. Qal’alarning qalin devorlari oldida devor buzuvchi (*manjaniq)* va tosh uloqtiruvchi (*arroda*) to‘plar o‘rnatilgan. To‘plar (ra’d) harakatga keltirilgan. Devorlar va minoralarning ostidan erto‘lalar kovlangan. Devorlarda bo‘shliqlar hosil qilingan. Shu bo‘Shliqlardan jangchilar quyundek qal’a ichiga bostirib kirganlar. Shturm davrida himoya qalqonlaridan (to‘ra), Shotilar, halqalar, arqonlar va boshqalardan foydalanilgan.

Amir Temur armiyasida kavaleriya hujumining tashkil etilishi va uning strategiya va taktikasi o‘zining takomillashgan darajasiga etdi. Amir Temur armiyasida muhandislik qismlari va bo‘linmalarining birinchi namunalari bo‘lib, ularga katapultalar, neftdan tayyorlangan yonuvchi moddani uloqtiradigan va qal’a devorlarini portlatuvchi moslamalar kirgan. Uning armiyasida o‘sha vaqtning eng zamonaviy texnikalari–qamal qilish texnikasi, yonib turgan neft to‘ldirilgan xurmachalarni uloqtiruvchi ballistalar qo‘llanilgan. Amir Temur qo‘shinida daryolardan kechib o‘tishni ta’minlovchi mutaxassislar–pontonchilar ham bo‘lgan. Fan va texnikaning yutuqlari, ayniqsa Xitoy texnikasining yutuqlari keng foydalanilgan.

Amir Temur o‘z armiyasining tashkiliy-shtat tizimini takomillashtirdi. «*Tuzokot*»da qo‘shinning jangovar tartibi yoritib berilgan: «Agar dushman armiyasi o‘n ikki mingdan oshsa, lekin qirq mingga etmasa, qo‘shinga qo‘mondonlik baxtli o‘g‘illarimdan biriga topshirilishi mumkin va uning qo‘l ostiga ikkita qo‘mondon, yuz kishilik, o‘ng ming kishilik otryadlari bilan bir nechta amirlar belgilanib, qo‘shinning umumiy soni qirq mingtaga etkaziladi».




Qo‘shinning saflanish tartibi.

Sohibqironning qoidasiga ko‘ra, yaxshi boshliq, g‘anim otryadining sonini bilgach, unga qarshi o‘z otryadlarini qarshi qo‘ya olishi, dushman harakatlarini kuzatishi, uning o‘qchilari, nayzachilari, qilichchilarining holati qanaqa ekanligini, ular tezkorlik bilan yoki sust hujum qilyaptimi, hammasi birgalikda hujumga o‘tdimi yoki qismlarga bo‘linibmi, bularning hammasini bilishi kerak, jang maydoniga hujum uchun kirishi yo‘llarini, kerak bo‘lganda chekinish yo‘llarini bilishi va dushmanning maqsadini anglab etishi va uning jangovar tartibiga yorib kirishga harakat qilishi kerak. U pistirmaga tushib qolmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilishi, jangning butun mohiyatini tushunishi, dushmanning niyatini anglashi va uning rejalarini buzib tashlash uchun hamma vositalarni ishga solishi kerak.

«Qirq ming chavandozlarni sardor o‘n to‘rtta qismlarga quyidagi tartibda tuzishi kerak bo‘lgan: u o‘z jangovar chizig‘ini tuzadi va uni markaz deb nomlaydi. Uchta qism arergardni tashkil etadi (yoki o‘ng qanot korpusi). Uchta qismdan biri ilg‘or nomini oladi (mana shu arergardning ilg‘ori). Chap qanotni tashkil etgan uch qismning biri uning uchun ilg‘or bo‘lib hisoblanadi. Xuddi shunday uchta boshqa qismlar o‘ng qanot arergardining oldida joylashgan bo‘lib, uning fronti bo‘ladi, bu uchta otryadlardan biri chap qanot fronti uchun avangard bo‘lib xizmat qiladi. Chap qanot ham xuddi Shunday sondagi qo‘shindan iborat bo‘ladi va ular uning frontini tashkil etadi. Bitta qism, oldingiga o‘xshab chap qanot avangardi bo‘lib xizmat qiladi. Keyin u asosiy  otryadini markaz qo‘shinlari oldida saflagan. Avangardning safiga: kamonchilar, qilichlar bilan qurollangan jangchilar, nayzachilar, duShman avangardiga tartibsizliklarni keltirib chiqarish uchun baland ovozda baqirib jang qiladigan jasur va tajribali jangchilar kiritilishi kerak»–deb yozilgan «Tuzokot»da.Yana «Tuzokot»da–«Bosh qo‘mondonning e’tiboridan duShmanning hech bir harakati chetda qolmasligi kerak, o‘ziga bino qo‘ygan harbiy boshliq buyruqsiz oldinga harakat qilishni boshlasa jazolanishi kerak»–deb ta’kidlangan. Avval jangga avangard kirgan, keyin o‘ng va chap qanot avangardlari, undan keyin o‘ng va chap qanotda turgan otliq bo‘linmalar kirgan, ularning ortidan o‘ng qanotning ikkinchi otryadi va chap qanotning birinchi otryadi harakatlangan. Agar jang olib borayotgan jangovar chiziqni ikkinchi chiziq qismlari bilan to‘ldirish etarli bo‘lmasa va o‘n uchta hujum jangning oqibatini hal qilmasa, unda bosh qo‘mondon ikkilanmasdan jangga saralangan jangchilardan tashkil topgan o‘z zaxiralarini kiritishi kerak bo‘lgan. Agar shunda ham g‘alabaga erishilmasa, bosh qo‘mondon o‘zi dadillik bilan jangga kirishi va shaxsiy namuna ko‘rsatib jangchilarning ruhlarini ko‘tarishi kerak edi. Bosh bayroq nazardan chetda qolmasligi kerak edi.




40 bo‘linmadan iborat qo‘shinning saflanish tartibi

40 ming chavandozlardan iborat 14 ta bo‘linmaning saflaniSh tartibi.

Agar g‘animning armiyasi qirq ming kishidan oshsa, unga qarshi Amir Temurning o‘zi qo‘shinni boShlagan. Bu vaqtda uning qo‘shini jangni olib borish uchun quyidagi tartibda bo‘lingan: qirqta otryaddan tashkil topgan armiyadan u o‘n ikkita otryadni tanlagan va ularga ajralib turuvchi belgi (*tamg‘a*) bergan; ular qirqta *aymoqlarga* bo‘lingan. Ulardan eng saralangan o‘n ikkitasi birinchi jangovar chiziqni, qolgan yigirma sakkiztasi esa –ikkinchi va uchinchi chiziqlarni tashkil etgan. O‘g‘illari va nabiralari qo‘mondonligidagi qo‘shinlar o‘ng qanotning oldiga, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchiligidagi qo‘shinlar – chap qanotning oldiga saflangan. Bu hamma qo‘shinlar zaxirani tashkil etgan va qaerga yordam kerak bo‘lsa o‘sha erga etib kelgan.

Oltita aymoq o‘ng qanotning asosini yoki ikkinchi chizig‘ini va bittasi – uning avangardini tashkil etgan, Shuncha aymoqlar, xuddi shu tartibda chap qanotning asosini tashkil etgan; ikkinchi chiziqning ikkala qanotlari oldida birinchi, shu tartibda va shuncha sondagi aymoqlar birinchi chiziqning fronti ortida shuncha aymoqlardan iborat, tajribali qo‘mondonlar va jasur jangchilardan iborat katta avangard qo‘yilgan; bu avangardning oldida, o‘zining shaxsiy avangardi hisoblangan yana bitta aymoq, dozor va raz’ezdlar sifatida ikkita engil qo‘shin otryadi joylashgan, ular armiyani to‘satdan beriladigan zarbalardan himoya qilgan va dushmanni kuzatgan.

Engil qo‘shinlar va ilg‘or avangard jangni boshlagan; bosh avangardning boshlig‘i ularni kuchaytirgan va o‘z qo‘shinlarini jangga kiritgan, agar yordam kerak bo‘lsa birin-ketin jangga birinchi, keyin ikkinchi chiziqni kiritib hujumni kuchaytirgan. Agar bu yordam ham etarli bo‘lmasa, unda o‘ng va chap qanot zaxiralari, ya’ni Amir Temurning o‘g‘illari, nabiralari, qarindoShlari va ittifoqchilari boshliq qo‘shin jangga kirgan.

Ularning asosiy vazifalari, duShmanga talofat etkazishdan iborat bo‘lib, g‘animning bosh qo‘mondoniga va uning bayrog‘iga e’tiborni qaratishlari, uni asirga olishlari va bayrog‘ini ag‘darib tashlashlari kerak edi. Agar bu urinishlar ham g‘alaba keltirmasa, unda qo‘shinning qolgan qismi jangga kirgan va qat’iy hujumni amalga oshirgan.

Shunday qilib, kuchlarni oshira borib ketma-ket zarbalarni berib, Amir Temur qo‘shini duShmanni holdan toydirgan, kuchli zahiralar esa dushmanni tor-mor etishni oxiriga etkazgan.

Amir Temur tuzgan qo‘Shin o‘zining tashkiliy-shtat tizimi bo‘yicha Chingizxonning qo‘shini tizimiga yaqin bo‘lsada, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

Amir Temur armiyasi xalq lashkarlari hisoblansa ham, Chingizxon davrida bo‘lgani kabi umumiy xarakterga ega bo‘lmagan.

Chingizxon davrida qo‘shinning asosini ko‘chmanchilar tashkil etgan. Amir Temur davrida ko‘chmanchilar otliqlar va kamonchilarni etkazib bergan. Lekin shu bilan birga o‘troq aholi ham qo‘Shinning katta qismini tashkil etgan. Shunday qilib, harbiy xizmatga chorvadorlar bilan birga, uruShlarning tez-tez bo‘lib turishi va ko‘lamining oshganligi munosabati bilan dehqonlar, hunarmandlar va o‘troq aholining boshqa toifalari ham chaqirilgan.

Amir Temur qo‘shinida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlar bilan birga piyodalar ham katta rol o‘ynagan. chingizxon davrida to‘laqonli piyodalar bo‘lmagan.

Amir Temur sharqda birinchilardan bo‘lib armiyasiga artilleriya qurolini (ra’d) kiritdi. Yangi turdagi o‘q otar qurolining joriy etilishi artilleriya bo‘linmalarini yaratishga imkon berdi. To‘pchilar (ra’dandozlar) soni bir necha ming kishiga etdi. Artilleriya orudiyalari dushmanning tirik kuchlari va texnikasini tor-mor etish hamda qal’alar va sitadellarni qamal qilish uchun mo‘ljallangan. Ular qamal chizig‘ining o‘ta muhim uchastkalarida o‘rnatilgan.

Tog‘li joylarda mohirlik bilan harakatlanuvchi maxsus piyoda qo‘shinlar tashkil etilgan.

Amir Temur jangovar tartibini mohirlik bilan tuzgan va ularni chaqqonlik bilan manyovr qilgan, duShman qanotlariga va front ortiga otliqlar bilan kutilmagan zarbalarni bergan, vaziyatdan kelib chiqib o‘z qo‘Shinini to‘qqiz va etti qismlarga (*qo‘lga*) bo‘lgan.

Armiyada ayollardan tashkil etilgan qismlar joriy etilgan bo‘lib, ular jang paytida erkaklar bilan bir safda turganlar va shon-Shuhrat va jasorat namunalarini ko‘rsatganlar.

Amir Temur armiyasi safiga Movarounnahrdan, Dashti-Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo‘g‘uliston, Mazandaron va Jetedan olib kelingan jangchilar kirganlar.

Qo‘shinni yig‘iSh va ta’minlaSh. Qo‘shinni boshqarish. Amir Temur qo‘shinida to‘xtovsiz takkomillashib borayotgan muntazam armiyaning ko‘pgina xususiyatlari mujassamdir: qo‘shinning aniq soni, jangovar tartib (yosol) belgilangan.

Kavaleriya qismlari ko‘p hollarda bir birlaridan nafaqat kiyim-boshlari, bayroqlari va anjomlarining ranglari bilan, balki otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Bunday farq qilishlik jang paytida qo‘shinni boshqarishda katta rol o‘ynagan. Dushmanga nisbatan ustunlik, otliqlarning yuqori harakatchanligi va Amir Temur tomonidan ularni mohir manyovr qilinishi bilan ta’minlandi.

Turli usullar bilan duShmanning mudofaa tizimini yakson etish, g‘animning yirik va yaxshi mustahkamlangan ob’ektlariga to‘satdan hujum qilish, dushman tomonining hukmdorlari va taniqli harbiy boShliqlarini asirga olish, qurShab olingan shahar-qal’alarni uzoq vaqt qamal qilish, birma-bir qishloqlar, tumanlar, shaharlar va viloyatlarni zabt etish, duShmanni to‘liq tor-mor etilgunigacha ta’qib etish, zabt etilgan hududlarni boshqarish uchun o‘zining sodiq kishilarini tayinlashdek strategik maqsadlarni ketma-ket amalga oshirish Amir Temurga ko‘plab g‘alabalar keltirdi.

Harbiy iShni rivojlantirishdagi uning qo‘shgan katta hissasi, butkul yangi ko‘rinishdagi kavaleriya qismlarini (*kunbul, kumbul*) joriy etgani bo‘lib, u nafaqat o‘z qanotlarini himoya qiliSh uchun, balki dushman qanotlarini aylanib o‘tish va front ortiga zarba berish uchun ham belgilandi.

Otliq qo‘Shin armiyaning zarbdor qismini tashkil etgan va engil va og‘ir otliqlarga bo‘lingan. Yoylar, o‘qdonlar, qilichlar bilan qurollangan engil otliqlar razvedka bilan Shug‘ullanganlar, qo‘riqlov xizmatini olib borganlar va kerak bo‘lgan hollarda dushmanning ilg‘or otryadlariga qarshi jangga kirganlar.

Saralangan jangchilar va zodagonlardan tuzilgan og‘ir otliqlar dushmanning asosiy zarbdor kuchlariga qarshi jang olib borgan. Chavandozlar nayza, dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qlar solingan sadoq bilan qurollanganlar.

Harbiy yuriShdan oldin Amir Temur odatda harbiy kengash (*maShvarat*) chaqirgan, unda harbiy boshliqlar, beklar va amirlar ishtirok etganlar. Davlatning turli qismlaridan, Oliy Bosh Qo‘mondonning ad’yutanti (*tavachi*) etkazgan maxsus buyruqqa (*muchalkaga*) binoan qo‘shin yig‘ilgan. Jangchilarni yig‘ishdan tashqari tavachilarning majuriyatlariga qo‘shinni joylashtirilishini, uning harakatlanishi va jangovar tartibini nazorat qilish ham kirgan.

Amir Temur o‘z qo‘shinini, jangni olib boriSh uchun hamma kerakli narsalar bilan ta’minlaniShiga, lagerlarda joylashishiga alohida e’tibor bergan.

Sohibqironning buyrug‘iga binoan viloyatlar hukmdorlari, tumanlar va shaharlar beklari, qal’alar boShliqlari (*darug‘a*) ro‘yxat bo‘yicha ko‘rsatilgan muddatda o‘z qo‘shinlari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan oldindan ko‘rsatilgan erga (*miod eri*) etib kelganlar.

To‘xtamishga qarshi Dashti-Qipchoqqa harbiy yurishni uyushtirishdan oldin (1390–1391) Amir Temur o‘zining o‘rinbosarlariga qo‘shinni uzoq davrga etadigan oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va boshqa kerakli narsalar bilan Ta’minlashga buyruq bergan. har bir jangchi bitta yoyga, o‘ttizta o‘qqa, bitta kamondonga, bitta qalqon va bitta zaxira otga ega bo‘lgan. Safar chog‘ida har o‘nta jangchiga bitta chodir, ikkita belkurak, kirka, o‘roq, arra, bolta va yuzta igna berilgan.

Har bir jangchi bundan taShqari o‘zi bilan arqon, teri va qozon olib yurgan. Oddiy jangchilar safar chog‘ida o‘n sakkiz kishiga bitta chodir olib yurganlar. Ularning har biri yonida ikkita otni etaklab yurgan, o‘zi bilan yoy, zirh, qilich, o‘qdon, qop, o‘nta igna, bolta, arra va teridan tikilgan qop olib yurishi kerak bo‘lgan.

Jangchilar chodirlarda beshtadan bo‘lib joylashganlar. Ko‘zda tutilgan ta’minot bo‘yicha ularning har biri dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qdon va ot bilan ta’minlangan. O‘n begi alohida chodirga joylaShgan. U zirh, qilich, yoy, kamondon bilan qurollangan. U o‘zi bilan beShta qo‘Shimcha otni olib yuriSh huquqiga ega bo‘lgan.

Yuz begiga ham alohida chodir berilgan. Uning qurol-yarog‘larini qilich, yoy, zirh, o‘qdon, gurzi, to‘qmoq va kolchugalar (simdan tayyorlangan halqachalarni bir biriga o‘tkazib to‘qilgan ko‘ylak) taShkil etgan. Yuz begiga qo‘shimcha o‘nta ot berilgan.

Ming begi chodirdan tashqari soyabonga ega bo‘lib, qurol-yarog‘lari nayza, qilich, o‘q-yoy, dubulg‘a, zirh (*chax, oroyna*), kolchugalardan iborat bo‘lgan.

Piyodalar harbiy yurishlar paytida qilich, yoy va kerakli sondagi yoyning o‘qlari bilan qurollanib harakatlanganlar.

Qo‘shin bilan birgalikda bir joydan ikkinchi joyga qassoblar, oshpazlar, qovurilgan va qaynatilgan go‘sht sotuvchilar, novvoylar, arpa, meva sotuvchilar ko‘chib yurganlar. Jangchilarga ko‘chma hammomlar xizmat ko‘rsatgan. Yurishlarda nafaqat jangchilar, balki qo‘shinga xizmat qiluvchi ko‘psonli ma’muriyat ham ishtirok etgan. Bu erda temirchilar, qurolsozlar, duradgorlar, teriga ishlov beruvchilar, er qazuvchilar, xo‘jalik ishlarini bajaruvchilar va boshqalar bo‘lgan. Amir Temur qo‘shini safarlarida harakatlanayotgan jangovar qo‘shin korpusi ortidan yirik qurolsiz omma harkat qilgan.

Talablarni bilimini tekshirish uchun savollar:

1. Amir Temur shaxsini ta`riflab bering.
2. Amir Temur qanday vaziyatda siyosiy kurash maydoniga kirib keladi?
3. Amir Temurning tarixiy xizmatlari nima?
4. Amir Temurning xorijiy ellarga uyushtirgan Harbiy yurishlardan ko’zda tutilgan maqsadlar nimalardan iborat bo’lgan?
5. Amir Temurning harbiy sarkardalik faoliyati xaqida nimalar deya olasiz?
6. Mirzo Ulug’bek shaxsini ta`riflab bering
7. Temuriylar sulolasi inqirozining asosiy sabablarini bilasizmi?

## Mavzu-4.“Yangi va eng yangi davrlardagi urushlar. Fuqarolar urushi va ikkinchi jahon urushi oralig’ida qurolli kuchlar tuzilmasi xususiyatlari”.

Reja:

O‘quv maqsadlar:

1.Talabalarga Yangi va eng yangi davrlardagi urushlar to’g’risida ma’lumot berish.
2.Talabalarga Xiva xonligini tashkil topishi. to’g’risida ma’lumot berish.
3. Talabalarga XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi to’g’risida ma’lumot berish.
4.Talabalarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

O’quv savollari:

1.Yangi va eng yangi davrlardagi urushlar.
**2. Xiva xonligini tashkil topishi.**
3. XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi.

Vaqti:2 soat;
Joyi:O‘quv xonasi;
Uslubi: Tushuntirish, so‘zlab berish, ko‘rsatish;
Shakli: ma’ruza.

Tayanch so‘zlar

SSSR-sobiq sovet sotsialistik Resrublikalari ittifoqi;
Agressiya-bosib olish, bostirib kirish, boshqa mamlakat xududiga qurolli tajovuz;
Flot-harbiy dengiz kuchlari;
HHM-havo hujumidan himoya qilish qo‘shinlari;
Zenit artilleriya divizioni- havo hujumidan himoya qilish qo‘shinlarining tashkiliy bo‘linmasi.

1.Yangi va eng yangi davrlardagi urushlar.

Ikkinchi jahon urushi arafasida ikkita qarama-qarshi mamlakatlar guruhlari mavjud edi: fashist davlatlari blogi (gitlerchilar Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va militaristik Yaponiya) va g‘arbiy davlatlar koalitsiyasi (Angliya, Fransiya. AQSH). Ulardan birinchi guruh davlatlari jahonga hukmronlik qilish uchun qurolli kurashga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Sobiq Sovet Ittifoqi sotsializm lagerini kengaytirish pozitsiyasini mustahkam egalladi va har qanday qilib bo‘lmasin kommunistik tuzumni himoya qilish va uni dunyoning boshqa erlariga, ayniqsa Evropaga eksport qilish ishtiyoqi bilan band bo‘ldi.

Davlatlar guruhlarining harbiy nazariyalari va qurolli kuchlari ularning siyosiy maqsadlariga binoan rivojlandi. Ikkita jahon urushlari o‘rtasida sobiq SSSRda qizil armiyaning qayta tashkil etiliSh, yangi namunadagi qurol-yarog‘lar va jangovar texnika bilan qayta qurollanishi amalga oShirildi.

Davlatning iqtisodiyoti va xalqaro vaziyatning o‘zgarishi bilan quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomlari bir-necha marotaba o‘zgartirildi, takomillashtirildi va ularga aniqliklar kiritildi.

Chuqur hujumkor jang olib borish nazariyasi ishlab chiqilib, qo‘shinlarga kiritildi va chegarabo‘ylaridagi mas’ul yirik harbiy okruglarda sinovdan o‘tkazildi. Bundan tashqari ushbu nazariya Uzoq sharq chegaralari bo‘ylaridagi to‘qnaShuvlarda va Sovet-Finlyandiya urushida amaliyotda qo‘llanildi. Ularning davomida nazariyaning ko‘zga taShlangan kamchiliklarini bartaraf etish chora-tadbirlari ko‘rildi.

1930 yillarning oxirlarida, g‘arb davlatlari tomonidan SSSRning bo‘lajak xavfni oldini olish bo‘yicha kiritgan konkret takliflari javobsiz qoldirilganligi uchun, Sovet ittifoqi siyosiy yakkalanish holatiga tushib qoldi va yakka o‘zi o‘zining xavfsizligini Ta’minlashiga to‘g‘ri keldi. Shu maqsadlarda va o‘ziga qarshi bo‘lajak uruShning muddatini ortga surish maqsadida, 1939 yilning avgust oyida potensial duShman hisoblangan Germaniya bilan urush ochmaslik to‘g‘risida pakt imzolandi.

G‘arb davlatlar hukmron doiralarining g‘arazli maqsadlarini ifoda etuvchi harbiy doktrinalari ushbu ma’ruza davomida ko‘rib chiqildi.

Sobiq SSSR da qurolli kuchlarning yaratilishi. Harbiy san’atning rivojlanishi. Chuqur hujumkor jang olib borish nazariyasi.

Davlatni, fashistlar blogiga a’zo bo‘lgan davlatlar tomonidan bo‘lajak agressiyalarini qaytarishga tayyorlash tadbirlarini olib borib, davlat rahbariyati Qurolli Kuchlarni to‘ldirishni tashkil etiSh masalalarini takomillashtirishga, jangchilarni o‘rgatishga va ularning tarbiyasiga katta e’tiborini qaratdi. Harbiy qurilishning xarakteri 30-yillarning ikkinchi yarmida armiyani to‘ldirishning aralash hududiy tashkiliy kadrlar tizimini bekor qilishni talab etdi.

Hududiy-kadrlar tizimida harbiy xizmatchilar qisqa muddatli harbiy yig‘inlarda, armiyaga kiritilgan yangi harbiy texnikani o‘zlashtira olmas edilar, hududiy qismlar kerakli safarbarlik tayyorgarligiga ega emas edilar.

Armiyani kadrlar asosida to‘ldirish natijasida qurolli kuchlarning soni 1936 yildan 1939 yilgacha ikki martaga oshdi. 1936 yildayoq armiyada 1 mln. 100 ming jangchi bor edi. 1939 yilning 31 avgustiga kelib-ularning soni 2 mln. dan oshib ketdi (1941 yilga kelib 5 mln. dan ko‘proq).

1938 yilda bitta millatga mansub bo‘lgan kishilardan tashkil etilgan bo‘linmalar, milliy harbiy bilim yurtlari va milliy harbiy maktablar bekor qilindi, ularning o‘rniga hamma Respublikalar uchun armiyani to‘ldirishning yagona tizimi va xizmatni o‘tashning yagona tartibi joriy etildi. Quriqlikdagi qo‘shinlar va aviatsiyada xizmat muddati 3-yil, flotda –5 yil etib tayinlandi. Armiyaga SSSRning 19 yoShga to‘lgan hamma fuqarolari, o‘rta maktabni tugatgan hamma 18 yoshga to‘lgan o‘spirinlari chaqariladigan bo‘ldi.

Qurolli Kuchlarning asosini quruqlikdagi qo‘shinlar tashkil etdi. Uning ichida etakchi qo‘shin turi piyodalar hisoblandi (o‘qchi qo‘shinlar). 1939 yilning boshida 25 ta korpuslar safiga kiritilgan o‘qchilar diviziyalarida ikkita tinchlik davri shtati kiritildi: birinchisida 6959 kishi, ikkinchisida 5220 kishi. Urush davri diviziyasida 16797 kishining bo‘lishi ko‘zda tutildi, ularning saflariga ikkinchi artilleriya polklari kiritilib, bittadan tankka qarShi va zenit artilleriyalari divizionlari, yirik kalibrli pulemyotlar vzvodiga ega bo‘ldi, undan taShqari polklarda-minomyot vzvodlariga ega bo‘lindi.

O‘qchilar birlaShmalarining zarba berish qudratlari oshdi. 1936 yilning yanvaridan 1939 yilning yanvarigacha diviziyalarda tankka qarshi orudiyalarning soni 18 tadan 36 tagacha, o‘rtacha va yirik kalibrdagi orudiyalarning soni 62 tadan 78 tagacha, minomyotlar va pulemyotlar 18 tadan-30 tagacha, pulemyotlar 446 tadan 472 tagacha oshirildi. Tanklar 16 tani tashkil etdi. Har bir o‘qchilar korpuslarining safiga ikkitadan artilleriya polklari kiritildi: uzoq harakat artilleriyasi (36 ta orudiya), katta qudratga ega bo‘lgan artilleriya (30 ta orudiya), hamda zenit divizioni (18 ta orudiya). 1939 yilda BoSh Qo‘mondonlik artilleriyasi mexanik tirkamalaga ega bo‘lgan 24 ta polklardan (969 ta orudiya) taShkil topdi.

1939 yilda Moskva, Leningrad va Bokuning havodan himoya qilish uchun HHM korpuslari tashkil etilib, ularning safiga zenit artilleriya divizionlari, projektor, pulemyot va aerostat polklari kiritildi. Boshqa shaharlarning havo-hujumidan mudofaasi alohida diviziyalarga va alohida HHM brigadalariga topshirildi.

1938 yilda zirhli tank va mexanizatsiyalashtirilgan qo‘shinlar qayta tashkil etildi. MexanizatsiyalaShgan brigadalar va korpuslar tank brigadalari va korpuslariga aylantirildi va ularga ko‘plab tank qismlari va bo‘linmalari kiritildi.

Tank korpuslari o‘z safiga ikkita engil tank brigadalari va bitta motorlashgan o‘qchi-pulemyot brigadalarini oldi. Alohida engil tank brigadalari to‘rtta tank va bitta razvedka batalonlaridan iborat bo‘ldi. Og‘ir tanklar brigadasi uchta tank bataloni va bitta kadr bataloniga ega bo‘ldi. Birinchi turdagi brigadalarning jangovar maShinalar parki 295 ta tanklarga, ikkinchi turdagisi esa 139 tanklarga ega bo‘ldi. 1939 yilning boShida zirhli tank qo‘shinlari 4 tank korpusiga, 24 alohida engil tank brigadasiga  (BT va T-26), 4 tank brigadasiga (T-28, T-35) va uchta ognemyot brigadalariga ega bo‘ldi.

Bir yildan keyin zirhli tank qo‘shinlarining taShkiliy tizimi yana o‘zgartirildi. Tank korpuslarining o‘rniga motorlashgan diviziyalar va bir xil tanklarga ega bo‘lgan tank brigadalari kiritildi va ular yangi T-34 va KV tanklari bilan jihozlana boShlandi.

1939 yildan Harbiy-Havo kuchlarida aviatsiyaning turlari bo‘yicha bir xil samolyotlarga va aralash samolyotlar aviabrigadalariga birlaShgan, aviatsiya polklari tuzila boShlandi. Asosiy

taktik birlik aviatsiya polki bo‘ldi. Bombardimonchi va engil Shturmchi polklar 5 ta eskadrilyaga, og‘ir bombardimonchi va qiruvchi polklar-4 ta eskadrilyaga ega bo‘ldi. Eskadrilyalar har birida uchtadan samolyotlarga ega bo‘lgan 4-5 zvenolardan taShkil topdi. Ularning qurollanishlarida turli xildagi samolyotlar mavjud edi: I-15, I-16, YAK-1, MiG-3, IL-2. 1939 yilning boshida HHK da 3 ta armiya, 38 ta brigada va 115 ta polklar bor edi.

1939 yilda aviadesant qo‘Shinlaridan 6 ta paraShyut-desant brigadalari tashkil etilib, o‘qchilar qo‘shinlariga kiritildi.

Kavaleriyaning soni kamaydi. Uning shaxsiy tarkibi texnik qo‘shin turlarini to‘ldirish uchun jo‘natildi. 1939 yilning boShida 26 ta kavaleriya diviziyalari mavjud bo‘lib, ular 5 ta kavaleriya korpuslari saflariga kiritildi.

Harbiy okruglarda, o‘qchilar, kavaleriya va tank birlashmalarida radio bo‘linmalari tashkil etildi. Diviziyalarga alohida aloqachilar batalonlari kiritildi, polklarning saflariga aloqachilar rotalari, batalonlarga esa aloqachilar vzvodlari kiritildi.

Maxsus qo‘shinlar bo‘linmalari shakllantirila boshlandi, kimyo himoya bo‘linmalari tashkil etildi. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘priklarni qurish va ularni ekspluatatsiya qilish uchun beShta brigadadan iborat bo‘lgan temir yo‘l qo‘shinlari korpusi yaratildi.

Harbiy-Dengiz Floti takomillaShdi va uning safi kengaydi. Yangi tipdagi suv usti, suv osti kemalarining va yangi torpedo katerlarining yaratilishi eskadralarning kuchayishiga olib keldi va yangi eskadra minonosetslar diviziyasi, suv osti kemalari, torpedo katerlari divizionlari va brigadalarini yaratiSh uchun imkon yaratdi. UruSh arafasidagi yillarda HDF ning jangovar qudrati ancha oShdi. 1939 yilda dengiz kuchlari 4 ta flotdan iborat bo‘ldi: Boltiq, Qora dengiz, SHimoliy, Tinch okeani flotlari, hamda beShta dengiz va daryo flotiyalari. Harbiy-Dengiz Floti 3 ta linkorga, 4 ta kreyserga, 40 lederlarga va eskadra minonosetslariga, 184 ta suv osti kemalariga (1941 yil iyunida –289 ta va 91 tasining qurilishi yakunlanish arafasida), 279 ta torpedo katerlariga va boShqa tipdagi jangovar kemalarga ega bo‘ldi.

SHu bilan birga harbiy nazariya ham takomillaShib bordi. Uni iShlab chiqiSh ustida iste’dodli harbiy boShliqlar M.V.Frunze, M.N. Tuxachevskiy, A.I. Egorov, I.P. Uborevich, B.M. shaposhnikov, I.E. Yakir, R.P. Eydeman va boshqalari samarali mehnat qildilar.

UruSh boshlanish arafasida qurolli kurash masalalari xalqaro vaziyatning o‘zgarishini, SSSRning oshib borayotgan iqtisodiy va harbiy qudratini hisobga olib hal etildi. Strategiya SSSRga qarshi bo‘lajak urush harakatlari g‘arbda Germaniya tomonidan, Uzoq Sharqda Yaponiya tomonidan bo‘lishini aniqladi. Bu urush uzoq davom etishi va juda qonli bo‘lishi ta’kidlandi. Bu dushmanni birma-bir tor-etishni, yirik strategik zaxiralarning bo‘lishini, uruShda kuraShning turli usullari va vositalinii qo‘llashni, manyovrchan jangovar harakatlarni olib boriShni talab etdi. Qurolli kurashda qat’iy maqsadlar qo‘yildi-uning kuchlarini o‘zining hududida to‘lig‘icha tor-mor etilishigacha. Shunga binoan hujumga strategik harakatlarning hal qiluvchi turi deb qaraldi.

Strategik hujumni, bir vaqtda va ketma-ket front operatsiyalari ko‘riniShida, hamma qo‘Shin turlarining o‘zaro yaqin hamkorligida o‘tkaziSh tomoyiliga asoslandi. Bunda hal qiluvchi rol quruqlikdagi qo‘shinlarga berildi. Harbiy-havo kuchlarini qo‘llaShga katta ahamiyat berildi. U quruqlikdagi qo‘shinlarning hamma turdagi harbiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlab turish uchun belgilandi. Shu bilan birga HHK ning mustaqil operatsiyalarni ham amalga oshirishlari ham ko‘zda tutildi. Harbiy-dengiz flotining vazifasi, quruqlikdagi qo‘shinlarning dengiz bo‘yi operatsiyalariga hamkorlik qilish, hamda dushman flotini uning dengiz kommunikatsiyalarida tor-mor etishdek mustaqil harakatlarni olib boriShdan iborat bo‘ldi.

### Chuqur hujumkor jang olib borish nazariyasi.

Harbiy nazariyaning muhim masalalari ilmiy konferensiyalarda va harbiy matbuotda keng muhokoma qilindi. Operativ san’at yuqori darajalarga eriShdi. U yangi jang olib boriSh vositalarini hal qiluvchi rolini to‘g‘ri baholadi va chuqur hujumkor jang olib boriSh nazariyasini iShlab chiqdi. Bu nazariyani asoschilari ko‘zga ko‘ringan harbiy boShliqlar va nazariyachilar M.N.Tuxachevskiy, V.K. Triandafilov, B.M.SHapoShnikov, I.G.Isserson, D.M.KarbiShev va boShqalar hisoblanadi. Bu nazariyani rivojlantiriShga okrug qo‘Shinlari

qo‘mondonlari, birlaShmalar komandirlari, harbiy akademiyalarning o‘qituvchi-professor safi katta hissa qo‘Shdilar.

CHuqur hujumkor operatsiyaning nazariyasi duShmanni butun mudofaasi operativ chuqurligida bir vaqtning o‘zida tor-mor etiShni ko‘zda tutadi, buning uchun artilleriyaning, tank va mexanizatsiyalaShgan qo‘Shinlarning, aviatsiya va havo-desant qo‘Shinlarining yuqori jangovar imkoniyatlaridan to‘liq foydalaniSh nazarda tutiladi.

Chuqur hujumkor operatsiyaning nazariyasi ikkita vazifani hal qilishi kerak edi: birinchidan, piyodalar, tanklar, artilleriya va avaiatsiyaning bir vaqtdagi zarbalari bilan duShmanning mudofaasini butun taktik chuqurligida yorib o‘tish; ikkinchidan, dushman mudofaasini yorib o‘tiShdagi taktik muvaffaqiyatni harakatchan va havo-desant qo‘Shinlarining Shiddatli harakatlari bilan, hamda aviatsiya zarbalari bilan operativ muvaffaqiyatga aylantiriSh.

Front operatsiyasida etakchi rol tanklar, artilleriya, aviatsiya bilan ta’minlangan armiyalarga berildi.

Dushmanga qudratli zarbalarni berish uchun, qudrali hujum eshelonini va muvaffaqiyatni rivojlantiruvchi qo‘shinlarni, zahiralarni, aviatsiya va havo-desant qo‘shinlarini o‘z ichiga olgan qo‘shinni chuqur eshelonlashtirish ko‘zda tutildi.

Dushman mudofaasini yorib o‘tish uchun bosh zarba berish yo‘nalishida ustun bo‘lgan kuchlar va vositalarni to‘plash va ularni artilleriya, tanklar va aviatsiya bilan qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutildi. Hujum eshelonining asosiy vazifasi dushman mudofaasini yorib o‘tishdan iborat bo‘lgan. Muvaffaqiyatni dushman ichkarisiga rivojlantirish uchun frontning (armiyaning) harakatchan guruhlari tayinlandi.

Harbiy-havo kuchlari va havo-desant qo‘shinlarini dushman mudofaasini yorib o‘tish va uning yaqinlashib kelayotgan zahiralari bilan kurashish uchun qo‘llash ko‘zda tutildi.

Harbiy-dengiz flotining roli qirg‘oqbo‘ylarida hujumlarni olib borayotgan quruqlikdagi qo‘shinlarga ko‘maklashish va dengiz kommunikatsiyalarida dushman flotiga qarshi mustaqil operatsiyalarni olib boriShdan iborat bo‘ldi. Bu nazariyaning asosiy holatlari 1935 yilda Kiev harbiy okrugida o‘tkazilgan mashq-manyovrlarda, 1936 yilda Belorussiya, Moskva, Odessa va boShqa harbiy okruglarning mashqlarida, hamda Xalxin-Golda (1939 y.) davlat chegaralarini himoya qiliShda va sovet-finlyandiya uruShida (1939-1940 y.) tekShirib ko‘rildi.

Kiev manyovrlarida, yirik harakatchan birlaShmalar, aviatsiya, havo-desant qo‘shinlarini qo‘llab, 120 km chuqurlikda hujum operatsiyalari mashqi o‘tkazildi. Bu erda tarixda birinchi bo‘lib 1200 ta desantchilar parashyutlarda tushirildi va 2500 kiShi jangovar texnikasi bilan posadochniy usul bilan tushirildi.

Xalxin-Gol rayonida sovet qo‘shinlari 6-yapon armiyasi qismlarini qurshab olish bo‘yicha cho‘lda hujum operatsiyasini o‘tkazdilar. Jang olib borish rayoni uncha katta bo‘lmaganligi uchun jangovar harakatlarni olib borish chuqurligi 4 km ni, zarbdor qo‘shinlar hujumlari chizig‘ining chizig‘i kengligi 20 km ni tashkil etdi. Tanklar nafaqat taktik, balki operativ vazifalarni ham hal qiliSh uchun qo‘llanildi. Tanklar muvaffaqiyatni rivojlantirish esheloniga tayinlanmagan bo‘lsalarda, ular qanotlarni qamrab olish uchun asosiy vosita hisoblandilar va dushmanning asosiy guruhlarini qursha olishda etakchi rolni o‘ynadilar. dushmanni tor-mor tiShda artilleriya muhim o‘rin egalladi. Lekin tajriba Shuni ko‘rsatdiki, yaratilgan taktik qalinlik juda past bo‘lganli (frontning har km ga 12 ta orudiya) dushmanning mudofaasini to‘liq bosib qo‘ya olmadi. Aviatsiyaning ommaviy qo‘lanishi havoda hukmronlikni qo‘lga kiritishni ta’minladi. aviatsiya iqismlari va quruqlikdagi qo‘shinlarning birgalikdagi yaqin hamkorliklari Dushmanni tezlik bilan qurshab lishga va uni tor-mor etishga imkon yaratdi.

Sovet-fin urushida qizil armiya dushmanning mustahkamlangan istehkomlari yorib o‘tiSh bo‘yicha tajribalarga ega bo‘ldi. Hujum bo‘liq qor va botqoqlik Sharoitlarida olib borildi.

Umuman uruSh arafasida sovet qo‘shinlarining harakatlari o‘z masshtabi bo‘yicha cheklangan xarakaterga ega bo‘ldi va chuqur jang olib borish nazariyasini hamma tomonlama, to‘lig‘icha tekshirib ko‘rishga imkon bo‘lgan emas. Shunga qaramasdan chuqur hujumkor jang olib borish nazariyasining asoisy holatlarining to‘g‘ri ekanligi tasdiqlandi. Jumladan, hal qiluvchi yo‘nalishda kuch va vositalarni ommalashtirish, Qurolli Kuchlar hamma turlarining

o‘zaro yaqin hamkorliklari, hamda hujumkor operatsiyalarda artilleriya, tank va aviatsiyaning rollarining oshganligi va boshqalar.

SHu bilan birga jangovar tajriba harbiy nazariyaning bo‘Sh joylarini ham ko‘rsatdi. Harbiy nazariy fikrlarni rivojlaniShiga 1937 yil va undan keyingi Shaxsga sig‘iniSh alomatlari salbiy ta’sir o‘tkazdi. CHuqur hujumkor jang olib boriSh nazariyasining asosiy holatlari Shubha ostiga olindi, chunki uni iShlab chiqiShdi qatag‘on qilingan ko‘pgina harbiy boShliqlar bor edi. Ularning asarlari «duShmanona» deb hisoblandi va uzoq vatq esdan chiqib ketdi.

Sovet harbiy nazariyasi to‘satdan hujumni boshlash zamonaviy urushda g‘alabaga erishishning muhim omili deb hisobladi. Nazariy muammolar masalalarini hal etishda urushning boshlanish davrida qurolli kurashni olib borishga va starategik zahiralarni qo‘llaShga katta ahamiyat berildi. Lekin to‘satdan bo‘lgan hujumni qaytarish masalalari to‘lig‘icha hal etilmadi.

Harbiy nazariya qarama-qarShi jangga katta ahamiyat berdi. Urishning boshida tomonlar taShabbusni qo‘lga kiritish uchun harakat qilishlari va jangovar harakatlar qarama-qarshi janglar ko‘riniShi oladi degan taxminlar qilindi.

Qarama-qarshi jangda muhim o‘rin qo‘Shinlar va komandirlarning qat’iylik va tashabbuskorliklariga ajratildi.

Urush arafasida yirik daryolarni jang bilan kechib o‘tish masalalari keng muhokama qilindi. Suv to‘siqlarini kechib o‘tish ikkita usulda olib borilishi ko‘rsatib o‘tildi: harakatlanish mobaynida va hujumga rejalashtirilgan tayyorgarlik ko‘rish chog‘ida. Kechuv joylarini bosib oliSh uchun engil suzib o‘tish vositalariga va suzuvchi tanklargaega bo‘lgan harakatchan otryadlarni jo‘natish tavsiya etildi.

Urushdan oldingi nazariyada operativ birlaShmalarning tungi janglari qariyib ishlab chiqilmadi: qo‘shin ko‘rish chegaralangan Sharoitlarda jang olib borishga umuman o‘rgatilmadi.

Shu bilan birga harbiy nazariya mudofaadan ham voz kechgan emas. Sovet qo‘shinlarining mudofaa operatsiyalarining asosida yuqori faollik mulohazasi va qat’iy hujumga o‘tish yotadi. Lekin strategik mudofaani qurolli kurashning qonuniyati deb bilib, urushdan oldingi nazariya uni zamonaviy uruShga moslab tashkil etish va olib borishni ishlab chiqdi.

Hujum qilayotganlarning zarba qudratini oShganligini hisobga olib, mudofaaning ichkaridan qarShilikni oShiriShga imkon beradigan ko‘p qavatli bo‘lishi talab etildi. Shu talablarni e’tiborga olib, armiya o‘z kuchlari bilan dushmanni to‘xtatib qoliShi va uni taktik mudofaa zonasi hududida tor-mor etishi ko‘zda tutildi. Shuning uchun, mudofaa harakatlarini olib boriSh masalalari armiya masshtabida ishlab chiqildi.

Mudofaada qarshi zarbalarni berishga katta ahamiyat berildi. Qarshi zarbani berish uchun korpus va armiya zahiralaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Qarshi zarbalar mudofaaga suqulib kirgan dushmanni to‘lig‘icha tor-mor etish bilan va armiya qo‘shinlarini qat’iy hujumga o‘tishlari tugashi kerak edi.

Qismlar va birlaShmalarning mudofaadagi jangovar tartiblari 30-yillarning harbiy nazariyasi bo‘yicha  skovivayuShiy guruhdan (hamma kuchlarning uchdan ikki qismidan iborat) (hamma kuchlarning uchdan bir qismi) taShkil topgan. Keyingi yillar qo‘Shinlarning mudofaaning asosiy chizig‘ini uShlab turiSh bo‘yicha kuraShlarining ahamiyati oShdi. Oldin amalda bo‘lgan skovivayuShiy va zarbdor guruhlar o‘z ahamiyatlarini yo‘qotdilar. SHuning uchun piyodalarni guruhlarga bo‘liSh maqsadga muvofiq bo‘lmay qoldi. UruSh arafasida o‘qchi qo‘Shinlarining jangovar tartibi artilleriya gurhlari eShelonlari va zahiralardan taShkil topa boShladi.

Mudofaada joyni muxandislik munosabatida jihozlash masalalari keyingi rivojlanishga ega bo‘ldi. UruSh arafasida mudofaaning taktik zonasi o‘z ichiga jangovar qo‘riqlov pozitsiyasini, mudofaaning asosiy va ikkinchi chiziqlarini olgan. 1936 yildagiga qaraganda mudofaaning taktik zonasi 20 km ga, asosiy chiziq esa-10 km gacha oshirildi. Bu chuqur, lekin manbaali mudofaa edi. Ularda transheyalarning yo‘qligi qo‘Shinni manyovri va yashirincha joylashtirishni qiyinlashtirib, ularni artilleriya, minomyotlar va aviatsiya zarbasidan himoya qilmas edi.

Urushdan oldingi yillari tankka qarshi mudofaaning ahamiyatiga katta e’tibor berildi. DuShman tanklarini safdan chiqarish va duShman tanklarining hujumini qaytarishning asosiy vositasi o‘z qo‘shinlarimizning tanklari, artilleriya zarbasi, birinchi navbatda tankka qarshi artilleriya, jangovar aviatsiya va mina maydonlari hisoblangan. Tankka qarshi artilleriyaning ishonchli taktik qalinligi frontning har bir km da 6-9 orudiya bilan, ularni chuqurlik bo‘ylab 2-3 km da eshelonlashtirishda ta’minlaniShi mumkin deb hisoblandi.

Taktika. Urushdan oldingi yillarda taktikani ishlab chiqishga katta e’tibor berildi.

Hujumkor jangda qo‘shinni chuqur saflash ko‘zda tutildi. Zarbdor guruh bosh zarba berish yo‘nalishida harakat harakat qilish uchun belgilandi. U dushmaning mudofaasini yorib o‘tishi va uning kurash olib borish vositalarini tor-mor etishi kerak edi. Uning safiga hamma kuchlarning uchdan ikki qismi kirgan.

Skovivayushiy (chalg‘ituvchi) guruh yordamchi zarba berish yo‘naliShlarida harakat qilishi kerak edi. U alohida punktlarni egallashi, o‘ziga dushmanning asosiy guruhlarini jalb qilishi va zarbdor guruh qo‘shinlarini erkin harakatlanishlarini Ta’minlashi kerak edi.

Zahira jang mobaynida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hodisalarni oldini olishi kerak bo‘lgan va hamma kuchlarning to‘qqizdan birini o‘z ichiga olgan.

DuShman mudofaasini yorib o‘tish uchun uchta tank guruhlarini yaratish tavsiya etilgan: uzoqqa harakatlanuvchi tanklar (DD), piyodalarni uzoqqa qo‘llab-quvvatlaSh tanklari (DPP) va piyodalarni bevosita qo‘llab-quvvatlash tanklari (NPP). Uzoqqa harakatlanuvchi tanklar (DD) hujum qiluvchi qo‘shinlarning eshelonlarida harakat qilganlar, duShmaning mudofaasini yorib o‘tganlar va uning artilleriyasi va tanklari bilan chuqurlikda jang olib borganlar. Qolgan tank guruhlari piyodalar bilan birgalikda, ular bir kunlik vazifalarini bajarganlarigacha harakatlangan.

Artilleriyaga muhim rol ajratildi. Faqat yirik qudratga va uzoqqa otish qobiliyatiga ega bo‘lgan artilleriya, hujumda o‘z qo‘shinlariga yo‘l ochib beriShi mumkin deb hisoblandi.

Hujumkor jangda artilleriyaning ommalashgan zarbalarini beriShda uni yaxshi o‘zaro hamkorligi va boShqariShni taShkil etiSh va amalga oShiriSh uchun, piyodalarni qo‘llab-quvvatlaSh artilleriya guruhlari (PP) va uzoqqa harakatlanuvchi artilleriya guruhlari (DD) taShkil etildi, alohida hollarda esa, bundan taShqari buzib taShlaSh artilleriya guruhlari (AR) ham yaratildi.

Piyodalarni qo‘llab-quvvatlaSh artilleriya guruhlari (PP) diviziyalarda Shtatdagi va biriktirilgan artilleriyadan birinchi eShelon polklari soni bo‘yicha taShkil etilgan. Uzoqqa harakatlanuvchi artilleriya guruhlari (DD) korpuslarda o‘z artilleriyasidan va bosh Qo‘mondonlik zahira artilleriyasidan tashkil etildi. Ular bosh zarba berish yo‘nalishida, birinchi eshelonlarda harakatlanayotgan diviziyalar soni bo‘yicha guruhchalarga bo‘lingan. Buzib taShlaSh artilleriya guruhlari (AR) korpuslarda birinchi eshelonlarda harakatlanayotgan diviziyalar soni bo‘yicha yirik qudratli artilleriyadan yaratilgan.

1939-1940 yillardagi Xalxin-Gol daryosi bo‘yidagi va sovet-finlyandiya uruShlarida orttirilgan tajribalarning ta’sirida hujumkor jangni tashkil etish va olib boriShga bo‘lgan qarashlar o‘zgarib ketdi. Hujum olib boriSh chizig‘i kamaytirildi. BoSh zarba berish yo‘nalishida, armiyaning birinchi eshelonida harakatlanayotgan o‘qchilar korpusi 8-12 km li hujum chizig‘ini olishi mumkin edi. Diviziyaning boSh zarba berish yo‘nalishidagi hujum chizig‘i 3,5-4,5 km ni, ikkilamchi yo‘nalishlarda 5-6 km ni taShkil etdi. Bu chiziqda o‘qchilar birlaShmalarining shtatdagi vositalari dushman ustidan ikki-uch marta ustunlikni ta’minlagan, shu bilan hujumkor jangda muvaffaqiyatga erishish uchun qulay sharoit yaratilgan.

Jangovar harakatlarni qo‘yidagi tartibda olib borish tavsiya etilgan. Dushmanning tayyorlangan mudofaasiga hujum qilganda, hujumdan oldin artilleriya va aviatsiya zarbalarini beriSh, duShman bilan bevosita to‘qnashuv sharoitlarida tanklar artilleriyaning zarbalari to‘suvida dastlabki pozitsiyalarga keltirilgan, piyodalar esa dushman mudofaasining oldingi marrasidan 300 metrdan ko‘p bo‘lmagan hujum marrasini egallash. Artilleriya zarbasini dushman mudofaasining ichkarisiga ko‘chirganidan keyin tanklar shiddat bilan hujumga o‘tishlari kerak bo‘lgan. Piyodalar tanklarning birinchi eShelonlari dushman mudofaasi

marrasiga etganda hujumga ko‘tarilgan. Hujum o‘qchilar korpusining butun chizig‘ida bir vaqtda boShlangan va to‘xtovsiz olib borilgan.

1930-yillarning oxiri, 1940 yillarning boshida sovet davlatini gitlerchilar Germaniyasi tomonidan bo‘lajak agressiyasini qaytarishga tayyorlash sovet Qurolli kuchlarini qo‘llashni rejalashtirishda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu davrda operativ rejalarni ishlab chiqish murakkab va uzluksiz ijodiy – boshqaruv jarayon bo‘lib, u siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, diplomatik, harbiy va boshqa masalalarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘ldi. Urushda Qurolli Kuchlarni qo‘llashni rejalashtirish Mudofaa Xalq komissariyati va Bosh shtabning vazifalaridagi bosh bo‘g‘in bo‘lib hisoblandi. Bu murakkab jarayonga hukumat rahbariyati boshchilik qildi.

UruSh rejasining asosiy hujjatlari Bosh Shtab boShlig‘i marshal B.M.Shaposhnikov (1940 yilning avgustigacha), keyin armiya generali K.A Meretskov (1941 yilning fevraligacha), keyinchalik esa G.K.Jukov rahbarligida, general-leytenant N.F.Vatutin va general-mayor A.M.Vasilevskiylarning bevosita ishtiroklarida ishlab chiqildi va to‘ldirildi.

Ikkinchi jahon uruShidan oldingi oxirgi doklad, «Qizil armiyanig strategik yoyiSh to‘g‘risida» marShal B.M.SHapoShnikov rahbarligida 1938 yilning bahorida iShlab chiqildi. Tayyor hujjat mudofaa xalq komissari K.E.VoroShilov va B.M.SHapoShnikov tomonidan imzolandi va shu yilning 19 noyabrida Bosh harbiy kengash tomonidan ko‘rib chiqildi va ma’qullandi. Strategik rejaning asosida G‘arbiy harbiy-harakatlar teatrida millatchilar Germaniyasi boShchiligidagi koalitsiya bilan, PolShaning, balki Boltiqbo‘yi respublikalarining ham (Litvadan taShqari, u PolShaning bo‘lajak o‘ljasi sifatida qaraldi) faol iShtirokida ehtimoliy to‘qnaShuv yotadi.

1939-1940 yillardagi siyosiy voqealar uShbu harbiy-harakatlar teatrida kuchlarni joylaShtiriShni tubdan o‘zgartirib yubordi va 1938 yilda iShlab chiqilgan rejani qayta ko‘rib chiqiSh muammosi talab etildi. Lekin rejaning yangi varianti ustida iShlar faqat 1940 yilning bahorida boShlandi. Oradagi ikki yillik to‘xtaliSh quyidagicha tuShintiriladi: bu vaqtga kelib Sovet Ittifoqining g‘arbiy chegaralari kengaydi, Shu munosabat bilan SHarqiy Evropa (G‘arbiy) harbiy harakatlar teatrining umumiy konfiguratsiyasi o‘zgardi. 1940 yilning aprel oyi o‘rtalaridan asosiy hujjat- «SSSR Qurolli Kularini strategik yoyish asoslari to‘g‘risidagi fikrlar» ustida iShlarga Bosh Shtabning operativ boShqarmasi boShlig‘i general-leytenant N.F.Vatutin va uning birinchi o‘rinbomari lavozimiga tayinlangan general-mayor A.M.Vasilevskiy, boShqarma boShlig‘i o‘rinbosari general-leytenant G.K.Malandinlar kiriShdilar. Reja ustidagi iShlar 1940 yilning avgustida nihoyasiga etkazildi. Unga ko‘ra asosiy duShman Germaniya hisoblandi, uning tomonidan Italiyaning ham uruShga kiriShi va Bolqonda jangovar harakatlarni olib boriliShi taxmin qilindi. SSSRga qarShi uruShda Germaniyaning ittifoqchilari sifatida Finlyandiya, Ruminiya va Vengriya ko‘rsatildi. Undan taShqari B.M. Shaposhnikov Yaponiyaning Uzoq sharqdan bostirib kiriShi mumkinligini ta’kidladi va u erda duShmanning ehtimoliy hujumini qaytariSh uchun etarli kuchlarni ushlab turiSh ham ko‘zda tutildi.

Germaniya va uning ittifoqchilarining bosh zarba berish yo‘nalishi to‘g‘risida B.M.Shaposhnikov quyidagi fikrni olg‘a surdi: uning fikricha Germaniya uchun eng qulay boSh zarbani berish yo‘naliShi San daryosining quyilish joyi hisoblandi. Shuni hisobga olgan holda Qizil Armiyaning asosiy kuchlari Boltiq dengizi qirg‘oqlaridan Polesyagacha, ya’ni bo‘lajak SHimoliy-G‘arbiy va G‘arbiy frontlarning uchastkalarida joylaShtiriSh ko‘zda tutildi.

1940 yilning o‘rtalarida G‘arbiy Evropada siyosiy va harbiy vaziyatning keyingi o‘zgariShi (sovet qo‘Shinlarini Boltiqbo‘yi respublikalariga, Shimoliy Bukovinaga va Bessarabiyaga kiritiliShi bilan), hamda yangi birlaShmalarning taShkil etiliShi uShbu rejaga o‘zgartiriShlar kiritiShni talab etdi. «Germaniya va uning ittifoqchilari bilan bo‘lajak uruShda sovet qo‘Shinlarini strategik yoyiSh rejasi» to Germaniyaning SSSRga bostirib kirgunigacha bir-necha marotaba qayta iShlab chiqildi.

1940 yil 3 oktyabrda BoSh harbiy kengaSh 1941 yilning 1 mayigacha yangi safarbarlik rejasini iShlab chiqiShni topShirdi. Keyinchalik safarbarlik rejasi SR-41 (MP-41) nomini olgan

bu reja 1940 yilning sentyabrida tayyo bo‘ldi. Unga ko‘ra 1 ta tank, 50 ta aviatsiya diviziyalarini, 8 ta mexanizatsiyalaShgan korpuslar, HHM ning 3 ta korpusi va diviziyalari taShkil etiliShi kerak edi. UruSh davrida Qizil Armiyada 8 678 135 kiShiga ega bo‘liSh ko‘zda tutildi.

1941 yil 23 yanvarda safarbarlik rejasi yana qayta iShlab chiqildi, unga muvofiq armiyada 10 058 791 kiShi bo‘liShi kerak edi.

1941 yilning 12 fevralida rjaga yana o‘zgartiriShlar kiritildi, unga binoan Qurolli Kuchlarda 303 ta diviziya (ulardan: 196 ta tog‘-o‘qchi, 2 ta motoo‘qchi, 61 ta tank, 31 ta motorlaShgan, 13 ta kavaleriya), 348 ta aviapolklar, 5 ta havo-deasnt korpuslari boShqarmalari, 10 ta BoSh Qo‘mondonlik zahirasi tankka qarshi artilleriya brigadalari, 94 ta korpus artpolklari, 74 ta Bosh Qo‘mondonlik zahirasi artilleriya polklari bo‘lishi ko‘zda tutildi.

Safarbarlik yoyiliShidan keyin armiyada odamlar soni 8,9 mln kiShini, 32 628 ta samolyot (ulardan 22 171 ta jangovar), 106 mingdan ortiq orudiya va minomyotlar, 37 mingta tanklar, 10 679 ta zirhli avtomobillar, 91 mingta traktorlar, 595 mingta avtomobillarni taShkil etiShi kerak edi.

Umuman rejani amalga oshirish uchun zahiradan 5 mln kiShini, jumladan 600 mingta ofitserlarni chaqirish kerak edi.

Qayta qurollaniShni boshlagan ko‘pgina birlaShmalar va qismlarni harbiy iShlab chiqariSh kompleks kerakli bo‘lgan jangovar texnika bilan ta’minlay olmadi. UruShning boshida asosiy qo‘shin turlarining to‘ldiriliShi quyidagicha edi: og‘ir tanklar o‘yicha-13%, o‘rtacha tanklar bo‘yicha-74 %, zenit orudiyalari o‘yicha-65%, aloqa vositalari va muxandislik anjomlari bo‘yicha-50-75 % ni taShkil etdi. SR-41 (MP-41) bo‘yicha Qizil Armiyani qurol-yarog‘ va jangovar texnika bilan to‘lig‘icha to‘ldiriShni amalga oShiriShni 5 yilda tugatiSh mumkin edi.

SHunday qilib, uruSh arafasida safarbarlik rejasini iShlab chiqiSh o‘ta murakkab Sharoitlarda olib borildi. Hajmi bo‘yicha juda katta bo‘lgan iShlarni qisqa muddatlarda bajariSh kerak edi. 1940 yil iyundan 1941 yilning iyunigacha safarbalik rejasi 4 marta qayta iShla chiqildi.

OShib borayotgan urush xavfi davlatning harbiy-siyosiy rahbariyatidan Qurolli Kuchlarni strategik yoyishga tayyorlaSh va uni amalga oShiriSh bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ko‘riShni talab etdi.

1941 yilning aprel-may oylarida Mudofaa Xalq komissariyati va BoSh Shtab hukumatning roziligi bilan, davlatning zahiradagi harbiy ishga majbur kiShilarini, maShqlarga jalb etiSh ko‘riniShida yaShirincha safarbar eta boShladi. 14 ta hariy okruglar birlaShmalari va qismlarini kuchaytirish vazifasi qo‘yigan edi. UruSh boShlangungacha yig‘inlarga 802 ming kishi jalb etildi-bu SR-41 (MP-41) bo‘yicha chaqiriliShi kerak bo‘gan kiShilarning 24 % ni taShkil etdi. Bu tadbirlar, g‘arbda harakatlaniSh uchun mo‘ljallangan hamma diviziyalarning yarmini kuchaytiriSh imkonini berdi.

Ikkinchi strategik eShelon-BoSh Qo‘mondonlik zahirasi armiyalarini g‘arbga harakatlaniShlari to‘g‘risida juda muhim hujjat imzolandi. 1941 yil 13 mayda G‘arbiy harbiy-harakatlar teatrida, Stalin bilan keliShgan holda BoSh Shtabning buyrug‘iga binoan ichkari okruglarda to‘rtta armiyani g‘arbga jo‘natiSh va bu eShelonni yig‘iSh boShlandi: 22 armiya Ural harbiy okrugidan-Velikie-Luki rayoniga; 21- armiya Volgabo‘yi harbiy okrugidan- Gomel rayoniga; 19 armiya SHimoliy Kavkaz okrugidan-Belie Serkvi rayoniga va 16 armiya Baykalorti harbiy okrugidan-Proskurovo rayoniga. Xarkov harbiy okrugidan ham 25-o‘qchilar korpusi g‘arbga ko‘chirildi va 19-armiyaning safiga kiritildi.

Qo‘Shinlarni ko‘chiriSh 1941 yilning 1 iyunidan 10 iyuligacha o‘tkaziliSh kerak edi. Rejaga ko‘ra ichki harbiy okruglardan 28 ta diviziyani, 9 ta korpuslarning boShqarmalari va 4 armiyalarning boShqarmalari g‘arbga harakatlari boShlandi. SHu bilan birga Oryol, Sibir va Arxangelsk harbiy okruglaridan yana 3 ta armiyani ko‘chirib keliShga tayyorgarlik ko‘rila boShlandi.

Bu hamma qo‘Shinlar zahira armiyalari Guruhini taShkil etiShlari kerak edi, uning qo‘mondoni etib marShal S.M.Budyonniy tayinlaniShi va Shtabi Bryansk Shahrida bo‘liSh ko‘zda tutildi.

1941 yil 16 mayda chegarabo‘yi harbiy okruglari yangi davlat chegaralari bo‘ylab istehkomlar rayonlarini qurilishini jadallashtiriSh to‘g‘risida buyruq oldilar. BoSh Shtab chegarayaqinidagi birinchi eShelon qo‘Shinlariga o‘q-dorilarni konservatsiya qilingan tanklarda saqlaShga buyruq berdi.

Millatchilar Germaniyasining uruShni boShlaSh to‘risidagi yangi razvedka ma’lumotlari asosida davlatning harbiy-siyosiy rahbariyati chegarabo‘yi harbiy okruglarining ikkinchi operativ eShelonlarini chegarbo‘yini to‘sish rejasida ko‘rsatilgan rayonlarda yoyiShga ruxsat berdi. BoSh Shtab boShlig‘ining direktivasiga asosan 12-15 iyun kunlari ichkarida joylaShgan diviziyalarni yaShirincha chegara yaqiniga chiqariSh buyurildi. 15 iyunda g‘arbiy okruglarning ikkinchi eShelonlarini va zahiralarini taShkil etuvchi diviziyalarning yarmidan ko‘pi chegara yaqiniga harakatni boShladi. Bunda maskirovka masalalariga to‘liq amal qiliSh buyurildi. 14 iyundan 19 iyungacha chegarabo‘yi okruglarining qo‘mondonlari 22-23 iyunda front (armiya) boShqarmalarini dala qo‘mondonlik punktlariga chiqariShga buyruq oldilar.

Operativ-strategik rahbarlikni takomillaShtiriSh maqsadida ma’lum qadamlar taShlandi. 1941 yil 21 iyunda MK Siyosiy Byurosining kengaShida, safida 9-,1-armiyalarni, 9-alohida korpusni olgan Janubiy frontni (qo‘mondoni armiya generali I.V.Tyulenev) taShkil etiSh to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga armiya generali G.K.Jukovga Janubiy-G‘arbiy va janubiy frontlarga, armiya generali K.A.Meretskovga SHimoliy frontga, bevosita joylarga etib kelib umumiy rahbarlik qiliSh topShirildi.

22 iyunda uruSh boShlaniShi to‘g‘risidagi razvedka ma’lumotlari olinganidan keyin Mudofaa Xalq komissari va BoSh Shtab boShlig‘i, I.V.Stalinga qo‘Shinlarni to‘liq jangovar Shaylikka keltiriShga direktika beriShni taklif etdilar. Stalin «hali erta» deb javob berdi. Stalin «uruShni keyingi yilgacha cho‘ziShga harakat qiliSh kerak»-degan fikrni olg‘a surdi, Shuning uchun chegarabo‘yi okruglari qo‘Shinlarini to‘liq jangovar Shaylikka keltiriShga ruxsat bermadi, chunki bu harakat bilan Germaniyani uruShni boShlaShga chorlaSh mumkin-degan fikrga keldi davlat rahbari. Xuddi 1914 yilda Nikolay II singari safarbarlikni e’lon qilib, Germaniyani uruShga provakatsiya qiliSh mumkin edi. 1941 yil 14 iyunda Sovet hukumati TASS orqali quyidagi murojaatni etkazdi: «SSSR o‘zining tinchliksevar siyosatidan kelib chiqib, Germaniya bilan uruSh ochmaslik to‘g‘risidagi pakt talablarini bajarib kelmoqda va bundan keyin ham bajaradi». SHu tariqa, butun dunyo Sovet Ittifoqining Germaniyaga uruSh ochmasligini angladi. Germaniya tomonidan hech qanday javob berilmadi.

## GERMANIYA

1933-yilda Germaniyada fashistlar diktaturasi o‘rnatildi. Fashistlar armiyasi irqchilik va revanShizm ruhida tarbiyalana boshlandi. Fashistlar Germaniyasi harbiy nazariyasi uruShni hayot uchun muhim hodisa deb targ‘ib qila boshladi. Bo‘lajak urushning asosiy mazmuni deb hamma vositalar va usullarning tezkorlik bilan qo‘llaniShi va urushning qirg‘inchilik xarakteri e’lon qilindi.

1914-1918 yillarda birinchi jahon urushi tajribalarini hisobga olib gitlerchilar ikkita frontda urush olib borishdan o‘zlarini olib qochdilar.

Fashistlarning harbiy boshliqlari «Yashindek tez urush olib borish» ni tom ma’noda tanklar va aviatsiya bilan yutib chiqiShni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Qat’iy maqsadlarga tank ponalari va qisqichlari bilan duShmanni qurShab oliSh va tor-mor etib bilan erishish rejalaShtirildi. Shuning uchun Germaniyada tank uruShi, havo uruShi nazariyasi ishlab chiqildi.

UruShlarni olib borish uchun quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy dengiz va harbiy havo kuchlari yaratildi. Qo‘shinlar soni 1933-yil 1-sentyabrda 4 mln. 600 ming kiShiga etkazildi.

Quruqlikdagi qo‘Shinlar 2,7 mln. – zahirada 1 mln. Tanklar – 3195 (T-1, T-III, T-IV). Hammasi bo‘lib 51 diviziya (35-piyodalar, 3-tog‘ o‘qchilari, 4-motorlaShgan, 5-tank, 4-engil tanklar, 2 alohida tanklar va kavaleriya brigadalari).

Harbiy havo kuchlari – 4100 samolet. HHK taktik asosini eskadrilyalar (10 ta samolet) taShkil qilgan. Eskadrilyalar aviagruppalarni tashkil etgan (30-40 samolet).

Aviatsiyaga urushning birinchi kunlarida havoda hukmronlikni qo‘lga kiritish, temir yo‘l uzellarini buzib tashlash, hal qiluvchi jangovar harakatlari rayonini dushmanning front ortidan ajratib qo‘yish, jang maydonida o‘z qo‘shinlariga bevosita ko‘maklashish vazifasi yuklatildi.

Harbiy dengiz flotida – 107 ta jangovar kemalar mavjud bo‘ldi.

21 may 1935 yilda Germaniyada imperiyani mudofaa etiSh qonuni qabul qilindi. Gitler harbiy holatni joriy qiliSh, umumiy safarbarlik va uruSh e’lon qiliSh huquqini oldi.

ITALIYA

Italiyaning harbiy doktrinasi ko‘p jihatlari bilan Germaniya harbiy doktrinasiga o‘xshash bo‘lib, uzoq urush olib borish uchun imkoniyatlari yo‘qligi va hududi dengiz tomondan kuchsizligi uchun – bo‘lajak urushda dushmanni tezkorlik bilan engishga qaratilgan edi.

Qurolli kuchlar - Quruqlikdagi qo‘Shinlardan, HHk va HDF dan tashkil topgan. 1939 yil yozida Italiya armiyasida 1735 ming odam bor edi.

Quruqlikdagi qo‘shinlar asosiy qo‘shin turi bo‘lib metropoliya va mustamlaka qo‘shinlaridan tashkil topgan. Italiya bosh qo‘mondonligi qaraShlarida «kutiShga moyillik» ko‘zga taShlanadi. Shu qarashlariga asoslanib Italiya uruShning boShida unga qatnashmasligi kerak edi. Germaniya, Angliya va Fransiyani engganidan keyin Italiya tezkorlik bilan Nitssani, Savoliyani, Korsikani, Bolqon yarim orolini, Maltani, Egipetni, Suvaysh kanalini, Britaniyaga qaraShli Somalini, Sudanni, Uganda va Keniyani egallashi kerak edi.

1939-yilda Germaniya-Italiya ittifoqi tuzilganidpn keyin, Italiya hukumati o‘z armiyasi sonini ko‘paytiriSh choralarini ko‘radi.

1941-yil yozida 2,5 mln odam, 2950 ta samolyot, 1500 ta tank, 16,4 ming orudiya va minomyotlar, 132 ta katta jangovar kemalarga ega edi.

YA P O N I YA

Yaponiya harbiy doktrinasi uning siyosiy maqsadlaridan kelib chiqib, Osiyoni, Tinch okeani havzasini, Janubiy dengiz rayonlarida hukmronlik qilishdan iborat edi. Uzoq yillar davomida Yaponiyaning harbiy siyosiy rahbarlari asosiy zarbani SSSRga yo‘naltirishni rejalashtirib keldi. 1941-yil aprel oyida SSSR bilan tuzilgan betaraflik shartnomasini buzib Yaponiya Germaniyaga yordam berib keldi.

Tinch okeanida uruSh boShlangungacha (1941 yil 7 dekabrgacha) Yaponiyaning quruqlikdagi kuchlari 99 ta diviziyaga, 29 alohida brigadalarga, 18 ta alohida tank polklariga va 2625 ta samolyotlarga ega bo‘ldi.

Yaponiyaning harbiy-dengiz floti 10 ta linkorni, 10 ta avianosetsni, 36 ta kreyserlarni, 113 ta esminetslarni, 63 ta suv osti kemalarini va 1750 ta samolyotlarni o‘z ichiga oldi.

Dengiz harbiy-harakatlar teatrida harbiy-dengiz floti va avianosetslardaga kemalar (550 ta samolyot) aviatsiyasi orollar va yarim orollar hududlarida desant operatsiyalarini Ta’minlash uchun belgilandi. Dengiz desantlari safida cheklangan quruqlikdagi qo‘shinlarni jalb qilish rejalaShtirildi. Armiyaning asosiy kuchlarini quruqlikdagi harbiy-harakatlar teatrlaridagi hujum operatsiyalarida qo‘llaSh ko‘zda tutildi.

Yaponiya armiyasida mudofaa harakatlariga so‘nggi chora sifatida qaraldi. Mudofaa muxandislik munosabatida manbaali bo‘lishi ko‘zda tutildi. Yaponiya qo‘mondonligi qo‘shinni tungi sharoitlarga, hamda tog‘larda va junglilarda harakatlanish uchun tayyorlashga katta e’tibor berdi.

F R A N S I YA

Fransiyada «Pozitsion urush» doktrinasi hukumronlik qilar edi. Fransiya harbiy rahbarlarining fikricha tanklar, aviatsiya bilan kuchaytirilgan artilleriya va avtomatik qurollar bilan takomillashtirilgan mudofaa engilmas bo‘lishi kerak. Fransiyaning harbiy boshliqlari uzoq vaqtga mo‘ljallangan mudofaa inshooti Majino chizig‘iga va Belgiyaning Namyura, Leja va Antverpin istehkom rayonlariga katta umid bog‘ladilar. Shveysariya chegarasidan Longvigacha 360 km li Majino chizig‘i (harbiy ministrning nomiga atalgan bo‘lib, uning quriliShi 1929 yilda Shu ministning taklifiga binoan boShlangan edi) va Belgiya qal’alari

fransuzlarning fikricha Shveysariyadan shimoliy dengiz qirg‘oqlarigacha mo‘‘tadil frontni yaratishni Ta’minlashi kerak edi. Lekin Ikkinchi jahon urushi voqealari buning aksini ko‘rsatdi.

Urush arafasida Fransiya armiyasida bor yo‘g‘i 3 ta engil mexanizatsiyalashgan diviziya bor edi. Fransiyaining harbiy rahbariyati 1939 yildagi Germaniya-Polsha urushidan keyin to‘rtta tank diviziyasini yaratishga kirishdi.

1940 yilning 10 mayida Fransiya aviatsiyasida 1730 ta samolyot bo‘lib, ulardan 54 tasi pastlab bombardimon qiluvchi samolyotlar (pikiruyuShiy) edi. Fransiyaga qarshi boshlangan uruShdan keyin quruqlikdagi armiyada diviziyalarning soni 99 taga etkazildi.

Fransiyaning harbiy-dengiz flotida 7 ta linkor, 1 ta avianosets, 19 ta kreyser, 59 ta esminets va 78 ta suv osti kemalari mavjud edi.

1933-1939 yillardagi yo‘riqnomalarda tanklarni jangovar qo‘llash faqat taktik doiralarda iShlab chiqildi. Piyodalar diviziyasi bir eshelonda saflanib, artilleriya guruhiga va zahiralarga ega bo‘lib, 3-5 km kenglikda hujumni olib borgan. BoSh yo‘nalishda harakatlanayotgan diviziyaga 180 tagacha tank berilgan.

Hujumda tanklarning jangovar tartibi uch eshelonda tuzilgan. Birinchi eshelon (oldinga harakatlaniSh esheloni) o‘rtacha tanklardan tashkil topgan va duShmanning artilleriya pozitsiyalarini va zahiralarini bosib qo‘yish uchun belgilangan. Ikkinchi eShelon (qo‘llab-quvvatlaSh eSheloni) ham o‘rtacha tanklardan iborat bo‘lgan va duShmanning pulemyot nuqtalarini bosib qo‘yiSh va uning tayanch punktlariga front ortidan hujum qiliSh vazifasini olgan. Uchinchi eShelon (kuzatib boriSh eSheloni)-engil tanklarga ega bo‘lgan va piyodalar, artilleriya bilan yaqin hamkorlikda duShman pozitsiyalarini egallagan va ularda mustahkamlagan. Piyodalar tanklarning ortidan kichik-kichik guruhlarga bo‘linib, artilleriya zarbasining to‘suvida jangga kirgan. Motorlashgan piyodalar harakatchan zahira sifatida qo‘llanilgan.

### A N G L I YA

Angliyada uruSh arafasida «dengiz kuchlari» doktrinasi hukumronlik qilar edi. Doktrinaning maqsadi-Germaniya bilan SSSRni urushda to‘qnashtirish, G‘arbiy Evropada urush harakatlarini Fransiyaning kuchi bilan olib borish, Germaniya va SSSR urushda kuchsizlanib qolganda urushga kirish va ularga o‘z shartlarini qo‘yishdan iborat edi.

Uning qudratli harbiy-dengiz floti dengizda hukmronlikni qo‘lga kiritiSh, duShmanni iqtisodiy qamal qiliSh, va uning kuchsiz dengizbo‘yi rayonlariga zarbalarni beriSh uchun mo‘ljallangan. Flotning asosiy zarbdor kuch linkorlar bo‘lgan. Quruqlikdagi qo‘Shinlarga ikkilamchi rol berildi, chunki Evropa qit’asida inglizlar kuchli fransuz armiyasiga tayangan edi.

Ikkinchi jahon uruShining boshida inglizlarning harbiy-dengiz floti 13 ta linkorga, 6 ta avianosetsga, 50 ta kreyserga, 183 ta esminetslarga va 65 ta suv osti kemalariga ega edi.

Quruqlikdagi doimiy armiyaning safida shu paytga kelib 5 ta piyodalar diviziyalari va 1 ta zirhli diviziya mavjud edi. Tank parki zirhli diviziyaning tanklari bilan birga 600 ta tanklarga ega edi.

Harbiy-dengiz flotida 1940 yilning 10 mayida 1720 ta samolyotlar bo‘lib, ularda 474 tasi Fransiyaga yuborildi.

### A Q SH

Amerikada ham «Dengiz kuchlari» doktrinasi hukmronlik qilar edi. AQSH Angliya kabi katta dengiz kuchlariga ega bo‘lib, o‘sha vaqtlarda Flot chegaralar xavfsizligini ta’minlovchi kuch edi.

UruShda «dengiz kuchlari» doktrinasi praporsional tuzilganqurolli kuchlar doktrinasiga almaShtirildi. Chunki urush suvdamas, asosan Evropa qit’asida bo‘lib o‘tdi.

Tinch okeanida urushning boshlanish arafasida Amerikaning harbiy-dengiz floti 15 ta linkorlarga, 6 ta avianosetslarga, 18 ta og‘ir kreyserlarga, 195 ta esminetslarga va 111 ta suv osti kemalariga ega edi.

Quruqlikdagi qo‘shinlar kam sonli bo‘ldi. Amerikaning kadr armiyasi 37 ta diviziyalardan iborat bo‘lib, ulardan 5 tasi zirhli tank diviziyalarini tashkil etdi.

Harbiy-havo kuchlarida asosiy e’tibor, aviatsiyaning kuchlari bilan strategik vazifalarni hal etish uchun strategik bombardimonchi samolyotlarni qurishgan qaratildi.

Angliya armiyasidagi singari, taktik aviatsiya quriqlikdagi qo‘shinlar bilan o‘zaro hamkorlikda markazlaShgan holda qo‘llash uchun yirik birlashma va qo‘shilmalarga birlaShtirilmadi. Quruqlikdagi qo‘Shinlarni aviatsiya bilan qo‘llab-quvvatlash (hujumni aviatsiya zarbasi bilan kuzatish) aviatsiya bo‘linmalari va qo‘shinlari bilan amalga oshirildi va ular tarkibiy jihatdan ular quruqlikdagi qo‘shinlarning safiga kirganlar.

Ikkinchi jahon urushi davomida urushning oqibati dengizda emas, balki Evropa qit’asida hal etilishi bois, «dengiz kuchlari» doktrinasi praporsional tashkil etilgan qurolli kuchlar doktrinasi bilan almashtirildi.

**2. Xiva xonligini tashkil topishi.**

XVI-asr boshlarida zaiflashib borayotgan Temuriylar saltanatiga Dashti qipchoq tomonidagi o‘zbeklar xukmdori Muxammad Shoxbaxt Shayboniy xujum boshladi. Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Xisor viloyatini, 1504-1505 yillarda Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Xirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashxad va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg‘ona va Sirdaryo erlari ham Muxammad Shayboniyxonga qaram bo‘lib qoldi. Shunday qilib, Movaraunnaxr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi xukmronligi qaror topdi. Shayboniyxon janubda Eron shoxi Ismoilshox bilan to‘qnashdi. 1510 yilda Marv yaqinida bo‘lgan jangda Shayboniyxon qo‘shinlari engildi, xonning o‘zi ham xalok bo‘ldi. Taxtga Ko‘chkunchixon (1510-1530) chiqdi. Biroq shayboniy zodagonlar, harbiy qo‘mondonlar jipslashib, Ismoilshoxga qarshi kurashish o‘rniga Shayboniyxon birlashtirilgan viloyatlar va erlarni taqsimlashga kirishdilar, ular o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshox tez orada Xuroson va Xorazm o‘lkalarini, Shimoliy Afg‘onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo‘lgan Movaraunnaxrda esa Shayboniylar xukmronligini saqlab qoldi.

Xorazmda Ismoilshox xukmronligiga, uning shialik diniy mazxabiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Xisammiddin etakchilik qildi. Ular Shayboniylar avlodidan bo‘lgan Berka sultonining o‘g‘li Elbarsxonga murojat qilib, xon bo‘lishni taklif qildilar. Elbarsxon 1511 yilda qo‘shin bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshox qo‘shinlaridan tozaladi.

3. XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi.

O‘rta Osiyoda shayboniyxonlar xukmronligi davrida ikki asosiy er egaligi davlati: poytaxti Urganch bo‘lgan Xiva xonligi va poytaxti Samarqand bo‘lgan Movaraunnaxr davlati vujudga keldi. Biroq XVI asrdayoq ancha-muncha qudratga ega bo‘lgan xonlar Buxoroda yashashni avzal bilar edilar. Shuning uchun ham XVII asrda Movaraunnaxrga kiruvchi xududlar yangi nom bilan Buxoro xonligi deb atala boshlandi. Samarqand uning tarkibiy qismi bo‘lib qolgandi.

Movaraunnaxrda 100 yilgacha davom etgan Shaboyniylar davrida ham tinchlik bo‘lmadi, qirg‘inbarot urushlar, o‘zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512 yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo‘lib kelgan Ubaydullo sulton 1533 yilda Shayboniylar sulolasining oliy xukmdori etib ko‘tarildi. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko‘chkinchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy xokimiyatni Buxoroda turib boshqarardi. Shayboniy Ubaydulloxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jixatdan kuchaydi va Movaraunnaxrning siyosiy-ma’muriy markaziga aylantirildi. Abdullaxon II davrida (1557-1561 yillarda amakisi Pirmuxammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy xukmdor Abdullaxon II edi.) *1557 yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo‘lib qoladi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo‘lib kirdi.*

Farg’ona vodiysi Buxoro xonligi tasarrufida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung’arlar Farg’ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-taroj qila boshladilar. Vaziyat ichki kuchlarni birlashishga, mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab Chust yaqinidagi Chodak qishlog’i xo’jalar jamoasi o’z mulklarini mustaqil deb e’lon qildilar. Vodiydagi ming qabilasi oqsoqollari yig’ilishib, Buxoro

xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilganlar. Ming qabilasi yo'lboshchilaridan biri Shohruhbiy hukmdor (1709-1721) deb e'lon qilinadi. 1710-yilda minglar chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'dardilar va Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Shu tariqa, O'rta Osiyoda keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi. Tepaqo'rg'on Shohruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Shohruhbiyning o'g'li Abdurahimbiy (1721-1733) davrida Xo'jand, O'ratepa viloyatlari qo'shib olindi. U Shahrisabz ostonalariga qo'shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo'qonga tobelik haqida bitim tuzishga erishadi. Keyin Samarqandni va Jizzaxni egallaydi. Abdurahimbiy Xo'jandga qaytib kelgach, qattiq betob bo'lib, vafot etadi.Qo'qon xonligi taxtiga uning inisi Abdulkarimbiy o'tiradi (1733-1750).U Eskiqo'rg'on qal'asi yonida hozirgi Qo'qon shahriga asos solib, o'z poytaxtini Tepaqo'rg'ondan Qo'qon shahriga ko'chiradi.Shahar atrofini devor bilan o'ratadi.Erdona hukmronligi davrida (1751-1762) xonlikning qudrati ortdi. U O'sh va O'zganni bo'ysundirdi. Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylandi.Biroq hukmronlik davri urushlar bilan o'tdi.Toj-u taxt uchun kurash kuchaydi.Nihoyat, 1763yilda taxtga Abdukarimbiyning nabirasi Norbo'tabiy o'tqazildi (1763-1798). U dastlab Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostirdi. Xo'jandni qayta bo'ysundirdi.Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Norbo'tabiy davrida ekinlardan mo'l hosil olinib, bozorlarda narx-navo arzonlashgan.Mamlakatning qudrati o'sgan, hatto Xitoy imperiyasi Qo'qon xonligini tan olgan.Norbo'tabiy, vafot etgach, taxtga uning o'g'li Olimbek o'tqazildi.Uning davrida (1798-1810) Qo'qonning siyosiy mavqeyi yanada kuchaydi. U Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent, Sayram va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Natijada Rossiya bilan savdo yo'li ochildi.Orenburgga boradigan savdo yo'llari tutashgan joyda xonlikning chegara qal'asi Oqmasjid qurildi. U o'z davlatini 1805-yili rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qildi, o'ziga esa "xon" rutbasini oldi va uni rasman Olimxon deb atay boshlashdi. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzishga intilayotganligi ayrim qabila boshliqlari orasida keskin norozilik tug'dirdi. Natijada ular Qo'qonda "Olimxon Toshkentda o'ldi" deb mish-mishlar tarqatishadi va uning ukasi Umarbekni xon deb e'lon qiladilar. Olimxon bundan xabar topib, Qo'qonga kelayotganida fitna qurboni bo'ladi.Qo'qon xonligi davlat tuzumiga ko'ra mutlaq monarxiya edi.Davlat boshlig'i xon bo'lib u rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Xon davlatni hukmron qabila, ruhoniylar, boshqa qabilalarning hukmron tabaqalari, davlat bosbqaruvi amaldorlari va harbiylarga tayanib boshqargan. Tarixchi olim Mahmud Roji o'zining "Turkiston tarixi" kitobida 24 ta katta davlat mansabiga ta'rif bergan.Unga ko'ra, xondan keyingi o'rinda qo'shbegi turgan.U xonning birinchi maslahatchisi bo'lib, ayni paytda katta shaharlardan biriga mustaqil hokim etib ham tayinlangan.Chunonchi, Toshkent shahrini ma'lum bir vaqtda qo'shbegi boshqarganligi manbalarda qayd etilgan.Parvonachi mansabi ham o'z nufuzi jihatidan qo'shbegi vakolatiga teng bo'lgan.Bora-bora xonlikda mingboshi mansabi birinchi o'ringa chiqqan.U xonlikda bosh vazir hisoblangan.Xonlikda xudoychi mansabidagi amaldor xon nomiga yozilgan arizalarni qabul qilish bilan shug'ullangan.Ayni paytda xon yotog'i posbonboshisi, miroxur, sarbozlar boshlig'i, naqib, otaliq, dodxoh, mehtar, yuzboshi, o'n boshi kabi mansablar ham joriy etilgan.Bundan tashqari, islom shariati qoidalarining amal qilishiga mas'ul bo'lgan katta nufuzga ega lavozimlar ham bo'lgan.Bular shayxulislom, qozikalon, qozi, qozi askar, muftiy lavozimlari edi.Bu mansablarga faqat ulamolar vakillari tayinlangan.Xonlikda shig'ovul, muhtasib, daftardor, sarkor, inoq kabi mansablar ham bo'lgan. Ma'muriy-hududiy jihatdan xonlik viloyatlarga (o'n beshta), beklik va oqsoqolliklarga bo'lingan. Olimxon davrida o'tkazilgan harbiy islohotga ko'ra botirlar deb ataluvchi muntazam armiya ham tuzila boshlangan.Har bir botirga oyiga 50 tanga maosh belgilangan.

Qo`qon xonligi. O`rta Osiyodagi feodal davlat o`lib, territoriyasi asosan Farg`ona vodiysida bo`lgan, poytaxti Qo`qon shahri edi.

O`zbeklarning ming qabilasidan chiqqan xonlar idora qilgan. Sulola asoschisi Shohruxbiy 1710 yili Chodak (Chust shahridan 40 km sharqda) xojalari hokimiyatini yo`qotib, dastlab Farg`ona vodiysida Buxoro amiligidan mustaqil bir kichik mulkka asos solgan.

Shoxruxbiy o`g`li Muhammad Raximbiy hukmronligi davrida (1721 - 1740)Xo`jand, Marg`ilon shaharlarida savdo va hunarmandchilik taraqqiy etgan, yangi ariqlar qazilib, dehqonchilik, bog`dorchilik rivojlangan.

Shoxruxbiyning ikkinchi o`g`li Abdulkarimbiy (1740 – 1760 yil) Farg`onaga xujum qilgan qalmoqlarga zarba bergan. Uning davrida Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar yo`lga qo`yilib, Qo`qon, Anijon, Namangan va Marg`ilon shaharlarida savdo va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Abdulkarimbiy markaziy hokimiyatini mustahkamlash uchun feodallar o`zboshimchaligiga chek qo`yishga intilgan.

XVIII asrning o`rtalarida Farg`ona bilan qo`shni bo`lgan Jung`oriya (Qalmiqiston) Xitoy imperatori Kuen – Lun tomonidan talon – taroj qilindi, natijada jung`orlar g`arbga intilib, Farg`onaga kirib bordilar. Qonli .janglar jung`orlarning chekinishi bilan tugadi.

Biroq Farg`ona hukmdorlari mustahkam davlat apparatiga ega emas edi. Bundan turli ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi qabilalar foydalanishdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkentda hokimiyat XVI asrning mashhur shayxi Shayxontohur (Shayx Xovandi Tohur)ning avlodlari bo`lmish xojalar qo`liga o`tdi. Ularga Yunusxoja boshchilik qildi. Toshkentning turt dahasi Shayxontohur. Sebzor, Ko`kcha, Beshyog`ochning o`z hokimlari, o`z qo`shini bo`lib ular bir – biri bilan doim kurashib kelgan.

Buning oqibati – dehqonchilik tanazzulga uchradi, bog`lar vayron bo`lgan, hunarmandchilik to`xtab qolgan.

Qo`qon xonligi aholisining ko`p sonli guruhini qadimgi aholi avlodlari tashkil etgan. Ulardan bir qismi etnik va tili jixatidan – tojik tilini saqlab qolgan va toqqa yaqin hamda Pomirning tog` dehqonchilik viloyatlaridan, qisman Toshkent viloyatida yashagan.

Farg`ona vodiysining murakkab etnik tarkibini turkiylar tashkil etgan. Ular Toshkent viloyatida, Yettisuvda, qozoq dashtlarining janubiy qismida yashagan. Ularning umumiy nomi Xivadagidek "sart" bo`lgan, qirg`izlar va ko`chmanchi o`zbeklar ham aralashib ketgan. XVII asrdan ularni o`zbek deb hisoblangan quramalari (qozoqlarning o`zbeklar bilan duragayi) yashagan.

Ko`chib kelganlar – qashg`arlar, hindlar, arablar va no`g`aylar. No`g`aylar XVII asrda Rossiyadan kelib Toshkent yaqinidan No`g`oyqo`rg`on qishlog`ida joylashgan.

Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi. xonliklar xududida yer egaligining uchta turi: davlat yerlari, xususiy yerlar, vaqf yerlari mavjud edi.

Xonliklar aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug`ullanar edilar. Asosiy soliq turlari xiroj, zakot bo`lib, shu bilan birga turli majburiyatlar mavjud edi. bular Xiva xonligiga begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo`lsa, Buxoro amirligida urush paytda olinadigan favqulotda soliq jul, suv haqi va boshqalar. Qo`qon xonligida esa hashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o`rinni egallagan bo`lib, diniy mutaassiblik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko`rsatar edi. ayniqsa, xonliklar ichida etnik guruhbozlik fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to`siq bo`lar edi. undan tashqari turli urug` vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqeyga ega bo`lish uchun boshqa urug` vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarar edilar. Buni Xiva xonligidagi XVIII asr voqealarida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Bu davrda Xivada turli urug` vakillaridan xonlar ko`tarildi. Bu xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirar edi. XVIIIasr oxirlariga kelib Xiva xonligida Qo`ng`irotlarning mavqei osha bordi va 1804 yilda ular Xiva xonligi taxtini egallab, 1920 yilgacha bu xonlikda hukmronlik qilishdi. Qo`qon xonligida hukmronlik qilishgan minglar sulolasi o`zlarining tashqi istilochilik urushlari va o`zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og`irlashtirdi, Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingan ko`plab soliqlar ko`plab aholi noroziligiga sabab bo`ldi, natijada Xudoyorxon ikki marotaba taxtdan xaydalib, yana qayta taxtni egalladi. Minglar sulolasi Qo`qonda 1710 yildan 1876 yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVII – XVIII asrning birinchi yarmida bitta iqtisodiy hududdagi bir elat, bir xalqning uchta mustaqil, siyosiy xonlikka ajralib ketishi, bu hududda yashayotgan xalqlarning boshiga juda og`ir kulfatlarni keltirdi. Yanada og`irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug`lariga qarshi uyushtiradigan bekliklariga qarshi olib borgan urushlari, Qo`qon xonligining Toshkent va Xo`jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlari bitta xalqning parchalanishiga, o`zaro madaniy, savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo`ldi. Xonliklar hududidagi xalq norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg`or fikr, yangilik diniy mutaassiblarini taqibiga uchrar edi. bu paytda nafaqat boshqa xududlar bilan hatto Qo`qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o`zaro aloqasi yo`q edi. bu o`z navbatida O`rta Osiyo ilm – fanini turg`unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabbiy fanlarga e’tibor umuman yo`qoldi. O`rta Osiyo xalqlari yuvropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo`lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o`rnatilgan savdo aloqalari asosan bir guruh boylar qo`lida bo`lib, ular madaniy aloqalarga, fan texnika taraqqiyotini kirib kelishiga aytarli ta’sir ko`rsatmadi va o`lkadagi iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy vaziyat chor Rossiyaning o`z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O`rta Osiyoni osonlik bilan bosib oldi.

O`rta Osiyo xonliklarning qoloqligining sababalarini yana bir asos

1 Xonliklarda asrlar davomida o`zgarmay kelatyogan davlat idora usuli qaror topgan edi.

2 Asrlar davomida bir butun davlatning uchtaga bo`linib ketishi, ular o`rtasidagi hokimiyat uchun urushi, ichki nizolarni kuchaytirdi.

3 Dehqonlar yerga ega emas edi, shuning uchun yerning unumdorligi, hosildorligi uchun bosh qotirmas edi.

4 Etnik guruhbozlikning ildizi – yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining bo`lmaganligida edi.

5 Xon va beklarning zo`ravonligi, o`zboshimchaligi aholining ahvolini qiyinlashtirdi, turmush darajasi o`ta past edi. ishlab chiqarish faqat iste’mol uchun edi.

6 Xonlar ishlab chiqaruvchi kuchlar usishiga xalaqit bergan.

7 Xonliklar oltin gugurt, marmar, neft va boshqa qazilmalarga boy edi, lekin ularni qazib olishga befarq qaraldi, shuning uchun xonliklarda sanoat rivojlanmagan.

8 Tijorat, tovar – pul munosabatlari rivojlanmagan. Xullas, ushbu sabablar Rossiya tomonidan ularni bosib olish uchun imkoniyat yaratdi.

## XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO’QON XONLIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOLI YOMONLIGI

Olimxon hokimiyatni markazlashtirish maqsadida ichki islohotlar ham o’tkazdi. Diniy unvon hisoblangan "eshon"ni bekor qiladi. Kambag’al va qalandarlarga yer maydonlari va chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb qiladi. Ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va yolg’onchiligi fosh qilinganlarni jazolaydi. Ulamolar xonning bu xatti-harakatlaridan norozi bo’ladilar va unga qarshi fitna uyushtiradilar. 1810-yilda xonning Toshkentdaligidan foydalanib, "OlimxonToshkentda o’ldi", degan mish-mishlar tarqatishadi.Taxtga uning ukasi Umarxonni o’tqazadilar.Olimxon xiyonatdan xabar topgach, Qo’qonga qaytadi.Biroq fitnachilar tomonidan yo’lda Olimxon otib o’ldiriladi.Umarxon (1810-1822) akasi Olimxon davrida Farg’ona hokimi edi. U Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Farg’onalik tarixchi Muhammad Hakim Umarxon hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida tavsiflagan. Umarxon hukmronligining dastlabki paytlarida Buxoro bilan o’rnatilgan do’stona munosabatlar Jizzax va O’ratepa uchun azaliy kurash oqibatida yana uzilib qoldi. Bu kurash Umarxonning butun hukmronlik davrida davom etdi va ilgari bo’lganidek u tomonga ham, bu tomonga ham g’alaba keltirmadi. Qo’qon qo’shinlarining ko’chmanchi qozoq va qirg’iz elatlariga yurishlari ancha muvaffaqiyatliroq kechdi. Katta va qisman Kichik juz o’rdalarini o’z ichiga oluvchi keng hududlar Qo’qon xonligiga bo’ysundirildi. Sirdaryo bo’yidagi Yangiqo’rg’on, Sulbek, Qamishqo’rg’on, Oqmasjid, Qo’shqo’rg’on nomli harbiy istehkomlar qurdirgan.Turkiston shahrini o’z tasarrufiga olgan. Qo’qon xonligining hududi Umarxonning o’g’li va vorisi Muhammad Alixon (Madalixon) davrida ancha kengaydi. Bu gal Qo’qon qo’shinlari Farg’onaning janubida joylashgan hamda asosan tojik o’troq aholisi yashaydigan va

o'z hokimlari tomonidan boshqariladigan Qorategin, Darboz va Ko'lobga yurish qilib, bu yerlarni egalladilar. Madalixon boshqaruvining so'nggi yillarida, Qo'qon xonligida g'alayonlar kuchaygan paytida Madalining ko'ngli tusagan ishlarni qila berishini qo'llab-quvvatlovchi odamlar ta'siriga tushib qolgan yosh xon o'z marhum otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qila boshladi.Umarxon davrida xon hokimiyati bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida mustahkamlangan ittifoq buzila boshladi.Amaldorlarning ayrimlari surgun qilindi, ba'zilari qatl etildi, ba'zilari esa Buxoroga qochib ketishdi.Joylarida qolgan amaldorlar esa xon hokimiyatidan norozi bo'lganlarning hammasini o'z atroflariga yig'ib, xonni taxtdan qulatishga tayyorlana boshladilar.Bularning hammasi aholining barcha tabaqalarini Madaliga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni turli axloqsizliklarda va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi. Xondan norozi bo'lganlar unga qarshi ochiq kurashish uchun yetarli kuchga ega bo'lmay, o'z elchilarini Buxoroga Amir Nasrullo huzuriga yuborib, undan yordam so'radilar.Amir Nasrullo 1842-yilda o'z qo'shinlarini Qo'qonga yubordi.Qo'qon qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Madalixon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va Amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Amir Nasrullo hatto Madalixonning onasi Nodirabegimga ham shafqat qilmadi.Amir Nasrulloning Qo'qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.Chunki amirning Qo'qondagi noibi Ibrohim dodxoh Qo'qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham to'lashga majbur qilgan.Natijada, butun Qo'qon xonligi hududida 1842-yili katta qo'zg'olon ko'tariladi. Uning oqibatida amirning Qo'qondagi noibi va beklari hokimiyati tugatiladi. Buxoro amiri hukmronligiga qarshi qo'zg'olonni tashkil etgan mahalliy kuchlar Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan qipchoqlar madadiga tayangan edilar.Qo'zg'olon natijasida Qo'qon xonligining mustaqilligi tiklandi.Taxtga Norbo'tabiyning ukasi Hojibekning o'g'li Sherali o'tqazildi.Qo'qon xonligi mustaqilligini tiklashda minglar qabilasiga katta madad bergan qipchoqiar xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib oldilar.Qipchoqlardan Musulmonqul mingboshi etib tayinlandi. Qo'qondagi mag'lubiyatga chiday olmagan Amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qiladi. U Qo'qon shahrini 40 kun qamalda tutadi. Biroq Amir Nasrulloning qamalni davom ettirishiga Xiva xoni Ollohqulixonning Buxoro amirligiga qilgan hujumi xalaqit berdi.Amir Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.Sheralixonning hukmronligi davrida aholidan soliq undirish kuchaydi.Bu hol mehnatkash aholining noroziligini keltirib chiqardi. Bundan tashqari, davlatda muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat ishlarida o'z hukmronligini o'tkazishga, o'zbek, qirg'iz va tojiklarning mamlakat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindilar. Qipchoqlar Qo'qonga ko'plab ko'chib kela boshlagach, mahalliy aholining uy-joyini, mol-mulkini zo'ravonlik bilan ola boshladilar. Bular xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilikni kuchaytirdi.Musulmonqul 1845-yilda soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan O'sh xalqi qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan yuborildi. Bu paytda Isfara hokimi Samarqandda istiqomat qilib turgan marhum Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li Murodxonni olib kelib Qo'qon taxtiga o'tqazadi va Sheralixon o'ldiriladi. Musulmonqul o'z qo'shini bilan Namanganga keladi.Ishni avval qizini marhum Sheralixonning o'g'li Xudoyorxonga nikohlab berishdan boshlaydi.13 yoshli Xudoyorxon bu davrda Namangan hokimi edi. Shundan keyin Musulmonqul Qo'qonga kelib Murodxon va uni qo'llab-quvvatlaganlarni fitnachi sifatida ayblab, ularni qatl ettiradi. Kuyovi Xudoyorxonni esa taxtiga o'tqazadi.

Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli amalda xonlikni qaynotasi Musulmonqul boshqarardi.Shunday qilib, xonlikda qipchoqlar hukmronligi davri boshlandi. Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar, mahalliy aholini shahardan haydab chiqarib, ularning uy-joylariga o'rnashib ola boshladilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar, bundan tashqari, aholi endi suv uchun soliq to'laydigan bo'ldilar.Bularning barchasi mahalliy aholining qattiq noroziligjga sabab bo'ldi.Bu ahvol, o'z navbatida, xonlikda hukmronlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish xavfini tug'dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va rus qo'mondonligi vakili V. V. Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Bu hol Xudoyorxonni

qattiq cho'chitib qo'ydi. Ana shunday sharoitda u birdan bir to'g'ri yo'lni tanladi. Bu yo'l-qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berish edi. 1852-yili 9-oktabr kuni u Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi.Uning bu ishini mahalliy aholi qo'llab-quvvatladi. Qaynotasi Musulmonqul asir olinib, Qo'qonga keltirildi va qatl etildi. Qipchoqlarning mol-mulki musodara qilindi va mahalliy aholiga sotildi. Musulmonqul hukmronligiga xotima berilgan bo'lsa-da, ichki nizolar bu bilan barham topmadi.

# 2-modul. Ikkinchi jahon urushi yillarida qurollanish va taktika, qurolli kuchlar va qo'shinlar turlarining rivojlanishi.

## 5- Mavzu.Ikkinchi jahon urushi.

Reja

Tarbiyaviy maqsadlar:

1. Talabalarga Urush boshlanishidagi harbiy-siyosiy ahvol bo'yichaa nazariy bilim berish.
2. Talabalarga Ikkinchi jahon urushini sababi va xarakteri bo'yicha nazariy bilim berish.
3.Talabalarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

O'quv savollari:

1. Urush boshlanishidagi harbiy-siyosiy ahvol.
2. Ikkinchi jahon urushini sababi va xarakteri.

Vaqti:2 soat;
Joyi:O'quv xonasi;
Uslubi: Tushuntirish, so'zlab berish, ko'rsatish;
Shakli: ma'ruza.

Tayanch so'zlar

Polk- harbiy bo`linma;
Blitskrig- shiddatli urush ma`nosini bildiradi;
Kapitulyatsiya- butkul taslim bo`lish;
O'YUAQ (SAU)- o`zi yurar artillrriya qurilmasi.

1. Urush boshlanishidagi harbiy-siyosiy ahvol.

Birinchi jaxon urushi tugashi bilan xalqaro imperializm yangi urushga tayyorgarlikni boShlab yubordi. Imperialistik davlatlar o'rtasidagi kelishmovchilik ikkita qarama-qarshi blokning shakllanishiga olib keldi: Germaniya, Italiya a'zo bo'lgan fashistlar blogi va AQSH qo'llab-quvvatlagan Angliya-Fransiya ittifoqchilik blogi. Shu vaqtda xalqaro imperializmning butun xarakati boshlanishi muqarrar bo'lgan yangi urushda birinchi sotsialistik davlat-SSSRni tor-mor etiShga yo'naltirildi.

Angliya-Fransiya koalitsiyasi va AQSH bu maqsadlariga fashizm agressiyasini SSSRga qarShi gij-gijlab eriShmoqchi bo'ldilar. Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSH xukumatlari Germaniyaning Avstriyani bosib olganiga e'tibor bermadilar.

G'arb davlatlari xukumron doiralari o'zlarining jirkanch maqsadlari bilan faShizmni jilovlaShni va Shu bilan birga yangi jaxon uruShining oldini oliShni xoxlamadilar. Gitlerchilar Germaniyasining «tinchlikni saqlash» siyosati 1938- yilning martida Avstriyani o'z davlati tarkibiga, keyin 1938-yilning oxiri va 1939-yilning boshlarida Chexoslovakiya davlatining jaxon kartasidan yo'q qiliniShi va uni Germaniya tarkibiga kiritiliShiga olib keldi.

UruShning boshlanishi muqarrar edi. O'z xususiyatiga ko'ra Ikkinchi jaxon urushi murakkab xodisalardan iboratdir. Uning murakkabligi shundan iboratki, unda ikki g'arb militaristik guruxlarining bosqinchilik maqsadlari va xalq ommasining fashizmdan ozod bo'liShga intiliShlari jipslashib ketgan edi.

Ammo Shuni esda tutmoq lozimki, AQSH, Angliya xukumron doiralari butun uruSh davomida o'zlarining monopolistik munosobatlariga amal qilib keldilar.

Ikkinchi jaxon urushi - rivojlangan kapitalistik davlatlar orasida dunyoni qaytadan bo'lishdagi qarama-qarshiliklari sabab bo'ldi. Siyosiy va iqtisodiy notekis rivojlanib kelayotgan davlatlarni qarama-qarshiliklari ikki harbiy guruxga bo'linib ketdi. Birinchi gurux fashist davlatlar bloki, ularni asosini Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya tashkil etdi, Ikkinchi guruxga AQSH, Fransiya kirib ularni maqsadi bosib olingan koloniyalarni saqlab qolib o'z xukumronligin kuchaytiriSh.

AQSH. Fransiya va Angliya raxbarlari Germaniyani Sovet Ittifoqiga qarshi jangovar harakatlarini olib boriShga harakat qildi. Biroq Ikkinchi jaxon urushi kapitalistik davlatlar

orasida boShlandi. Germaniya 1938-39 yillarda Avstriya, CHexoslovakiya, Polshaga qarshi xujumga tayyorgarlikni boshladi.

Uzoq Sharqda Yaponiya - Shimoliy, Manjuriya, Janubiy Xitoyni bir qancha xududini okupatsiya qildi.

Sovet Ittifoqi uruShdan oldin tinchlik siyosatini olib borib, kutilayotgan xavfni kollektiv xavfsizlik tizimini tuziSh bilan chiqdi, biroq AQSH, Angliya, Fransiya reaksion doiralari agressiyani insoniyatni yangi uruShni oldini oliShda Sovet Ittifoqini ko‘magiga tayanmadilar.

Birinchi jaxon urushidan keyin g‘olib davlatlar-Angliya, Fransiya va AQSH Evropa qit’asida, Yaqin Sharqda va mustamlaka Afrikasida siyosiy va iqtisodiy xukmronlikni qo‘lga kiritdilar. Germaniya esa uruShda chekkan mag‘lubiyati natijasida jiddiy iqtisodiy inqirozga uchradi. Ammo Germaniya militarizmining ijtimoiy-iqtisodiy bazasi xali but bo‘lib, xam siyosatda, xam iqtisodiyotda monopolistik kapital xukmron edi. Bundan tashqari Germaniya o‘z qurolli kuchlarining asosini xam saqlab qoldi.

Ikkinchi jaxon urushi g‘arbiy davlatlarning jaxonga xukumronlik qilish uchun, bozorlarni, xom aShyo manbalarini zabt etish va kapital boyliklarga egalik qiliSh uchun kurashlari natijasida kelib chiqdi. Uning aybdorlari xamma davlatlarning militaristlari bo‘ldi. Ikki gurux-birinchi tomondan Angliya, Fransiya va AQSH, ikkinchi tomondan – Gitler Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va Yaponiya militaristlari jaxonga xukumronlik qilish uchun qurolli kurashga tayyorgarlik ko‘ra boShladilar. Urushdan oldingi, AQSH, Angliya va Fransiyaning Myunxen siyosati atalmish butun siyosati, gitlerchilar germaniyasini va u bilan birga Yaponiya militaristlarini va fashistlar Italiyasini, Sovet Ittifoqiga qarshi gij-gijlashga yo‘naltirildi. Shu maqsadlar bilan Angliya, Fransiya va ayniqsa Amerika militaristlari, Germaniyaga Harbiy-sanoat potensialini tiklashga yordam berib, unga Evropaning Sharqida erkin xarakatlanish imkoniyatini berdilar, Yaponiya militaristlari Osiyoda Shunday erkin xarakatlanish imkoniyatini oldi.

Myunxen kelishuvi - Germaniyaning qo‘li bilan Sovet davlatini bo‘g‘ishni orzu qilgan AQSH, Angliya va Fransiya xukumron doiralarining antisovet siyosatining kulminatsion punkti bo‘ldi.

Sovet xukumati tinchlik siyosatini olib bordi va birgalikda xavfsizlikni Ta’minlash tizimini yaratishga, agressorga xamkorlikda barxam beriSh taklifini ko‘tarib chiqdi. Lekin, AQSH, Angliya va Fransiya, Sovet xukumatining xamma konkret takliflarini rad etdi.

G‘arb davlatlari xukumron doiralari o‘zlarining jirkanch maqsadlari bilan fashizmni jilovlash va shu bilan birga yangi jaxon uruShining oldini olishni xoxlamadilar. Gitler Germaniyasining «tinchlikni saqlaSh» siyosati 1938- yilning martida Avstriyani o‘z davlati tarkibiga, keyin 1938-yilning oxiri va 1939-yilning boshlarida Chexoslovakiya davlatining jaxon kartasidan yo‘q qiliniShi va uni Germaniya tarkibiga kiritiliShiga olib keldi.

Urushning boshlanishi muqarrar edi. O‘z xususiyatiga ko‘ra Ikkinchi jaxon urushi murakkab xodisalardan iboratdir. Uning murakkabligi shundan iboratki, unda ikki g‘arb militaristik guruxlarining bosqinchilik maqsadlari va xalq ommasining fashizmdan ozod bo‘liShga intiliShlari jipslaShib ketgan edi.

Faqatgina Sovet Ittifoqining fashistlar Germaniyasining bostirib kirishi oqibatida urushga kirishi, Ikkinchi jaxon uruShini xaloskorlik, antifashist urushiga aylantirishga muxim omil bo‘ldi.

Ammo shuni esda tutmoq lozimki, AQSH, Angliya xukumron doiralari butun urush davomida o‘zlarining monopolistik munosobatlariga amal qilib keldilar.

**Ikkinchi jaxon urushini boshlanish sabablari va xarakteri**.

Ikkinchi jaxon uruShini xarakteri konkret tarixiy muxitda asoslanib bir xil kechmagan. Ikki tomonlama kuraSh bosqinchilik va noxaqlik uruShiga aylandi. Biroq xalqlarni faShist davlatlarni

agressiyaga qarShi bir tomonlama harakatlari bu uruSh ozodlik va xaqqoniy xarakterga ega bo‘ldi.

1932 yil noyabrida Germaniyada reyxstagga bo‘lib o‘tgan saylovlarda demokratlar g‘alaba qozondi. Ammo Germaniya prezidenti P. Gildenburg sustkaShlikda va so‘l kuchlarga yon bosiShda ayblandi. Yirik monopoliyalar, banklarning vakillari va generallar faShistlar tomoniga o‘ta boShladilar. Giddenburgga Germaniyaning 20 dan rotiq moliya magnatlari imzolagan noma yuborilib, unda darhol Gitlerni rexskansler etib tayinlaSh talabi qo‘yildi. 1933 yil 4 yanvarida Gitler Germaniyaning yirik va etakchi sanoatchi va sarmoyadorlari bilan majlis o‘tkazdi, unda Gitler kansler bo‘liShi kerak degan qarorga kelindi. 1933 yil 30 yanvarda Gidenburg Gitlerni Germaniyaning reyxskansleri etib tayinladi. SHunday qilib Gitler hokimyatni qonuniy yo‘l bilan egalladi.1933 yili 23 fevralda natsistlar reyxsttagga o‘t qo‘yishni uyushtirdi va buni komunistlar iShi deb takidladi radio orqali Gitler. 1933 iyl mart oyida Germaniyada yana germaniyada reyxsttagga saylovlar bo‘lib o‘tdi va bunda natsistlar 44 % ovoz oldi. 23 martda reyxsttag Gitlerga o‘z dekretlari bilan mamlakatni boShqariSh huquqini beruvchi qonun qabul qildi. Bu Gitlerga cheksiz huquqlar berdi. 1934 yil 2 avgustda preziden Giddenburg vafot etdi. Gitler “Uchinchi reyx” deb nomlana boShlandi.

UruSh natsistlar tuzumining asosiy vazifasi edi. Siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha sohalaridagi tadbirlar faqat bitta maqsad – boshqa mamlakatlarning son va sifa jihatidan bir necha karra ustun qurolli kuchlarini tuzish, Gitler rahbariyatining tajavvuzkor rejalarini tez va talofatsiz amalga oshirish imkonini beruvchi *harbiy doktirina*ni yaratishga qaratilgan edi. 1936 yilda natsistlar rahbariyati butun iqtisodiyotni urush yo‘nalishiga o‘tkazishni to‘rt yillik rejasini ishlab chiqdi. To‘rt yil ichida barcha malakatlar armiyasidan bir necha baravar ustun b0o‘lgan eng zamonaviy armiya taShkil qiliniShi lozim edi. Xuddi shu jarayon Germaniyada urushga tayyorgarlik ham jadal sur’atlarda olib borildi. 1929 yilda Germaniya ishlab chiqarish va savdo bo‘yicha etakchi o‘rinlarga ko‘tarili. Barcha imkoniyatlar qurol – aslaha ishlab chiqariShga yo‘naltirdi. “Moy o‘rniga to‘plar” - natsistlar rahbariyatining shiori shunday edi. Butun mamlakat bosh shtab tomonidan tayyorlangan harbiy doktrinaga hizmat qildi. Bu doktrina mohiyatan *blitskrig,* ya’ni shiddatli urushni ko‘zda tutar edi. Fashistlar Germaniyasining tashqi siyosati Girtler o‘zining “Mayn Kampf” kitobida ishlab chiqqan rejaga muvofiq qa’tiy ravishda amalga oshirildi. Birnichi bosqichda Germaniya nemis tilida so‘zlashuvchi barcha mamlakatlarni birlashtirishi kerak edi, ikkinchi bosqichda butun Evropani, so‘ng esa butun duyoni bosib oliShi, er kurrasida oriylar irqini hukumronligini o‘rnatiShi lozim edi. Gitlerchilar hokimyat teppasiga kelgan davrdan boShlab ularning siyosati xududiy ekspansiya va agressiyani targ‘ib qildi. Germaniyada hokimyat teppasiga faShistlar keliShi bilan Evropadagi siyosiy vaziyat keskin o‘zgardi. Gitler va boShqa Gitlerchi rahbarlarning “marksizmni bu erdan va butun dunyodan quritiSh” to‘g‘risidagi da’volari uning obro‘sini Evropa jamoatchiligi oldida va unga G‘arb taraqqiyoti uchun kuraShchi tojini kiydirdi. G‘arb davlatlari faShistlarni SSSR bilan harbiy qarShilikka kiriShiga undadilar. Biroq Gitler avval Reyin viloyatini, so‘ngra Avstriya, Sudent va, nihoyat, chehoslavakiyani bosib oliSh uchun harakat boShladi. 1936 yil iyulda Avstriya kansleri Kurt SHuShnig Germaniya bilan Shartnoma izoladi. 1939 yil 12 martda Germaniya Avstriya xududlariga bostirib kirdi. 14 martda esa Avstriya Germaniyaga qo‘shib olinganligi e’lon qilndi. 1938 yil 21 aprelda Gitler bosh Shtab boshlig‘i general Keytelga Chexosslavakiyaga bostirib kiri va uni ishg‘ol qilish rejasini ishlab chiqishto‘g‘risida ko‘rsatma berdi.

1938 yil 29-30 sentyabr Fransiya, Angliya va Italiya hukumatlari Suden viloyatini Germaniga beriSh to‘g‘risidagi Myunxen bitimi imzolandi. 10 oktyabrda qaroriga ko‘ra Chexoslavakiyaning Teshen viloyati Polshaga berildi. 2 noyabr kuni esa Germaniya tashqi ishlar

vaziri Ribbentrop va Italiya taShqi iShlar vaziri graf Chiano Vengriyaga Chexoslavakiyaning bir qismini beriSh to‘g‘risida bitm imzoladilar. SHu taxlit CHexoslavakiyani bo‘lib taShlaSh amalga oShirildi. Bunga Chexoslavakiyaning Angliya va Fransiya bilan tuzgan o‘zaro yordam to‘g‘risidagi Shartnomasi hech qanday qarShilik qila olmadi. Endi Germaniya Evropadagi eng qudratli davlatga aylandi. Gitler Angliya boSh vaziri CHemberlen bilan Angliya-Germaniya deklaratsiyasi imzoladi. Unda bundan buyon ikkala davlat hech qachon bir –biriga qarShi uruShmasligi va mojoroli masalalarni o‘zaro keliShuv yo‘li bilan hal qiliShga keliShib oldi. Ammo bu keliShuv Gitler uchun boShqa qolgan Shartnomalar kabi qog‘ozdagi bir yozuv edi holos. Deklaratsiya imzolanganidan yarim yo‘l o‘tib, 1939 yil 14 mart gitlerchilar Germaniyasi CHexoslavakiyaga bostirib kirdi, 16 martda esa Gitler Pragadagi Garchina saroyining balkonida turib CHexslovakiyaning davlat sifatida tugatiliShi va uning o‘rnida Germaniyaning Bogemiya va Moraviya protektorati (vassalligi) tuziliShi e’lon qilindi. Slovakiya alohida davlat – germaniya satelleti maqomini oldi. 1939 yil 22 martda litva hukumati - Gitlerning talabiga asosan Klaypeda – boltiq dengizidagi port – Germaniyaga topShirdi.

1938 yil noyabrida Gitler PolSha xududiga bostirib kiriSh rejasini tuziSh haqida ko‘rsatma berdi. 1939 yil 11 aprelda “Vays rejasi”ning uzul kesil varivnti tuzildi. Unga ko‘ra PolShani bir yoqli qilib, davlat sifatida tugatiSh uqtirilgan edi. Gitler PolShani har tomonlama yordamdan ajratib qo‘yiSh maqsadida 1939 yil 23 avgustida Sovet Ittifoqi bilan hujum qilmaslik to‘g‘risida bitm imzoladi.

UruShni xarakteri o‘zgariShga qarab Sovet Ittifoqi faShist Germaniyasi bilan jangovar harakatlarni olib boriShda ikkinchi jaxon uruShini asosiy qismiga aylandi. Harbiy xrakatlar va harbiy-siyosiy xarakteriga qarab ikkinchi jaxon uruShi 5 bosqichga bo‘lindi:

BIRINCHI DAVR-uruShning boShlaniShidan–Germaniyaning SSSRga bostirib kirguniga qadar(1939- y. 1.09.-1941- y 22.06.);

Fashistlar Germaniyasi va Italiyaning Evropada va Afrikada qurolli agressiyalari, Yaponiyaning Janubiy-SHarqiy Osiyodagi agressiyasining kengayiShi.

IKKINCHI DAVR-Germaniyaning SSSRga bostirib kiriShidan-qizil Armiyaning Stalingrad ostonalarida qarShi xujumga o‘tguniga qadar (1941- y. 22.06.- 1942- y. 18.11.)

FaShistlar Germaniyasining SSSRga qo‘qqisdan bostirib kiriShini qaytariSh, uruShning boriShida tubdan buriliSh yasaSh uchun qulay Sharoit yaratiSh.

UCHINCHI DAVR-Tubdan buriliSh davri (1942- y. 19.11.-1943- yilning oxiri)

TO‘RTINCHI DAVR-nemis faShistlarining batamom tor-mor etiliShi va Germaniyaning kapitulyasiyasi (1944- y. yanvar-1945- y. 9 may).

BESHINCHI DAVR-YAponiya imperialistlarining tor-mor etiliShi va Ikkinchi jaxon uruShining tugaShi (1945- y 9 may–2 sentyabr).

UruShning birinchi davri ikki koalitsiyadan iborat yirik kapitalistik davlatlarning o‘zaro oliShuvidan iborat bo‘ldi. Bu davr mobaynida nemis-faShist bosqinchilari PolSha, Norvegiya, Daniya, Fransiyaning Shimoliy qismini, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Yugoslaviya, Gretsiyani okkupatsiya qildilar, Angliyaga og‘ir talofatlar etkazdilar.

GERMANIYA VA POLSHA URUSHI.

PolShaga bostirib kiriSh uchun 53 ta diviziya, jumladan 6 ta tank va 5 ta motorlaShgan, 2 ta brigada, 2500 ta tank, 2000 ta samolyotlar jamlandi, kampaniya davomida uruShga yana qo‘Shimcha 8 ta diviziya jalb qilindi. Ular PolSha Armiyasidan Shaxsiy tarkib bo‘yicha 1,6 marta, tanklar bo‘yicha 3,2 marta, artilleriya bo‘yicha 1,3 marta, jangovar samolyotlar bo‘yicha 5 marta ustunlikka ega edilar.

FaShistlar qo‘mondonligining maqsadi, ikkita kuchli aylanma zarbani VarShava yo‘naliShiga beriSh, PolSha armiyasini qurShab oliSh va bitta strategik operatsiyada Visla daryosining janubrog‘ida tor-mor etiSh, polyaklarning jang olib boriSh qobiliyati yuqori qismlarini davlatning Sharqiy qismiga chekiniShiga yo‘l qo‘ymasdan yakson etiShdan iborat edi.

Gitler bosqinchilariga qarShi PolSha qo‘mondonligi 36 ta piyodalar diviziyalarini, 11 ta (kavaleriya) otliq, 2 ta mexanizatsiyalaShgan brigada, 860 ta engil tanklar, 420 ta samolyotlar va 12 ta jangovar kemalarni qarShi qo‘ydi.

Germaniya-PolSha uruShi 1939- yil 1-sentyabrda nemis-faShistlar aviatsiyasining PolSha aerodromlariga, temir-yo‘l stansiyalariga va Shtablariga to‘satdan zarbasi bilan boShlandi.

PolSha mudofaasining asosiy yo‘naliShlarda yorib o‘tiliShi tank va motorlaShgan diviziyalar bilan amalga oShirildi. Qanotlar piyoda qo‘Shinlarning xarakatlari bilan ta’minlandi. Quruqlikdagi operatsiyalar o‘tkaziliShidan oldin artilleriya va aviatsiya tayyorgarligi o‘tkazildi.

SHimoldan va janubdan berilgan zarbalar natijasida Germaniya qo‘Shinlari uch kun ichida PolSha frontining mudofaasini butun chuqurligida yorib o‘tiShni amalga oShirdilar. Tank va motorlaShgan diviziyalar eriShilgan muvaffaqiyatni front ichkarisida, chuqurlikda rivojlantira boShladilar. Ularga aviatsiya va tanklar bilan qilingan xamkorlik katta qulaylik yaratdi.

9-sentyabrda PolSha armiyasi jiddiy talofatlarga uchradi. Lekin Shunga qaramasdan nemis qo‘Shinlari VarShava rayonida qattiq qarShilikka uchradilar. VarShava garnizoni va xalqi faShistlarning xarakatlaniSh mobaynida PolSha poytaxtini egallaShga uriniShlarini barbod etdi. VarShava mudofaasi 20 sutka davom etib (8-27 sentyabr), Ikkinchi jaxon uruShi tarixida yirik Shaxarning mudofaasini taShkil etiSh va uni olib boriShning timsoli bo‘ldi. Modlin qal’asi garnizoni 30- sentyabrgacha qaxramonona jang qildi, Gdin dengizchilari 2- oktyabrgacha duShmanning suvdan va quruqlikdan bergan xamma zarbalarini o‘q - dori va oziq - ovqat tugagungacha qaytarib turdilar.

Germaniya-PolSha uruShi natijasida PolSha mag‘lubiyatga uchradi. PolSha xalqi faShistlarning qattiq okkupatsiya qulligiga qoldi, davlat raxbarlari Ruminiyaga qochib ketdi.

Germaniya-PolSha uruShi Harbiy san’atning rivoji uchun katta axamiyatga ega bo‘ldi. U Harbiy xarakatlarni boShlaShda, ayniqsa bombardimonchi aviatsiya va bronetank qo‘Shinlari birlaShmalarining to‘satdan strategik zarba beriSh roli oShganini ko‘rsatdi.

Quruqlikdagi qo‘Shinlar kichik, tor frontda, Harbiy xavo kuchlari bilan yaqindan turib xamkorlik qilib, ko‘plab tanklarni joylaShtirib, keyin xujumga o‘tdilar. BoSh zarba beriSh yo‘naliShlarida tanklarning joylaShtiriSh qalinligi frontning xar bir kilometrida 50-80 ta maShinaga etdi. Tank diviziyalarining va ularning safidan oldinga jo‘natiladigan (50 km gacha) ilg‘or otryadlarning muvaffaqiyatli xarakatlari, PolSha qo‘Shinlarining ko‘plab tanklar qo‘llanilgan Sharoitlarda mudofaa xarakatlarini olib boriShga tayyor emasligi va ularda tankka qarShi artilleriyaning etarli darajada bo‘lmaganligi bilan tuShuntiriladi.

Angliya va Fransiya 1939- yil 3 sentyabrda Germaniyaga uruSh e’lon qildi. Lekin ikkala davlat xam o‘zlarining ittifoqchilari bo‘lgan PolShaga yordam ko‘rsatmadilar. Ularning armiyalari 8 oydan ortiq Germaniya chegarasi yaqinida xech qanday jangovar xarakatlar olib bormadi. Bu «g‘alati uruSh» edi. Uning siyosiy maqsadi, Angliya va Fransiya xukumron doiralari xali xam Germaniya SSSRga qarShi uruSh ochadi, ular bilan uruSh xarakatlarini olib bormaydi deb iShonganligidadir.

ANGLIYA VA FRANSIYAGA QARSHI URUSH.

FRANSIYANING TEZLIK BILAN MAG‘LUBIYATGA UCHRASHINING SABABLARI.

FaShistlar Germaniyasi bilan uruShga tayyorgarlik ko‘rib, Angliya, Fransiya qo‘mondonligi, Harbiy xarakatlar boShlaniShi bilan o‘zlarining kuchli qo‘Shin guruxlarini SHimoliy Fransiyadan, betaraf Belgiya va Gollandiya xududlariga olib chiqiShga qaror qildilar. Bu davlatlar armiyalari bilan birlaShib, Angliya-Fransiya guruxlari birgalikda Belgiya va Gollandiya chegaralarini ximoya etiShi va nemislarning berilajak boSh zarbalarini Shu erda qaytariShlari kerak edi.

SHu reja asosida ittifoqchilar Germaniyaga qarShi SHimoliy-Sharqiy Harbiy-xarakatlar teatrida 143 ta diviziya, 3000 ta tank, 2700 ta dan ortiq samolyotlar tayyorladilar. Fransiya armiyasi uchta armiya guruxiga bo‘lindi, ulardan birinchisi – eng kuchlisi - Belgiyaga kiriShi kerak edi.

Nemis-faShist qo‘mondonligi 135 ta diviziya va 1 ta brigadani, 2600 ta tank va 3500 ta samolyotlarni ularga qarShi taShladi. Bu qo‘Shinlar «A», «V», «S» armiya guruxlariga

birlaShtirildi. «A» armiya guruxi – 45 ta diviziya va 3- xavo armiyasidan, «V», armiya guruxi – 29 ta diviziya va 2-xavo armiyasidan, «S», armiya guruxi – 19 ta diviziyadan iborat edi, va boSh qo‘mondonlik zaxirasi 42 ta diviziyadan taShkil topdi.

FaShistlar qo‘mondonligining maqsadi, Fransiya, Belgiya, Gollandiya xududlarida joylaShgan ittifoqchilar qo‘Shinlariga chuqur va kuchli zarbalar beriSh, La-ManSh bo‘g‘ozi qirg‘oqlariga chiqiSh, ittifoqchilar qo‘Shinlarini bo‘lib taShlaSh, ularning asosiy kuchlarini qurShab olib, SHimoliy Fransiya va Belgiyada tor-mor etiShdan iborat edi.

Asosiy zarbani «A» armiya guruxi Arden tog‘lari yonidan Lyuksemburg, Abvil yo‘naliShlariga, La-ManSh bo‘g‘ozi bo‘ylab, Majino liniyasini Shimoldan aylanib o‘tib beriShi ko‘zda tutildi. «A» armiya guruxi, «B» guruxi bilan birgalikda ittifoqchilarning kuchli birinchi armiya guruxlarini qurShab oliShi va tor-mor etiShi kerak edi.

«B» armiya guruxining vazifasi, «A» armiya guruxi ittifoqchilar qo‘Shinlarining ortidan aylanib o‘tib kiriShi paytida, o‘zining chap qanoti bilan Belgiyada ittifoqchilar qo‘Shinlariga zarba beriSh va ularni xoldan toydiriShdan iborat edi.

«S» armiya guruxi Majino liniyasi qarShisini ximoya etiSh va Shu erda fransuz qo‘Shinlarini xoldan toydiriSh vazifasini oldi.

1940 - yil 10 mayda nemis-faShist qo‘Shinlari xujumga o‘tdilar. Tongda birinchi zarbani faShistlar aviatsiyasi 3500 ta samolyoti bilan Fransiya aerodromlariga 300 km. chuqurlikda bera boShladi. Natijada nemislar xavoda xukumronlikni qo‘lga kiritdilar. Bir vaqtning o‘zida xavo desantlari ko‘plab suv to‘siqlaridagi ko‘priklarni, istexkomlarni, tayanch punktlarini bosib olish uchun Gollandiya va Belgiya xududiga tuShurila boShlandi.

FaShistlarning bostirib kiriShi bilan ittifoqchilar qo‘mondonligi o‘zining noto‘g‘ri rejalari asosida birinchi guruxdagi boSh kuchlardan iborat armiyalarni Gollandiya va Belgiyaga kiritiShga buyruq berdi. Bu erda nemislarning ikkilamchi kuchlari - «B» armiya guruxi va ittifoqchilarning asosiy kuchlari o‘rtasida jang xarakatlari boShlanib ketdi. Bu xolat Kleystning shu vaqtda Arden orqali kelayotgan tank guruxining xarakatlarini engillashtirdi. Uch sutka mobaynida bu gurux 100-120 km. ilgarilab ketib, 13 mayda 100 kmli frontda Maas daryosi bo‘ylariga chiqdi. Maas daryosini kechib o‘tiSh xarakatlaniSh mobaynida, 14 soat vaqt ichida amalga oShirildi. 1940- yilning 20 mayida Kleystning boSh qo‘Shinlari Dyunkerning janubrog‘idan La-ManShga chiqdilar.

Nemis-faShistlarning «A» va «B» guruxlarining birgalikdagi xarakatlari natijasida 25 mayda ittifoqchilar qo‘Shinlari SHimoliy Fransiyada va Flandriyada siqib qo‘yildi. Belgiya armiyasi kapitulyasiya qildi. Angliya armiyasi 28 maydan 4-iyun oralig‘ida Dyunkerdan evakuatsiya qilindi.

5 iyunda nemis-fashist qo‘shinlari kuchsizlanib qolgan fransuzlar armiyasiga Somma daryosi buyida qattiq zarba berdilar. Bir necha chuqur zarbalar berib, ular Fransiyaning markaziy rayonlariga bostirib kirib, Parijni egalladilar. Bu operatsiyalarning xarakterli tomoni, faShistlar qo‘mondonligi tomonidan bir emas, xar biri uchtadan mexanizatsiyalaShgan korpusni o‘z ichiga olgan uchta tank guruxining qo‘llanilishi edi. Ular kuchli chuqur zarbalar berib fransuz armiyasini tor-mor etishni oxiriga etkazdilar. 1940- yil 22-iyunda Fransiya xukumati Gitler bilan tinchlik sulxini imzoladi.

Fransiyaning tezlik bilan mag‘lubiyatga uchraShining sabablari:

1. *FaShizm oldida kapitulyasiya qilgan Fransiya burjuaziyasining sotqinligi.*
2. *Fransiya Harbiy tizimi va Harbiy doktrinasining eskirganligi.*
3. *Angliya va Fransiya armiyalarining zamonaviy urush olib borishga tayyor emasliklari.*
4. *Ularda yirik aviatsiya, tank va motorlashgan birlashmalarning yo‘qligi.*
5. *Dushmanning bosh zarba berish yo‘nalishini aniqlashdagi xatolik.*
6. *Nemis - fashist qo‘mondonligining asosiy kuch va vositalarini bosh zarba beriSh yo‘nalishlarida moxirona jamlaShi.*
7. *Nemis- fashist qo‘mondonligining tank va mexanizatsiyalashgan birlashmalarini muvaffaqiyatni rivojlantirish uchun qo‘llaganligi.*

## GERMANIYANING ANGLIYAGA QARSHI KURASHI.

Fransiyaning mag‘lubiyatidan so‘ng faShistlar Angliyaga tinchlik sulxini tuzishni taklif etdilar. Taklif qabul qilinmadi. Shundan so‘ng gitlerchilar Angliyaga bostirib kirishga tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Xavodan xujumni amalga oshirib, ular Britaniya qarshiligini engib, uni tinchlik sulxini tuzishga majbur qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Xavodan berilayotgan zarbalar Britaniya orollarini suvdan qamal qilish bilan birgalikda olib boriliShi kerak edi.

Avgust boShlarida Angliya qiruvchi samolyotlarining soni nemislarnikidan ortiq bo‘lib (700 ta inglizlar qiruvchi samolyotlari, 578 ta nemislar qiruvchi samolyotlari), bombardimonchi aviatsiya bo‘yicha ustunlik nemislar tomonida edi (1600 ta nemislarda, 436 ta inglizlarda). Inglizlar zaxirasida yana 300 ta qiruvchi samolyotlar mavjud edi.

Germaniya Angliyaga uruSh ochiSh uchun dengizda xukumronlikka erishmagan edi. Norvegiya operatsiyasi davomida flotdagi yo‘qotishlari oqibatida Germaniya 1940- yil yozida va kuzida etarli darajadagi kemalarni to‘play olmadi. Buning ustiga Angliya qo‘mondonligi tez orada, flot, aviatsiya, qirg‘oq bo‘yida eshelonlashtirilgan pozitsiyalarning va quruqlikdagi kuchlarning xamkorligida qudratli  mudofaani yaratdi.

Fashistlar Harbiy Xavo kuchlari va armiyani Angliya bilan kurashda kuchsizlashtirishni xoxlamasdan, o‘zlarining asosiy kuchlarini Sovet Ittifoqiga qarshi to‘play boshladilar. Mana Shu vaziyatni e’tiborga olib, 1940- yilning kuzida Angliyaga bostirib kirish rejasi bekor qilindi va u Sovet Ittifoqining e’tiborini chalg‘itiSh uchun niqobli tadbirga aylandi.

Shu bilan bir vaqtning o‘zida 1940- yil avgust-noyabrida Germaniya Harbiy Xavo Kuchlari (XXK) (2, 3, va 5 xavo flotlari) Angliyaning Harbiy-iqtisodiy potensialini izdan chiqariSh uchun mustaqil operatsiya o‘tkazdi («Angliya uchun kuraSh»). Britaniya Shaxarlariga anchagina talofat etkaziShlariga qaramasdan, Germaniya XXK o‘z maqsadalari-Angliyani uruShdan chiqariShga eriSha olmadilar.

Germaniya XXK olib borgan strategik operatsiyaning muvaffaqiyatga eriSholmaganining sababi, Germaniya XXK qo‘mondonligining ingliz qiruvchi aviatsiyasining sonini noto‘g‘ri baxolaganligi, XXM kuchlarining, xamda Britaniya aviatsiya iShlab chiqariSh sanoatining  iShlab chiqariSh qobiliyatini va tezkorlik bilan uchuvchilarni tayyorlay oliSh imkonimyatlarini xisobga olmaganlidir. Nemis XXK lari xavoda o‘z xukumronliklarini saqlab qoliSh uchun birinchi zarbani to‘satdan bera olmadilar. Germaniya qo‘mondonligi aviatsiya kuchini bir necha ob’ektlar bo‘yicha noto‘g‘ri sarflab, zarba beriSh tartibini buzdi: eski niShonlarga zarba beriShni oxirigacha etkazmasdan, zarbani yangi niShonlarga ko‘chira boShladi. Angliya aviatsiyasi Shaxsiy tarkibi asta-sekin tajriba orttirib, duShmanga qattiq qarShilik ko‘rsatdi.

Germaniya XXKlari strategik opreatsiyasining va umuman Britaniya orollariga qilingan xujumning inqirozga uchrashining asosiy sababi-bu nemis fashistlarining SSSRga qarshi urush ochiShga qaror qilganliklaridir. Sovet Ittifoqining agressiyani qaytarish uchun ko‘rayotgan tayyorgarlik omilining o‘zi Angliyani mag‘lubiyatdan qutqarib qoldi.

## SOVET QO‘SHINLARINING QARSHI XUJUMGA TAYYORGARLIGI.

Noyabr o‘rtalarida sobiq itttifoq jangchilari Stalingrad ostonasida muxim jangni davom ettiriShardi. Angliya va AQSH xali xam Evropada ikkinchi frontni ochiShmagan edilar. Bunga qaramay itttifoq-german frontida vaziyat sobiq itttifoq ittifoqi tarafiga o‘zgara boshladi.

Nemis-fashist jangchilarining itttifoq-german frontining janub kanotiga qilingan xujumi asosan to‘xtatib kolindi. Gitlerchilar qo‘mondanlari butun itttifoq-german fronti bo‘ylab jangchilarni ximoyaga o‘tishga buyro‘q berishdi dushman ximoya chizig‘ini tayerlaShga o‘tdi. Katta yo‘qotishlarga qaramasdan nemis-fashist qo‘shinlari xali xam katta kuchga ega edilar. 1942 yilning noyabr boShlariga kelib, 266ta diviziya (6,2ming jangchi va ofitserlar), 51680ta zambarak va minomyotlar, 5080ta tank va zabt etuvchi to‘plar va 3500ta jangovor samolyotlarga ega edilar.

Bu vaqtga kelib sobiq Itttifoq armiyasi xam o‘z kuchini tiklab oldi. Xarakatdagi armiyada 391ta diviziya va 6,6mln odam, 77850ta zambarak va minometlar, 7350ta tank va

o‘zi yurar artilleriya uskunalari, 4544ta jangovar samolyotlar bor edi. Dushmanning kuch va texnikalardagi ustunligi yo‘q qilindi.

Yuqori oliy qo‘mondonlik yuzaga kelgan vaziyatni xisobga oldi va 1942y 1943y qiShiga harakat rejasini to‘zib oldi. Bo‘lajak harakatlarning maqsadi duShmandan strategik ustunlikni tortib oliSh va Vatan sarhadlaridan siqib chiqariShdan iborat edi.

Operatsiyaning birinchi kuni Don fronti tarkibidagi ayrim qismlari hujumga kirishdi, gitlerchilarning qattiq qarShiligiga uchrab, jangchilar atigi 3-5 km ichkariga surilishga muvaffaq bo‘ldilar. Bunda duShman himoya chizishning ayrim joylarini yorib o‘tishga imkon topildi.

Zambaraklarning qaqshatqich zarbalaridan so‘ng 20 noyabrda Stalingrad frontining umum jangovar armiyasi hujumga o‘tiShdi. Dushman himoyasi yorib o‘tildi. Yorib o‘tish vaqtida mexanizatsiyalaShgan va tank qo‘shinlari, oylik askar birikmalari qatnashdi. Stalingrad fronti jangchilari bir kunda 10-16 km ichkariga siljiShga muvaffaq bo‘liShdi.

DuShman himoyasi yorib o‘tilgandan so‘ng Janubi-g‘arbiy Stalingrad fronti jangchilari xujumni ichkarida olib boriShga imkon yaratildi. Tank va mexanizatsiyalaShgan bo‘linmalar gitlerchilarning hujumlarini qaytarib, dushman qo‘l idagi aholi punktlari uchun uzoq cho‘ziladigan janglarga kirmay turib, dadillik bilan manevrlar o‘tkazib kuniga 50-70 km siljishga muvaffaq bo‘lishdi.

1942 yilning 23 noyabrida Sobiq Ittifoqskiy tumanida janubi-g‘arbiy va Stalingrad frontlari jangchilarining tarixiy uchraShuvi bo‘lib o‘tdi. Buning oqibatida nemis-faShist jangchilarining katta guruhi, ya’ni 22 ta diviziya va 160 ta alohida qismlari, 6-dala va 4-tank armiyasi, umumiy soni 30 ming askar va ofitserlardan tashkil topgan armiyasi qurshovda qoldi.

QurShovdan chiqish maqsadida fashist qo‘mondonlari itttifoq olmon frontining boshqa joylarida zahirada turgan, shu jumladan g‘arbiy Evropadan ham askarlar keltira boshladi. Stalingrad ostonasida turgan jangchilar bilan zahiradagi etib kelgan jangchilar 30 diviziyadan iborat bo‘lib, "DON" armiya guruhini tashkil ettirdi. Bu guruh bo‘linmalari Kotel’nikov, Tomosin tumanlaridan Stalingradga xujum uyushtirib, Itttifoq armiyalarining tashqi frontdagi qurshovini yorib o‘tib, 6-armiya bilan qo‘shilib Stalingrad yo‘naliShidagi vaziyatni tiklashlari kerak edi.

Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun itttifoq qo‘mondonligi qurShovdagilar janglarni vaqtincha to‘xtatib, asosiy kuchni tashqi frontdagi yordamga kelayotgan jangchi-larni tor-mor etishga qaratishga kelishildi. Dekabr o‘rtalarida shu maqsadda Voronej frontining chap qanoti va janubi-g‘arbiy frontning o‘ng qanoti hujumga o‘tiShi rejalashtirib qo‘yildi.

12 dekabrda "Don" armiya birikmalari qurshovdan chiqarish operatsiyasini boshladi. Dushmanning zarba beradigan bo‘linmalarining 650 dan ko‘p tanklari Katelnikov tumanidan hujumga o‘tdi.

Bu vaziyatda Don fronti tarkibidan Stalingrad frontiga general R.YA. Malinovskiy boshchiligidagi 2-gvardiya armiyasi qo‘shib borildi. Uning bo‘linmalari Mashkova daryosiga siqib, chekingan Stalingrad fronti jangchilari bilan birga og‘ir himoya jangida gitlerchilarni to‘xtatib qolishdi.

1942 yilning 16 dekabrida kuchli artilleriya va aviatsiya hujumidan so‘ng Voronej frontining 6-armiyasi va janubi-g‘arbiy frontning o‘ng qanoti hujumga o‘tdi.

3 kunlik qaqshatqich janglardan so‘ng dushman himoyasi yorib o‘tildi. 8-italiya armiyasining hujumni qaytarishga qilgan urinishlari foyda bermadi. itttifoq o‘qchilari va tank bo‘linmalarining hujumlaridan so‘ng tushkunlikka tushib qolgan italiya va nemis jangchilari uyushqoq jang olib borish qobiliyatini yo‘qotib qo‘yiShdi va tartibsiz janubi-g‘arb tomon chekinishga o‘tishdi. Opretsiya vaqtida itttifoq jangchilari bir necha kun davomida 8-italiya armiyasini va 3-rumin armiyasining qoldiqlarini bo‘t unlay tor-mor etdi.

Shunday qilib, nemis-fashist qo‘mondonlarining Stalingrad ostonasida qurshovda qolganlarni ozod etish urunishlari zoe ketdi. Shu vaqtga kelib, front chiziSh ulardan 200-250 km ga surildi.

Qo‘mondonlikda ko‘zlangan maksadlarga erishish uchun itttifoq-german frontining janubiy qanotida nemis-fashist jangchilarini tor-mor qilish maqsadida Volga va Don, 2 daryo oraligida xal etuvchi xujumga o‘tishga, bundan so‘ng Shimoliy kavkazga, yuqori Don va Leningrad ostonalariga zarba berishga kelishildi. Gitlerchilar qo‘mondonligi, sobiq Itttifoq Armiyasi qurilgan katta talofatlardan yaqin orada xujumga o‘ta olmaydi deb o‘ylagandi. Shundan kelib chiqib fashist generallari butun front chizig‘ida bosib olingan sarxadlarni ushlab turishga qaror qildi, buning natijasida hujumga o‘tish uchun sharoit yaratish va 1943 yilning o‘zida sobiq Itttifoq Armiyasini bo‘t unlay tor-mor etiShdan iborat edi.

Genbral va ofitserlar va frontlar harbiy kengashlarining mashaqqatli mehnatlaridan so‘ng hujumga o‘tish operatsiyasi ishlab chiqildi. Bunga ko‘ra Serafimovaning janubi-g‘arbiy tomonidan va Stalingradning janubidagi Saransk ko‘llari tomonidan qaqshatqich zarba berish va dushmanni tor-mor etish, yon chiziqdan itttifoq tomonlarga xujumni kuchaytirib, stalingrad ostonasida xarakatlanayotgan dushmanning asosiy kuchlarini qurshab olish va tor-mor etiShdan iborat. Bu rejaning nomi "Uran" deb nomlandi.

1 Stalingrad yo‘nalishidagi muxim xujumda itttifoq jangchilariga "B" armiya bo‘linmalari qarshilik ko‘rsatar edi, u o‘zining tarkibiga 1 miliondan ko‘p askar va ofitserlar, 675 ta tank va zabt etuvchi to‘plar, 10,3 mingga yaqin zambarak va minomyotlar, 1216 ta jangovar samolyotlar olgan edi.

Bu bo‘linma jangchilariga 3 ta itttifoq fronti xarakat qilar edi: Janubi-g‘arbiy general N.F Bogutin boshchiligidagi, general K.K.Rokkosovskiy boshchiligidagi Don va general A.I.Eremenko boshchiligidagi Stalingrad frontlaridir. Uning tarkibiga 1 mln. itttifoq jangchilari, 15,5 ming zambarak va minomyotlar, 1463 ta tank va o‘ziyurar artilleriya uskunalari, 1350 ta samolyotlar kirar edi. Og‘ir qo‘mondonlikka duShman kuchlari ustidan katta ustunlikka erishishga yo‘l qo‘ymadi.

Stalingrad ostonasidagi Itttifoq armiyasining hujum rejasi vaziyatni real baholaShga asoslangan bo‘lib, rejalashtirish vaqtida bir vaqtning o‘zida ichki va taShqi qurShov frontlarini tashkil etish ko‘zda to‘t ilgan edi. Ichki qurshov fronti tank, mexanizatsiyalaShgan va qisman otliq askar bo‘linmalaridan tashkil etilgan edi. Ular frontning asosiy zarba yo‘nalishlariga hujum qilishlari, dushmanning asosiy kuchlarini qurshovga olShpni yakunlashlari kerak edi. Tashqi frontga o‘qchi va otliq askar bo‘linmalari ajratildi.

Frontlarni operativ tuzilishi bir eshelonli, umumjangovar armiya asosan, 2 eShelonli to‘zilishga ega bo‘lishi ko‘zda to‘t ildi. Frontlar hujum chizig‘ining eni 85 dan 180 km gacha, armiyaniki esa 35 dan 110 km gacha atrofida edi, Frontlar dushman himoyasini 2-3 oydan, armiya esa eni 5 dan 16 km gacha keladigan oyni yorib o‘tiShdi. Rejadagi operatsiyalarning frontlar uchun 60-140 km armiya uchun 50-60 km dan 110-140 km gacha ichkariga siljishni tashkil etdi, opera-siyaning davom etish vaqti 2-3 kunga tenglashtirildi.

Ko‘zda to‘t ilgan hujum surati 25-45 kmni tashkil etdi. Keskin suratda kuch va yordamchi vositalarni jamlash, asosiy xujum chizig‘ida 2-3 baravar texnikada va odamda ustunlikka erishishga olib keldi. Ularning bo‘linmalari birlamchi kuchli zarbaga ega edilar va operatsiya davomida muvaffaqiyatli hujum olib borishlari mumkin edi.

Reja bo‘yicha ko‘zda to‘t ilgandek, 1942 yilning 19 noyabrda Janubi-g‘arbiy front jangchilari soat 11 larga yaqin 4-5 km ichkariga siljishga muvaffaq bo‘lishdi, bunga tank qo‘shinlari tashlangan bo‘lib, qarShi hujumga o‘tib duShman qarShiligini tamoman sindirishdi. Tank qo‘shinlari ketidan otliq askarlar hujumga tashlandi. Kun oxiriga kelib frontiing harkatdagi jangchilari 25-30 km ichkariga kirishga muvaffaq bo‘lishdi.

1943 yilning 8 yanvarida ortiqcha qon to‘qiliShini oldini olish uchun qurshovda qolgan dushmanga qurolni tashlash to‘g‘risida ultimatum topshirildi. Konstitutsiya sharti jahon bitimlari asosida to‘zilgan edi, Shunga qaramay ultimatum rad etildi.

1943 yil 10 yanvarining tongida qurShovdagilarni yo‘q qiliSh uchun kiriShildi "halqa" nomini olgan Stalingrad ostonasidan gitlerchilarni tor-mor qiliSh bo‘yicha oxirgi operatsiya boShlandi.

Yanvarning oxiriga kelib duShman bo‘linmalari 2 ta alohida tashqi yordamdan ajratilgan guruhlarga bo‘lib yubordi. Janubiy bo‘linma tarkibiga kiruvchi Paulyus boShchiligidagi 6-armiya 31 yanvar kuni kapitulyasiya qiliShini bildirdi. 2 fevral kuni itttifoq armiyasining artilleriya hujumidan so‘ng, yangi texnikaga ega bo‘lgan katta dushman bo‘linmasi qurshovga olinib yo‘q qilindi. Jang maydonining o‘zida 140 ming jangchi va ofitserlarning jasadlari topilib ko‘milgan. Itttifoq jangchilari 91 mingdan ziyod, Shuningdek 2500 ofitser va general-feldmarshar Paulyus boShchiligida 24 ta general qo‘l ga olindi.

330 minglik duShman armiyasining qurShovda qolish va tor-mor qiliniShi faShist olmoniyasi uchun ham ma’naviy ham moddiy mag‘lubiyat bo‘ldi.

O‘tkazilgan ikkita desant operatsiyalaridan, «Overlod» («Xukmronlik») maxfiy nomini olgan Normandiya desant operatsiyasi asosiysi edi. Desant operatsiyasining maqsadi, 80 km kenglikda bir vaqtning ызida beShta piyodalar diviziyalarini qirg‘oqbuyida va qirg‘oqdan 15-20 km ichkarida uchta xavo-desant diviziyalarini tuShuriSh, taktik platsdarmlarni egallaSh, keyin ularni birlaShtiriSh va yigirmanchi kunning oxirida uni front bo‘yicha 100 km gacha, front chuqurligida 100-110 km ga kengaytiriShdan iborat edi. Keyinchalik xujumni janubiy, Sharqiy yo‘naliShlarda rivojlantiriSh va 90-kunning oxirida Sena va Luara marralariga chiqiSh rejalaShtirildi.

Desant tuShuriliShini to‘satdan amalga oShiriShga eriShiSh uchun, ittifoqchilar qo‘mondonligi kuch va vositalarni jamlaShni duShmandan yaShiriSh, duShman razvedkasi bilan kuraShiSh va desant tuShuriliShi vaqti va rayoni to‘g‘risida uni chalg‘itiSh bo‘yicha keng tadbirlarni amalga oShirdi.

Bostirib kiriShdan oldin ikki oy mobaynida aviatsiya tayyorgarligi o‘tkazildi. Aviatsiya bomba zarbalari ko‘priklarga, temir yo‘l stansiyalariga, aerodromlarga berildi. Natijada qo‘Shin tuShuriliShi kerak bo‘lgan rayonlar duShman zaxiralaridan ajratib qo‘yildi.

Desant operatsiyasi 1944- yil 6 iyunga o‘tar kechasi aviatsiya tayyorgarligi va uchta xavo-desant diviziyalarini suv buyidan 15 km ichkariga taShlaSh bilan boShlandi. Bu vaqtda ittifoqchilar floti, xech qanday qarShiliksiz, La-ManShdan o‘tib 6 iyun ertalab Fransiya qirg‘oqlaridagi yoyiliSh rayonlariga etib keldi. Desant tuShuriliShidan 40 daqiqa oldin kemalar artilleriyasi kuchlari bilan artilleriya tayyorgarligi boShlandi.

Desant tuShuriliShi daryoda suvning ko‘tariliShi va pasayiShini xisobga olib o‘tkazildi. Suv pasayiShi davrida suzuvchi tanklar to‘suvida Shturmchi guruxlarning tuShuriliShi boShlandi, ularning vazifalari, o‘z zarbalari bilan saper guruxlarining to‘siqlarni tozalaSh iShlarini ta’minlaShdan iborat edi. Suvning ko‘tariliShi bilan asosiy kuchlarning tuShuriliShi boShlandi. Xar bir diviziya, platsdarmlarni egallaSh vazifasini bilan, 1-eShelonning 1-2 ta kuchaytirilgan polklarini o‘z safiga olgan bo‘lib, 6-10 km li uchastkalarga tuShirildi.

Birinchi kunda beShta piyodalar diviziyalari tuShurilib, ular xavo desanti bilan birlaShdilar. Muvaffaqiyatga, birinchidan, gitlerchilar qo‘mondonligi qo‘Shin tuShuriliShini Senson qo‘ltig‘idan emas, Pa-de-Kala rayonidan kutganligi; ikkinchidan, qo‘Shinlarni xavodan qudratli qo‘llab-quvvatlanganligi qulaylik yaratdi. 12 iyun oxirida ittifoqchilar qo‘Shinlari, front bo‘ylab 80 km, front chuqurligida 13-18 km li umumiy platsdarm yaratdilar. Ittifoqchilar armiyalarining strategik platsdarmlar uchun kuraShlari bir yarim oy davom etdi. SHiddatli janglar natijasida iyul oxirida platsdarm front bo‘ylab 100-110 km ga, front chuqurligida 30-40 km ga etdi.

25 iyulda ittifoqchilar Sen-Lo janubi, Kan marralariga chiqdilar va yirik port Shaxar SHerburni egalladilar. SHu bilan Normandiya desant operatsiyasi tugadi.

Amerika-Angliya qo‘Shinlarining SHimoliy Fransiyaga bostirib kiriShlari natijasida, g‘arbiy Evropada qurolli kuraShning yangi fronti ochildi, bu frontning, ya’ni ikkinchi frontning ochiliShini butun antifaShist kuchlari ikki yil davomida sabrsizlik bilan kutgan edilar.

Ikkinchi front Germaniyaning anchagina kuchlarini o‘ziga jalb etdi. Lekin sovet-german fronti xali xam Ikkinchi jaxon uruShining asosiy fronti bo‘lib qoldi.

Ittifoqchilar qo‘Shinlarining Normandiyaga tuShuriliShi, Ikkinchi jaxon uruShining boriShida eng yirik strategik axamiyatga ega bo‘lgan operatsiya bo‘ldi.

## ITTIFOQCHILAR ARMIYALARINING FRANSIYA ICHKARISIDAGI XUJUMLARI.

1944- yilning 25 iyulidan ittifoqchilar qo‘Shinlarining SHimoliy Fransiyada xujumlari boShlandi. Xujum davomida 1-Amerika armiyasi 27 iyul oxirida nemis-faShist qo‘Shinlarining taktik mudofaa zonasini yorib o‘tib AvranSh Shaxrini egalladi. Jangga 3-Amerika armiyasi kiritilib, Fransiya ichkarisiga ildam xarakatlanib ketdi. SHu vaqtga kelib faShizmga qarShi qarShilik Ko‘rsatiSh xarakati keng quloch yoyganligi sababli, uShbu armiya kuchli qarShilikka uchramadi.

Ingliz qo‘Shinlari amerikaliklar muvaffaqiyatidan foydalanib o‘ng qanotda 20-25 kmga olg‘a щarakatlandilar. 8-avgustda 3-Amerika armiyasining Le-Man va Ajrantanga chiqiShi va 1-Kanada armiyasining janubda xarakatlaniShi natijasida Faleza rayonida duShmanning asosiy kuchlarini qurShab oliSh va to‘lig‘icha tor-mor etiSh imkoniyati tug‘ildi. Lekin, ittifoqchilarning sust xarakatlari va ularda yirik qo‘Shin guruxlarini qurShab oliSh va tor-mor etiSh tajribasi yo‘qligi sababli, bu vazifani xarakatlaniSh mobaynida amalga oShiriSh nasib etmadi. Bundan foydalangan nemislar Faleza rayonidan jang qiliSh qobiliyati yuqori diviziyalarini olib chiqdi. 19-avgustda ittifoqchilar oltita piyodalar va ikkita tank diviziyalarining tarqab ketgan qismlarini qurShovga oldilar. Xammasi bo‘lib 125 ming odam. Lekin keyinchi uch kunda nemis qo‘Shinlari qurShovdan 30-35 ming odamini olib chiqiShga muvaffaq bo‘ldilar.

Shunday qilib, ittifoqchilar qo‘Shinlari duShmanning bosh guruxlarini qurShab oliSh va tor-mor etish vazifasini to‘lig‘icha bajara olmadilar.

Falez ostonasidagi mag‘lubiyatdan keyin nemis-faShist qg‘shinlarining umumiy chekiniShi boshlandi. Ittifoqchilar qo‘shinlari dushmanni Shiddat bilan ta’qib etib, 16 avgustda Luara va Sena daryolari marralariga chiqdilar.

Ittifoqchilar qo‘Shinlariga qarshilik Ko‘rsatish xarakati katta yordam berdi. Uning iShtirokchilari ittifoqchilar qo‘mondonligiga duShman xaqida ma’lumot etkazib, kommunikatsiyalarni buzib taShladilar, katta-katta rayonlarni ozod etdilar. 19 avgustda Parijda qurolli qo‘zg‘olon boShlanda, u 25 avgustda nemislar garnizonining kapitulyasiyasi bilan tugadi. SHu vaqtga kelib Sena daryosi marrasidan xujum qilayotgan Amerika-Angliya qo‘Shinlari Zigfrid chizig‘iga etdilar, lekin uni, duShmanning qattiq qarshiligi tufayli xarakatlaniSh mobaynida yorib o‘ta olmadilar.

1944- yil 17-sentyabrdan–26 sentyabrgacha 2-Angliya armiyasining kuchlari bilan, duShman mudofaasini yorib o‘tiSh maqsadida Gollandiyada Arnem operatsiyasi o‘tkazildi. Bunda, Zigfrid chizig‘ini tor uchastkada (3,2km) xavo-desant qo‘Shinlarining yirik kuchlarini (xavo-desant armiyasi) jalb etib yorib o‘tiSh uchun bo‘lgan xarakatlar yaqqol ko‘zga taShlandi. Operatsiya-ittifoqchilar uchun muvaffaqiyatsiz tugadi.

Lekin bu operatsiya AQSH va Angliyaning xavo-desantini desantlaSh bo‘yicha katta texnik imkoniyatlarini tasdiqladi. Bu operatsiyani o‘tkazib, ittifoqchilar qo‘Shinlari Shiddatli janglarni olib borib dekabr oyining o‘rtalarida Strasburgdan Arnemgacha rayonda Germaniya chegarasiga chiqib mudofaaga o‘tdilar.

Ittifoqchilar Italiyada katta muvaffaqiyatga eriSha olmadilar. 1944- yil davomida ular Po daryosi bo‘ylaridagi vodiylarga chiqiSh vazifasini bajara olmadilar. 4 iyunda ular nemislar tomonidan taShlab chiqib ketilgan Rimni egalladilar va 1944- yil oxirida Ravenna, Petrasanta marrasiga chiqdilar va Shu erda duShman tomonidan butun qiSh davomida to‘xtatib qolindilar.

SHunday qilib, 1944- yil oxirida gitlerchilar qo‘mondonligi g‘arbiy frontni barqarorlaShtiriShga muvaffoq bo‘ldi. Lekin uning antifaShist koalitsiyasiga zarba beriSh umidi amalga oShmadi.

## NEMIS QO‘SHINLARINING ARDENDAGI QARSHI XUJUMI.

Ittifoqchilar dekabrda Zigfrid chizig‘ini yorib o‘tiSh uchun operatsiya o‘tkaziShga tayyorlana boShladilar. Lekin, nemis-faShist qo‘mondonligi ulardan oldin operatsiyaga kiriShdi. Nemis-faShist qo‘mondonligi Arden o‘rmonlarida yaShirincha, 21 ta diviziya va ikkita brigadadan iborat zarbdor guruxni jamlaShga muvaffaq bo‘ldi.

1945- yil 1 yanvarda SHimoliy Elzasda nemislarning qarShi xujumi boShlandi. Uch kunda ular 30 km ga xarakatlandilar. 1944- yil 16 dekabrda nemis qo‘Shinlari 8-armiya korpusiga Arden rayonida kuchli zarba berdilar va tayanch punktlari chiziqlaridan osonlik bilan o‘tib, mudofaa chuqurligiga xarakatlanib ketdilar. Lekin Maas orqali Antverpinga Shiddat bilan yorib o‘tiSh amalga oShmadi. Amerika qo‘mondonligi frontning boShqa uchastkalaridan diviziyalarni olib, ularni jangga kiritiShga ulgurdi. Dekabr oxirida ittifoqchilar qo‘Shinlari uchun vaziyat og‘irlaShib qoldi. Ularning fronti 80 km li uchastkada 100km chuqurlikda yorib o‘tildi.

Shu Sharoitlarda U. CHerchill, I. Stalinga murojaat etib, ittifoqchilarga yordam beriSh uchun sovet-german frontida Sovet Armiyasining yirik xujumlarini boShlaShni iltimos qildi. Oradan bir xafta o‘tgan 12 yanvarda sovet qo‘Shinlari Boltiqdan Karpatgacha, rejadagi muddatdan anga oldin kuchli xujumni boShladilar. Bu nemis qo‘mondonligini g‘arbda faol jang g‘arakatlarini olib boriShdan voz kechiShga majbur etdi. SS ning 6-tank armiyasi, keyinchalik yana 16 ta diviziya tezkorlik bilan g‘arbiy frontdan sovet-german frontiga taShlandi. Gitlerchilar Ardenda va Elzasda xujumni to‘xtatdilar va yanvar oxirida dastlabni marraga chekindilar.

ITTIFOQCHILAR QO‘SHINLARINING GERMANIYA ICHKARISIDAGI XUJUMLARI.

Ardendagi mag‘lubiyatidan so‘ng ittifoqchilar qo‘Shinlari xujumni faqat 1945- yilning fevralida yangitdan boShladilar. 8-fevraldan 10- martgacha ular bir necha operatsiyalar o‘tkazdilar, ularning natijasida Reyn daryosining g‘arbiy qirg‘oqlariga chiqdilar. Reynni xarakatlaniSh mobaynida kechib o‘ta olmadilar.

1945- yil mart oyining oxirida vaziyat ittifoqchilar uchun juda qulay, Germaniya uchun esa juda og‘ir bo‘ldi.

1945- yil mart oyining oxirida ittifoqchilar qo‘mondonligi Rurni egallash uchun katta operatsiyalardan birini tayyorladilar va o‘tkazdilar. Ittifoqchilar qo‘shinlari 51 ta diviziya va 14 ta aloxida brigadalardan taShkil topdi.

Rur marrasidagi xujumning maqsadi, Rur ishlab chiqarish rayonining Shimolidan va janubidan, umumiy yo‘nalish Kasselga xujum qiliSh, Rurda duShmanning asosiy guruxini qurShab oliSh va tor-mor etishdan iborat edi. Keyinchalik asosiy kuchlar bilan Germaniya ichkarisida xujumni rivojlantiriSh rejalaShtirildi.

1945- yil 24-martga o‘tar kechasi 21-armiya guruxi qo‘Shinlari Reyn daryosini kechib o‘tdilar va 1aprelda 12-armiya guruxi bilan xamkorlikda Rur rayonida dushmanning 325-minglik guruxini qurShovga oldilar va u 18 aprelda kapitulyasiya qildi.Shundan so‘ng ittifoqchilar qo‘Shinlari xech qanday qarshiliksiz Elbaga tomon ildam xarakatlanib ketdilar.

25-aprelda 1-Amerika armiyasining ilg‘or qismlari Torgau rayonida, Elbada 1-Ukraina fronti qo‘Shinlari bilan uchraShdilar. Aprel oxirida butun janubiy Germaniya va YUqori Avstriya ittifoqchilar qo‘Shinlari bilan band bo‘ldi. Bir necha kundan keyin Italiya xalqining faol yordamida, Italiyaning Shimoliy qismi to‘lig‘icha faShistlardan ozod etildi. 1945- yil 8 mayda Sovet qo‘Shinlari tomonidan Berlin rayonida gitlerchilar qo‘Shinlarining asosiy kuchlari tor-mor etilgandan keyin faShistlar Germaniyasi kapitulyasiya qildi.

Shunday qilib, 1944- va 1945- yillarda ittifoqchilarning ekspeditsion kuchlari g‘arbiy Evropada katta muvaffaqiyatlarga eriShdilar va bu bilan umumiy vazifa, faShistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘z xissalarini qo‘Shdilar. Evropada Ikkinchi front ochildi, uruSh davridagi eng katta desant operatsiyasi o‘tkazildi. Lekin Shuni esda tutmoq lozimki, Germaniya BoSh qo‘mondonligi uruShdan yutqizganini tuShunib, asosiy kuch va vositalarini sovet-german frontida uShlab turganligi ittifoqchilar jangovar xarakatlari uchun qulay imkoniyat yaratdi. Bu, qit’ada ittifoqchilar desantini tuShuruliShini engillaShtirib, ularning keyingi xarakatlari uchun yo‘l ochib berdi.

Amerika-Angliya koalitsiyasining strategiyasi duShmanni xoldan toydiriSh uruShidan iborat bo‘ldi. Bu strategiyaning asosiy negizi muntazam raviShda, xam Germaniyaga qarShi, xam YAponiyaga qarShi Harbiy xarakatlarning olib borilganligi bo‘ldi.

Bunday strategiya AQSH va Angliya xukmron doiralarining siyosatidan kelib chiqib, Sovet Ittifoqini uruSh davrida kuchsizlantiriShga va jaxon bozoridan o‘zlarining asosiy raqiblari Germaniya va YAponiyani yo‘q qiliShga yo‘naltirildi.

Ikkinchi jaxon UruShida ittifoqchilarning Qurolli Kuchlari, vaziyatning xar xil Sharoitida, xar xil Harbiy-xarakatlar teatrida xujumkor va mudofaa janglarini olib boriSh tajribasiga ega bo‘ldilar. Angliya-Amerika qo‘mondonligining, maqsadlarni, vazifalarni, qo‘Shinlar safini va operatsiyalarni o‘tkaziSh usullarini uzoq muxokama qiliSh xarakteriga ega ekanligi, rejalarni iShlab chiqiSh uzoq vaqt davom etiShi va ulardagi ortiqcha mufassalliklar, xarakatlar buning isbotidir.

UruSh tajribasi Shuni kqo‘rsatdiki, Amerika qo‘mondonligi xar qanday operatsiyani, duShman ustidan kuch va vositalar bo‘yicha ustunlik yaratmasdan, xavoda aviatsiya xukumronligiga eriShmasdan oldin boShlamaslikka xarakat qilardi. Armiyalar va armiya guruxlarining xujum operatsiyalari dastlabki va bevosita aviatsiya va artilleriya tayyorgarligidan so‘ng boShlanar edi.

Umuman ittifoqchilar qo‘Shinlarining g‘arbiy Evropadagi jangovar xarakatlari, xar tomonlama, ayniqsa yirik dengiz-desant operatsiyasini tayyorlaSh va o‘tkaziShda, xamda xavo-desant birlaShmalarini qo‘llaShda tajribaga ega ekanliklaridan darak beradi.

Ikkinchi frontning ochiliShidan boShlab ittifoqchilar qo‘Shinlari bir-nechta operatsiyalarni o‘tkazdilar, bunda Fransiyada, Belgiyada, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniyada va Germaniyaning g‘arbiy qismida faShistlarga katta talofatlar etkazdilar. Umuman ittifoqchilarning qurolla kuchlari FaShistlar Germaniyasining tor-mor etiliShida ma’lum xissalarini qo‘Shdilar. Lekin AQSH va Angliya xumkron doiralarining reaksion siyosati Evropada ikkinchi frontni kamida ikki yilga kechiktirib, faShistlar Germaniyasining taqdiri sovet-german frontida butunlay xal qilingan paytda ochdilar. Sovet armiyasiga qarShi uruShning oxirigacha Germaniyaning boSh kuchlari xarakatlanib, ularning safiga duShmanning jang olib boriSh qobiliyati o‘ta yuqori bo‘lgan qo‘Shinlar va aviatsiya birlaShmalari xarakat qildilar.

G‘arbiy Evropa Harbiy xarakatlar teatrida 1944 yilning yozigacha ittifoqchilarning strategiyasi kutiSh xarakateriga ega bo‘ldi, bu o‘z navbatida Harbiy maqsadlar bilan emas, balki Sovet ittifoqini maksimal kuchsizlantiriShga va Germaniyaning dunyoga xukmronlik qiliSh uchun da’vogarligiga qarShi yo‘naltirilgan AQSH va Angliya xukmron doiralarining siyosatlari bilan aniqlandi. Bu maqsadlar uruShning oxirigacha ittifoqchilarning xarakatlarida asos bo‘lib qoldi. 1944 yilning yozidan, Sovet ittifoqi bosqinchilarni o‘z xududidan xaydab chiqargan va Evropa xalqlarini faShizm qulligidan ozod etiShga kiriShgan paytda, ittifoqchilarning Harbiy strategiyalari ancha faollaShib qoldi.

Qurolli kuraShning aynan mana Shu davrida AQSH va Angliya xukmron doiralari sovet qo‘Shinlarining yo‘llarini to‘siShga va Germaniyaning va boShqa Evropa davlatlarining erlarini imkon qadar ko‘proq bosib oliShga xarakat qildilar, bundan maqsad, egallangan uShbu xududlarda uruShdan keyingi yillarda o‘z xukmronliklarini o‘rnatiSh edi.

Harbiy san’at nuqtai-nazaridan ittifoqchilar qo‘Shinlarining yirik dengiz desant operatsiyalarini tayyorlaSh va o‘tkaziSh tajribalari katta qiziqiSh uyg‘otadi. Ularning muvaffaqiyatlarga eriShiShlari quyidagi omillar bilan xarkaterlandi: desantlarni tuShiriSh rayonlarini to‘g‘ri tanlaSh; kuch va vositalarni uShbu rayonlarda qat’iy ommalaShtiriSh; duShmanni chalg‘itiSh bo‘yicha olib borilgan maskirovka tadbirlari; desant operatsiyalarini xar tomonlama xavodan va xavo-desant qo‘Shinlarini keng masShtabda qo‘llaSh bilan ta’minlaSh.

Xujum operatsiyalarini o‘tkaziShdagi katta muammo-bu duShman mudofaasini yorib o‘tiSh bo‘ldi. YOrib o‘tiSh tor frontda (3-8 km )odatda, armiya korpusi kuchlari bilan amalga oShirildi (Sen-Loning janubiy-g‘arbiy, Gollandiya operatsiyasi). DuShmanni tor-etiShdagi asosiy rol aviatsiyaga berildi. DuShmannig taktik mudofaa zonasini yorib o‘tiSh sur’ati juda past bo‘ldi. Bu avvalom bor, boSh zarba beriSh yo‘naliShida xujumni olib borayotgan birlaShmaning ko‘p xollarda boShqa yo‘naliShlarda xarakatlanayotgan qo‘Shinlarning faol xarakatlari bilan ta’minlanmaganli bilan tuShintiriladi. Buning natijasida duShman frontning xali xujumga kirmagan guruxlarini olib, ittifoqchilarning boSh zarba beriSh yo‘naliShlariga taShladi va ularning xujumlarini to‘xtatib qoldi. Ittifoqchilarning xujumni olib borayotgan qo‘Shini duShmanning kichik bir qarShiligini seziShi bilan to‘xtab qolgan. Aviatsiya jalb qilingan, faqat

uning ommaviy zarbalaridan keyingina ittifoqchilar xujumni yana davom ettirganlar. Dala artilleriyasining taktik qalinligining kamligi (frontning xar km da 50-130 ta orudiya) xam duShman mudofaasini yorib o‘tiShda qiyinchiliklarni to‘g‘dirgan. Ayrim operatsiyalarda yorib o‘tiShni tezlatiSh uchun xavo desantidan foydalanilgan (Gollandiyadagi xujum, Reyinni kechib o‘tiShdi).

Armiya guruxlar va ikkinchi eShelonlar armiyalarining, xamda kuchli zaxiralarning operativ safda bo‘lmaganliklari (Normandiya desant operatsiyasi bundan istisno) taktik muvaffaqiyatni operativ muvaffaqiyatga aylantiriSh vazifasi, duShman mudofaasi taktik zonasini yorib o‘tiShda iShtirok etgan armiya korpusining kuchlari bilan xal qilindi. O‘z safida 1-2 ta zirxli tank, 1-2 ta, ayrim xollarda esa undan ko‘p bo‘lgan piyodalar diviziyalariga ega bo‘lib, ular o‘z jangovar tartiblarini ikki eShelonda qo‘rganlar. Ikkinchi eShelonda odatda, zirxli tank guruxlari ajratilib, ularga xam taktik mudofaa zonasini yorib o‘tiShni tugatiSh, xam muvaffaqiyatni operativ chuqurlikda rivojlantiriSh vazifasi yuklatilgan. XarakatlaniSh sur’ati bir sutkada 10 km dan oshmagan, faqat urushning oxirgi davradagi jangovar xarakatlarda sutkada 20 km ga etdi (1945 yilning aprelida).

Mudofaa operatsiyalari odatda, dushmanni to‘satdan berilgan xujumini qaytarish bilan boshlangan, bu razvedkaning noto‘g‘ri ma’lumoti, dushman mudofaasini va uning kuch-vositalari va imkoniyatlarini pisand qilmaslikning oqibatidir. Mudofaa kam chuqurlikda tayyorlanib, kerakli muxandislik inshootlari bilan jixozlanmagan. Shu bilan birga mudofaani operativ chuqurlikda olib borishning ijobiy tomonlari xam bor edi: dushman mudofaasini yorib o‘tish uchastkasiga tezkorlik bilan qo‘shin guruxlarini to‘plash, xamda dushman xujumini barbod etish uchun aviatsiyadan keng foydalanish.

Umuman ittifoqchilarning g‘arbiy Evropadagi jangovar xarakatlari ularning turli tajribalarga ega ekanliklarini, ayniqsa dengiz desant operatsiyalarini tayyorlash va olib boriShda va xavo-desant birlashmalarini qo‘llashda katta ko‘nikmalarini kursatadi.

# 6-7-mavzu: Ikkinchi jahon urushining Harbiy-siyosiy natijalari.

Reja:

1.Ikkinchi jahon urushining Harbiy-siyosiy natijalari.
2.Fashist Germaniyasini xujum strategik rejasini barbod boʻlishi.
3.Ikkinchi Jaxon urushida tub burilishning xarbiy - siyosiy axamiyati.
4. Fashist qoʻshinlarini mudofaa janglariga oʻtishi.

O’quv savollari:

1. Fashist Germaniyasini xujumi.
2. Ikkinchi Jaxon urushida tub burilishning xarbiy - siyosiy axamiyati.

Vaqti:2 soat;
Joyi:Oʻquv xonasi;
Uslubi: Tushuntirish, soʻzlab berish, koʻrsatish;
Shakli: ma’ruza.

Tayanch soʻzlar

xujum strategik;
Fashist qoʻshinlari;

## Germaniya va Polsha urushi.

Polshaga bostirib kirish uchun 53 ta diviziya, jumladan 6 ta tank va 5 ta motorlashgan, 2 ta brigada, 2500 ta tank, 2000 ta samolyotlar jamlandi, kampaniya davomida urushga yana qoʻshimcha 8 ta diviziya jalb qilindi. Ular Polsha Armiyasidan shaxsiy tarkib boʻyicha 1,6 marta, tanklar boʻyicha 3,2 marta, artilleriya boʻyicha 1,3 marta, jangovar samolyotlar boʻyicha 5 marta ustunlikka ega edilar.

Fashistlar qoʻmondonligining maqsadi, ikkita kuchli aylanma zarbani Varshava yoʻnalishiga berish, Polsha armiyasini qurshab olish va bitta strategik operatsiyada Visla daryosining janubrogʻida tor-mor etish, polyaklarning jang olib borish qobiliyati yuqori qismlarini davlatning sharqiy qismiga chekinishiga yoʻl qoʻymasdan yakson etishdan iborat edi.

Gitler bosqinchilariga qarshi Polsha qoʻmondonligi 36 ta piyodalar diviziyalarini, 11 ta (kavaleriya) otliq, 2 ta mexanizatsiyalashgan brigada, 860 ta engil tanklar, 420 ta samolyotlar va 12 ta jangovar kemalarni qarshi qoʻydi.

Germaniya-Polsha urushi 1939- yil 1-sentyabrda nemis-fashistlar aviatsiyasining Polsha aerodromlariga, temir-yoʻl stansiyalariga va shtablariga toʻsatdan zarbasi bilan boshlandi.

Polsha mudofaasining asosiy yoʻnalishlarda yorib oʻtilishi tank va motorlashgan diviziyalar bilan amalga oshirildi. Qanotlar piyoda qoʻshinlarning xarakatlari bilan ta’minlandi. Quruqlikdagi operatsiyalar oʻtkazilishidan oldin artilleriya va aviatsiya tayyorgarligi oʻtkazildi.

Shimoldan va janubdan berilgan zarbalar natijasida Germaniya qoʻshinlari uch kun ichida Polsha frontining mudofaasini butun chuqurligida yorib oʻtishni amalga oshirdilar. Tank va motorlashgan diviziyalar erishilgan muvaffaqiyatni front ichkarisida, chuqurlikda rivojlantira boshladilar. Ularga aviatsiya va tanklar bilan qilingan xamkorlik katta qulaylik yaratdi.

9-sentyabrda Polsha armiyasi jiddiy talofatlarga uchradi. Lekin shunga qaramasdan nemis qoʻshinlari Varshava rayonida qattiq qarshilikka uchradilar. Varshava garnizoni va xalqi fashistlarning xarakatlanish mobaynida Polsha poytaxtini egallashga urinishlarini barbod etdi. Varshava mudofaasi 20 sutka davom etib (8-27 sentyabr), Ikkinchi jaxon urushi tarixida yirik shaxarning mudofaasini tashkil etish va uni olib borishning timsoli boʻldi. Modlin qal’asi garnizoni 30- sentyabrgacha qaxramonona jang qildi, Gdin dengizchilari 2- oktyabrgacha dushmanning suvdan va quruqlikdan bergan xamma zarbalarini oʻq - dori va oziq - ovqat tugagungacha qaytarib turdilar.

Angliya va Fransiyaga qarshi urush. Fransiyaning tezlik bilan magʻlubiyatga uchrashining sabablari

Fashistlar Germaniyasi bilan urushga tayyorgarlik ko‘rib, Angliya, Fransiya qo‘mondonligi, Harbiy xarakatlar boshlanishi bilan o‘zlarining kuchli qo‘shin guruxlarini Shimoliy Fransiyadan, betaraf Belgiya va Gollandiya xududlariga olib chiqishga qaror qildilar. Bu davlatlar armiyalari bilan birlashib, Angliya-Fransiya guruxlari birgalikda Belgiya va Gollandiya chegaralarini ximoya etishi va nemislarning berilajak bosh zarbalarini shu erda qaytarishlari kerak edi.

Shu reja asosida ittifoqchilar Germaniyaga qarshi SHimoliy-sharqiy Harbiy-xarakatlar teatrida 143 ta diviziya, 3000 ta tank, 2700 ta dan ortiq samolyotlar tayyorladilar. Fransiya armiyasi uchta armiya guruxiga bo‘lindi, ulardan birinchisi – eng kuchlisi - Belgiyaga kirishi kerak edi.

Nemis-fashist qo‘mondonligi 135 ta diviziya va 1 ta brigadani, 2600 ta tank va 3500 ta samolyotlarni ularga qarshi tashladi. Bu qo‘shinlar «A», «V», «S» armiya guruxlariga birlashtirildi. «A» armiya guruxi – 45 ta diviziya va 3- xavo armiyasidan, «V», armiya guruxi – 29 ta diviziya va 2-xavo armiyasidan, «S», armiya guruxi – 19 ta diviziyadan iborat edi, va bosh qo‘mondonlik zaxirasi 42 ta diviziyadan tashkil topdi.

Fashistlar qo‘mondonligining maqsadi, Fransiya, Belgiya, Gollandiya xududlarida joylashgan ittifoqchilar qo‘shinlariga chuqur va kuchli zarbalar berish, La-Mansh bo‘g‘ozi qirg‘oqlariga chiqish, ittifoqchilar qo‘shinlarini bo‘lib tashlash, ularning asosiy kuchlarini qurshab olib, SHimoliy Fransiya va Belgiyada tor-mor etishdan iborat edi.

Asosiy zarbani «A» armiya guruxi Arden tog‘lari yonidan Lyuksemburg, Abvil yo‘nalishlariga, La-Mansh bo‘g‘ozi bo‘ylab, Majino liniyasini shimoldan aylanib o‘tib berishi ko‘zda tutildi. «A» armiya guruxi, «B» guruxi bilan birgalikda ittifoqchilarning kuchli birinchi armiya guruxlarini qurshab olishi va tor-mor etishi kerak edi.

B» armiya guruxining vazifasi, «A» armiya guruxi ittifoqchilar qo‘shinlarining ortidan aylanib o‘tib kirishi paytida, o‘zining chap qanoti bilan Belgiyada ittifoqchilar qo‘shinlariga zarba berish va ularni xoldan toydirishdan iborat edi.

«S» armiya guruxi Majino liniyasi qarshisini ximoya etish va shu erda fransuz qo‘shinlarini xoldan toydirish vazifasini oldi.

1940 - yil 10 mayda nemis-fashist qo‘shinlari xujumga o‘tdilar. Tongda birinchi zarbani fashistlar aviatsiyasi 3500 ta samolyoti bilan Fransiya aerodromlariga 300 km. chuqurlikda bera boshladi. Natijada nemislar xavoda xukumronlikni qo‘lga kiritdilar. Bir vaqtning o‘zida xavo desantlari ko‘plab suv to‘siqlaridagi ko‘priklarni, istexkomlarni, tayanch punktlarini bosib olish uchun Gollandiya va Belgiya xududiga tushurila boshlandi.

Fashistlarning bostirib kirishi bilan ittifoqchilar qo‘mondonligi o‘zining noto‘g‘ri rejalari asosida birinchi guruxdagi bosh kuchlardan iborat armiyalarni Gollandiya va Belgiyaga kiritishga buyruq berdi. Bu erda nemislarning ikkilamchi kuchlari - «B» armiya guruxi va ittifoqchilarning asosiy kuchlari o‘rtasida jang xarakatlari boshlanib ketdi. Bu xolat Kleystning shu vaqtda Arden orqali kelayotgan tank guruxining xarakatlarini engillashtirdi. Uch sutka mobaynida bu gurux 100-120 km. ilgarilab ketib, 13 mayda 100 kmli frontda Maas daryosi bo‘ylariga chiqdi. Maas daryosini kechib o‘tish xarakatlanish mobaynida, 14 soat vaqt ichida amalga oshirildi. 1940-yilning 20 mayida Kleystning bosh qo‘shinlari Dyunkerning janubrog‘idan La-Manshga chiqdilar.

Nemis-fashistlarning «A» va «B» guruxlarining birgalikdagi xarakatlari natijasida 25 mayda ittifoqchilar qo‘shinlari SHimoliy Fransiyada va Flandriyada siqib qo‘yildi. Belgiya armiyasi kapitulyasiya qildi. Angliya armiyasi 28 maydan 4-iyun oralig‘ida Dyunkerdan evakuatsiya qilindi.

5 iyunda nemis-fashist qo‘shinlari kuchsizlanib qolgan fransuzlar armiyasiga Somma daryosi buyida qattiq zarba berdilar. Bir necha chuqur zarbalar berib, ular Fransiyaning markaziy rayonlariga bostirib kirib, Parijni egalladilar. Bu operatsiyalarning xarakterli tomoni, fashistlar qo‘mondonligi tomonidan bir emas, xar biri uchtadan mexanizatsiyalashgan korpusni o‘z ichiga olgan uchta tank guruxining qo‘llanilishi edi. Ular kuchli chuqur zarbalar berib fransuz armiyasini tor-mor etishni oxiriga etkazdilar. 1940- yil 22-iyunda Fransiya xukumati Gitler bilan tinchlik sulxini imzoladi.

**Sovet qo‘shinlarini qarshi xujumga tayyorgarligi**.

SSSRga harshi urush rejasida nemis–fashist qo‘mondonligi Moskvani bosib olishga katta, birinchi darajali ahamiyat bergan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fashistlar qo‘mondonligi Moskva yo‘nalishida 77 ta diviziyani (jumladan 14 ta tank va 8 ta motorlashgan) to‘pladi, kuchlarning bir qismi Leningrad va Kievdan ushbu yo‘nalishga tashlandi.

Fashistlar qo‘shinlariga uchta frontning qo‘shinlari qarshi turdilar. Ularning safida 1250ming odam, 990ta tank, 7600ta orudiya va minomyotlar, 677ta samolyotlar mavjud edi. Lekin ustunlik dushman tomonida edi.

Moskva bo‘sag‘alarida ko‘p havatli mudofaa yaratilib, uning chuqurligi 250-300 kmni tashkil etdi.

**30-sentyabrda dushman hujumga o‘tdi, ustunlikka ega bo‘lib u Sovet qo‘shinlarining mudofaasini yorib o‘tib, shiddat bilan sharqqa tomon harakatlana boshladi. 3 oktyabrda dushman Oryol shahrini egalladi, 7 oktyabrda uning motorlashgan qismlari Vyazmaga yorib kirdi va to‘rtta armiya qo‘shinlarini qurshovga oldi. Qurshovdagi qo‘shinlar dushmanning 29tagacha diviziyasini holdan toydirdilar. Birlashmalarning ancha qismi oktyabr o‘rtalarida qurshov qalqasini yorib chiqib, Moskva tomongao‘qtishga muvaffaq bo‘ldi.**

Mojaysk mudofaa chizig‘i asosiy qarshilik ko‘rsatish marrasiga aylandi. Bu erga yangi-yangi birlashmalar kela boshladilar. Oryol yo‘nalishiga ham zaxira birlashmalari olib kelina boshlandi, ular Oryoldan Tulaga o‘tadigan yo‘llarda uzoq janglar olib borib dushmanning tank guruhining harakatlarini susaytirib yubordilar.

Bu vaqtga kelib Moskvaning shimoliy-g‘arbida vaziyat keskinlashdi. Dushmanning tank guruhi 14 oktyabrda Tverni egalladi. Lekin Sovet qo‘shinlari qarshi zarba berib dushmanni to‘xtatib holdilar.

17 oktyabrda OBQ Stavkasi G‘arbiy frontning chap qanot armiyalari negizida Kalinin frontini tashkil etdi (qo‘mondoni general I.S.Konev). Uning qo‘shinlari qattiq janglar bilan Seliger ko‘li, Kalinin, Voljsk suv ombori marralarida mustahkam o‘rnashib, dushmanni Moskvani shimoldan aylanib o‘tish niyatini barbod etdilar. Bu erda dushman «Markaz» armiya guruhining chap qanotini yopish uchun mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi.

Oktyabr oxirida Mojaysk mudofaa chizig‘ida hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Katta talofatlarga qaramasdan dushman Moskvaga intilardi. Sovet qo‘shinlari dushman hamlalariga cheksiz matonat va qahramonlikni qarshi ho‘ydilar. Mashhur Borodino maydonida 32- o‘qchi diviziyaning polklari o‘limga tik boqib, fashistlar hujumini qaytarib turdilar.

SHunga qaramasdan dushman tank qo‘shinlari G‘arbiy front pozitsiyalarini yorib o‘tib Volokalamsk, Mojaysk, Kalugani egalladi, Moskvagacha 80-100 km. qoldi. 19-noyabrda Davlat Mudofaa qo‘mitasi Moskvada qamal holatini joriy etish bo‘qyicha qaror qabul qildi. Oktyabr oxirida Sovet qo‘shinlari ushbu yo‘nalishda dushmanni mudofaaga o‘tishga majbur etdilar.

Lekin fashistlar qo‘mondonligi Moskvani qishgacha egallash fikridan qaytmagan edi. SHu munosobat bilan «Markaz» armiya guruhiga yangi hujumni tayyorlash va o‘tkazish uchun topshiriq qo‘yildi, bu vazifa-ikkita qudratli guruh bilan Moskvani shimoldan va janubdan aylanib o‘tish, uni hamal qilish va bir vaqtning o‘zida frontdan kuchli zarba berib SSSR poytaxtini egallashdan iborat edi.

Sovet Oliy Bosh qo‘mondonligi o‘z vaqtida fashistlar guruhini aniqladi va ularning rejasini payqab qolib, G‘arbiy front qo‘shinlarini kuchaytirish, mudofaa marralarini takomillashtirish, zaxiralarni Moskva rayoniga olib kelish chora-tadbirlarini ko‘rdi.

Buning natijasida G‘arbiy front mudofaasi noyabr oyida mustahkamlandi, uning barqarorligi oshirildi.

15-16-noyabrda nemis qo‘shinlari Volokalamsk, 18-noyabrda Tula yo‘nalishlarida hujumga o‘tdilar. Bir necha kundan so‘ng esa Eletsk yo‘nalishida ham hujumga o‘tdilar. 600 kmli frontda yana hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Dushman oshgan qarshilikni darrov payqadi.

**G‘arbiy frontning o‘ng qanoti dushmanga katta talofatlar berib, o‘zi ham asta-sekin chekina boshladi. Noyabr oxirida nemislar Moskva-Volga kanaliga chiqdilar va uni Dmitrov rayonida kechib o‘tdilar.**

Bu vaziyatda Bosh qo‘mondonlik YAxroma rayonida va janubrog‘da qarshi hujumlarni amalga oshirdi. Bu qarshi hujumlar natijasida dushman kanalning g‘arbiy qirg‘og‘iga uloqtirib tashlandi.

G‘arbiy frontning chap qanotida dushman Sovet qo‘shinlarining front ortiga o‘tishga muvaffaq bo‘ldi, lekin Tulani egallay olmadi. Sovet qo‘shinlari Tula va uning atrofi rayonlarini mustahkam ushlab turdi, bu o‘z navbatida butun G‘arbiy frontning chap qanoti barqarorligi ta’minladi va bir necha kuchli qarshi zarbalar berish imkoniyatini yaratdi. Ulardan eng qudratlisi Mixaylov rayonidan berildi.

Janglar natijasida dushman 4-dekabrda hujumni to‘xtatishga va mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi. 5-dekabr 1941- yilda «Markaz» armiya guruhi qo‘shinlari butun front bo‘ylab to‘xtatib qolindi. SHunday qilib fashistlar armiyasining Moskvaga qilgan ikkinchi hamlasi ham barbod bo‘ldi. Moskva ostonalaridagi mudofaa janglari bilan 1941- yil yozgi-kuzgi kampaniya nihoyasiga etdi. Uning asosiy natijasi–bu Gitler Germaniyasining «yashindek tez urush olib borish» rejasining chippakka chiqqani bo‘ldi. qizil Armiya dushmanning zarbdor guruhlarini qoldan toydirishga muvaffaq bo‘ldi.

### Stalingrad ostonasida Gitlerni qo‘shinlarini tor-mor etilishi va umumiy jangovar harakatlarni borishi.

Urushning uchinchi davri boshi xarbiy-siyosiy vaziyat Sovet Ittifoqi uchun, dushmanning vaqtinchalik ustunligini barbod etilishi, Qizil Armiyaning jang olib borish tajribasining oshganligi, Sovet xalqining ruxiy-siyosiy birdamligining mustaxkamlanishi bilan xarakterlandi.

Xali xam frontda vaziyat keskin bo‘lishiga qaramasdan, 1942 yil noyabr oyi o‘rtalarida sovet-german frontining janubiy qanotida dushmanni tor-mor etish uchun qulay sharoit yaratildi. Kavkazning neftga boy manbalarini va Volganing qo‘yi rayonlarini bosib olishga intilgan fashistlar armiyalari, og‘ir talofatlar ko‘rib, o‘zlarining xujum olib borish imkoniyatlarini yo‘qotib, katta front bo‘ylab cho‘zilib qoldilar. Germaniya qo‘shinlari strategik mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldilar.

Ikkinchi jaxon urushining uchinchi davri tarixga, urushning borishida antigitler koalitsiyasidagi davlatlar foydasiga tubdan burulish davri bo‘lib kirdi.

Stalingradda dushmanni tor-mor etish «URAN» operatsiyasining maqsadi qo‘yidagilardan iborat edi: asosiy zarbani Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlari Serafimovich-Kletskiy rayonlaridan va Stalingrad fronti qo‘shinlari Stalingradning janubidagi Sarpa ko‘llari bo‘yidan berishlari ko‘zda tutildi. Asosiy vazifa-dushmanning asosiy guruxlarining qanotlarini tor-mor etib, xujumni Kalach-Sovetskiy yo‘nalishiga rivojlantirib, dushman qo‘shinlarini Stalingradda qurshab olish va yakson etishdan iborat edi. Don fronti Vertyachiyga ikkita zarba berib, Don daryosining kichik irmoqlari bo‘yida dushmanni qurshab olish va tor-mor etish vazifasini oldi.

Qarshi xujumga tayyorgarlik ko‘rish mudofaa janglari davomida boshlangan edi. Buning uchun Stavka, Stalingrad yo‘nalishiga yirik zaxiralarni jo‘natdi. Qarshi xujum boshida Janubiy-G‘arbiy, Don va Stalingrad frontlari safiga o‘nta umumqo‘shin, tank va to‘rtta xavo armiyalari kiritildi. Uchala frontlar 1103 ming odamga, 1463 ta tank va O‘YUAQ (SAU)larga, 15500 ta orudiya va minomyotlarga, 1350 ta samolyotga ega edilar.

YUqori Mamondan Astraxangacha ularga qarshi fashistlarning «B» armiya guruxi o‘zining 1101 ming odami, 675 ta tank va shturmchi orudiyalari, 10290 ta orudiya va minomyotlari va 1216 ta samolyoti bilan qarshi turar edi.

1942 yil 19-noyabrda, 80 minut davom etgan artilleriya tayyorgarligidan so‘ng, Janubiy-G‘arbiy va Don fronti qo‘shinlari qarshi xujumga o‘tdilar. Xujumning birinchi kunida Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlari Serafimovichining janubiy-g‘arbidagi platsdarmlardan kuchli zarba berib Kletskiy rayonida dushman mudofaasini yorib o‘tdilar.

20-noyabrda Stalingrad fronti qo‘shinlari qarshi xujumga o‘tdilar

23-noyabr kunida Janubiy-G‘arbiy frontning 26-va 4-tank korpuslari Donni kechib o‘tib Kalachni egalladilar va Sovetskiy rayonida Stalingrad frontining 4-mexanizatsiyalashgan korpusi bilan birlashdilar. SHu bilan qurshov xalqasi birlashtirildi, qurshov ichida fashistlarning 22 diviziyasi, 100 ta aloxida qismlari 330 ming odami bilan qolib ketdi.

Stalingrad yo‘nalishida vaziyatni tiklash uchun nemislar tezlik bilan «DON» armiyalar guruxini tashkil etdi. 1942 yil 12- dekabrda «Don» armiyalar guruxi Kotelnikovo rayonidan xujumga o‘tdi. Unga 51- armiya qo‘shinlari qarshi turgan edilar. Janglar birinchi kunlardanoq shiddatli tus olib ketdi. 19- dekabrda dushman Mishkovo daryosi bo‘ylariga chiqdi va shu erda OBQ ajratgan xisoblangan 2- zaxira Armiyasi tomonidan to‘xtatib qolindi.

SHu vaqtga kelib, Stavka tomonidan Janubiy-G‘arbiy fronti qo‘shinlarining va Voronej fronti 6- armiyasi qo‘shinlarining xujumlari tayyorlanib, 16- dekabrda boshlandi. Bir necha kun ichida ular 8-Italiya va 3- Ruminiya armiyasining qolganlarini tor-mor etdilar. Bu operatsiyada bosh rolni tank va mexanizatsiyalashgan korpuslar o‘ynadi.

Janubiy-G‘arbiy frontning muvaffaqiyatli xujumlari va Stalingrad fronti qo‘shinlarining matonatli mudofaalari, fashistlarning qurshovda qolgan guruxlariga yorib kirish uchun keyingi xarakatlarini to‘xtatishga majbur etdi. Dushman zarbdor guruxlarining anchagina qismini Tormosin va Kotelnikovo rayonlaridan Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlariga qarshi tashlashga majbur bo‘ldi.

29- dekabr ertalab ular Kotelnikovo fashistlardan ozod etildi.

SHunday qilib, nemis-fashist qo‘mondonligining Stalingrad ostonalarida qurshovda qolgan guruxlarini qutqarish uchun qilgan xarakati butunlay barbod bo‘ldi. Endi front chizig‘i ulardan 200-250 km ga ortga surildi.

Qurshovda qolgan fashistlarni tor-mor etish Don fronti qo‘shinlariga topshirildi. 1943 yil 10-yanvarda Sovet qo‘shinlari qurshovda qolgan fashistlarni yakson qilishga kirishdilar. Fashistlarni Stalingrad ostonalarida tor-mor etish bo‘yicha «Xalqa» nomini olgan so‘nggi operatsiya boshlandi.

YAnvar oxirida Sovet qo‘shinlari tomonidan dushman guruxi ikki bo‘lakka bo‘lib tashlandi. Janubiy gurux 1943 yil 31-yanvarda kapitulyasiya qildi. 1943 yil 2-fevralda dushmanning shimoliy guruxi qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatdi. SHu kuni, 200 kun davom etgan Stalingradning tarixiy jangi tugadi.

**Ikkinchi jahon jurishining birinchi davrida Harbiy mahoratning yangi jihatlari va urush harakatlarining umumiy sur`ati.**

1941 yil 30 iyun SSSR Oliy Sovet Prezidiumi, VKP(b) MKning qaroriga binoan I.V.Stalin rahbarligida Davlat Mudofaa Komiteti (DMK) tashkil etildi. DMQ qo‘lida davlatning butun hokimiyati birlashtirildi. DMQ qarorlari va buyruqlari hamma fuqaroviy, partiya, sovet, harbiy va boshqa organlar tomonidan so‘zsiz bajarilishi shart bo‘ldi.

Sovet Qurolli Kuchlarining harbiy harakatlariga rahbarlik qilish uchun Bosh (Glavnogo) Qo‘mondonlik Stavkasi yaratildi (10 iyuldan u Bosh (Verxovnogo) Qo‘mondonlik Stavkasi deb, 8 avgustdan esa Oliy Bosh Qo‘mondonlik Stavkasi deb yuritala boshlandi). Stavkaning raisi etib I. V. Stalin tayinlandi, u Siyosiy byuroning qaroriga ko‘ra SSSR Mudofaa Xalh komissari etib, shu bilan birga Oliy Bosh Qo‘mondon ham etib saylandi. Sovet-german frontining uchta uchta strategik yo‘nalishlarida-SHimoliy-G‘arbiy, G‘arbiy va Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishlarda-1941 yil 10 iyulda bosh qo‘mondonliklar yaratildi. Ularning bosh qo‘mondonlari etib marshallar K.E.Voroshilov, S.K.Timoshenko, S.M.Budyonniy tayinlandi.

Urushning birinchi haftalari va oylaridayoq fashistlar Germaniyasi rahbariyatining siyosiy va harbiy rejalarining asossiz va puch ekanligini qo‘rsatdi. «Barbarossa» rejasida ko‘rsatilgan muddat ichida (2oy) nemis-fashist qo‘mondonligi tomonidan belgilangan maqsadlarning birortasiga ham erishilmadi.

Boltiq dengiz flotining asosiy bazasi Tallin ikki hafta mobaynida dushmanning shiddatli hujumlarini qaytarib turdi.

Polkovnik I.D.CHernyaxovskiyning 28 tank diviziyasi bir hafta davomida Novgorod shahri uchun kurash olib bordi. 14 avgustda Sovet qo‘shinlari guruhi Staraya Russi rayonidan Leningradga hujum qilayotgan dushman guruhining qanotiga hujum qildi. Faqat 25 avgustdagina

dushmanning «SHIMOL» armiyalar guruhi Leningradga hujumni yana davom ettirishga muvaffaq boʻldi. Dushman Ladoga koʻliga yorib kirishga va SHlisselburgni egallashga muvaffaq boʻldi. 8 sentyabrdan boshlab Leningrad quruqlik tomonidan qamal qilindi. Lekin bu Leningradliklar va Leningrad fronti qoʻshinlarining irodasini buka olmadi. 1941 yilning 9 sentyabrida nemis-fashist qoʻshinlari shaharning hal qiluvchi shturmini boshladilar. Oʻn sutka davomida shiddatli janglar boʻlib oʻtdi. 18 sentyabrda Leningrad boʻsagʻasida front toʻliq muvofiqlashdi. 1941 yil 26 sentyabrda dushman bu erda mudofaaga oʻtdi.

Lekin gitlerchilar Leningradni yanchib tashlash rejasidan voz kechmadilar. Endi ular shaharni uzoq vaqt qamal qilib maqsadlariga erishmoqchi boʻldilar, qamal 900 kun davom etdi. Leningradliklar katta talofatlar berdilar. Piskaryov qabristonida yarimmilliondan ortiq kishilarning jasadlari dafn etildi. Urush davrida Leningradda 840 ishlab chiqarish korxonalari vayronaga aylantirildi, 10 mingdan ortiq turar joylar binolar yondirildi, buzib tashlandi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Jang oʻta shiddatli tus oldi.

1941- yil 22-iyundan 9 iyulgacha, urushning boshlanish davridan Smolensk jangigacha, Sovet qoʻshinlari Boltiq dengizidan Karpatgacha ogʻir chegarabuyi janglarini olib bordilar va ustunlikka erishgan dushman kuchlarining zarbasi ostida, dushmanga Boltiqbuyining katta qismini, Belorussiyaning qariyib hammasini va Ukrainani bir qismini tashlab sharqqa tomon 350-600 kmga chekindilar.

Yuqori SHimolda nemis-fashist qoʻshinlari 1941- yil 29 iyunda Murmansk va Kandalaksha yoʻnalishlarida hujumni boshlab, 9 iyulda Sovet territoriyasi ichkarisiga bor-yoʻgʻi 25-30 km. harakatlandilar.

Chekinish chogʻida Sovet qoʻshinlari hattiq qarshilik koʻrsatib, dushman shaxsiy tarkibiga va harbiy texnikasiga katta talofatlar etkazdilar.

Sovet qoʻshinlari oʻzlari uchun qiyin jangovar vaziyat sharoitida, bostirib kelayotgan dushman guruhlariga qarshi zarbalar berdilar, bu bilan dushman hujumi suratini pasaytirib, davlat ichkari rayonlaridan yirik strategik Sovet qurolli kuchlari guruhlarini Gʻarbiy Dvina daryosi sharqrogʻi marralariga va Dnepr daryosining oʻrta oqimi boʻylariga safarbar etish va olib chiqish uchun vaqtdan yutib chiqdilar.

Urushning boshlanish davrida Sovet qurolli kuchlari katta talofatlar koʻrib, ogʻir sharoitlarga tushib holdilar. Sovet qoʻshinlari Shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda keng front boʻylab, kuch va vositalar cheklangan sharoitda mudofaa janglarini olib borib, dushmanni toʻxtatib qola olmadilar va 12 sentyabrda Leningradning yahin bqsagʻalariga chekindilar. 8-sentyabrda dushman Shlisselburgni (Petrokrepostni) egalladi, Leningradni quruqlikdan qamal qildi. Leningrad bilan aloqa faqat Lodoga koʻli va havodan amalga oshirila boshlandi.

Petrazavodsk va Kareliya boʻgʻozlarida fin va nemis qoʻshinlari 1941- yil sentyabrining oxirida Svir va 1939- yildagi davlat chegaralarida toʻxtatib qolindilar.

**Mudofaa janglari davomida SHimoliy-Gʻarbiy yoʻnalishda sovet qoʻshinlari dushmanga katta talofatlar etkazib uning Leningradni egallash rejalarini barbod etdilar.**

**Gʻarbiy yoʻnalishda sovet qoʻshinlari urushning birinchi kunlarida Minskning gʻarbrogʻida (bu erda Gʻarbiy frontning asosiy kuchlari qurshovda qolgan edi) katta talofatlar koʻrib, 1941- yilning 10 iyulidan 10 sentyabrigacha Smolenskda ayovsiz janglar olib bordilar. Bu janglar keng front boʻylab shimolda Velikie Lukidan, janubda Jlobin va Roslavlgacha masofada davom etdi. Smolensk jangi mobaynida Gʻarbiy front qoʻshinlari dushmanning tirik kuchlariga va jangovar texnikalariga katta talofatlar etkazidilar va buning oqibatida u Moskvaga hujumni davom ettirish imkoniyatidan mahrum boʻldi.**

Janubiy-Gʻarbiy yoʻnalishda Sovet qoʻshinlari 1941- yil 10 iyuldan sentyabr oxirigacha dushmanning kuch jihatidan ustun boʻlgan kuchlari bilan Uman va Kiev rayonlarida ogʻir mudofaa janglarini olib bordilar. Fashistlar qoʻmondonligi Janubiy-Gʻarbiy frontga qarshi ikkita tank guruhini jangga kiritdilar (1- va 2- tank guruhlari) va ularning qudratli zarbalari bilan 1941- yil 15 sentyabrda Kiev rayonida Janubiy-Gʻarbiy frontning toʻrtta armiyasini qurshovga oldilar. Buning natijasida Ukrainada mudofaa jiddiy kuchsizlandi. Ukrainada mudofaani mustahkamlash

maqsadida Oliy Bosh qo‘mondonlik Stavkasi Ukrainaga o‘z zaxirasidan bir – necha diviziyalarni jo‘natdi.

Sovet-german frontining janubiy qanotida 1941- yilning 5 avgustidan 16 oktyabrigacha Sovet qo‘shinlari va qora dengiz floti Odessaning qahramonona mudofaasini amalga oshirdilar, dushmanning 18 ta diviziyasiga qattiq talofatlar etkazib, bu rayonda ularni holdan toydirdilar. Sovet qo‘shinlari qrimda mudofaani mustahkamlash va Sevastopolni mudofaa etish maqsadida 16 oktyabrda Odessadan evakuatsiya qilindilar.

Sovet qurolli Kuchlari Leningrad, Kiev, Odessa, qrimdagi qahramonona mudofaada va Smolensk jangida dushmanga qattiq talofatlar etkazib fashistlar qo‘mondonligining «yashindek tez urush olib borish» rejasini barbod etdilar.

Qish tushgunga hadar Sovet Ittifoqiga qarshi urushni tugallash maqsadida, 1941- yil 30-sentyabrda fashistlar armiyasi Moskvani egallash uchun birinchi bosh hujumni boshladi.

Moskvaning uzoq bo‘sag‘alarida G‘arbiy, Kalinin va Bryansk frontlari oy mobaynida og‘ir mudofaa janglarini olib bordilar. Bu janglar davomida ular fashistlarga katta talofatlar etkazdilar va ularning qish tushgunga qadar Moskvani bosib olish rejalarini barbod etdilar. Oktyabr oxirida dushman Moskvaning yaqin bo‘sag‘alarida to‘xtatib qolindi.

Fashistlar qo‘smondonligi kuch va vositalarini qayta to‘plab va to‘ldirib, 1941- yilning 15-16-noyabrida Moskvaga ikkinchi hujumni boshladi.

Lekin Sovet qo‘shinlari dushman hamlalarini qahramonona qaytarib 1941- yil dekabr oyi boshlarida nafaqat uning Moskvaga hujumini to‘xtatib qoldilar, balki hujumga o‘tgan dushman guruhlarini tor-mor etish maqsadida qarshi hujumga o‘tish uchun qulay sharoit yaratdilar.

Mana shu davr mobaynida Leningrad va Janub front qo‘shinlari OBQ Stavkasi buyrug‘iga binoan Tixvin va Rostov yaqinida hujumga o‘tgan dushmanga qarshi hujumga o‘tdilar.

1941- yil 26-noyabrda boshlanib 28 dekabrgacha davom etgan Sovet qo‘shinlarining Tixvin yaqinidagi qarshi hujumlari, janubdan Svir daryosiga o‘tib fin armiyasi bilan qo‘shilib, Leningradda ikkinchi qurshov halqasini yaratishga intilgan dushman guruhining tor-mor etilishi bilan tugadi.

1941- yil 17-noyabrdan 2 dekabrgacha davom etgan Rostov yaqinidagi qarshi hujum nemislarning birinchi tank armiyasining to‘liq tor-mor etilishi va Rostovning fashistlardan ozod etilishi bilan tugadi.

Olib borilgan qarshi hujumlarning maqsadi, dushmanga katta talofatlar etkazish bilan bir qatorda bu yo‘nalishlarda uni holdan toydirish va fashistlar qo‘mondonligiga shu kuchlar hisobidan Moskvaga hujum qilayotgan qo‘shinlarni to‘ldirishga imkoniyat bermaslikdan iborat edi.

qrimda qizil Armiya va HDF 1941- yil 30-oktyabrdan Sevastopolning qahramonona mudofaa jangini olib bordi.

Yozgi-kuzgi kampaniya oxirida, ya’ni besh yarim oy mobaynidagi ayovsiz janglar natijasida, Sovet Qurolli Kuchlari davlat ichkarisiga 900-1500 kmga chekinib, dushmanga katta hududlarni qoldirishga majbur bo‘ldilar. Lekin bu janglar davomida Sovet qo‘shinlari dushmanga katta talofatlar etkazib, uning «yashindek tez urush olib borish» rejasini tamomila barbod etdilar.

Markazda va G‘arbiy yo‘nalishlarda hujum qilgan nemis-fashist qo‘shinlari qat’iy qarshilikka uchradilar. 10 iyulda boshlangan Smolensk jangigacha kuch va vositalar bo‘yicha ustunlik vermaxt tomonida bo‘ldi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Jang o‘ta shiddatli tus oldi.

16 iyulga o‘tar kechasi dushman tanklari Smolenskka bostirib kirdi va uning janubiy qismini egalladi. Dneprning ortida, shaharning shimoliy qismida joylashgan sovet qo‘shinlari dushmanga to‘xtovsiz hujum qildilar. Dushmanning Smolenskni mudofaa qilib turgan Sovet qo‘shinlarini qurshab olish va ularning chekinish yo‘llarini to‘sib qo‘yish uchun qilgan harakati barbod bo‘ldi.

Smolensk jangi davomida Sovet armiyasi nafaqat mudofaa harakatlarini olib bordi, balki dushmanga qarshi zarbalarni ham berdi.

10 sentyabrda Smolensk jangi tugadi. «MARKAZ» armiyalar guruhi Dneprdan 170-200 km sharqqha tomon harakatlangan bo‘lsada, fashistlar qo‘mondonligining harakatlanish mobaynida Moskvani egallash uchun qilgan harakati barbod bo‘ldi. Markaziy yo‘nalishda dushman birinchi marta ikkinchi jahon urushi mobaynida ikki oy davom etgan mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi. Shu vaqtda Sovet armiyasi poytaxtning mudofaasini mustahkamlash, zaxiralarni tortib kelish va SHimoliy-G‘arbiy yo‘nalishdagi qo‘shinlarning ahvollarini yaxshilash uchun vaqtdan yutib chiqdi. «MARKAZ» armiyalar guruhi katta talofatlar ko‘rdi. Bu urushning keyingi borishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan Smolensk jangining asosiy natijasi shundan iborat.

Yuzaga kelgan vaziyatda gitlerchilar qo‘mondonligi Moskvaga frontdan hujumlarni to‘xtatishga va asosiy zarbani markazdan qanotlarga ko‘chirishga majbur bo‘ldi.

**Urushning birinchi davrida jangovar harakatlarining umumiy sur`ati va natijalari.**

**Moskva ostonasi jangining harbiy siyosiy ahamiyati.**

**harbiy siyosiy ahamiyati.**

Moskva ostonalaridagi janglar (1941- y. sentyabr-1941- y.5 dekabr).

SSSRga harshi urush rejasida nemis–fashist qo‘mondonligi Moskvani bosib olishga katta, birinchi darajali ahamiyat bergan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fashistlar qo‘mondonligi Moskva yo‘nalishida 77 ta diviziyani (jumladan 14 ta tank va 8 ta motorlashgan) to‘pladi, kuchlarning bir qismi Leningrad va Kievdan ushbu yo‘nalishga tashlandi.

Fashistlar qo‘shinlariga uchta frontning qo‘shinlari qarshi turdilar. Ularning safida 1250ming odam, 990ta tank, 7600ta orudiya va minomyotlar, 677ta samolyotlar mavjud edi. Lekin ustunlik dushman tomonida edi.

Moskva bo‘sag‘alarida ko‘p havatli mudofaa yaratilib, uning chuqurligi 250-300 kmni tashkil etdi.

**30-sentyabrda dushman hujumga o‘tdi, ustunlikka ega bo‘lib u Sovet qo‘shinlarining mudofaasini yorib o‘tib, shiddat bilan sharqqa tomon harakatlana boshladi. 3 oktyabrda dushman Oryol shahrini egalladi, 7 oktyabrda uning motorlashgan qismlari Vyazmaga yorib kirdi va to‘rtta armiya qo‘shinlarini qurshovga oldi. Qurshovdagi qo‘shinlar dushmanning 29tagacha diviziyasini holdan toydirdilar. Birlashmalarning ancha qismi oktyabr o‘rtalarida qurshov qalqasini yorib chiqib, Moskva tomongao‘qtishga muvaffaq bo‘ldi.**

Mojaysk mudofaa chizig‘i asosiy qarshilik ko‘rsatish marrasiga aylandi. Bu erga yangi-yangi birlashmalar kela boshladilar. Oryol yo‘nalishiga ham zaxira birlashmalari olib kelina boshlandi, ular Oryoldan Tulaga o‘tadigan yo‘llarda uzoq janglar olib borib dushmanning tank guruhining harakatlarini susaytirib yubordilar.

Bu vaqtga kelib Moskvaning shimoliy-g‘arbida vaziyat keskinlashdi. Dushmanning tank guruhi 14 oktyabrda Tverni egalladi. Lekin Sovet qo‘shinlari qarshi zarba berib dushmanni to‘xtatib holdilar.

17 oktyabrda OBQ Stavkasi G‘arbiy frontning chap qanot armiyalari negizida Kalinin frontini tashkil etdi (qo‘mondoni general I.S.Konev). Uning qo‘shinlari qattiq janglar bilan Seliger ko‘li, Kalinin, Voljsk suv ombori marralarida mustahkam o‘rnashib, dushmanni Moskvani shimoldan aylanib o‘tish niyatini barbod etdilar. Bu erda dushman «Markaz» armiya guruhining chap qanotini yopish uchun mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi.

Oktyabr oxirida Mojaysk mudofaa chizig‘ida hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Katta talofatlarga qaramasdan dushman Moskvaga intilardi. Sovet qo‘shinlari dushman hamlalariga cheksiz matonat va qahramonlikni qarshi ho‘ydilar. Mashhur Borodino maydonida 32- o‘qchi diviziyaning polklari o‘limga tik boqib, fashistlar hujumini qaytarib turdilar.

Shunga qaramasdan dushman tank qo‘shinlari G‘arbiy front pozitsiyalarini yorib o‘tib Volokalamsk, Mojaysk, Kalugani egalladi, Moskvagacha 80-100 km. qoldi. 19-noyabrda Davlat Mudofaa qo‘mitasi Moskvada qamal holatini joriy etish bo‘qyicha qaror qabul qildi. Oktyabr oxirida Sovet qo‘shinlari ushbu yo‘nalishda dushmanni mudofaaga o‘tishga majbur etdilar.

Lekin fashistlar qo‘mondonligi Moskvani qishgacha egallash fikridan qaytmagan edi. Shu munosobat bilan «Markaz» armiya guruhiga yangi hujumni tayyorlash va o‘tkazish uchun topshiriq qo‘yildi, bu vazifa-ikkita qudratli guruh bilan Moskvani shimoldan va janubdan aylanib o‘tish, uni hamal qilish va bir vaqtning o‘zida frontdan kuchli zarba berib SSSR poytaxtini egallashdan iborat edi.

Sovet Oliy Bosh qo‘mondonligi o‘z vaqtida fashistlar guruhini aniqladi va ularning rejasini payqab qolib, G‘arbiy front qo‘shinlarini kuchaytirish, mudofaa marralarini takomillashtirish, zaxiralarni Moskva rayoniga olib kelish chora-tadbirlarini ko‘rdi.

Buning natijasida G‘arbiy front mudofaasi noyabr oyida mustahkamlandi, uning barqarorligi oshirildi.

15-16-noyabrda nemis qo‘shinlari Volokalamsk, 18-noyabrda Tula yo‘nalishlarida hujumga o‘tdilar. Bir necha kundan so‘ng esa Eletsk yo‘nalishida ham hujumga o‘tdilar. 600 kmli frontda yana hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Dushman oshgan qarshilikni darrov payqadi.

**G‘arbiy frontning o‘ng qanoti dushmanga katta talofatlar berib, o‘zi ham asta-sekin chekina boshladi. Noyabr oxirida nemislar Moskva-Volga kanaliga chiqdilar va uni Dmitrov rayonida kechib o‘tdilar.**

Bu vaziyatda Bosh qo‘mondonlik Yaxroma rayonida va janubrog‘da qarshi hujumlarni amalga oshirdi. Bu qarshi hujumlar natijasida dushman kanalning g‘arbiy qirg‘og‘iga uloqtirib tashlandi.

G‘arbiy frontning chap qanotida dushman Sovet qo‘shinlarining front ortiga o‘tishga muvaffaq bo‘ldi, lekin Tulani egallay olmadi. Sovet qo‘shinlari Tula va uning atrofi rayonlarini mustahkam ushlab turdi, bu o‘z navbatida butun G‘arbiy frontning chap qanoti barqarorligi ta’minladi va bir necha kuchli qarshi zarbalar berish imkoniyatini yaratdi. Ulardan eng qudratlisi Mixaylov rayonidan berildi.

Janglar natijasida dushman 4-dekabrda hujumni to‘xtatishga va mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi. 5-dekabr 1941- yilda «Markaz» armiya guruhi qo‘shinlari butun front bo‘ylab to‘xtatib qolindi. SHunday qilib fashistlar armiyasining Moskvaga qilgan ikkinchi hamlasi ham barbod bo‘ldi. Moskva ostonalaridagi mudofaa janglari bilan 1941- yil yozgi-kuzgi kampaniya nihoyasiga etdi. Uning asosiy natijasi–bu Gitler Germaniyasining «yashindek tez urush olib borish» rejasining chippakka chiqqani bo‘ldi. qizil Armiya dushmanning zarbdor guruhlarini qoldan toydirishga muvaffaq bo‘ldi.

## Sovet Armiyasining Moskva ostonalaridagi qarshi hujumi (1941- y. 5- dekabr – 1942- y. 7- yanvar)

Yaratilgan vaziyatda Sovet qurolli Kuchlari oldida Leningrad, Moskva va Kavkazdagi xavfni bartaraf etish va urushning borishida burilish yasash vazifasi qo‘yilgan edi. Bu vazifalarni qizil Armiya 1941--1942- yilgi qishgi kampaniyalar davomida hal etishi kerak edi. Asosiy zarba Moskva yo‘nalishiga berilishi ko‘zda tutildi. Moskva ostonalarida qarshi hujumni amalga oshirish uchun Kalinin, G‘arbiy, Janubiy-G‘arbiy frontlar qo‘shinlari jalb etildi. Ular 1100 ming odamga, 7652 ta orudiya va minomyotlarga, 744 ta tankka va 1000 ta jangovar samolyotga ega edilar. Bu frontlarga qarshi 1708 ming odam, 18500 ta orudiya va minomyolar, 1170 ta tank va 615 ta samolyotlarga ega bo‘lgan «Markaz» armiya guruhi turar edi.

qarshi hujumning maqsadi, dushmanning Moskva yo‘nalishidagi asosiy guruhlarini tor-mor etish va Moskva shahri va Moskva ishlab chiqarish rayonlari ustidagi xavf-xatarni bartaraf etishdan iborat edi.

Qarshi hujumning rejasi-G‘arbiy frontning hujumlari, Kalinin frontining chap qanoti va Janubiy-G‘arbiy frontning o‘ng qanoti bilan hamkorlikda amalga oshirilib Moskvaning janubi va shimolida dushmanning zarbdor guruhlarini yakson etish va ularni Moskvadan uloqtirib tashlash edi. Qarshi hujumni to‘satdan berish uchun operativ to‘xtalishsiz, mudofaa davrida shakllangan qo‘shinlar bilan berilishi kerak edi. Asosiy rol G‘arbiy frontga berildi. Front qo‘shinlari oldida dushmanning qanotdagi guruhlarini Klin, Solnechnogorsk, Stalinogorsk, Tula rayonlarida tor-mor etish vazifasi qo‘yilgan edi.

5-dekabrda Kalinin fronti qo‘shinlari qarshi hujumga o‘tdilar. 6- dekabrda G‘arbiy, Janubiy-G‘arbiy frontlarning qarshi hujumlari boshlandi. 9-dekabrda 30-armiya qo‘shinlari Moskva–Kalinin temir yo‘lini egallab, Klindagi dushman guruhini shimoliy-g‘arb tomondan qurshovga ola boshladilar. Harakatlanish surati hali past edi.

Sovet qo‘shinlari hali urush olib borish tajribasiga ega emas edilar. Ular o‘z saflarida kam sonli artilleriya va tanklarga ega bo‘lib, qalin tushgan qor ham manyovr qilishni qiyinlashtirar edi.

Dushman qarshiligini engib, Sovet qo‘shinlari 15 dekabrda Klin rayonida dushman guruhini qurshab oldilar. 1941- yil 15 dekabrda Klin shahri dushmandan ozod etildi.

Istra yo‘nalishida ham janglar avj olib ketdi, bu yo‘nalishda dushman Kryukovo rayonida kuchli mudofaa yaratishga ulgurdi. 8-dekabrda 8- gvardiyachi o‘qchilar diviziyasi Kryukovoni egallab, Istra yo‘nalishiga hujumni rivojlantirdi.

Kryukovo jangida mag‘lubiyatga uchragan dushman Istra suv ombori ortiga o‘tib, kuchli mudofaani tashkil etdi. Frontdan uning mudofaasini yorib o‘tishga bo‘lgan harakatlar muvaffaqiyat keltirmadi. 16-Armiya qo‘mondoni general K.K.Rokossovskiy qo‘shinlarining bir qismi bilan shimoldan va janubdan dushman mudofaasini aylanib o‘tishga qaror qildi. qurshovga tushib holish xavfi ostida fashistlar shoshilinch ravishda Volokolamsk tomonga o‘tishga qaror qildilar. Sovet qo‘shinlari dushmanni ta’qib etib, 1941- yil 25 dekabrda frontning o‘ng qanot qo‘shinlari Lama va Ruza daryolari marrasiga o‘tdilar. Lekin bu erda ular avvaldan tayyorlangan pozitsiyalarda to‘xtatib qolindilar. Dushmanni ta’qib etish harakatchan guruhlar va chang‘ichilar batalonlari bilan olib borilib, ular ko‘p hollarda dushmanning front ortiga yorib kirib, uning ortga qaytish yo‘llarini to‘sib, to‘satdan zarbalar berdilar. Moskvaning shimoliy-g‘arbidagi hujumlar davomida Sovet qo‘shinlari dushmanga katta talofatlar etkazib, uni 90-100 kmga uloqtirib tashladilar.

Kalinin fronti, G‘arbiy frontning o‘ng qanot armiyalari bilan birgalikda, dushmanning Kalinin guruhlariga zarbalar berdi va 16 dekabrda Tverni egalladi.

G‘arbiy frontning chap qanot qo‘shinlari Uzlovoy yo‘nalishiga hujum qilib nemislarning 2-tank armiyasini mag‘lubiyatga uchratdilar. 1942- yil 7- yanvarda ular 220 km olg‘a siljib «Markaz» Armiya guruhini shimoldan qamrab oldilar.

Shunday qilib, 1942- yil yanvar oyi boshlarida qizil Armiyaning Moskva ostonalaridagi hujumi qat’iy g‘alaba bilan tugadi. Dushmanning zarbdor guruhlari tor-mor etildi va g‘arbga tomon 100-150 kmga uloqtirib tashlandi. Poytaxtga solinib turilgan tahdid bartaraf etildi.

Mudofaadan hujumga o‘tilishi va Bosh strategik yo‘nalishda yirik g‘alabalarga erishilishi bilan qizil Armiya dushman qo‘lidan tashabbusni tortib oldi. Moskva ostonalarida nemislarning tor-mor etilishi bilan urushning borishida tubdan burilish boshlandi.

Ilova №1 “Birgalikda o’qiymiz” texnikasi

Birgalikda o’qish: o’quv guruxi kichik guruxlarga bo’linadi. Xar bir kichik gurux o’rganilayotgan mavzuning ma`lum bir soxasida ekspert bo’ladi va boshqalarga o’rgatadi.

Xar bir guruxning maqsadi boshqa barcha guruxlar ishtirokchilari mavzu savollarni to’la xajimda egallab olishdan iborat

“Birgalikda o’qiymiz” texnikasidan foydalangan xolda guruxlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi.

1 Bilim darajasiga qarab 5 kishidan iborat bo’lgan xar xil turdagi guruxlar tuziladi

2.Xar bir guruxga bittadan topshiriq beriladi- umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o’quv guruxi ish olib boradi xamda tayanchlar- ekspert varaqlari- taqdim etiladi

3.Xar bir gurux ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi

4.Xamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.

5. Barcha gurux a`zolarining mini- ma`ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag’i bo’yicha savollar javobi) ning shakillantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.

6. Spiker yoki gurux barcha a`zolari birgalikda barjargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

**Ikkinchi jahon jurishining birinchi davrida harbiy mahoratning yangi jihatlari va urush harakatlarining umumiy sur`ati.**

1941- yil 22-iyundan 9 iyulgacha, urushning boshlanish davridan Smolensk jangigacha, Sovet qo‘shinlari Boltiq dengizidan Karpatgacha og‘ir chegarabuyi janglarini olib bordilar va ustunlikka erishgan dushman kuchlarining zarbasi ostida, dushmanga Boltiqbuyining katta qismini, Belorussiyaning qariyib hammasini va Ukrainani bir qismini tashlab sharqqa tomon 350-600 kmga chekindilar.

Yuqori Shimolda nemis-fashist qo‘shinlari 1941- yil 29 iyunda Murmansk va Kandalaksha yo‘nalishlarida hujumni boshlab, 9 iyulda Sovet territoriyasi ichkarisiga bor-yo‘g‘i 25-30 km. harakatlandilar.

Chekinish chog‘ida Sovet qo‘shinlari hattiq qarshilik ko‘rsatib, dushman shaxsiy tarkibiga va harbiy texnikasiga katta talofatlar etkazdilar.

Sovet qo‘shinlari o‘zlari uchun qiyin jangovar vaziyat sharoitida, bostirib kelayotgan dushman guruhlariga qarshi zarbalar berdilar, bu bilan dushman hujumi suratini pasaytirib, davlat ichkari rayonlaridan yirik strategik Sovet qurolli kuchlari guruhlarini G‘arbiy Dvina daryosi sharqrog‘i marralariga va Dnepr daryosining o‘rta oqimi bo‘ylariga safarbar etish va olib chiqish uchun vaqtdan yutib chiqdilar.

Urushning boshlanish davrida Sovet qurolli kuchlari katta talofatlar ko‘rib, og‘ir sharoitlarga tushib holdilar. Sovet qo‘shinlari Shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda keng front bo‘ylab, kuch va vositalar cheklangan sharoitda mudofaa janglarini olib borib, dushmanni to‘xtatib qola olmadilar va 12 sentyabrda Leningradning yahin bqsag‘alariga chekindilar. 8-sentyabrda dushman SHlisselburgni (Petrokrepostni) egalladi, Leningradni quruqlikdan qamal qildi. Leningrad bilan aloqa faqat Lodoga ko‘li va havodan amalga oshirila boshlandi.

Petrazavodsk va Kareliya bo‘g‘ozlarida fin va nemis qo‘shinlari 1941- yil sentyabrining oxirida Svir va 1939- yildagi davlat chegaralarida to‘xtatib qolindilar.

**Mudofaa janglari davomida SHimoliy-G‘arbiy yo‘nalishda sovet qo‘shinlari dushmanga katta talofatlar etkazib uning Leningradni egallash rejalarini barbod etdilar.**

**G‘arbiy yo‘nalishda sovet qo‘shinlari urushning birinchi kunlarida Minskning g‘arbrog‘ida (bu erda G‘arbiy frontning asosiy kuchlari qurshovda qolgan edi) katta talofatlar ko‘rib, 1941- yilning 10 iyulidan 10 sentyabrigacha Smolenskda ayovsiz janglar olib bordilar. Bu janglar keng front bo‘ylab shimolda Velikie Lukidan, janubda Jlobin va Roslavlgacha masofada davom etdi. Smolensk jangi mobaynida G‘arbiy front qo‘shinlari dushmanning tirik kuchlariga va jangovar texnikalariga katta talofatlar etkazidilar va buning oqibatida u Moskvaga hujumni davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi.**

Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishda Sovet qo‘shinlari 1941- yil 10 iyuldan sentyabr oxirigacha dushmanning kuch jihatidan ustun bo‘lgan kuchlari bilan Uman va Kiev rayonlarida og‘ir mudofaa janglarini olib bordilar. Fashistlar qo‘mondonligi Janubiy-G‘arbiy frontga qarshi ikkita tank guruhini jangga kiritdilar (1- va 2- tank guruhlari) va ularning qudratli zarbalari bilan 1941- yil 15 sentyabrda Kiev rayonida Janubiy-G‘arbiy frontning to‘rtta armiyasini qurshovga oldilar. Buning natijasida Ukrainada mudofaa jiddiy kuchsizlandi. Ukrainada mudofaani mustahkamlash maqsadida Oliy Bosh qo‘mondonlik Stavkasi Ukrainaga o‘z zaxirasidan bir – necha diviziyalarni jo‘natdi.

Sovet-german frontining janubiy qanotida 1941- yilning 5 avgustidan 16 oktyabrigacha Sovet qo‘shinlari va qora dengiz floti Odessaning qahramonona mudofaasini amalga oshirdilar, dushmanning 18 ta diviziyasiga qattiq talofatlar etkazib, bu rayonda ularni holdan toydirdilar. Sovet qo‘shinlari qrimda mudofaani mustahkamlash va Sevastopolni mudofaa etish maqsadida 16 oktyabrda Odessadan evakuatsiya qilindilar.

Sovet qurolli Kuchlari Leningrad, Kiev, Odessa, qrimdagi qahramonona mudofaada va Smolensk jangida dushmanga qattiq talofatlar etkazib fashistlar qo‘mondonligining «yashindek tez urush olib borish» rejasini barbod etdilar.

Qish tushgunga hadar Sovet Ittifoqiga qarshi urushni tugallash maqsadida, 1941- yil 30-sentyabrda fashistlar armiyasi Moskvani egallash uchun birinchi bosh hujumni boshladi.

Moskvaning uzoq bo‘sag‘alarida G‘arbiy, Kalinin va Bryansk frontlari oy mobaynida og‘ir mudofaa janglarini olib bordilar. Bu janglar davomida ular fashistlarga katta talofatlar etkazdilar va ularning qish tushgunga qadar Moskvani bosib olish rejalarini barbod etdilar. Oktyabr oxirida dushman Moskvaning yaqin bo‘sag‘alarida to‘xtatib qolindi.

Fashistlar qo‘smondonligi kuch va vositalarini qayta to‘plab va to‘ldirib, 1941- yilning 15-16-noyabrida Moskvaga ikkinchi hujumni boshladi.

Lekin Sovet qo‘shinlari dushman hamlalarini qahramonona qaytarib 1941- yil dekabr oyi boshlarida nafaqat uning Moskvaga hujumini to‘xtatib qoldilar, balki hujumga o‘tgan dushman guruhlarini tor-mor etish maqsadida qarshi hujumga o‘tish uchun qulay sharoit yaratdilar.

Mana shu davr mobaynida Leningrad va Janub front qo‘shinlari OBQ Stavkasi buyrug‘iga binoan Tixvin va Rostov yaqinida hujumga o‘tgan dushmanga qarshi hujumga o‘tdilar.

1941- yil 26-noyabrda boshlanib 28 dekabrgacha davom etgan Sovet qo‘shinlarining Tixvin yaqinidagi qarshi hujumlari, janubdan Svir daryosiga o‘tib fin armiyasi bilan qo‘shilib, Leningradda ikkinchi qurshov halqasini yaratishga intilgan dushman guruhining tor-mor etilishi bilan tugadi.

1941- yil 17-noyabrdan 2 dekabrgacha davom etgan Rostov yaqinidagi qarshi hujum nemislarning birinchi tank armiyasining to‘liq tor-mor etilishi va Rostovning fashistlardan ozod etilishi bilan tugadi.

Olib borilgan qarshi hujumlarning maqsadi, dushmanga katta talofatlar etkazish bilan bir qatorda bu yo‘nalishlarda uni holdan toydirish va fashistlar qo‘mondonligiga shu kuchlar hisobidan Moskvaga hujum qilayotgan qo‘shinlarni to‘ldirishga imkoniyat bermaslikdan iborat edi.

qrimda qizil Armiya va HDF 1941- yil 30-oktyabrdan Sevastopolning qahramonona mudofaa jangini olib bordi.

YOzgi-kuzgi kampaniya oxirida, ya’ni besh yarim oy mobaynidagi ayovsiz janglar natijasida, Sovet Qurolli Kuchlari davlat ichkarisiga 900-1500 kmga chekinib, dushmanga katta hududlarni qoldirishga majbur bo‘ldilar. Lekin bu janglar davomida Sovet qo‘shinlari dushmanga katta talofatlar etkazib, uning «yashindek tez urush olib borish» rejasini tamomila barbod etdilar.

Markazda va G‘arbiy yo‘nalishlarda hujum qilgan nemis-fashist qo‘shinlari qat’iy qarshilikka uchradilar. 10 iyulda boshlangan Smolensk jangigacha kuch va vositalar bo‘yicha ustunlik vermaxt tomonida bo‘ldi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Jang o‘ta shiddatli tus oldi.

16 iyulga o‘tar kechasi dushman tanklari Smolenskka bostirib kirdi va uning janubiy qismini egalladi. Dneprning ortida, shaharning shimoliy qismida joylashgan sovet qo‘shinlari dushmanga to‘xtovsiz hujum qildilar. Dushmanning Smolenskni mudofaa qilib turgan Sovet qo‘shinlarini qurshab olish va ularning chekinish yo‘llarini to‘sib qo‘yish uchun qilgan harakati barbod bo‘ldi.

## 1941-1945 yillar Sobiq Ittifoq va Germaniya o’rtasidagi urushining boshlanishi. Dushmanga zarba berisning tashkiliy tadbirlari.

Germaniya va uning ittifoqchilarining SSSRga hujum qilish uchun bevosita tayyorgarliklari 1940 yilning yozida, Fransiya okkupatsiya qilinganidan keyin boshlab yuborildi. 1940 yilning 18 dekabrida Gitler «Barbarossa» shartli nomini olgan SSSRga qarshi urush rejasini imzoladi. Unda quyidagi so‘zlar bor edi: «Germaniya qurolli kuchlari qisqa fursat ichida, Angliyaga qarshi urush oxiriga etgunigacha, qisqa kampaniya davomida Sovet Ittifoqini tor-mor etishga tayyor bo‘lishi kerak. SSSRning G‘arbida joylashgan Sovet quruqlikdagi kuchlarining asosiy kuchlari tank qo‘shinlarining chuqur, shiddatli va tez harakatlari bilan yanchib tashlanishi kerak. Dushman qo‘shinlarining jang olib borish qobiliyati yuqori bo‘lgan qo‘shinlarini ulkan Sovet hududi ichkarisiga chekinishining oldi olinishi kerak. Operatsiyaning pirovard natijasi Osiyo Rossiyasiga qarshi Volga-Arxangelsk umumiy chizig‘i bo‘ylab to‘siq yaratishdan iborat».

Gitlerchilar qo‘mondonligi o‘z-hisob kitoblarini to‘satdan zarba berishni tashkil etishga va strategik total va nazariyasi bitta kampaniyada tezkor harakatlar bilan dushman ustidan to‘liq

g‘alabaga erishishni ko‘zda tutgan «yashindek tez urush olib borish»ga asoslanib tuzdi, bunga erishishga to‘satdan hujumni boshlash zamin yaratishi kerak edi.

Fashistlar Germaniyasi rahbariyati SSSR xalhlarini siyosiy, iqtisodiy va g‘oyaviy tomondan sindirishga, hamda Sovet xalqining katta qismini, birinchi navbatda armiyadagi siyosiy xodimlar, harbiy asirlarni qirishga haratilgan butun bir tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. Bular hammasi oldindan tasdiqlangan «Ost» rejasida o‘z ifodasini topdi.

Sovet Ittifoqiga bostirib kirish uchun nemis-fashist qo‘shinlari quyidagi guruhlarga yoyildi: Finlyandiya hududida nemislarning «Norvegiya» armiyasi va ikkita Finlyandiya armiyasi joylashdi. «SHimol» armiyalar guruhi SHarqiy Prussiyada joylashdi. «Markaz» armiyalar guruhi Polshaning shimoliy-sharqiy qismida, «Janub» armiyalar guruhi esa Polshaning janubiy-sharqiy qismida va Ruminiyaning shimoliy-sharqiy qismida jamlandi.

Hammasi bo‘lib Sovet Ittifoqi g‘arbiy chegaralari yaqinida fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilari 5,5 mln. kishiga ega bo‘lgan va o‘z qurollashida 4300 ta tanklarni, 4980 ta samolyotlarni, 47200 ta dan ortiq orudiya va minomyotlarni o‘z safiga biriktirgan190 diviziyani jamladi.

Bu hamma qo‘shinlar jamlanish va yoyilishni 1941 yilning 17 iyunida oxiriga etkazib, zich va jipslashgan holatda turdi. Birinchi eshelonda gitlerchilar qo‘mondonligi 130 diviziyani tayyorladi, shu jumladan 13 tank diviziyasini.

Sovet hukumati fashistlar Germaniyasining SSSRga hujum qilish ehtimolini oldindan bildi va davlatni mudofaaga tayyorladi Qurolli Kuchlarni jangovar tayyorgarligini oirish chora-tadbirlari ko‘rildi; yangitdan yaratilayotgan mexanizatsiyalashgan korpuslarning shakllantirish tezkorlik bilan olib borildi; chegarabo‘yi chiziqlarida istehkomlar rayonlari va aerodromlarni qurish ishlari olib borildi; boshqa mudofaa tadbirlari olib borildi. Ammo vatqning tig‘izligi tufayli ko‘pgina ishlarni oxiriga etkazishga muvaffaq bo‘linmadi.

Urush boshida Sovet Ittifoqi chegaralarini Barens dengizidan Boltiq dengizigacha beshta chegarabo‘yi okruglari himoya qilib, ularning safida 2.680 ming kishi mavjud edi. Ushbu okruglarning safida 170 diviziya va 2 brigada 35,5 mingta orudiya va minomyotlar, 1475 ta yangi KV va T-34 tanklari, 1540 ta yangi namunadagi samolyotlarga ega bo‘lindi. Jangovar texnika soni bo‘yicha, ayniqsa tanklar va samolyotlar bo‘yicha Sovet qo‘shinlari dushmandan qolishmadi. Lekin ularning ancha qismi eskirgan edi.

Qo‘shinni qayta qurollantarish oxiriga etkazilmagan bo‘lib, bu ishlarni tugatish 1941 yilning oxiri-1942 yilning boshlarida rejalashtirilgandi. CHegarabo‘yi okruglarida yangi tanklar bor-yo‘g‘i 18,2 %ni, yangi samolyotlar-21,3 %ni tashkil etdi. SHaxsiy tarkib endigina yangi texnikani o‘zlashtirishni boshlagan edi. Bundan tashqari Sovet chegarabo‘yi okruglari urushning boshida front bo‘ylab va chuqurlikka ulkan hududda yoyilgan bo‘lib, tinchlik davrining kun tartibi bo‘yicha faoliyat yuritardi.

SHunday qilib, urushning boshida harbiy-siyosiy vaziyat fashistlar Germaniyasi foydasiga anchagina qulay bo‘lib turgan edi.

1941-1945 yillardagi urush uch davrga bo‘linadi:

- birinchi davr – 1941 yil 22 iyun-1942 yil 18 noyabr;
- ikkinchi davr – 1942 yil 19 noyabr – 1943 yilning oxiri;
- uchinchi davr – 1944 yil yanvar – 1945 yil 9 may.

**Urushning birinchi davrida jangovar harakatlarining umumiy sur`ati va natijalari. Moskva ostonasi jangining harbiy siyosiy ahamiyati.**

Moskva ostonalaridagi janglar (1941- y. sentyabr-1941- y.5 dekabr).

SSSRga harshi urush rejasida nemis–fashist qo‘mondonligi Moskvani bosib olishga katta, birinchi darajali ahamiyat bergan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fashistlar qo‘mondonligi Moskva yo‘nalishida 77 ta diviziyani (jumladan 14 ta tank va 8 ta motorlashgan) to‘pladi, kuchlarning bir qismi Leningrad va Kievdan ushbu yo‘nalishga tashlandi.

Fashistlar qo‘shinlariga uchta frontning qo‘shinlari qarshi turdilar. Ularning safida 1250ming odam, 990ta tank, 7600ta orudiya va minomyotlar, 677ta samolyotlar mavjud edi. Lekin ustunlik dushman tomonida edi.

Moskva bo‘sag‘alarida ko‘p havatli mudofaa yaratilib, uning chuqurligi 250-300 kmni tashkil etdi.

**30-sentyabrda dushman hujumga o‘tdi, ustunlikka ega bo‘lib u Sovet qo‘shinlarining mudofaasini yorib o‘tib, shiddat bilan sharqqa tomon harakatlana boshladi. 3 oktyabrda dushman Oryol shahrini egalladi, 7 oktyabrda uning motorlashgan qismlari Vyazmaga yorib kirdi va to‘rtta armiya qo‘shinlarini qurshovga oldi. Qurshovdagi qo‘shinlar dushmanning 29tagacha diviziyasini holdan toydirdilar. Birlashmalarning ancha qismi oktyabr o‘rtalarida qurshov qalqasini yorib chiqib, Moskva tomongao‘qtishga muvaffaq bo‘ldi.**

Mojaysk mudofaa chizig‘i asosiy qarshilik ko‘rsatish marrasiga aylandi. Bu erga yangi-yangi birlashmalar kela boshladilar. Oryol yo‘nalishiga ham zaxira birlashmalari olib kelina boshlandi, ular Oryoldan Tulaga o‘tadigan yo‘llarda uzoq janglar olib borib dushmanning tank guruhining harakatlarini susaytirib yubordilar.

Bu vaqtga kelib Moskvaning shimoliy-g‘arbida vaziyat keskinlashdi. Dushmanning tank guruhi 14 oktyabrda Tverni egalladi. Lekin Sovet qo‘shinlari qarshi zarba berib dushmanni to‘xtatib holdilar.

17 oktyabrda OBQ Stavkasi G‘arbiy frontning chap qanot armiyalari negizida Kalinin frontini tashkil etdi (qo‘mondoni general I.S.Konev). Uning qo‘shinlari qattiq janglar bilan Seliger ko‘li, Kalinin, Voljsk suv ombori marralarida mustahkam o‘rnashib, dushmanni Moskvani shimoldan aylanib o‘tish niyatini barbod etdilar. Bu erda dushman «Markaz» armiya guruhining chap qanotini yopish uchun mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi.

Oktyabr oxirida Mojaysk mudofaa chizig‘ida hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Katta talofatlarga qaramasdan dushman Moskvaga intilardi. Sovet qo‘shinlari dushman hamlalariga cheksiz matonat va qahramonlikni qarshi ho‘ydilar. Mashhur Borodino maydonida 32- o‘qchi diviziyaning polklari o‘limga tik boqib, fashistlar hujumini qaytarib turdilar.

Shunga qaramasdan dushman tank qo‘shinlari G‘arbiy front pozitsiyalarini yorib o‘tib Volokalamsk, Mojaysk, Kalugani egalladi, Moskvagacha 80-100 km. qoldi. 19-noyabrda Davlat Mudofaa qo‘mitasi Moskvada qamal holatini joriy etish bo‘qyicha qaror qabul qildi. Oktyabr oxirida Sovet qo‘shinlari ushbu yo‘nalishda dushmanni mudofaaga o‘tishga majbur etdilar.

Lekin fashistlar qo‘mondonligi Moskvani qishgacha egallash fikridan qaytmagan edi. SHu munosobat bilan «Markaz» armiya guruhiga yangi hujumni tayyorlash va o‘tkazish uchun topshiriq qo‘yildi, bu vazifa-ikkita qudratli guruh bilan Moskvani shimoldan va janubdan aylanib o‘tish, uni hamal qilish va bir vaqtning o‘zida frontdan kuchli zarba berib SSSR poytaxtini egallashdan iborat edi.

Sovet Oliy Bosh qo‘mondonligi o‘z vaqtida fashistlar guruhini aniqladi va ularning rejasini payqab qolib, G‘arbiy front qo‘shinlarini kuchaytirish, mudofaa marralarini takomillashtirish, zaxiralarni Moskva rayoniga olib kelish chora-tadbirlarini ko‘rdi.

Buning natijasida G‘arbiy front mudofaasi noyabr oyida mustahkamlandi, uning barqarorligi oshirildi.

15-16-noyabrda nemis qo‘shinlari Volokalamsk, 18-noyabrda Tula yo‘nalishlarida hujumga o‘tdilar. Bir necha kundan so‘ng esa Eletsk yo‘nalishida ham hujumga o‘tdilar. 600 kmli frontda yana hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Dushman oshgan qarshilikni darrov payqadi.

**G‘arbiy frontning o‘ng qanoti dushmanga katta talofatlar berib, o‘zi ham asta-sekin chekina boshladi. Noyabr oxirida nemislar Moskva-Volga kanaliga chiqdilar va uni Dmitrov rayonida kechib o‘tdilar.**

Bu vaziyatda Bosh qo‘mondonlik YAxroma rayonida va janubrog‘da qarshi hujumlarni amalga oshirdi. Bu qarshi hujumlar natijasida dushman kanalning g‘arbiy qirg‘og‘iga uloqtirib tashlandi.

G‘arbiy frontning chap qanotida dushman Sovet qo‘shinlarining front ortiga o‘tishga muvaffaq bo‘ldi, lekin Tulani egallay olmadi. Sovet qo‘shinlari Tula va uning atrofi rayonlarini mustahkam ushlab turdi, bu o‘z navbatida butun G‘arbiy frontning chap qanoti barqarorligi

ta'minladi va bir necha kuchli qarshi zarbalar berish imkoniyatini yaratdi. Ulardan eng qudratlisi Mixaylov rayonidan berildi.

Janglar natijasida dushman 4-dekabrda hujumni to'xtatishga va mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. 5-dekabr 1941- yilda «Markaz» armiya guruhi qo'shinlari butun front bo'ylab to'xtatib qolindi. SHunday qilib fashistlar armiyasining Moskvaga qilgan ikkinchi hamlasi ham barbod bo'ldi. Moskva ostonalaridagi mudofaa janglari bilan 1941- yil yozgi-kuzgi kampaniya nihoyasiga etdi. Uning asosiy natijasi–bu Gitler Germaniyasining «yashindek tez urush olib borish» rejasining chippakka chiqqani bo'ldi. qizil Armiya dushmanning zarbdor guruhlarini qoldan toydirishga muvaffaq bo'ldi.

## ***Urush boshlanishidagi harbiy siyosiy axvol*.**

1941-1945 yillardagi urush arafasida vaziyat fashist davlatlari tomonidan agressiyaning kuchayishi, Sovet Ittifoqi uchun harbiy xavfning oshishi bilan xarakterlandi.

Sovet Ittifoqi tomonidan o'rtaga tashlangan jamoa xavfsizligi to'g'risidagi taklifni inkor etgan Angliya, Fransiya, AQSH va boshqa davlatlar hukmron doiralarining xoinona siyosatlari, 1939-1940 yillarda Germaniya tomonidan Evropaning qariyib hamma davlatlarini bosib olinishiga olib keldi. SHundan so'ng Germaniya SSSRga hujum qilish uchun fashist davlatlari blogini tuzish uchun keng faoliyatni boshladi. 1940 yil sentyabrda Berlinda Germaniya, Italiya va YAponiya o'rtasida uchlik ittifoqi paktini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Keyinchalik bunga Vengriya, Ruminiya, Bolgariya davlatlari kiritildi. Finlyandiya Germaniya bilan ittifoq tuzdi, Ispaniya, Turkiya va SHvetsiya Germaniya pozitsiyasiga o'tib oldi.

Germaniya va uning ittifoqchilarining SSSRga hujum qilish uchun bevosita tayyorgarliklari 1940 yilning yozida, Fransiya okkupatsiya qilinganidan keyin boshlab yuborildi. 1940 yilning 18 dekabrida Gitler «Barbarossa» shartli nomini olgan SSSRga qarshi urush rejasini imzoladi. Unda quyidagi so'zlar bor edi: «Germaniya qurolli kuchlari qisqa fursat ichida, Angliyaga qarshi urush oxiriga etgunigacha, qisqa kampaniya davomida Sovet Ittifoqini tor-mor etishga tayyor bo'lishi kerak. SSSRning G'arbida joylashgan Sovet quruqlikdagi kuchlarining asosiy kuchlari tank qo'shinlarining chuqur, shiddatli va tez harakatlari bilan yanchib tashlanishi kerak. Dushman qo'shinlarining jang olib borish qobiliyati yuqori bo'lgan qo'shinlarini ulkan Sovet hududi ichkarisiga chekinishining oldi olinishi kerak. Operatsiyaning pirovard natijasi Osiyo Rossiyasiga qarshi Volga-Arxangelsk umumiy chizig'i bo'ylab to'siq yaratishdan iborat».

Gitlerchilar qo'mondonligi o'z-hisob kitoblarini to'satdan zarba berishni tashkil etishga va strategik total va nazariyasi bitta kampaniyada tezkor harakatlar bilan dushman ustidan to'liq g'alabaga erishishni ko'zda tutgan «yashindek tez urush olib borish»ga asoslanib tuzdi, bunga erishishga to'satdan hujumni boshlash zamin yaratishi kerak edi.

Fashistlar Germaniyasi rahbariyati SSSR xalhlarini siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy tomondan sindirishga, hamda Sovet xalqining katta qismini, birinchi navbatda armiyadagi siyosiy xodimlar, harbiy asirlarni qirishga haratilgan butun bir tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. Bular hammasi oldindan tasdiqlangan «Ost» rejasida o'z ifodasini topdi.

Sovet Ittifoqiga bostirib kirish uchun nemis-fashist qo'shinlari quyidagi guruhlarga yoyildi: Finlyandiya hududida nemislarning «Norvegiya» armiyasi va ikkita Finlyandiya armiyasi joylashdi. «SHimol» armiyalar guruhi SHarqiy Prussiyada joylashdi. «Markaz» armiyalar guruhi Polshaning shimoliy-sharqiy qismida, «Janub» armiyalar guruhi esa Polshaning janubiy-sharqiy qismida va Ruminiyaning shimoliy-sharqiy qismida jamlandi.

Hammasi bo'lib Sovet Ittifoqi g'arbiy chegaralari yaqinida fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilari 5,5 mln. kishiga ega bo'lgan va o'z qurollashida 4300 ta tanklarni, 4980 ta samolyotlarni, 47200 ta dan ortiq orudiya va minomyotlarni o'z safiga biriktirgan190 diviziyani jamladi.

Bu hamma qo'shinlar jamlanish va yoyilishni 1941 yilning 17 iyunida oxiriga etkazib, zich va jipslashgan holatda turdi. Birinchi eshelonda gitlerchilar qo'mondonligi 130 diviziyani tayyorladi, shu jumladan 13 tank diviziyasini.

Sovet hukumati fashistlar Germaniyasining SSSRga hujum qilish ehtimolini oldindan bildi va davlatni mudofaaga tayyorladi Qurolli Kuchlarni jangovar tayyorgarligini oirish chora-

tadbirlari ko‘rildi; yangitdan yaratilayotgan mexanizatsiyalashgan korpuslarning shakllantirish tezkorlik bilan olib borildi; chegarabo‘yi chiziqlarida istehkomlar rayonlari va aerodromlarni qurish ishlari olib borildi; boshqa mudofaa tadbirlari olib borildi. Ammo vatqning tig‘izligi tufayli ko‘pgina ishlarni oxiriga etkazishga muvaffaq bo‘linmadi.

Urush boshida Sovet Ittifoqi chegaralarini Barens dengizidan Boltiq dengizigacha beshta chegarabo‘yi okruglari himoya qilib, ularning safida 2.680 ming kishi mavjud edi. Ushbu okruglarning safida 170 diviziya va 2 brigada 35,5 mingta orudiya va minomyotlar, 1475 ta yangi KV va T-34 tanklari, 1540 ta yangi namunadagi samolyotlarga ega bo‘lindi. Jangovar texnika soni bo‘yicha, ayniqsa tanklar va samolyotlar bo‘yicha Sovet qo‘shinlari dushmandan qolishmadi. Lekin ularning ancha qismi eskirgan edi.

Qo‘shinni qayta qurollantarish oxiriga etkazilmagan bo‘lib, bu ishlarni tugatish 1941 yilning oxiri-1942 yilning boshlarida rejalashtirilgandi. CHegarabo‘yi okruglarida yangi tanklar bor-yo‘g‘i 18,2 %ni, yangi samolyotlar-21,3 %ni tashkil etdi. SHaxsiy tarkib endigina yangi texnikani o‘zlashtirishni boshlagan edi. Bundan tashqari Sovet chegarabo‘yi okruglari urushning boshida front bo‘ylab va chuqurlikka ulkan hududda yoyilgan bo‘lib, tinchlik davrining kun tartibi bo‘yicha faoliyat yuritardi.

SHunday qilib, urushning boshida harbiy-siyosiy vaziyat fashistlar Germaniyasi foydasiga anchagina qulay bo‘lib turgan edi.

1941-1945 yillardagi urush uch davrga bo‘linadi:

- birinchi davr – 1941 yil 22 iyun-1942 yil 18 noyabr;
- ikkinchi davr – 1942 yil 19 noyabr – 1943 yilning oxiri;
- uchinchi davr – 1944 yil yanvar – 1945 yil 9 may.

YAponiyaga qarshi urush urushning alohida davri bo‘lib hisoblanadi.

Urushning birinchi davri o‘z ichiga uchta kampaniyani oladi: 1941 yilning yozgi-qishgi mudofaa kampaniyasi; 1941-1942 yilning qishgi hujum kampaniyasi; 1942 yilning yozgi-kuzgi mudofaa kampaniyasi.

**Ikkinchi jahon urushini sababi va harakteri**.

1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qo‘shinlari 16 aprelda xujumga o‘tdilar, 20 aprelda 2-Belorussiya fronti qo‘shinlarining xujumlari boshlandi. 1-Belorussiya fronti bosh kuchlarining xujumlaridan oldin 14 va 15 aprel kunlarida, 1-Ukraina fronti esa 16 aprelga o‘tar kechasi razvedka janglari o‘tkazdilar.

1-Ukraina fronti qo‘shinlari ayniqsa yorib o‘tishni muvaffaqiyatli amalga oshirdilar. Artilleriya tayyorgarligi vaqtida Neyse daryosini kechib o‘tish boshlandi. Egallangan platsdarmda yoyilib, frontning bosh qo‘shin guruxlari xujumni muvaffaqiyatli rivojlantirdilar. Dushmanning bosh mudofaa chizig‘ini yorib o‘tishni oxiriga etkazish uchun jangga tank armiyalarining ilg‘or otryadlari, dushman mudofaasining butun taktik chuqurligini yorib o‘tishni oxiriga etkazish uchun esa birinchi eshelon tank armiyalari tank korpuslarining asosiy kuchlari jangga kiritildi.

Xujumning uchinchi kuni oxirida 1-Ukraina fronti qo‘shinlari butun Neyse mudofaa marrasini front bo‘ylab 35 km da yorib o‘tishni tugatdilar va g‘arbga tomon 30 km gacha xarakatlandilar. Tank armiyalari operativ chuqurlikka chiqdilar va erkin manyovr qilish imkoniyatini oldilar.

1-Belorussiya fronti qo‘shinlarining xujumlari boshqacha sharoitlarda kechdi. Frontning bosh qo‘shin guruxlari, 20 daqiqalik artilleriya tayyorgarligidan so‘ng, 146 ta zenit projektorlarini yoqib, erta tongda dushmanga qarshi xujumni boshladilar.

Piyodalar va tanklar dushman mudofaasining birinchi pozitsiyasi chuqurligiga xarakatlanib, katta qarshilikka uchradilar. Dushman mudofaasini yorib o‘tish bo‘yicha shiddatli janglar boshlanib ketdi.

Kunning ikkinchi yarmida, jangga tank armiyalarini kiritib, dushmanning taktik mudofaa chuqurligini yorib o‘tishni tugatishga urunib ko‘rildi, lekin kunning oxirida yorib o‘tish amalga oshmadi. YOrib o‘tish ketma-ket dushman pozitsiyalarini egallash xarakteriga ega bo‘ldi. Xar

kuni xujum artilleriya tayyorgarligi bilan boshlanib, uning samaradorligi kundan-kun tushib ketaverdi.

Tank armiyalari, birinchi eshelon birlashmalari jangovar tartiblari safida xujum qildilar. Faqat operatsiyaning to‘rtinchi kuni oxirida Oder mudofaa marrasi 1-Belorussiya fronti qo‘shinlari tomonidan 30 km chuqurlikda yorib o‘tildi, o‘rtacha xarakatlanish surati bir sutkada 7-8 km ni tashkil etdi.

SHunday qilib, 19 aprel oxirida dushman mudofaasining bosh va ikkinchi chizig‘ini yorib o‘tish oxiriga etkazildi.

1-Belorussiya fronti chizig‘ida Berlinni shimoldan bosh guruxlarning o‘ng qanot birlashmalari bilan o‘rab olish uchun qulay sharoit yaratildi, 1-Ukraina fronti chizig‘ida esa shu kuniyoq 3-, 4-gvardiyachi tank armiyalari, SHpree daryosining g‘arbiy qirg‘og‘idagi platsdarmlardan Berlinga xujum qildilar.

Dushmanni Berlin guruxining asosiy kuchlarini qurshab olish uchun ikkala frontning juda katta manyovrlari boshlandi.

19 apreldan 25 aprelgacha 1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qo‘shinlari bir vaqtning o‘zida Berlin guruxi asosiy kuchlarini qurshab olish va bo‘laklarga bo‘lib tashlash uchun jang xarakatlarini olib bordilar. 25 aprel oxirida Sovet qo‘shinlari qurshov xalqasi Berilinning g‘arbida Potsdam rayonida birlashtirildi. Fashist qo‘shinlarining yirik guruxlari qurshovga olindi. Tashqi va ichki front qurshovlari yaratildi. SHu kuniyoq Berlinning janubiy-sharqida 1-Belorussiya frontining 1-tank armiyasi qo‘shinlari, 1-Ukraina frontining 3- gvardiyachi tank armiyasi qismlari bilan uchrashdilar. SHu bilan dushmanning qurshovdagi guruxi Berlin va Frankfurt-Guben guruxlariga bo‘lib tashlandi.

20 aprelda 2-Belorussiya fronti qo‘shinlari umumiy xujumga o‘tdilar. Front qo‘shinlari dushmanning shiddatli qarshiligini engib, Oder daryosini g‘arbiy oqimlari buyidan kechib o‘tdilar va 25 aprelda nemislarning bosh mudofaa marrasini yorib o‘tdilar, xujumni g‘rbiy va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishlarda rivojlantirdilar.

25 aprelda Torgau shaxri yaqinida (Elba daryosining g‘arbiy qirg‘og‘i) 1- Ukraina fronti qo‘shinlari, g‘arbdan xarakatlanib kelayotgan 1-Amerika armiyasining ilg‘or qismlari bilan uchrashdilar.

26 apreldan 8 maygacha Sovet qo‘shinlari qarshida turgan dushmanni tor-mor etishni tugatdilar. 1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qo‘shinlari fashistlarning qurshovdagi Berlin va Frankfurt-Guben guruxlarini qirib tashladilar, ularning 12-armiyasi va Gerlits guruxining qarshi zarbalarini qaytardilar. 2-Belorussiya fronti qo‘shinlari 3-tank armiyasi SHteyner armiya guruxini tor-mor etishni tugatdilar.

Qurshovdagi Berlin guruxini qirib tashlash, Berlin shturmi paytida olib borildi. Front qo‘shinlari, aviatsiya qo‘llab-quvvatlovida, xar xil yo‘nalishlardan shaxar markaziga tomon zarba berib kela boshladilar. SHturmda tank armiyalari faol ishtirok etdilar. 30 aprelda 1-Belorussiya fronti qo‘shinlari shiddatli janglar bilan shaxar markaziga chiqdilar va Reyxstagni egalladilar va uning bosh gumbaziga g‘alaba Bayrog‘ini o‘rnatdilar. 1945 yil 2 may soat 15.30 da Berlinda dushman guruxi tugatildi, Berlin garnizoni kapitulyasiya qildi.

Tashqi front qurshovida xarakalanayotgan 1-Belorussiya fronti qo‘shinlari va 1-Ukraina fronti kuchlarining bir qismi, xujumni g‘arbga rivojlantirdilar va 7 mayda butun Elba daryosi marralariga chiqdilar.

1945 yil 8 may soat 23.45 dan 9 may 00.45 gacha, Berlin yaqinidagi Karlxorstda nemis-fashistlari Bosh qo‘mondonligi so‘zsiz taslim bo‘lganligi to‘g‘risidagi kapitulyasiyaga imzo chekdi. Sovet xukumati nomidan kapitulyasiyani marshal G.K.Jukov qabul qildi.

1-Ukraina frontining bosh kuchlari Praga yo‘nalishiga xarakatlanish uchun qayta to‘plana boshlandi. Praga operatsiyasi davomida (1945y. 6-11 may) 1-, 2-, va 3-Ukraina frontlari qo‘shinlari tomonidan, dushmanning CHexoslovakiyadagi so‘nggi eng katta guruxi tor-mor etildi.

Praga operatsiyasi natijasida CHexoslovakiya xalqiga katta yordam ko‘rsatildi va 858 ming dushman qo‘shinlari asirga olindi.

Uchta front qo‘shinlari operatsiyaning umumiy natijasiga ko‘ra muxim xarbiy-siyosiy vazifa-fashistlar Germaniyasi Qurolli Kuchlarining yirik guruxini tor-mor etdilar, shu bilan gitlerchilarni kapitulyasiya qilishga majbur etdilar va AQSH, Angliya xukmron doiralarining Berlinni Sovet qo‘shinlaridan oldin egallash rejalarini barbod etdilar.

## Qurolli kuchlar turlari tashkiliy tuzilishi va qurollarning rivojlanishi.

Germaniya fashizmi va YAponiya militarizmi va ularning sheriklari ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba-jaxon tarixidagi va sobiq Sovet Qurolli Kuchlari solnomasining sharafli zarvarag‘idagi olamshumul voqeadir.

Ikkinchi jaxon urushining daxshatli soyasi Evropa, Osiyo va Afrikaning bepoyon xududlarini qamrab, jaxonning xamma okeanlari akvatoriyasini egalladi.

U SHimolda YAngi Er va Alyaska qirg‘oqlarigacha, g‘arbda Evropaning Atlantika qirg‘oqlarigacha, SHarqda Kuril orollarigacha, Janubda Misr, Xindiston va Avstraliya chegaralarigacha etdi. 6 yil davom etgan bu urushda 61 ta davlat ishtirok etdi. Qurolli kurashda 120 mln. mexnatga yaroqli axoli safarbar etildi. Xarbiy xarakatlar 40 ta davlatlar xududlarida olib borildi.

Sobiq Sovet qurolli kuchlari ikkinchi jaxon urushida g‘alabaga erishishda avangard rolini o‘ynadi. 30 dan ortiq front, 50 tagacha armiya operatsiyalarini o‘tkazgan qurolli kuchlar fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga o‘z xissani qo‘shdi, davlat tuprog‘idan dushmanni quvib chiqardi, sharqiy Evropani  fashistlarlar qulligidan, SHimoliy SHarqiy Osiyo xalqlarini YAponiya militaristlaridan xalos etdi. SHu bilan birga shuni ta’kidlash lozimki, urushda sobiq Sovet xalqi o‘zining 27 milliondan ortiqroq kishisini qurbon berdi.

SHunday qilib, 1945 yilning 2 sentyabrida, fashistlar Germaniyasi tomonidan yondirilgan va 60 milliondan ortiqroq kishining xayotiga zomin bo‘lgan Ikkinchi jaxon urushi alangansi so‘ndirildi.

1941-1945 yillardagi urushning boshlanishi bilan sovet-german fronti Ikkinchi jaxon urushining asosiy fronti bo‘lib qoldi. O‘rta Er dengizi, G‘arbiy-Evropa va Tinch okeani xarbiy – xarakatlar teatrlaridagi jangovar xarakatlar yordamchi xususiyatga ega bo‘ldi va Sovet qurolli kuchlarining g‘alabalarining ta’siri ostida rivojlandi.

Amerika-Angliya koalitsiyasining strategiyasi dushmanni xoldan toydirishga qaratilgan urushni olib borishga yo‘naltirildi. Bunday strategiyaning muxim tamoyili, xam Germaniyaga qarshi, xam YAponiyaga qarshi xarbiy xarakatlarni birma-bir amalga oshirish bo‘ldi.

Avval bu xarakatlar Germaniya va YAponidan ancha uzoq bo‘lgan rayonlarda nisbatan kam kuchlar bilan olib borildi. Lekin yirik operatsiyalarni ular urushning yakunlovchi davrida, Qizil Armiyaning g‘alabalari uning oqibatini xal qilganidan keyin boshladilar.

Ikkinchi jaxon urushi paytida ittifoqchilarning qurolli kuchlari, vaziyatning turli sharoitlarida, turli xarbiy-xarakatlar teatrlarida xujum va mudofaa operatsiyalarini olib borishda katta tajribalarga ega bo‘ldilar.

1941-1945  yillardagi urush yillarida va arafasida mudofaa jang turi deb qaralib, dushmanning xujumiga qarshi turish uchun qo‘llanilib, unda qo‘shinlar uyushqoq o‘t ochish tizimidan,  joylardan foydalanib va qarshi xujumlar uyushtirib, egallab turgan marralarini va xududlarni ushlab turishgan.

Mudofaaga qo‘shinlar jang uchun kuchlari etarli bo‘lmagan xolda yoki mudofaa xarakatlari xaqiqatan xam maqsadga muvofiq bo‘lsa o‘tishgan.

Bundan tashqari mudofaa o‘ta muxim xududlarni yoki ob’ektlarni ushlab qolmoq, boshqa xududlardagi janglarning natijasini, oqibatini kutib va qulay fursat vaqtida xujumga o‘tish uchun xam qo‘llanilgan.

Mudofaaning maqsadi, dushmanning o‘zi uchun noqulay sharoitlarda jangga kirishga majbur etish, unga katta talofatlar etkazish, uning xujumini barbod etish va o‘z qo‘shinlarini xujumga o‘tishlari uchun sharoit yaratishdan iboratdir.

## MUDOFAA VA O‘T OCHISH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI

### Mudofaaga o‘tish shartlari.

Urush yillarida, mudofaaga o‘tish shartlari deganda, taktik vaziyatning faktorlar yig‘indisi (dushman va qo‘shni qismlarning xarakterlari va xolati, ushbu rayonlardagi erlarning shart - sharoitlari va boshqalar) va unda mudofaaga tayyorgarlikning amalga oshirilishi va qo‘shinlarning unga, ya’ni mudofaaga o‘tishi tushunilgan.

Mudofaaga o‘tish shart sharoitlarini aniqlab beruvchi narsa odatda dushman qo‘shinlarining xolati bo‘lgan. SHunga ko‘ra, qo‘shinlarning mudofaaga o‘tishi dushman bilan to‘qnashuv bo‘lmagan sharoitda va bevosita u bilan to‘qnashuv sharoitida olib borilgan. Bo‘linmalar dushman bilan bevosita to‘qnashuv sharoitida mudofaaga o‘tgan:

- chekinishda;
- xujum paytida, dushman qarshi xujumini qaytarish uchun, egallangan marralarda mustaxkam o‘rnashib olishda;
- qarshidan kelayotgan dushman bilan jangning muvaffaqiyatsizligi natijasida;
- suvliklar marralarida platsdarmlarni egallash va ushlab turishda;
- qismlarning mudofaa janglarida qanotlarni va bo‘shliqlarni yopishda.

O‘qchi bo‘linmalar mudofaaga nafaqat dushman bilan bevosita to‘qnashuv sharoitida, balki to‘qnashuv bo‘lmagan xollarda, Davlat chegaralarini ximoya qilish, 2- eshelonlar zaxiralari safida xamda xujumkor jang paytida, taktik va operativ (tezkolik) chuqurligida mudofaa marralarini egallash uchun xam o‘tishgan.

Bo‘linmalarning jangovar vazifalari.

O‘qchi bo‘linmalar (batalon, rota, vzvod, otdelenie) urush oldi nuqtai nazarida, mudofaada belgilangan rayon, pozitsiyalarni ximoyalash vazifasini olgan. Xujum qilayotgan dushmanga aniq va qo‘qisdan zarbalar berib katta talofat etkazib, uning xujumini barbod etish uchun xam mudofaa belgilangan.

Bundan tashqari jangovar Nizom-piyodalarning asosiy vazifasi, dushman piyodalarini tanklardan ajratgan xolda tor-mor etishni ta’kidlagan edi.

Mudofaada bo‘linmalarning jangovar vazifalari front bo‘ylab va front chuqurligida ta’riflangan.

O‘qchi bataloniga mudofaada, frontda bo‘ylab va uning chuqurligida 2 km.gacha masofa belgilanishi mumkin edi, keng front bo‘ylab esa 5 km.gacha masofa ajratilar edi. Rotaga front bo‘ylab va chuqurlikda 1000 m.gacha rota mudofaa rayoni, vzvodga front bo‘ylab 300-500 m. front chuqurligida 250 m.gacha vzvod mudofaa rayoni, otdelenielar uchun front bo‘ylab va chuqurlikda 30-40 m.gacha pozitsiyalar tayinlanar edi.

Urushning birinchi davridagi mudofaa janglari tajribasi, dushman tanklari va uning piyodalari o‘qchilar bo‘linmalarining asosiy dushmani ekanini ko‘rsatdi. SHuning uchun, piyodalarning asosiy vazifalari dushmanning piyodalari bilan jadal kurash olib borgan xolda, bor yaqin jang vositalarini ishga solib uning tanklarini safdan chiqarishdan iborat bo‘lib qoldi. O‘qchi bo‘linmalaridan mudofaada o‘z rayonlarini mustaxkam ushlab turish, va shu erdan dushman tanklari va piyodalarini o‘tkazib yubormaslik talab qilingan. SHuning uchun jangovar tajriba ko‘rsatganidek, komandirlar o‘z bo‘linmalariga jangovar vazifalarni qo‘yayotgan vaqtlarida birinchi navbatda mudofaa mustaxkamligi bog‘liq bo‘lgan asosiy rayonlarni ushlab turish, dushman tanklariga qarshi kurashni asosiy vazifa qilib ko‘rsatishgan. SHu xolat Qizil Armiyaning piyodalar Jangovar nizomida o‘z aksini topgan.

Vzvod tayanch punkti, vzvod mudofaa rayonidan iborat bo‘lib, ushbu rayonni ushlab turish, vzvod mudofaa rayonini mustaxkamligini ta’minlagan. Vzvod mudofaa rayoni aylanasiga mudofaa uchun yaratilgan bo‘lib, o‘z ichiga vzvodning asosiy kuch va vositalarini xamda, kuchaytirish uchun ajratilgan vositalarni olgan.

Batalon mudofaa uzeli umumiy o‘t ochish tizimiga birlashgan rotalarning bosh tayanch puktlarining zaxirasini o‘z ichiga olgan. Uni jixozlash jarayonida katta e’tibor, fortifikatsion inshootlarning, portlaydigan va portlamaydigan to‘siqlarning qurulishiga qaratilgan.

Bundan tashqari, bo‘linmalarda tankka qarshi mudofaaning axamiyati oshishi bilan, Jangovar nizom, dushman tanklari yorib o‘tishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarda joylashgan batalon va rota mudofaa rayonlarini, batalon mudofaa rayonidek jixozlashni talab qilardi.

Jangovar vazifa aniqlanayotganda, mudofaaning mustaxkamligini oshirish uchun bo‘linmalarning mudofaa rayonlarini qisqartirish va ularning chuqurligini oshirish aloxida o‘rin tutgan.

Mudofaa rayoni kengligini qisqartirilishi, kuch va vositalarning qalinligini oshishiga va bo‘linmalarning mudofaa tartibi chuqurligining oshishi imkonini berdi. SHu bilan birga otdelenie mudofaa frontining oshishi kuzatildi. Bu birinchidan otdelenielar oralig‘idagi masofani (intervalni) minimumga qisqartirilishiga, ikkinchidan shaxsiy tarkibni front bo‘ylab tarqalganligi tufayli, uni snaryadlar portlashidan kam talofat ko‘rishiga olib keldi.

SHunday qilib, urush yillarida bo‘linmalarning jangovar vazifalari o‘zgartirildi. Dushman tanklari va piyodalarini tor-mor etish bo‘linmalarning bosh vazifalari etib aniqlab berildi. Rota tankka qarshi tayanch puntlari va batalon tankka qarshi mudofaa uzellari yaratila boshlandi, bo‘linmalarning mudofaa fronti kamayishi yuz berdi.

Bu xamma tadbirlar o‘qchi bo‘linmalarining mudofaasining barqarorligini, mustaxkamligini oshishi imkoniyatini yaratdi.

## MUDOFAANING YARATILISHI:

O‘qchi bo‘linmalari, mudofaaga o‘tishda, jangovar tartib, o‘t ochish tizimini tuzishgan, tankka qarshi mudofaa tashkil etishgan, joylarni muxandislik munosobatlarida jixozlashgan va mudofaani takomillashtirish tadbirlarini o‘tkazishgan.

## JANGOVAR TARTIB

Jangovar tartib-bu bo‘linmalarning jang olib borish uchun yaratilgan tartibi. Urush oldi nuqtai nazarida mudofaa ko‘p eshelonli bo‘lishi kerak deb xisoblangan. Mana shu xolatdan kelib chiqib, eshelonlashtirish nafaqat birlashmalarda va qismlarda, balki bo‘linmalarda xam amalga oshirilgan. Batalonlarda jangovar tartib 2 ta eshelonda yaratilib, o‘z ichiga chalg‘ituvchi (skovivayushaya), zarbdor va o‘t ochib zarba berish guruxlarini olgan.

*CHalg‘ituchi (skovivayushaya)*-gurux-batalon kuchlarining 2/3 qismidan tashkil topgan bo‘lib, birinchi eshelonda joylashgan. Guruxning vazifasi, dushmanga shunaqa zarbalar berishdan iborat ediki-dushman piyodasi boshlangan xujumini oxirigacha etkazish qobiliyatidan uni maxrum qilish, agar dushman birinchi eshelondagi rota mudofaa rayoniga yorib kirsa, uni to‘xtovsiz o‘t ochib to‘xtatib qolishdan iborat edi.

Zarbdor gurux – batalondagi xamma kuchlarning 1/3 qismidan tashkil topgan bo‘lib. Ikkinchi eshelonda joylashgan. Guruxning vazifasi birinchi eshelondagi qo‘shinlarga, oldindagi dushmannig xujumini qaytarishga yordam berish, agar dushman birinchi eshelondagi rota mudofaa rayonlariga yorib kirsa, birinchi eshelon bilan birgalikda «olovli qop» (« ognevoy meshok») yaratib va dushmanga katta talofatlar etkazishdan iborat bo‘lgan. Agar yorib kirgan dushman guruxi (1-2 vzvod) tanklar bilan quvvatlanmasa qarshi zarbalar bilan yakson qilingan. Batalon keng front bo‘ylab ( 5km.gacha) joylashgan bo‘lsa zarba berayotgan 2 ta rota orasida 1500m.dagi oralig‘ masofa yaratilgan. Uning ortidan 1500 metrgacha zarbdor gurux rotasi joylashtirilgan.

*O‘t ochish guruxi* - pulemyot, minomyotlar rotasidan va 45 mm pushkalar vzvodidan tashkil topgan va ular chalg‘ituvchi va zarbdor guruxlarni quvvatlab turish va jangovar qo‘riqlash uchun belgilangan. Vazifasi dushmanni, mudofaa rayonining yaqin va uzoq bo‘sag‘alarida, marralarida tor-mor etish. Pulemyotchilar rotasiga mudofaa uchun rayon ajratilmagan, rota batalonning butun mudofaa rayoni bo‘ylab va undan tashqarida o‘t ochish pozitsiyalarini egallagan.

Minomyotchilar rotasi yopiq o‘t ochish pozitsiyalarida, o‘zining zarbasi bilan oldindagi dushmanning мщim bo‘sag‘alarini yo‘q qilish masofalarida joylashgan.

Batalon mudofaa fronti oldida kuchaytirilgan vzvod tayinlanib, mudofaa rayonidan 1-3 km. front chuqurligida jangovar qo‘riqlash qo‘yilgan. Vzvod front bo‘ylab 2 km.gacha marrani egallab, dushmanning asosiy yo‘nalishlariga kuchli zarbalar berishi kerak edi.

Rotaning jangovar tartibi 2 eshelondan tashkil topgan. Birinchi eshelonda odatda, 2 ta vzvod, ikkinchi eshelonda esa 1ta vzvod joylashtirilgan.

O‘qchi vzvodining jangovar tartibi birinchi va ikkinchi liniyadagi o‘qchilar otdeleniesidan tashkil topgan bo‘lib, vzvod jangovar tartibi tuzilayotgan vaqtda, otdelenielarning bir-biroviga zich joylashishiga yo‘l qo‘yilmagan. SHuning uchun otdelenielar front bo‘ylab, 150-250 m. intervallarda, front chuqurligida 200 m.gacha joylashtirilgan.

Ikkinchi liniyadagi otdelenielar odatda, tepaliklarning orqa tomonlariga, tabiiy to‘siqlarga joylashtirilgan.

Urushning dastlabki davrlarida, kuch va vositalarning etishmaganligi uchun, sovet-german frontida o‘qchi batalon va rotalar, urushdan oldingi nazariyada ko‘rsatilganidek kengroq front bo‘ylab mudofaaga o‘ta boshlagan. Rotalar oralig‘idagi masofa 1500 m.gacha etgan.

Vaziyat sharoitlari batalon va rotalarning jangovar tartibini eshelonlashtirishdan voz kechishni talab qilar edi. Ular odatda bir eshelondan tashkil topgan bo‘lib, zaxiraga ega edi. SHu bilan birga vzvod va otdelenielarning jangovar tartiblari urushdan oldingi nazariya bo‘yicha tashkil etilgan edi.

Jangovar tajribaning ortishi va sovet qo‘shinlarining sonining ko‘payishi bilan o‘qchi diviziyalarining mudofaa chizig‘i kamaytirildi, o‘z-o‘zidan o‘qchi bo‘linmalarning xam mudofaa fronti qisqartirildi. Birinchi navbatda batalon va rotalar oralig‘idagi masofa qisqartirildi. Front bo‘ylab jangovar tartib qalinlashtirildi.

Urushning ikkinchi davrida sovet qo‘shinlarining faolligi oshishi bilan, nemis-fashist qo‘mondonligi xujumkor jangni olib borishda keng ko‘lamda tanklarni qo‘llay boshladi, keng ko‘lamda jangovar tartibini eshelonlashtira boshladi. Dushmanning piyodalar qismlarida qurollarning va jangovar texnikaning soni va sifati o‘sa boshladi. Bu xol keyinchalik frontning kamayishiga va bo‘linmalarning mudofaa rayonlarining oshishiga va jangovar tartibning rivojlanishiga olib keldi.

Rota va batalonning jangovar tartibi odatda, ikki eshelondan tashkil topgan. Agar jangovar tartib bir eshelonda qurilsa, bu xolda birinchi yoki ikkinchi transheyalarda joylashtirilgan, kuchaytirilgan vzvod zaxirasi yaratilar edi. Zarba berish vositalari odatda batalon mudofaa uzeli rayonida joylashtirilgan.

Rota jangovar tartibi ikki eshelonda qurilgan. Vzvodda xamma otdelenielar bir liniyada, bir transheyada joylashtirilgan. Otdelenie pozitsiyasi 75-100 m.ni tashkil etgan, askarlar orasidagi interval 8-10 m.ni tashkil etgan. Batalon mudofaasining asosini tankka qarshi tayanch punktlari tashkil etib, ularning chegaralari odatda o‘qchi rotalarning mudofaa chegaralari bilan birlashib ketgan. Birinchi eshelondagi vzvod va rotalarning mudofaa rayoni chegaralari tutashib ketgan. Batalon mudofaa rayonida tankka qarshi mudofaa uzeli tashkil qilinib, yoppasiga, aylanasiga mudofaaga o‘tishga tayyorlanilgan.

Urushning uchinchi davrida Sovet Armiyasi xamma frontlarda xal qiluvchi janglarni olib bora boshladi. Mudofaa janglari davomida batalon mudofaa rayonining roli sezilarli oshdi. U front bo‘ylab 1500-2500 m.ni front chuqurligida 1500-2000 m.ni egalladi va xar bir

pozitsiyaning mudofaa asosini tashkil etdi. Batalon mudofaa rayonida tankka qarshi mudofaa uzeli yoki tankka qarshi kuchli tayanch punktlari yaratildi.

**Strategik maqsaddagi raketa qo'shinlarning paydo bo'lishi.**

Ikkinchi jaxon urushi fashistlar Germaniyasi 8-may va YAponiya militaristchilarni 2 sentyabr 1945 yil kapitulyasiya qilinishi bilan yakunlandi. Bu shiddatli jangda sobiq Sovet ittifoqi Qurolli Kuchlari g'alaba qozondi va mustaqillik, ozodlik hamda chegaralar mustaxkamlandi. Fashstlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alaba, Sobiq Sovet Ittifoqining xalqaro nufuzini oshirdi. SHundan so'ng xech qanday xalqaro muxim muammo Sobiq Sovet ittifoqi ishtirokisiz hal qilinmas edi.

G'alabaning yuksakligi shundan iborat ediki, Sobiq ittifoqning Qurolli Kuchlari nafaqat fashistlar Germaniyasining yakson qilibgina qolmay Evropadagi barcha mamlakatlrning fashistlar Germaniyasi taziqidan ozod qildi. Jang mobaynida Sobiq Sovet armiyasi o'zining tarixiy vazifasini bajardi va bosqinchilarga o'zining engilmas ekanligini ko'rsatdi.

Evropa mamlakatlarining ozod qilishda Sobiq Sovet armiyasining asosiy kuchlari ishtirok etd, 12 ta frontdan 7 tasi, undan tashqari, Qora dengiz va Dunay harbiy flotlari. Fashistlar Germaniyasi qo'shinlariga qarshi Sobiq Sovet armiyasi bilan elkama-elka, CHexoslovakiya harbiy korpusi, YUgoslaviyaning birlshgan xalq ozodlik armiyasi, uch Bolgariya va ikki Ruminiya armiyasi, Venger qismlari jang qilishdi. Urush mobaynida janubiy Evropa mamlakatlari Sobiq Sovet ittifoqidan 960 ming vintovka va avtomat, 40627 pulemet, 16502 minomet va zambarak, 1124 tank va SAU, 2346 taga YAqin samolyotlar va harbiy texnikalar bilan ta'minlangan. Jangovar harakatlar davomida fashistlar Germaniyasi asosiy qo'shinlari tor-mor qilinb ulardan Polsha ozodligida 70 dan ortiq diviziya, Ruminiya va Bolgariya – 34, Vengriya va YUgoslaviyada 60 dan ziyod asosiy kuchlari, diviziyalari tor-mor qilindi. Ruminiya, Vengriya, Polsha CHexoslovakiya va Sobiq ittifoq qo'shinlari 100 mingdan ziyod odam xalok bo'lgan va jaroxat olgan. Ruminiya ozodligi uchun Sobiq Sovet ittifoqi askar va ofitserlari o'z jonlarini qurbon qilgan , Vengriya uchun 140 mingdan ziyod, Polsha uchun 600 mingdan ziyod, CHexoslovakiya uchun 140 mingdan ziyod.

Urush mobaynida sobiq Sovet armiyasi tarixiy madaniy yodgorliklarni, zavod, fabrikalarni, shahar va qishloqlarni saqlab qolishga harakat qilgan. sobiq Sotsialistik mamlakatlar mehnatkashlari yodida sobiq Sovet armiyasi jangchilari abadiy muxrlandi. Varshava, Budapesht, Sofiya, Buxaret, Belgrad va boshqa ko'plab shaharlarda sobiq Sovet jangchilari nomiga yodgorliklar o'rnatildi. Fashist Germaniyasi va YAponiya bosqinchilari tor-mor qilingandan so'ng, bir qator mamlakatlar qullikdan ozod bo'lib, mustaqil rivojlanish 'uquqiga ega bo'lishdi. Sobiq Sovet ittifoqi fashistlar Germaniyasi urushida (frontida) asosiy xal qiluvchi ko'rsatkichi shundan iborat ediki, ya'ni sobiq Sovet ittifoqiga qarshi fashistlar Germaniyasining 70 % gacha quruqlikdagi qo'shinlar va asosiy uning aviatsiyasi harakat qilgan. sobiq Sovet ittifoqi fashistlar Germaniyasi urushida fashistlar Germaniyasiga ko'p talofat etkazdi: 13,6 mln odamning 10 mln odam qurbonlar, jaroxatlangan va izsiz yo'qolgan edi. bundan tshqari fashistlar Germaniyasining 607 ta diviziyasi tor-mor qilingan. Urush mobaynida bosqinchilar ustidan sobiq Sovet ittifoqi asosiy rolg' o'ynashini, g'arb mamlakatlarining harbiy va siyosiy faoliyati yurituvchilari ta'kidlab o'tishgan edi. AQSH prezidenti 23.03.1943 y. F.Ruzvelg't quyidaglarni ta'kidlagan edi: «Sovet armiyasi va rus xalqi fashistlar Germaniyasin engilish yo'lidan borishga majburlagan bo'lishi mumkin, xuddi shu harakat bilan uzoq vaqt mobaynig AQSH xalqining hurmatiga sazovar bo'ldi».

Biroq ikkinchi jaxon urushidan so'ng vaziyat o'zgardi. Urushning bunday tarzda burilishi, milliy ozodlikning kuchayishi bilan birga, sobiq Sovet ittifoqining hurmat e'tiborini ko'tarilishi va uning kuchini o'sishi imperalistik mamlakatlar uchun kutilmagan xol bo'ldi. AQSH boshchiligidagi imperialistik mamlakatlar, yangi, jaxon urushi yo'liga tuzishdi. Sobiq Sovet ittifoqining ayovsiz jangda g'alaba qozonishi mamlakatlar O'rtasida qozongan hurmatini bircha yo'llar bilan so'ndirilishga harakat qildilar. Sobiq Sovet ittifoqi kapitalistik dunyoning eng kuchli armiyasi tomonidan kutilmagan xujumni o'z boshidan o'tkazdi. Sobiq Sovet ittifoqiga qarshi urushda fashistlar Germaniyasi deyarli barcha Evropa mamlakatlarining iqtisodiy

resurslaridan foydaland. Ikkinchi jaxon urushini xulosa qilib aytish joizki, hech qanday kapitalistik mamlakat bunday urushga dosh bera olmas edi.

Ikkinchi jaxon urushida sobiq Sovet ittifoqi xalqining nafaqat frontda, balki front ortida komunistik partiya boshchiligida o‘zining mehnatlari bilan katta qaxramonlik ko‘rsatdilar. Bosqinchilar bilan qurolli to‘qnashuvda sobiq Sovet xalqi o‘chmas shuxratga sazovor bo‘ldi. Urush yillarida 11 mingdan ziyod askarlar Sovet ittifoqi qaxramoni unvoni bilan taqdirlangan. Jang maydonida qaxramonlik ko‘rsatganlari uchun 7 mln dan ziyod kishilar qaxramon va jasorat ordenlari bilan taqdirlandilar. SHunday qilib obiq Sovet xalqi urush yillarda frontda va front ortida buyuk g‘alaba qozondi.

Ikkinchi jaxon urushi bu tarzda yakunlanishi bu urushni tashkillagan va qo‘llab quvvatlaganlar uchun kutilmagan xol bo‘ldi. Bir necha o‘nlab mamlakatlar (bosh tartib) kapitalistik tizimdan bosh tortib, sotsialistik rivojlanish tizimiga o‘tdilar. SHunday qilib dunyoviy sotsialistik tizim hosilbo‘ldi. Soiq Sovet ittifoqi boshchiligida bosqinchilar ustidan qozonilgan g‘alaba, Afrika, Lotin Amerikasida va Osiyo mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari boshlanishig  sabab bo‘ldi. Bu esa kapitalistik tizimning parchalanib ketishiga olib keldi. Ikkinchi jaxon urushining tugashi bilan imperalistik sobiq Sovet ittifoqi va sotsialisik mamlakatlarga qarshi yangi urush boshlashga tayyorgarlikni boshladilar. Kaptalstik mamlakatlar birlashib harbiy bloklar tashkillandi. 1949 yil Evropada NATO bloki asos solindi. 1954 yilda Janubiy-SHarqiy Osiyoda SEATO, 1955 yillari esa YAqin SHarqda SENTO bloklari tashkillandi. 1954 yili Parijda kapitalitik mamlakatlar O‘rtasida Germaniyani qayta harbiylashtirsh masalasi ko‘rib chiqildi va yanagi yili NATO safiga qabul qilindi. 1950 yilga kelib xalqaro munosabat, sobiq Sovet ittifoqiga nisbatn keskin o‘zgardi. 1950 yili AQSH, Koreya, XDR ga qarsh urush boshlad. 1956 yili Angliya va Fransiya Misrga qarshi tajovuskor harakatlar boshlab yubordi.

Ikkinchi jaxon urushi qurolli kuchlarining rvojlanishga hamda shaxsiy tarkibning maxoratini oshirishga olib keldi. Biroq Qurolli Kuchlarni rivojlanishga yadro qurolining paydo bo‘lishi sabab bo‘ldi. Bu qurol barcha qo‘shin turlarini harakat tizimini o‘zgartirishga olib keldi. SHuningdek Qurolli Kuchlarni rivojlanishiga asosiy muxim omil bo‘la oladi. Urush vaqtidagi yillardan farqli o‘laroq asosiy kaptalistk mamlakatlarinng harbiy doktrinalar, milliy xarakterlarga ega edi. Urushdan so‘ng NATO tashkillanishi bilan masalalar kollektiv trzda ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi, ammo shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, asosiy rolni AQSH o‘ynar edi.

Urush davrdagi yillardan keyingi datlabki yilda kapitalistik mamlakatlar kuchlarni birlashtrib kelajakda bo‘ladigan yangi urushda g‘alaba qozonish mumkin deb ishonar edi. Bu vazifani bajarsh asosan yadro quroli va uni eltish vositalariga tayanilgan. SHu sabab kapitalistk mamlakatlarning qurolli kchlariga yadro quroli va uni eltish vositalarini yaratishga birinchi darajali e’tibor qaratildi. AQSH qurolli kuchlari qisqa vaq ichida sobiq Sovet ittifoqiga zarba berish imkoniyatini yaratish uchun sotsialistik mamlakatlar sarxadlari YAqinida ko‘plab aviatsiya va harbiy dengz bazalar tshkillandi.

AQSH boshqaruv guruxlari va uning hamkorlari , Evropada urush yuz berishi bilan yadro qurolidan foydalanishni maqsad qilib qo‘yilgan edi. NATO ning bu strategik konsepsiyasi asosiz bo‘lib chiqdi. 1949 yili sobiq Sovet ittifoqi atom quroli sinovi muvaffaqiyatli o‘tdi, 1953 yilda esa vodorod quroli sinaldi. Sobiq Sovet ittifoqida bu qurollarning borligi AQSH ni tushkunlikka tushirdi. SHunga qaramay qabul qilingan strategik konsepsiyasidan bosh tortmay davom etildi. Bu strategiyaga qarshi yakuniy zarba sobiq Sovet ittifoqining 1957 yilda dunyoda birinchi bor erning sun’iy yo‘ldoshini uchirishi bo‘ldi. Bu esa sobiq Sovet ittifoqi kontinentlararo raketaga, ya’ni yadro zaryadlarini dunyoning istalgan nuqtasiga etkazib berish imkoniyatiga ega ekanligni ko‘rsatib turar edi.  AQSH harbiy siyosiy boshqaruvi uning ortidan va boshqa NATO mamlakatlari bu strategiyani bir necha bor nomlanishini o‘zgartirdi. Biroq bu strategiyaning maqsadi o‘zgarmadi.

Ilova № 1

Urush boshlanishidagi harbiy-siyosiy ahvol.




С х е м а 41. Белорусская операция (июнь — август 1944 г.)

## Ikkinchi Jahon urushi davrida artilleriya qo‘shinlarining tutgan o‘rni, jang olib bolrish taktikasi va rivojlanishi.

Ittifoqchilar qo‘mondonligining rejasi,orolni bosib olish uchun yirik desantni orolning kuchsiz ximoyalangan g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga tushurishni ko‘zda tutdi. Keyinchalik xujumni sharqiy, shimoliy va janubiy yo‘nalishlarda rivojlantirib, dushman kuchlarini bo‘laklarga bo‘lib tashlab, keyin ularni tor-mor etish ko‘zda tutildi. Operatsiyani o‘tkazish uchun 10-Amerika armiyasi (4 ta pd, 3 ta dengiz piyodalari diviziyalari), 5-Aamerika floti, Angliya avinosets birlashmalari-xammasi bo‘lib 450 ming odam, 13717 ta jangovar va yordamchi kemalar va 1727 ta samolyotlar jalb etildi.

1-aprelda, kuchli artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin orolning g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga desant tushurilishi boshlandi. Kunning oxirida 50 mingtagacha odamlar va 200 ta suzuvchi tanklarni tushurishga muvaffaq bo‘lindi. 5- aprelda qo‘shinlar dushman garnizonini bo‘laklarga bo‘lib tashlab orolning sharqiy qirg‘oq bo‘ylariga etdilar. Yaponlarning, desant operatsiyasini, o‘z flotlarining kam sonli kuchlari va kamikadzelardan tashkil topgan samolyotlar ekipajlarini ommaviy qo‘llab, operatsiyani barbod etish uchun xarakatlari amalga oshmadi. 22-iyunda orol ittifoqchilar tomonidan to‘lig‘icha bosib olindi.

Okinava orolini bosib olish bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiya ittifoqchilarning Tinch okeani xavzalaridagi so‘nggi operatsiyalari bo‘ldi, shundan keyin metropoliya orollariga bostirib kirish uchun tayyorgarlik ko‘rila boshlandi.

Shu vaqtga kelib, Yaponiyaning axvoli butkul yomonlashib ketdi. gitlerchilar Germaniyasi kapitulyasiya qildi va Yaponiya yakkalinib qoldi. Xalq ozodlik xarakatlari qariyib butun janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarini qamrab  oldi.

Sovet Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirishga tayyorlana boshladi. SHunga qaramasdan 1945 yil 6 va 9 avgust kunlarida AQSH xumron doiralarining buyruqlariga ko‘ra Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaxarlariga atom bombalari tashlandi. Atom bombalarining qo‘llanishi Harbiy-nuqtai nazaridan xech-bir kerakligi yo‘q edi. Shu bilan birga atom bombalarining qo‘llanishi Yaponiyani kapitulyasiya etgan asosiy omil emas edi. Faqat Yaponiyaning asosiy zarbdor kuchi bo‘lgan Kvantun armiyasining tor-mor etilishi va Manchjuriya va Koreyadagi muxim iqtisodiy bazalarning qo‘ldan ketishi, 1945 yil 2-sentyabrda Yaponiyaning so‘zsiz kapitulyasiya to‘g‘risidagi aktni imzolashga majbur etdi va shu bilan Ikkinchi jaxon urushi tugadi.

## Ikkinchi Jahon urushi davrida qo‘llanilgan artilleriya qurollari turlari.

Uzoq va ayovsiz davom etgan fashistlar Germaniyasi bilan bo‘lgan jangda sobiq Sovet armiyasi o‘zining texnika va qurollarining dushman qurollaridan ustunligini ko‘rsatdi. Qo‘shinlar turi va qurolli kuchlar ikki asosiy yo‘l bilan rivojlandi: Asosiy jangovar texnika va qurollarni takomillashtirish, hamda, yangi qurol va jangovar texnikalarni yangi tashkiliy ko‘rilishi, formalari yaratish.

Quruqlikdagi qo‘shinlar urush mobaynida Sovet armiyasini asosiy qismini tashkil etgan. Quruqlik qo‘shinlar sobiq Sovet armiyasining 80-87 % ni tashkil etgan. Quruqlik qo‘shinlari tarkibiga: o‘qchi qo‘shin, artileriya, zirxli va mexanizatsiyalashgan qo‘shin, kovaleriya hamda maxsus qo‘shinlar kirgan. Xar bir qo‘shin turining rivojlanishi o‘ziga yarasha xususiyatlarga ega. O‘qchi qo‘shinlar urush mobaynida nafaqat son jixatidan uch barobar ko‘paydi, balki yangi jangovar texnikalar bilan ta’minlanish xisobiga jangovar xususiyatini oshirdi. Sobiq Sovet armiyasining urush davridagi qurollari deyarli barchasi takomillashtirildi yoki qaytadan chiqarilgan.

Urush boshidagi vaziyat sobiq Sovet qo‘mondonligini vaqtincha korpusli tashkilotdan bosh tortishga majbur qildi. SHu bilan birga uqchi diviziyalar bilan birga, o‘qchi brigadalari tashkillandi. Urush mobaynida artileriya qo‘shinlarida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu qo‘shinlar quruqlikdagi qo‘shinlarning asosiysi deb xisoblanar edi. Dushman tanki va

zambaraklarga qarshi, tanklarni ommaviy qo‘llash, zirxlangan texnikalarga qarshi qurollar ishlab chiqishga yo‘l ochib berdi. Urush mobaynida quruqlikdagi qo‘shinlar artileriya va minemyotlar bilan ta’minlandi. Jumladan: 45 - 57 - 76 - 85 va 100 mm li zambarak, 152 mm gaubitsa, 160 mm minomyotlar va boshqalar.



Reaktiv minomyotlar tavsifnomasi

| Ustanovka | God | Snaryad | Napr. sht. | SHassi | Vremya zalpa |
|---|---|---|---|---|---|
| BM-13 | 1941 | M-13 | 16 | gruzovik, j.d.platf. | 7–10c |
| BM-13H | 1943 | M-13UK | 16 | gruzovik 6x6 | 7–10c |
| M-8-6 | | M-8 | 6 | stanok pulemeta | |
| BM-8-12 | | M-8 | 12 | mototsikl, aerosani | 7–10c |
| BM-8-24 | 1941 | M-8 | 24 | STZ, T-40, T-60 | 15–20c |
| BM-8-36 | 1941 | M-8 | 36 | gruzovik | 15–20c |
| BM-8-48 | 1942 | M-8 | 48 | gruzovik 6x6, j.d.platf. | 30c |
| BM-8-72 | | M-8 | 72 | gruzovik 6x6 , j.d. platforma | |
| M-30-4 | 1942 | M-30, 31 | 4 | nazemnaya rama | 5–7c |
| BM-31-12 | 1944 | M-31UK | 12 | gruzovik 6x6 | 7–10c |
















**Ikkinchi Jahon urushi davrida harbiy xavo kuchlarining tutgan oʻrni, taktikasi va rivojlanishi.**

AQSHning Boeing B-52 bambardirovkachi samolyoti.

AQSHning Boeing B-52 bambardirovkachi samolyoti.

Taktik-texnik xarakteristikasi:
Qanotlarning uzunligi - 56,39 m
Samolyotning balandligi - 12,40 m
Qanotlarning maydoni - 371,60 m kv
Bo‘sh samolyotning og‘irligi - 78600 kg
Yoqilg‘i sig‘imi - 135820 kg
Ko‘tarilish og‘irligi - 221500 kg
Maksimal tortishish kuchi - 8x 7710 kgs
Maksimal tezligi - 1013 km/s
Dvigatel rusumi - TRDD
Kreyser tezligi - 819 km/s
Eng yuqori balandligi - 16765 m
Jangovar harakat radiusi - 7730 km
Ko‘tarilish masofasi - 2900 m
Qo‘nish masofasi 1433-2500 m
Ekipaj - 6 kishi.

Samolyotga o‘rnatilgan qurol-yarog‘ turlari:

Pushkali qurollar – V 52 va G 4x 20-mm pushka. V 52n 120 mmli olti stvolli pushka M61A1 Vulqon 1242 patroni bilan.

Bombali nagruzka - V 52 – 19504 kg; V 52G – 23000 kg; V 52n – 28600 kg.

YAdroviy: 8xV28 yoki 12V-41.

Boshqariluvchi raketalar:

12 PKR AGM Garpun; 12 KR AG86V; 20 BR”Xavo-Xavo”.

AQSHning AN-64 “Apache” zarbdor vertolyoti.

NATO ekspertlarining xulosasiga, NATO QK tarkibiga kiruvchi armiyalar ichida eng mukammal jangovar vertolyotlardan biri. U xavo hujumidan himoya qo‘shinlari vositalari egallagan jang maydonida dushmanning zirxli texnikalari bilan samarali kurasha oladigan qilib yaratilgan. O‘ziga Yuklatilgan vazifalarni qiyin meterologik Sharoitlarda (ko‘rinishi qiyin, kechasi va kunduzi) bajara oladi. Mutaxasislarning fikricha “Apache” XXI asr vertolyoti xisoblanadi.U yaxshi manyovr jixatlariga, Yuqori uchish tezligiga ega. Parrak 12,7 mm kalibrli o‘q takkanda xam o‘z ish rejimini saqlab qoladi. Shassi yig‘ishtirilmaydigan. “Apache”da Xli boshqaruv vinti va zamonaviy radioelektron jixozlar o‘rnatilgan. Birinchi marta jangovar vertolyotda shlemga o‘rnatilgan nishon ko‘rsatish sistemasi mavjud. “Apache” vertolyoti quyidagi qurol-yarog‘larga ega:
- Lazerli “Xellfayr” boshqariluvchi raketalari;
- “Chaingun” avtomatik pushka;
- Boshqarilmaydigan raketalar solingan konteyner.

Vertolyot jang maydonida 23 mm kalibrli o‘q tekkandan keyin xam mustaqil ravishda bazaga qaytish qobiliyatiga ega. 1985 yili AQSHda yangi tipdagi “Apache Vravo” modifikatsiyadagi

vertolyot chiqarila boshlandi. Ushbu vertolyot komplektiga Yuqori voltli kabellarni kesish uchun pichoqli moslama kiritilgan.

4.Ikkinchi Jahon urushi davrida qo‘llanilgan jangovar samolyotlar turlari.

Sovet ittifoqi harbiy xavo qo‘shinlarida yangi samolyot turlari qabul qilingan edi. ular YAk-1, YAk-3, YAk-7b, YAk-9, La-7, La-5, Tu-2, Il-10 va boshqalar. Butun urush mobaynida sobiq Sovet aviatsiyasi 100 mingdan ziyod samolyotlar bilan ta’minlandi. Ularning tezligi, balandligi va uzoqqa uchish xususiyati ortib bordi. 1943 yilning bahoriga kelib jangovar samolyotlarining barcha turlari yangi aloqa vositalari o‘rnatildi. 1943 yilning yoziga kelib sobiq Sovet aviatsiyasi yangi turdagi aviobombalar, dushman tanklariga qarshi aviobombalar bilan ta’minlandi.

Qiruvchi I-16



Qiruvchi YAk-1



SHturmchi Il-2



Qiruvchi MiG-3



## Ikkinchi Jahon urushi davrida qo‘llanilgan o‘qchi bo‘linmalarning jang olib bolrish taktikasi, qurollari va rivojlanishi.

*1941-1945 yillardagi* urush yillarida o‘qchi bo‘linmalarining xujumga o‘tishlari «yagona xolda» asosan amaliyotda o‘tkazilmagan. Piyodalar bilan birgalikda, xatto undan o‘zib ketib artilleriya, tanklar, (o‘zi yurar artilleriya) va saperlar xujum qilishgan. Xujum odatda, mudofaada turgan dushmanni o‘t ochib zarba berish bilan boshlanib, bir nechta ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi: xujum (ataka), ta’qib qilish, dushmanni qarshi xujumini qaytarish (agar dushman uni o‘tkazsa) va erishilgan marraga mustaxkamlanish bilan tugaydi.

Urushni dastlabki yarim yilida Qurolli Kuchlar safiga 1 mln. 100 mingdan ko‘proq vatanparvarlar kelib qo‘shildi. Ular Qurolli Kuchlarni jipislashtiruvchi buyuk kuch edi. 1941 yil iyulda armiya, flot va aviatsiyada siyosiy prapoganda (tashviqot) organlari qayta tashkil etish va siyosiy-tarbiyaviy ishlarda muxim axamiyatga ega bo‘ldi.

Mamlakat ichida xalq xo‘jaligini harbiy izga ko‘chirish asosiy vazifalardan biri edi. 23 iyunda qurol-yarog‘lar ishlab chiqish bo‘yicha safarbarlik plani amalga oshirish boshlandi. 24 iyunda evakuatsiya bo‘yicha tuzilgan kengash korxonalar, tashkilotlar, o‘quv yurtlari, odamlarni SHarqga evakuatsiya qilish ishlariga raxbarlik qildi. Tez fursat mamlakat ichkarisiga sanoat korxonalari, kolxozlar, sovxozlar, MTSlar, fan va madaniyat markazlari, 10 mln ortiq kishilarni ko‘chirib joylashtirishi tarixda misli ko‘rilmagan jasorat bo‘ldi. 1941 yil O‘zbekistonda ishlab turgan 1346 sanoat korxonalaridan ko‘pchiligi qayta jixozlanib, harbiy maxsulotlar ishlab chiqarila boshladi. Iyul-sentyabrda Sovet – German frontning barcha uchastkalarida strategik mudofaaga o‘tishga majbur bo‘lgan Sovet qo‘shinlari tashabbusni qo‘lga kiritish uchun kurashni davom ettirdi. Armiya uchun noqulay bo‘lgan axvolga qaramay, Sovet qo‘shinlari dushmanga qarshi mardonavor qarshilik ko‘rsatdi. Armiya, aviatsiya va flot uchun bu chiniqish maktabi bo‘ldi. Qo‘shinlar Estoniya va Leningrad ostonalarida (1941-1944 y.) qattiq mudofaada turdilar. G‘arbiy yo‘nalishdagi nemis-fashist qo‘shinlari «Markaz» gruppasi 10 iyulda Smolenskga xujum boshlandi. Katta talofatlarga qaramay dushman 16 iyulda Smolenskni egalladi. Dushmanga qator zarbalar berish (Vitebsk, Velikie, Luki, Rogachev, Orsha, Jolobin va boshqa shaharlar ostonalarida) natijasida G‘arbiy front qo‘shinlarini kuchi bilan nemis zarbdor gruppirovkasi to‘xtatildi. Oqibatida nemis-fashist «Markaz» armiyalari gruppasi 30 iyulda mudofaaga o‘tdi. Iyul-sentyabrdagi janglar davomida janubiy-g‘arbiy va janubiy front qo‘shinlari nemis fashistlarining»Janub» armiyalari grupasi zarbalarini qaytarib turdi Arimya, aviatsiya va flotni qa’ramonligi va qattiq qarshilik ko‘rsatishi natijasida dushmanning bir kunlik siljish surati 2-6 km ga tushirildi. Dushman aviatsiya xamda tanklar nisbatidagi ustunligi bilan Sovet qo‘shinlarga jiddiy talofat etkazdi. Nemis fashistlar Leningradni quriqlikdan qamal qilishga, Moskva ostonalariga YAqinlashishga Kiev, Odessa, Donbasni bosib olishga erishdi. Dushman Kareliya ko‘p qismi, Boltiq bo‘yi respublikalari, Rossiyani, Leningrad va G‘arbiy oblastlar, Belorussiya, Ukraina, Moldaviyani katta qismini okkupatsiya qilishga erishdi.

Urushgacha aholining 40 % dan ortig‘i yashagan, eritilgan cho‘yanning 68 % ini, po‘latni 58% ini, alyuminiyni 60% ini, donning 38% ini, ko‘mirni 63 % ini bergan muxim iqtisodiy rayonlarini vaqtincha qo‘ldan berdi. Okkupatsiya qilishgan territoriyalarda gitlerchilar terroristik

tartiblar, vaxshiyona rejimlar o‘rnatdilar. Harbiy asirlarni yalpi qirish, xalq mulkini talash va qarshiliq harakatlarini shavqatsiz bostirishga kirishdi. 1941 yil yozi va kuzida Sovet tashqi siyosatni ozodlikga intilgan jaxon xalqlarini jipislashtirish, atigitlerchilar koalitsiyasini barpo qilishga qaratildi.

12 iyulda Buyuk Britaniya avgust oyida esa AQSH xukumati Sovet davlatiga xar tomonlama yordam berishga qaror qildilar. Urushni birinchi yili yakunida Sovet qo‘shinlari Moskva jangi (1941-42 y.) da nemis-fashist qo‘shinlarini  tor-mor keltirib (38 diviziya yakson qilindi.) muxim g‘alabani qo‘lga kiritdi. Bu esa, ikkinchi jaxon urushida birinchi yirik fashistlarni yirik mag‘lubiyati bo‘lib nemis armiyasini «engilmasligi» xaqidagi afsonani puchga chiqardi.

Sovet qo‘shinlarini Moskva ostonasidagi erishgan g‘alabasi siyosiy va xalqaro axamiyatga ega bo‘lib, antigitlerchilar koalitsiyasini yanada ko‘payishiga va mutaxkamlashishiga olib keldi. 1942 yilni 19 yanvarida (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy) to 1942 yilni yoziga kelib antifashiyat koalitsiyasini soni 28 taga etdi. Evropada ikkinchi front ochalmaganidan foydalangan nemis-fashist qo‘mondonligi yangi xujumga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. 1942 yil mayida gitlerchilar 6,2 mln kishi (226) diviziya, 3230 ortiq tank va  to‘plar, 3400 ta samolyot, 43 ming to‘p va minamyot mavjud bo‘lib Sovet frontida  esa, 5,5 mln kishi, 43642 to‘p va minamyot, 1223 reaktiv artileriya qurilmasi, 4065 tank, 3164 samolyot bor edi. nemis-fashist qo‘mondonligining asosiy maqsadi Sovet qo‘shinlarini tor-mor keltirib 1942 yilda urushni tomonlash edi. Asosiy zarbani janubdan borish ya’ni Sovet qo‘shinlarini Don daryosidan g‘arbroqdan yo‘q qilib, Kavkazdagi neftg‘ rayonlarini va Kavkaz tog‘laridan dovonlar orqali Stalingradni bosib olish bilan Volga atrofidagi barcha kommunikatsiyalarni kesib tashlash shart edi. tashabbusni qo‘lga olgan dushman Stalingrad va Kavkaz yo‘nalishida xujum boshladi. 23 avgustda dushman Volgaga qadar etib kelgan Stalingrad qa’ramona mudofaa qilish boshlandi (19 noyabrgacha) mamlakat xavf ostida qoldi.

Dushman mamlakatni urushgacha 80 mln aholi yashagan, jami sanoat maxsulotini undan bir qismini bergan, barcha ekin maydonini 47 % ini tashkil etadigan 1 mln. 795 ming km$^2$ territoriyasini bosib oldi. 1942 yilni oxiriga kelib nemis-fashist qo‘mondonligi yozgi kompaniyasidagi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi barbod bo‘ldi. Germaniyani strategik axvoli yomonlashdi. 1941-42 yilda dushman barcha frontida 2 mln soldat va ofitser, 4652 samolyot, 290 ortiq kema va ko‘p jangovar texnikasi ekson bo‘ldi. Urushni birinchi davrida frontda  xam mamlakat ichkarisida ham eng og‘ir davr bo‘ldi. 1942 yilni oxiriga kelib qurolli kuchlar nisbati biroz ustunlikka erishldi. 1942 yilda 23 ming ortiq samolyot, 24 mingdan ortiq tank, 57 ming to‘p, 125 ming katta kalibrdagi minomyot ishlab chiqarildi. 1942 yil noyabr boshida harakatdagi armiya va flotda 6.1 mln kishi, 72,5 ming to‘p va minomyot, 1724 reaktiv artilerya qurilmasi (katyusha), 6014 (2745 og‘ir, O‘rta) tank, 3088 samolyot, 233 jangovar kema bor edi.

Qurolli Kuchlar gitlerchilar koalitsiyasiga qarshi yakka kurash olib borishni davom ettirdi. AQSH, Buyuk Britarniya o‘z majburiyatlarini bajarmadi bu bilan, Evropada ikkinchi frontni ochmadilar. Bu esa fashistlarga qo‘l keldi frontda 6,2 mln kishi, 71 ming to‘p va minomyot, 6600 ming tank, 3500 samolyot, 194 jangovar kema to‘pladilar.

1942-43 yilgi qishki kompaniyada Bosh qo‘mondonlik nemis-fashist qo‘shinlarini frontning Voronejdan Qora dengizgacha bo‘lgan janubiy qanotni tor-mor etish rejasini ishlab chiqdi. SHuningdek, Moskva va Leningrad strategik axvolni yaxshilash uchun bir necha operatsiya o‘tkazish xam ko‘zda tutilgan bo‘lib qarshi xujumga o‘tish rejasini xam ishlab chiqdi. 1942 yil 20 noyabrda Stalingrad frontidagi qo‘shinlar xujumga o‘tib 23 noyabr kuni nemis-fashist armiyasini katta qismi o‘rab olishi bilan yakunladi. Bu muvaffaqiyat strategik tashabbus dushmandan tortib oldinda va Sovet qo‘shinlarini umumiy qarshi xujumga o‘tish uchun sharoit yaratildi. Stalingradda nemis-fashist qo‘shinlarni yakson etilishi ikkinchi jaxon urushidagi yirik harbiy-siyosiy voqea, ikkinchi jaxon o‘rushida ham tub burilish yasagan jang bo‘ldi. Fashist qo‘shinlari Stalingrad ostonalarida tor-mor etilganidan so‘ng, Sovet qo‘shinlari yanvar – fevralda Leningraddan Kavkazgacha bo‘lgan frontda xujumga o‘tdi. Qishki kompaniyada Sovet qo‘shinlari dushmanni Volga va Terek bo‘ylaridan 600-700 km masofada uloqtirib tashladi, 490

ming km$^2$ territoriya ozod etildi. 1942 yilni noyabridan 1943 yilni mart oyiga qadar fashist qo‘shinlarini 100 dan ortiq diviziyasi tor-mor etildi. Dushman 1,7 mln kishi, 24 ming to‘p, 3,5 ming tank, 4,3 ming samolyot yo‘qotdilar. Nemis qo‘mondonligi Stalingrad ostonalaridagi va qishki kompaniyadagi talofatlari uchun qasos olish uchun yozgi kompaniyaga qattiq tayyorgarlik ko‘rib 1943 yilni yarmida «yalpi» safarbarlik o‘tkazildi: 5 mln 325 ming kishi (232 diviziya), 54330 to‘p va minomyot, 5850 tank, 2980 samolyot, 277 jangovar kema to‘pladi.

Dushman 1943 yilni yozida Kursk rayoni (Kursk yoyi) yirik xujum operatsiyasini (Qal’a)ni o‘tkazishni qaror qildi, asosiy zarbalarni Kursk yo‘nalishida Oryolning janubrog‘ida (Markaz armiyalar gruppirovkasi) va Xarkovning shimolrog‘ida (janub armiya gruppirovkasi) berish va bu rayonlarda Sovet qo‘shinlarini qurshab olib tor-mor keltirish mo‘ljallangan edi. 1943 yilning yoziga qadar muxim g‘alabalarni qo‘lga kiritishga imkon beradigan vositalar bilan ta’minlandi.

Harakatdagi armiyaga 6,4 mln kishi, 98790 to‘p va minomyot, 2172 reaktiv artileriya qurilmasi, 9580 tank, 8293 jangovar samolyot bor edi.

Dushman rejasidan xabardor bo‘lgan Sovet qo‘mondonligi Kursk yoyini aylanib mudofaaga o‘tish, dushmanni zarbdor gruppirovkalarini xoldan toydirib, so‘ngra shiddatli qarshi xujum boshlab, uni butunlay tor-mor keltirish rejasi ishlab chiqdi. Dushman 5 iyulda Oryol va Belgrad rayonlaridan Kurs yo‘nalishi bo‘ylab xujumga o‘tdi. 5-9 ilyuda davom etgan og‘ir mudofaa janglaridan so‘ng, Sovet qo‘shinlari dushman xujumini to‘xtatdi va 12-15 iyulda xal qiluvchi qarshi xujumga o‘tdi. 5 avgust Oryol Belgrad 23 avgustda esa Kavkaz ozod qilishdi. Kursk jangida Sovet qo‘shinlarini qozongan g‘alabasi nemis qo‘mondonligini xujum strategiyasini batamom barbad etdi bu esa Stalingrad jangidan keyin sovet qo‘shinlarini qo‘lga kiritgan strategik tashabbus tamomila mustaxkamlandi. 1943 yil avgust-sentyabrda 2 ming km li frontda umumiy yozgi-kuzgi xujumga o‘tishga qulay sharoitlar yaratdi.

1943 yilda 1942 yilga nisbatan maxsulot ishlab chiqarish samolyotlar 38%, zenit artileriyasi 65%, yirik kalibrli pulemetlar 74%, o‘q-dori 25% ortdi. 1943 yil qozonilgan g‘alabalar urushni borishida tub burilish yasadi va g‘arbga qarab 500 - 1300 km siljib, okkupatsiya qilingan xududni 2/3 qismini ozod etildi. Urushni ikkinchi davrida dushmanni 218 diviziyasi tor-mor keltirildi, 14300 samolyot, 7 ming YAqin tank, 50 ming YAqin to‘p, 296 kema yakson qildi. Dushman quruqlikdagi bergan talofati 2,3 mln. kishini tashkil etdi. Dushman butun front bo‘ylab strategik mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi.

Sovet qo‘shinlarini Stalingrad ostonasidagi g‘alabasi urushdagi tub burilish bo‘lib ikkinchi jaxon urushini borishida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. nemis-fashist qo‘mondonligi o‘z strategik tashabbusni qo‘ldan boy berdi.

. Sovet qo‘shinlari Leningraddan to Kavkazgacha bo‘lgan keng frontda xujumga o‘tdi. Sovet qo‘shinlarini tarxiy g‘alabasi natijasida Evropa davlatlaridagi fashist blokiga kiruchi ittifoqchilari asta sekin parchalana boshladi. SHu bilan birga fashistlar okkupatsiya qilgan xududlarda milliy-ozodlik va mustaqillik uchun kurash harakatlari kuchayib ketdi. Stalingrad ostonasidagi janglarda harbiy sa’atni rivojlanishida zarbani asosiy yo‘nalshiga kuch, vositalari to‘g‘ri taqsimlash, dushman ustidan ustunlik xar tomonlama, vaziyatni to‘g‘ri baxolab, qayta xujumni o‘tishi bilan xarakterilanadi.

Dushman mudofasini yorib o‘tishda, bir qancha yo‘nalishlarda zarbalar berilib, yorib o‘tish uchastkasida piyoda qo‘shinlarn 50-70% artleriya, tank, aviatsiya 70-80% jalb qilindi. Xujumni dushman mudofasi ichida muvaffaqiyatga erishishda Bronetank va mexanizatsiyalashgan qo‘shinlarni yuqori tezkorligida amalga oshirildi. Xujumni O‘rtacha kuchlik tempi 30-35 km ba’zi xollarda 70 km ga bordi. Qayta xujumga o‘tishda asosiy yo‘nalishida ommaviy artileriya qo‘shinlarini qo‘llash birinchi bor qo‘llanildi. Injener qo‘shinlari: piyoda, tank va artileriya qo‘shinlari bilan xamkorlik qilishni yo‘lga qo‘ydi. Jang davomida quruqlik qo‘shinlari uchun dushman to‘siqlarini razvedka qilish ulardan o‘tish uchun yo‘llar va qo‘lga olingan marrada to‘siqlar barpo etish yo‘llarini o‘tkazdilar. Aloqa qo‘shinlari xujum davomida qat’iy ravishda qism va qo‘shinlarni, radio va harakat vositalari orqali keng boshqarib turdi. Radioaloqani tartibga solishda asosiy e’tiborni yo‘nalish aloqasiga qaratldi. Jangovar operatsiyalarni

bajarishda aviatsiya, quriuqlik qo‘shinlarini xujumiga ta’minlab, xavoda esa mutloq xukmronlikga erishdi. Xujumlar natijasida Sovet qo‘shinlari harbiy san’ati xujum taktikasi yanada rivoj topdi. Nemis fashist qo‘shinlari Stalingrad ostonalarida tor-mor etilgandan so‘ng, Sovet qo‘shinlari umumiy xujumga o‘tdi. Kavkaz orti va janub fronti xamkorligida 1 yanvardan 4 aprel 1943 yilda fashistlarni «A» armiyasi yakson etilib SHimoliy Kavkaz va Taman yarimoroli ozod etildi. 12-18 yanvar 1943 yili Leningrad va Voloxov fronti xujumi xamkorligi natijasida Leningrad blokadasi yorib chiqiladi. 13-27 yanvar 1943 yil Voronej fronti «Ostrochojsk - Rossashansk» operatsiyasi natijasida 2 veter va 8 Italiyan qo‘shinlarini o‘rab so‘ng tor-mor etildi. 24 yanvardan 17 fevral oralig‘ida Bryansk va Voronej fronti «Voronej Kastornesk » operatsiyasi amalga oshirilib 2 nemis armiyasini mag‘lubiyatga uchratib, Kursk, Xarkov yo‘nalishi xujumga o‘tishga imkon yaratdi.

1943 yil fevralini O‘rtalariga kelib janubiy g‘arbiy fronti Donbaschi SHarqiy qismi, Xarkov oblasti janubiy qismini ozod etib Poltava, Dnepropetrovsk va Zaporojg‘e yo‘nalishi bo‘yicha xujum davom ettirdi. Fevral oyini ikkinchi yarmida va 27 mart 1943 yili Markaziy, Bryansk, G‘arbiy fronti chap qanoti Bryansk yo‘nalishi bo‘yicha operatsiyalar uyushtirib dushmanni Orlov grupperovkasini tor-mor etdi. SHu davrda janubiy g‘arbiy yo‘nalishda yirik janglar bo‘lib o‘tdi. Voronej, Janubiy, G‘arbiy va Janubiy frontlar Xarkov xujum yo‘nalishida, nemis-fashistlarni Donbassdagi «Don» gruppirovkasi qamal xavfi ostida qoldi.

Gitler qo‘mondonligi xavfini oldini olish uchun qattiq xujum rejasini tuzib chiqdi. 19 fevral kuni dushman Janubiy G‘arbiy fronti chap qanoti, Voronej frontini chap qanoti orqali Poltava, Xarkov yo‘nalishi bo‘ylab xujumga o‘tib Stalingrad uchun «revansh» olmoqchi bo‘ldilar.

Voronej va Janubiy G‘arbiy frontlar qaqshatqich mudofaa janglari olib borib 23 mart kuni Xarkovni SHarqiy qismi va SHimoliy Donetssk daryosiga chekinib mudofaaga o‘tdilar.

1943 yilni mart oyini oxiriga kelib axvol yaxshilana boshlandi. Voronej, Janubiy G‘rabiy va Markaziy frontlarni qaqshatqich madofaa janglari natijasida nemis-fashist qo‘shinlarini ancha xolidan toydirib unga katta talofatlar etkazib, Stalingrad uchun «revansh» olish rejasi puchga chiqdi. 1942-43 yil qishki kompaniya natijasida partizan harakati, umumomma harakati tus oldi. SHunday qilib Sovet qo‘shinlari 1942-43 yillarda qishki kompaniyada g‘alaba bilan chiqishdi.

Ular dushmanni 100 ortiq diviziyasini yakson qilib, ularni Volga va Terek daryosidan 600-700 km uloqtirib tashladi.

Sovet qo‘shinlari 1942 yilda bosib olgan barcha  xududlarni ozod etib, nemis qo‘shinlarini o‘z xududidan quvib chiqara boshladi.



**Ikkinchi Jahon urushi davrida zirxli texnika qo‘shinlarining tutgan o‘rni, jang olib borish taktikasi va rivojlanishi**.

Urushning oxirgi davrida, qo‘shinlarning zirxli tanklar bilan ko‘plab ta’minlanishi, o‘qchi bo‘linmalar komandirining umumqo‘shin jangini tashkil etish va olib borishda to‘plagan tajribalari bois, ko‘p xollarda tanklar, rotalar va batalonlarga biriktirila boshlandi (Visla-Oder,

Berlin operatsiyalari). SHu munosabat bilan bevosita piyodalarni qo‘llab-quvvatlash tanklari (NPP) bu bo‘linmalarning jangovar tartibining yangi elementi bo‘lib qoldi.

Urushning oxirgi bosqichida ushbu tanklarning olg‘a xarakatlarini ta’minlash maqsadida bo‘linmalarga O‘YUAQ biriktirila boshlandi, ularning vazifasi dushmanning tanklarga qarshi vositalarini tor-mor etish bo‘lib (artilleriya razvedkachisining ma’lumotiga ko‘ra), ular tanklardan 200-250 metr ortda xarakatlangan.

Bo‘linmalar jamlanish rayoniga etib kelib, bo‘ladigan jang xarakatlarini tushunib va unga tayyorgarlik ko‘rgan. Tayyorgarlikning aniqligi va davom etishi urush yillarida doimo oshib borgan. Komandirlar va shtablarning xujumkor jang tadbirlari tayyorgarligini, (xujumga o‘tish dastlabki marrasida) katta qismini jamlanish rayonida o‘tkazishga xarakatlari ko‘zga tashlanadi. Bundan maqsad, tayyorgarlik ishlarining xajmini xujum uchun dastlabki marrada qisqartirishdan iborat. SHunga qaramasdan, xujum uchun dastlabki marraning axamiyati ko‘rilayotgan davrda o‘ta baland bo‘lib qolaverdi.

Hujumni tayyorlashda vaqt faktori sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Buning uchun urushdan oldin batalon zvenosiga 2-3 soat yorug‘ vaqt etarli deb xisoblangan. Lekin boshlangan Ikkinchi Jaxon urushi, ayniqsa uning birinchi davri xujumga tayyorlanish muddatini minimumga qisqartirishga majbur etdi. SHunaqa vaqtlar bo‘lganki, batalon komandiriga xujumni tayyorlash uchun bor-yo‘g‘i 10-15 minut vaqt berilgan. Bunday vaqtning cheklanishi bo‘linmalarga dushman mudofaasi va joylashgan joyini xususiyatlarini xisobga olmasdan faqatgina jangovar vazifani aniqlash imkonini bergan. Bunaqa sharoitda o‘zaro xamkorlik masalalari qo‘rib chiqilmagan.

Xujum uyushmagan xolda olib borilib, ko‘p xollarda muvaffaqiyatsiz tugagan.Xujumga tayyorgarlik o‘ziga, komandirlar, politrabotniklar, va batalon shtabi tomonidan amalga oshiriladigan bir nechta tadbirlarni birlashtiradi. Ularning asosiylari: yig‘in (sbor), vaziyatni xamma tomonlama baxolash va umumlashtirish, qarorni ishlab chiqish, bo‘linmalarga jangovar vazifa qo‘yish, o‘t ochib zarba berishni, ta’minlashning xamma turlarini o‘zaro xamkorligini va boshqaruvni, xamda qo‘shinlarni jangovar vazifani bajarish uchun tayyorgarligini tashkil etishdan iborat.

3.Ikkinchi Jahon urushi davrida qo‘llanilgan zirxli texnika turlari.







Harbiy parad. Xitoy.



Sovet T-34 tanki hujumda







**1** – М48А5 АҚШ);
**2** – М60А1 (АҚШ);
**3** – «Леопард»(ГФР);
**4** –«Чифтен» (Англ.);
**5** – «61» (Япония);
**6** – АМХ – 13 (Франц.); 7

SOBIQ SSSRDA TANK QURILISHINING RIVOJLANISHI










**(1950–1970-е гг.): 1-** Т-44;
**2-** Т-54;
**3-** Т-55;
**4-** Т-62;
**5-** ПТ-76;
**6-** Т-72 «Урал»;






# XX асрнинг 1970 – 90-йилларда танк қурилишининг ривожланиши



**Т-80УК** (Украина)



**Т-90 С** (Россия)





**Танк М1А2 «Абрамс»**
(США)



**Франция** «Леклерк»





**«Челленджер»** (Англия)



**«Меркава**
(Израил)

**Ikkinchi Jahon urushi davrida sobiq sovet ittifoqi harbiy dengiz flotining tutgan o‘rni, jang olib bolrish taktikasi va rivojlanishi**.

Ikkinchi Jahon urushi arafasida HDF tarkibi

| Mamlakat | linkorlar | Og‘ir kreyser | Engil kreyser | avianosets | Gidro | esminets | minanosets | Torpeda | Mina.zagra | tralchi | Kanoner | Suv osti kemalari | Qo‘riqchi | Suv osti | aviatsiya |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Germaniya | 2 | 5 | 6 | - | - | 22 | 20 | 20 | - | 70 | - | - | 10 | 57 | 180 |
| Italiya | 4 | 7 | 14 | - | - | 130 | - | 72 | 13 | 40 | 11 | - | - | 104 | 40 |
| YAponiya | 10 | 18 | 17 | 6 | 5 | 111 | 12 | - | 23 | 12 | 40 | 13 | - | 53 | 1400 |

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Angliya | 15 | 15 | 49 | 6 | - | 184 | - | 26 | 8 | 42 | 3 | - | 40 | 58 | 232 |
| Fransiya | 7 | 6 | 13 | 1 | 1 | 58 (26) | 12 | - | - | 10 | 8-10 | 14 | 19 | 77 | 350 |
| AQSH | 15 | 18 | 17 | 5 | - | 215 | - | - | 10 | 26 | 10 | 23 | - | 922 098 | |
| SSSR (22.06.1941) | 3 | - | 7 | - | - | 59 | - | 269 | 18 | 80 | 5 | 77 | 22 | 211 | 2581 |

Ikkinchi Jahon urushi davrida jangovar kemalar alohida oʻrin tutgan. Janglar asosan flotlar oʻrtasidaboʻlib oʻtgan. Atlantika harbiy xarakatlar teatrida janglar hayot uchun oʻta zarur boʻlgan kommunikatsiyalar uchun olib borilgan.Germaniya ikkinchi jahon urushining ikkinchi yarmida dengiz janglarida oʻz oʻrnini yoʻqotib muvffaqiyatsizliklarga uchradi.Dengizdagi oʻz harbiy mavqeini tiklash uchun Germaniya suv osti kemalaridan keng foydalana boshladi.Ular “Boʻrilar toʻdasi” nomli taktikani qoʻllagan xolda, chegaralanmagan yoʻnalishlarda harbiy xarakatlarni olib borishdi.

**Ikkinchi Jahon urushi davrida qoʻllanilgan jangovar kemalar**.



Kreyser (SSSR)



Suv osti kemasi (SSSR)



Linkor (SSSR)




Korvet






Fregat

Minanosets





Suv osti kemasi



Jangova kemalar paradi (RF)

## 8-mavzu: Sobiq ittifoq erlaridan Dushmanning to'liq quvib chiqarilishi Evropa xalqlarning ozod etilishi (1944-1945 yil).

O'quv savollari:

1.BMTning tashkil topishi.
2.Nyurenberg jarayoni.
O'quv maqsadlar:
1.Talabalarga Tehron konferensiyasi bo'yicha ma'lumotlar berish.
2. Talabalarga Qrim konferensiyasi bo'yicha ma'lumotlar berish.
3.Talabalarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.
Vaqt: 2 soat;
Uslub:amaliy.
O'tish joyi: sinif xonasi.
Moddiy texnik ta'minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko'rgazmali qurollar va mashg`ulot rejasi,sxemalar, slaydlar va multimediya.
Adabiyotlar.
**1.Harbiy tarix san'ati.**
**2.Harbiy tarix 1984y.**
**3.Harbiy ensiklopediya.**

1.BMTning tashkil topishi.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) —yer yuzida tinchlikni mustahkamlash vaxavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkilot. 1945 yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943 yilda,Ustavi esa San Fransisko konferensiyasida 1945 yilda qabul kilindi.

BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000 yilda esa ular soni 189 ga yetdi. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvartirasi) — NyuYork. BMT Ustavida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huqukdi bo'lishi va o'z takdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iktisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi. 2000 yil 6—8 sentabrda BMTning 55-sessiyasi doirasida "Ming yillik sammiti" bo'lib o'tdi. Unda 155 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat boshliqlari ishtirok etdi. Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiyiktisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doyr muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi.Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan kabul qilgan deklaratsiyada 2015 yilgacha 'minlashda, Bosh Assambleya va BMT boshqa organlari qarorlari amalda bajarilishida yordam beradi.Kotibiyat quyidagi departamentlar va boshqarmalarga bo'linadi: Siyosiy masalalar va Xavfsizlik Kengashi ishlari departamenti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Vasiylik va o'z o'zini boshqarmaydigan hududlar departamenti, Nazorat boshqarmasi,Xodimlar boshqarmasi, Bosh kotibningma'muriy idorasi, Ijtimoiy axborot boshqarmasi, Konferensiyalarga xizmat qilish boshqarmasi, Umumiy xizmat boshqarmasi, BMTning Jeneva bo'limi.BMT sessiyasi yidda bir marta chaqiriladi. Xavfsizlik Kengashining yoki BMT a'zolari ko'pchiligining talabi bilan har qanday masala yuzasidan maxsus sessiyalar chaqirilishi mumkin. BMTning rasmiy tillari — ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari bo'lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi. O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin ko'p o'tmay—1992 yil 2 martda BMTga a'zo bo'ddi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O'zRning Davlat bayrog'i

ko‘tarildi. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi (1993.24.8). BMTda O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi.O‘zbekiston Respublikasi BMTning Ta’lim,
fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti — YUNESKO ga ham a’zo bo‘ldi. O‘zbekiston o‘z ovozi va mavqeiga ega bo‘lgan a’zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo‘yyapti.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yil 24-oktabrda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yalpi xavfsizlikni mustahkamlash tufayli tinchlikni barqaror etish jur’ati bilan to‘lib-toshgan 51 mamlakat tomonidan tashkil etildi.Bugungi kunda 185 mamlakat, ya’ni dunyoning qariyb barcha mamlakatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining a’zolaridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining a’zosi bo‘lgan davlat xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari aks etgan, xalqqaro shartnomalardan iborat bo‘lgan Tashkiloti qanday faoliyat ko‘rsatadi?

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida bayon etilgan majburiyatlarni qabul etadi. Nizomga binoan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti to‘rtta asosiy maqsadga amal qiladi: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga ko‘maklashish, millatlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirish, xalqaro muammolarni hal etishda va inson huquqlarini hurmatlashni rag‘batlantirishda, xalqaro hamkorlikni barqaror etish hamda ushbu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar sa’y-harakatlari, kelishuvlari uchun markaziy rolni o‘ynash. Birlashgan Millatlar Tashkiloti a’zolari —mustaqil davlatlardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti butunjahon hukumati emas va u qonunlar qabul qilmaydi. Biroq xalqaro mojarolarni bartaraf etishga va bizning barchamizga daxldor bo‘lgan masalalarni hal etish siyosatini ishlab chiqishga yordam bera oladigan mablag‘larga ega bo‘ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga barcha katta-kichik, boy va kambag‘al,turli siyosiy qarashlar va ijtimoiy tizimdagi davlatlar a’zo bo‘lib, ular ovoz berish va ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega.Birlashgan Millatlar Tashkilotida oltita bosh organ mavjud. Ulardan beshtasi —Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi,Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi va Kotibiyat — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi Markaziy qarorgohida, oltinchi organ —Xalqaro Sud esa Niderlandiyaning Gaagahahrida faoliyat ko‘rsatadi.

Xavfsizlik Kengashi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni barqaror etish borasida Xavfsizlik Kengashi bosh javobgarlikni zimmasiga oladi va u tinchlik xavf ostida qolgan kecha yoki kunduzning har qanday daqiqasida chaqirilishi mumkin.Kengash 15 a’zodan tashkil topgan. Ularning beshtasi - Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Birlashgan Qirollik, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Fransiya -doimiy a’zolar hisoblanadi. Kengashning qolgan o‘n a’zosi Bosh Assambleya tomonidan ikki yil muddatga saylanadilar. Keyingi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida Kengashning a’zolar tarkibini o‘zgartirish, bu tadbir zamonaviy va iqtisodiy voqelikni yanada yorqinroq aks ettirishi masalasi muhokama qilinayapti. Kengashning qarorlari, uning uchun to‘qqiz a’zo ovoz bergan taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi. Kun tartibidagi masalaga Kengashning doimiy a’zolaridan birortasi qarshi ovoz bersa, shuningdek, veto huquqidan foydalansa qaror qabul qilinmaydi.Xalqaro tinchlikka xavf solinganligi haqida kengashga xabar berilganda bu mojaro avvalo tinchlik yo‘li bilan bartaraf etish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.Kengash, balki bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqadi yoki hakam vazifasini o‘taydi. Harbiy harakatlar boshlanib ketgan taqdirda Kengash o‘t ochishni to‘xtatish choralarini ko‘radi. Shuningdek,u tomonlarni yarashtirish yoki bir-birlari bilan janjallashayotganlarni ajratishga yordam beradigan, tinchlikni barqaror etuvchi missiya yuborishi mumkin. Kengash o‘zi qabul etgan qarorlarning bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tadbirlar qabul qilishi mumkin. U iqtisodiy jazo choralari qo‘llashi yoki qurollarni yetkazib berishga embargo qo‘yishi mumkin. Juda kamdan-kam hollarda Kengash o‘zi qabul qilgan qarorni bajarish uchun a’zomamlakatga birgalikdagi harbiy harakatlarga qadar bo‘lgan "barcha zarur vositalarni" qo‘llashga vakolat beradi. Shuningdek, Kengash Bosh kotib lavozimiga muayyan nomzodni va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yangi a’zolarni tavsiya etadi.

Bosh Assambleya

Bosh Assambleya - o‘ziga xos butunjahon parlamentining insoniyatning eng dolzarb muammolari ko‘rib chiqilayotgan majlislarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a’zosi bo‘lgan

barcha mamlakatlar vakillari qatnashadi. Har bir a’zo-mamlakat bir ovozga ega. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni muayyan darajada saqlab qolish tavsiyalari yangi a’zolarni qabul qilish yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti budjetini tasdiqlash, shu jumladan, tinchlikni saqlash operatsiyalariga mablag‘ ajratish singari muhim masalalar ko‘pchilik, aniqrog‘i, uchdan ikki qism ovoz bilan qabul etiladi.Boshqa masalalar bo‘yicha qarorlar,odatdagidek, ko‘pchilik ovoz bilan qabul etilaveradi. Keyingi yillarda Assambleya qarorlari rasmiy ovoz berish yo‘li bilan emas, balki, konsesus asosida qabul etilishi uchun maxsus sa’y-harakatlar olib borilmoqda. 1999/2000 yilgi sessiyalarda yadroviy qurolsizlanish, taraqqiyot, atrof muhitni muhofaza etish va yangicha demokratiyani mustahkamlash singari kun tartibidagi turli-tuman 173 masala ko‘rib chiqilishi kerak edi. O‘z qarorlari g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lsa ham, ular jahon jamoatchiligi fikrlarini ifodalasa va xalqaro jamoatchilikning axloqiy talabi hisoblansa ham Assambleya o‘z qarorlarini majburan qabul qildirmaydi.Assambleyaning har yilgi navbatdagi sessiyasi sentabrdan dekabrga qadar bo‘lgan muddat davomida o‘tkaziladi. Assambleya zarurat tug‘ilganda o‘z ishini qayta chaqirilgan sessiyada davom ettirishi yoki jiddiy tashvish tug‘dirgan masalalar bo‘yicha maxsus yoki favqulodda sessiyalar o‘tkazishi mumkin.Assambleyalar orasidagi muddat davomida uning ishlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita bosh qo‘mitalarida, boshqa organlarida va Kotibiyatda davom etadi.

## 2.Nyurenberg jarayoni.

Potsdam konferensiyasida uch buyuk davlat boshliqlari asosiy harbiy jinoyatchilarni «tezkor va adolatli sud»ga topsrurishga qaror qilishdi. 1945-yil 1-sentabrda ayblanuvchilarning birinchi ro'yxati e'lon qilindi. Fashizm o'zining jinoyatkorona yurishiniboshlagan Nyurenbergda 1945-yil 20-noyabrdan 1946-yfl 1-oktabr-gacha Xalqaro tribunal natsist harbiy jinoyatonilarning bi-rinchi guruhini sud qildi. Javobgarlikka tortilganlar orasida G. Gering, V. Keytel, E. Kaltenbrunner, I. Ribbenlrop, A.Yodl, A.Shpeyer va boshqalar bor edi. 12 kishi o'h'm jazosiga hukm etilib, qatl qilindi (o'zini zaharlagan G. Geringdan tashqari), 7 kishi uzoq muddatli yoki umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Ulardan bin G.Gess ha-yotining oxirigacha turma kamerasida qolib, shu yerda umrini tugatdi.Natsional-sotsialistik partiya, SS, gestapo, SD jinoyatchi tashkilotlar deb e'tirof etildi. Nyurenberg jarayoni german fashizmining g'ayriinsoniy mohiyatini, uning ko'plab xalqlar va davlatlarni yo'qotish rejalarini fosh etdi. Nyurenberg sudi qaroriga ko'ra, agressiya insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyat deb e'tirof etildi. Bu haqiqiy xalqlar sudi, tarixning ayovsiz, lekin adolatli sudi bo'ldi. Ikkinchi jahon urushiga so'nggi nuqta qo'yildi



N’yurenberg jarayoni.

1945-yil 20-noyabrda Germaniyaning Nyurnberg shahrida Uchinchi reyxning yuqori martabali rahbarlari ustidan sud jarayoni boshlangan edi.

Kayzer Vilhyelm birinchi harbiy jinoyatchi sifatida

1945-yilning noyabr oyida Germaniyaning Nyurnberg shahrida tarixda birinchi marta o‘n millionlab odamlarning umriga zomin bo‘lgan jahon urushini qo‘zg‘agan siyosiy rejimning jinoiy qilmishlari ko‘rib chiqiladigan sud jarayoni boshlandi. Ushbu sud Yevropa mamlakatlariga qarshi Hitler agressiyasi tarixiga nuqta qo‘yish bilan birga yangi jahon urushlarining oldini olishga xizmat qiluvchi xalqaro huquqning yangi normalari shakllanishi uchun ham zamin bo‘lgan edi.

Davlat boshliqlarini harbiy jinoyatlari uchun jazolash masalasi ilk bor Birinchi jahon urushidan so‘ng ko‘tarilgan edi. O‘shanda Germaniya imperatori Vilhelm ikkinchiga urushni boshlash aybi qo‘yilgan. Biroq kayzer Niderlandiyadan siyosiy boshpana topgan va ushbu davlat hukumati imperatorni g‘oliblar qo‘liga topshirishdan bosh tortgan edi. Oqibatda «xalqaro axloq qoidalari va shartnomalarni misli ko‘rilmagan darajada oyoqosti qilgan»likda ayblanishiga qaramay Vilhelm ikkinchi oshini oshab, yoshini yashab vafot etdi, Ikkinchi jahon urushining boshlarida Parij hitlerchilar tomonidan bosib olinganini eshitdi. Uning vafotidan uch haftacha vaqt o‘tgach Germaniya Sovet ittifoqiga hujum qilgan edi.

Qasos haqida ikki xil fikr

SSSR hukumatining 1942-yil 14-oktyabrdagi «Hitlerchi bosqinchilar va ularning sheriklarining bosib olingan Yevropa mamlakatlarida sodir etgan yovuzliklari uchun javobgarligi to‘g‘risida»gi bayonotida birinchi marta Germaniya natsistlarining rahbarlarini sud qilish masalasi ko‘tarilgan edi. Aynan ushbu hujjatda Uchinchi reyx rahbarlarini sud qilish uchun xalqaro tribunal tashkil qilish g‘oyasi ilgari surilgan.

1943-yilning noyabrida SSSR, AQSh va Buyukbritaniya tashqi ishlar vazirlarining Moskva konferensiyasi protokoli, uning bandlaridan biri sifatida «Sodir etgan vahshiyona ishlari uchun hitlerchilarning javobgarligi to‘g‘risida»gi deklaratsiya imzolandi. Unda jinoyatchilar qilmishni qayerda sodir etgan bo‘lsa o‘sha davlatning qonunlari bo‘yicha javobgarlikka tortilishi nazarda tutildi. Shu bilan birga «deklaratsiya kirdikorlari muayyan geografik joylar bilan bog‘liq bo‘lmagan va ittifoqchilar hukumatlarining qo‘shma qarori bilan jazolanadigan bosh jinoyatchilar masalasini qamrab olmasligi» alohida ta’kidlandi.

Ittifoqchilarning qo‘shma qarori 1945-yilgacha ishlab chiqilmadi. Chunki sovet tarafi ochiq sud o‘tkazilishini har qancha talab qilmasin, ittifoqchilar bunga qarshilik qilib kelishdi. Buyukbritaniya bosh vaziri Uinston Cherchill Uchinchi reyx rahbarlarini sud va so‘roqsiz otib tashlash kerak deb hisoblar, AQSh prezidenti Franklin Ruzvelt ham shunday fikrda edi.



Javobgarlar (sudlanuvchilar) o‘zlarining lojalarida.

Sud qilish kerakmi yoki joyida otib tashlash kerakmi?

1944-yilda AQSh va Buyukbritaniya rahbarlari Stalinga masalani sudsiz hal qilishning yana bir variantini — ushlanganidan va shaxsi aniqlanganidan keyin bir soat ichida otib tashlanishi kerak bo‘lgan 100 ta bosh jinoyatchining ro‘yxatini tuzishni taklif qilishdi. Sovet rahbari bunga ko‘nmadi.

G‘arb rahbarlari eng katta natsistlarni sud va so‘roqsiz gum qilishga intilishining ikkita sababi budir: avvalo ularni sud qilish uchun yetarli yuridik baza mavjud emas edi, ikkinchidan esa sud jarayonida antihitler koalitsiyasi vakillarining o‘zini noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan faktlar oshkor bo‘lib qolishi mumkin edi.

Sovet ittifoqi faqat Uchinchi reyx rahbarlarini jazolash uchungina emas, natsistlar davlatining boshqaruv tuzilmalari va tashkilotlarini sud tartibida jinoiy tuzilma va tashkilot deb topish uchun ham sud jarayoni o‘tkazilishini talab qilardi, bu esa ushbu tashkilotlarning a’zosi bo‘lganlarning hammasini javobgarlikka tortish imkonini berardi. 1945-yilning fevralida

o‘tkazilgan Yalta konferensiyasida eng katta hitlerchilarni jazolash masalasi yana bir bor o‘rtaga tashlandi. Stalin bosh harbiy jinoyatchilar sud qilinishi kerak degan fikrni bildirdi. Ruzvelt ham shu fikrda edi. Cherchill buni xohlamayotgani yuz-ko‘zidan bilinib tursa-da, umumiy qarorga qo‘shilishga majbur bo‘ldi. Ammo Buyukbritaniya bosh vaziri bosh jinoyatchilar ustidan o‘tkaziladigan sud yuridik emas, siyosiy akt bo‘lishi kerak deb shart qo‘ydi. Eng katta fashistlar ularni nima kutayotganini bilib qo‘lidagi harbiy asirlardan o‘ch olishni boshlab yubormasliklari uchun uch rahbarning kelishuvlari haqida hech qanday axborot chop etilmadi.

“Birgalikda o’qiymiz” texnikasi

Birgalikda o’qish: 1944-yilda AQSh va Buyukbritaniya rahbarlari Stalinga masalani sudsiz hal qilishning yana bir variantini — ushlanganidan va shaxsi aniqlanganidan keyin bir soat ichida otib tashlanishi kerak bo‘lgan 100 ta bosh jinoyatchining ro‘yxatini tuzishni taklif qilishdi. Sovet rahbari bunga ko‘nmadi.

G‘arb rahbarlari eng katta natsistlarni sud va so‘roqsiz gum qilishga intilishining ikkita sababi budir: avvalo ularni sud qilish uchun yetarli yuridik baza mavjud emas edi, ikkinchidan esa sud jarayonida antihitler koalitsiyasi vakillarining o‘zini noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan faktlar oshkor bo‘lib qolishi mumkin edi.

Xar bir guruxning maqsadi boshqa barcha guruxlar ishtirokchilari mavzu savollarni to’la xajimda egallab olishdan iborat

# 9-10-mavzu: Ikkinchi jahon urushida Ittifoqdosh armiyalarning harbiy harakatlari.

Reja:

1. *Ikkinchi jahon urushida Ittifoqdosh armiyalarning* harbiy harakatlari.
2.Ittifoqdosh davlatlar armiyalarining g'arbiy evropadagi harbiy harakatlari.
3.Normandiya operatsiyasi.
4.1945 yili avgustda uzoq sharqdagi vaziyat.
5.Urush sabablari va xarakteri..

Vaqti:2 soat;
Joyi:O'quv xonasi;
Uslubi: Tushuntirish, so'zlab berish, ko'rsatish;
Shakli: ma'ruza.

Tayanch so'zlar

xujum strategik;
Fashist qo'shinlari;

1945 yili avgustda uzoq sharqdagi vaziyat. Urush sabablari va xarakteri.

1945 yilni avgustiga kelib Uzoq Sharqda Evropada fashist Germaniyasi tor- mor keltirilgandan so'ng Yaponiya o'zini Harbiy blokidagi asosiy ittifoqchisidan ayrildi. Uni siyosiy, iqtisodiy va Harbiy xolati tezda yomonlashdi. 1945 yilning yoziga kelib Yaponiya 1941- 1942 yillarda bosib olingan hamma orollardan ayrildi. Bosib olingan Indoneziya va Birma xududlarida harbiy flot katta talofat ko'rdi. Jangovar harakatlar yapon xududiga o'tdi. Bosib olingan xududlarda ozodlik va mustaqillik uchun kurash yanada oshib bordi.

Yaponiyani mag'lubiyati Yaqinlasha boshladi. Yaponiya meltaristik ra'bariyati Yaqinlashib kelayotgan mag'lubiyatni tan olishdan bosh tortib AQSH, Angliya va Xitoy davlatini so'zsiz taslim bo'lishi talabani va taklifini rad etadilar. Yapon davlatini o'zini Osiyo xududidagi yirik qurolli kuchlari xukmronligini foydalanib jangovar harakatlarni olib borishni davom ettirdi. 1945 yilni boshiga kelib Yapon qurolli kuchlarida:

Xitoy xududidan tashqari:

*Eslab qoling*

3,1 mln kishi;

6500 ta samoliyot

122 jangovar kemaga ega edi.

Amerika, Angliya qo'shinlar tarkibida Tinch va Xind okeanida shu bilan birga Janubiy Sharqiy Osiyo xududida:

2400 ming kishi

11300 tagacha samoliyot

711 ta kema mavjud edi.

Yapon xukumati juda katta bo'lgan xududda mudofaaga o'tib, ancha cho'zib dushmanga katta talofat etkazib uni tinchlik shartnomasiga qo'l qo'yishni mo'ljallagan.

Ittifoqchi kuchlarni 1945 yil fevral oyidagi Qirim konferensiyasida sovet Ittifoqi Evropadagi g'alabasidan so'ng 2-3 oydan so'ng Yaponiya urush ochishni e'lon qildi. Urush davrida Yaponiyani ittifoqchisi yordam berib turdi. Yaponiya Germaniya uchun razved ma'lumotlar nemis suv osti kemalariga joylashuviga va sovet qirg'oq xududlarini suv chegarasini buzib kirish bilan birga chegara xudud juda katta miqdorda Kvantun armiyasini joylashtirib xavf solib turgan.

**Sobiq Sovet va Yapon urushining umumiy borishi**.

8 avgust 1945 yil Sovet xukumati 9 avgust kundan boshlab, Yaponiya davlati bilan bilan urush xolatida ekanligini ma'lum qiladi. 10 avgust kuni (Sovet Ittifoqi) Mongol xalq Respublikasi Yaponiyaga urush e'lon qildi. Sovet ittifoqi yaponiya bilan urushda asosiy maqsad qilib Yaponiya agressorlarini tor-mor etib, Xitoy, Koreya va Osiyodagi boshqa davlatlarni qo'lini cho'zib ittifoqchilik majburiyatini bajarish ko'zda tutdi.

Uzoq Sharqdagi Yapon qo'shinlarini tor- mor etish uchun Sovet Oliy Bosh qumondonligi 3 ta frontni tashkil etdi.

Ulardan:

- Baykalorti fronti
- 1 va 2 Uzoq Sharq bundan tashqari operasiyaga Tinch okeani flotga, Amur harbiy flotiliyasi va Mongoliya xalq armiyasi. Hammasi sovetmongol armiyasida:
- 1500 ming kishi.
- 26000 to'p va minaotar.
- 5250 ta tank va o'zi yurar artilleriya uskunasi.
- 5200 jangovar samolyot mavjud edi.

Kvantun armiyasini tor- mor etishda asosiy zarbani Zabaykal, Apriamur va Aprimoriya orqali markazga berib mudofaa tizimini yorib ko'rib ularni qurshab so'ng yo'q qilish ko'zda tutilgan edi.

Asosiy zarbani bir- biriga qarab Zabaykal va va Uzoq Sharq fronti kerak edi. 2- Uzoq Sharq harbiy va Sitsikor yo'nalishida xujumga o'tib Zabaykal va 1- Uzoq Sharq frontiga yordam berib kvantun armiyasini asosiy qismini tor- mor keltirish vazifasi qo'yilgan edi. Tinch okeani flotini asosiy vazifasi port va Harbiy ob'ektlarni quriqlash shu bilan birga quriqlik qo'shinlariga Shimoliy Koreya, Saxalin va Kuril orollarni Harbiy bazalarni bosib olishga yordam berish.

Sovet qo'shinini Uzoq Sharqdagi xujumi uchun yirik miqdordagi qo'shini to'plash kerak bo'ladi.

G'arbiy Evropada Uzoq Sharqga 3 ta umumqo'shin 1 ta tank armiyasi ko'chirilib keldi.Sovet qo'shinlari Uzoq Sharqda xujumni 9-avgustda birdaniga uchta frontdan boshladi. Urushni boshidan oxirigacha aviasiya xavoda xukumronlik o'rnatdi.

Birinchi kechadayoq oldingi avangaryad otryadlari ertalab esa asosiy qismlar chegarani yorib kirib o'qchi birlashgan qo'shinlar 50 km tank qo'shinlari 120- 150 km gacha kirib bordilar. Dushman jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi.

Katta Xingan tog'idan o'tishda tank qo'shinlari katta qiyinchiliklarga duch kelib 13 avgustni asosiy qismlar Markaziy Monjuriya tekisligiga chiqib xujum yo'nalishini Mukdan va Chanchun yo'nalishiga qaratdi. Urushni bosh kunida tank armiyasi 500 km oldinga siljidi.

12 avgustga kelib Uzoq Sharq fronti Mudanzyan mudofaa liniyasi to'planib o'z yo'nalishini dushmanni asosiy kuchlariga qaratdi. Dushman qattiq qarshilik ko'rsatib, bir qator kontrzarbalar uyushtirib shu bilan birga portlovchi to'siq va shaxidlar orqali to'siqlar barpo qildi. 5 armiyani front bo'ylab qilgan atakalari muvaffaqiyatga erishmadi. Bu sharoida arteleriya va tank qo'shinlari samarasiz qoldi. bu esa Mudanzyan uchun olib borilayotgan jang cho'zilib ketishi va Kvantun armiyasini qurshab olish xavf ostida qoldi.

Mudanzyan bosib olish 1 va 5 armiyaga topshirilib ularni harakatlaridagi 25 armiya qo'lladi.14 avgust kuni Sovet qo'shinlari to'g'risidan to'g'ri janglar olib borib Mudanzyan Shimol va Janubdan aylanib o'tdi. Shu paytni o'zida chap qanotdagi front Tinch okeani floti bilan hamkorlikda Shimoliy Koreyaga kirib- yapon floti 10 km va Rosin Harbiy bazalarini qo'lga kiritdi. Shunday qilib operasiyani birinchi yilida 1- Uzoq Sharq fronti yaponlarni uzoq muddat mudofaa chizig'ini yorib o'tib uni quriqlov qismlari va Yapon 1- flontini asosiy qismini tor- mor qilishdi. Bir xaftalik jangdan front (1 USH fronti) 120- 150 km oldinga siljidi. Amur va Usur daryosini kechib o'tib qarama-qarshi qirg'oqdagi dushman plasdormini

egallab Manjuriya muvaffaqiyatli xujumni davom etdi. 5-armiya birinchi kuniyoq Ussuri daryosini kechib o‘tib xujumni Jaoxeyga yo‘naltirdi.

Uzoq Sharq fronti 9 avgust kuni ikki yo‘nalish bo‘yicha jangovar harakatlar olib borildi. 15- armiya asosiy Surgay 5- o‘qchi korpusi Jaoxey yo‘nalishi bo‘yicha 15 armiya 9 va 10-avgust kuni Amur flotiliyasi bilan Amur va Usur daryosini kechib o‘tib qarama-qarshi qirg‘oqdagi dushman plasdormini egallab Manjuriya muvaffaqiyatli xujumni davom etdi. 5-armiya birinchi kuniyoq Ussuri daryosini kechib o‘tib xujumni Jaoxeyga yo‘naltirdi.

## Ittifoqdosh davlatlar armiyalarining Yaponiyaga qarshi harbiy xarakatlari.

1941-1945 yillarda Tinch okeanidagi Harbiy xarakatlar Yaponiya uchun strategik va siyosiy vaziyatning yomonlashgan sharoitlarida rivojlandi.

1944 yilda Yaponiya xukmron doiralari, Ganges, Markus, Ueyk, Marshal orollarida, Yangi Gvineyaning sharqiy qismida, Indoneziya, Malayi va Birma orollarida kuchli mudofaani yaratib, Amerika-Angliya qo‘shinlarini keyingi xarakatlariga yo‘l qo‘ymaslikka xarakat qildilar. Bu bilan birga Xitoyga xujumni rivojlantirib, Markaziy va Janubiy Xitoyni egallab, Osiyo qit’asida mustaxkam o‘rnashib ular, qo‘shimcha zaxiralarni olib kelib urushni davom ettirishni rejalashtirdilar.

Yaponiyaning quruqlikdagi qo‘shinlarining asosiy kuchlari va aviatsiyasi Xitoyda, Manchjuriyada, Koreyada va metropoliyada jamlandi, faqat 13 ta diviziya, 600 tagacha samolyotlar va Generallik flot (3 ta liniyachi kemalar, 4 ta avianosetslar, 16 ta kreyserlar, ikkita suv osti kemalari eskadrasi va bir nechta eskadra minonosetslar) Tinch okeani orollarida joylashdi.

Yaponiya XDF ning asosiy kuchlari xam metropoliyadagi bazalarda va Janubiy-Xitoy bazalarida joylashtirildi.

Umuman yapon qo‘mondonligi tomonidan Tinch okeanida operatsiyalarni o‘tkazish uchun ajratilgan kuchlar etarli emas edi.

Shu vaqtga kelib ittifoqchilar Tinch okeanida dushman ustidan aviatsiya va flot bo‘yicha ustunlikni yaratdilar. Ular 24 tacha atrofida diviziyalarga, 16 ta liniyachi kemalarga, 33 ta kreyserlarga, 35 ta avianosetslarga, 280 ta esminetslarga va 4150 ta samlyotlarga ega edilar. Ularning qo‘shin guruxlari tarqoq xolda emas edi. Tinch okeanining markaziy qismida admiral Nimetsning operativ guruxi xarakatlanayotgan edi (3, 5-desant korpuslari, 3, 5-flotlar va 7-щavo armiyasi). Okeanning Janubiy-G‘arbiy qismida general Makarturaning operativ guruxi joylashdi (6-amerika va 1-avstraliya armiyalari, 7-flot va 5-xavo armiyasi). Angliya-Amerika qo‘shinlari dushman ustidan diviziyalar soni bo‘yicha ikki marta, aviatsiya va XDF bo‘yicha bir-necha marotaba ustunlikka erishdilar, bu ularga keng ko‘lamli xujum xarakatlarini olib borish imkoniyatini berdi.

Lekin Amerika-Angliya qo‘mondonligining 1944 yildagi rejalari yil oxirida Filippin va Ryukko orollariga qarshi xarakatlariga qulay sharoit yaratish uchun asta-sekin yaponlarni Marshall, Karolin va Mariin orollaridan xamda Yangi Gvineyadan siqib chiqarishni ko‘zda tutdi.

Tinch okeanining Markaziy qismida jang xarakatlari 2-fevralda boshlandi. Fevral davomida ittifoqchilar qo‘shinlari Marshall orollarini egalladilar.

10 avgustda ular Mariin orollarini egallashni tugatdilar, sentyabrda esa Palau va Ulugi orollarini bosib olish bilan Karolin orollaridagi yapon garnizonlarini qurshab oldilar. 1944 yil 15 iyunda amerikaliklar birinchi marta napalmli aviatsiya bombalarini Saylan orolida qo‘lladilar.

Shu davr mobaynida general Makarturaning operativ guruxi Admiralteystv guruxidagi asosiy orollarni va Yangi Gvineya orolining katta qismini egalladi.

Ittifoqchilar qo‘shinlarining Yangi Gvineya orollari g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga chiqishlari va ular tomonlaridan Morotay orollarining bosib olinishi, Filippin orollarini egallash uchun operatsiyalarni o‘tkazishga qulay sharoit yaratdi. Filippin orollarini 14-yapon armiyasi (6 ta diviziya, 1 ta brigada) mudofaa etayotgan edi. Xavo xujumlaridan ximoya etish uchun ular, 600 tagacha baza, 120 ta atrofida avianosets samolyotlarini jalb etishlari mumkin edi. Filippin rayonida yirik XXK yo‘q edi.

Amerika qo‘mondonligi avval. Leyte orolini, keyin qolgan orollarni egallashga qaror qildi. Bu vazifani bajarish uchun 6-Amerika armiyasi va ikkita zaxira diviziyalari (200 ming odam), 3-, 7-flotlar (885 tagacha kemalar, jumladan 30 ta avianosetslar) va 1580 ta samolyotlar (1280 tasi avianosetslarda) jalb etildi.

Desant tushurilishi 20 oktyabrda kema artilleriyasi va aviatsiya zarbalari to‘suvi ostida boshlandi. Yapon qo‘mondonligi vaziyatni tiklash uchun flotning asosiy kuchlari bilan (9 ta linkor, 4 ta avianosets, 19 ta kreyserlar va 33 ta eskadra minonosetslari) yashirincha Filippin orollariga chiqishga va to‘satdan ittifoqchilar flotiga zarba berishga qaror qildi. Lekin yaponlarning orollar tomon xarakatlanayotganligini Amerika razvedkasi o‘z vaqtida aniqladi.

1944 yil 23-25 oktyabrlarda Engano burnining sharqida Samar orolida Surigao ko‘rfazida flotning janglari keng qanot yoydi. Bu Ikkinchi jaxon urushidagi eng katta dengiz jangi bo‘lib, unda dengiz jangini olib borish taktikasidagi katta o‘zgarishlar ko‘zga tashlandi. Yaponiya floti, dushmandan avianosetslar bo‘yicha kuchsizligi sababli, liniyachi kemalar va kreyserlarning zarba berish kuchlaridan maksimal foydalanishni maqsad qilib qo‘ydi. Amerika floti avianosets aviatsiyalari bo‘yicha ustunlikka erishgan bo‘lib, yapon kemalariga, ular yaqinlashib kelgunlariga qadar zarba berish imkoniyatiga ega edi. Bundan tashqari, radiolokatsion texnika bo‘yicha ustunlik, amerikaliklarga boshqaruvni, razvedkani yaxshi tashkil etish, xamda jangni tungi sharoitlarda samarali olib borish imkoniyatni berdi.

Bu ustunlikdan foydalangan Amerika floti dushmanni tor-mor etdi. Uch kunda yaponlar 4 ta avianosetsini, 3 ta liniyachi kemalarini, 10 ta kreyserlarini, 11 ta esminetslarini yo‘qotdilar. Dengiz jangining oqibati butun desant operatsiyasi taqdirini xal etdi. 22-dekabrda Leyta orolidagi yapon garnizoni kapitulyasiya qildi.

Shunday qilib, 1944 yil oxirida Harbiy xarakatlar Tinch okeani zonasidan Janubiy Xitoy daryosiga va Yaponiyaning yaqin bo‘sag‘alariga o‘tkazildi.

Osiyo qit’asida yaponlar 1944 yilda o‘z bosqinchilik maqsadlarini amalga oshira olmadilar. Xitoyda keng quloch yoygan partizanlar xarakati va Xitoy qo‘shinlarining faol xarakatlari yaponlarning Markaziy Xitoyni okkupatsiya qilish rejalarini barbod etdi.

Ittifoqchilar qo‘shinlari Birmalik vatanparvarlar bilan xamkorlikda shimoliy Birmani yaponlardan tozaladilar. Xindixitoy va Indoneziyada xalq ozodlik xarakatlari keng qanot yoydi. Ayniqsa Yaponiyaning Harbiy-siyosiy vaziyatining yomonlashuviga, agressiya bo‘yicha uning sherigi xisoblangan Germaniyaning xalokat yoqasida qolganligi va uning Yaponiyaga xar qanday yordam ko‘rsatish imkoniyatidan maxrum etilganligi katta ta’sir ko‘rsatdi.

Yaponiya xali xam yirik qruqlikdagi qo‘shinlarga, katta odamlar va strategik xom ashyo zaxiralariga ega bo‘lib, qurolini qo‘yib mag‘lubiyatni tan olgisi kelmas edi.

Ittifoqchilar qo‘mondonligi 1946 yilning baxorigacha, uzoq vaqt urush olib borishni ko‘zda tutdi, lekin ularning kerakli miqdordagi quruqlikdagi qo‘shinlari mintaqada yqo‘ edi. SHuning uchun AQSH va Angliya xukumatlari Yalta konferensiyasidan oldin SSSRdan yordam so‘rab murojaat etishga majbur bo‘ldilar. Sovet Ittifoqi, Ikkinchi jaxon urushini tezroq tugatish va Osiyo xalqlarini yaponlar qulligidan xalos bo‘lishlariga yordam berish maqsadida, fashistlar kapitulyasiyasidan keyin uch oy o‘tgach Yaponiga qarshi urushga kirishga rozilik bergan edi.

Bunday quvvatlovga tayangan Amerika-Angliya qo‘shinlari, Filippin orollari arxipelagida jangovar xaraktlarni boshladilar va bu xarakatlar 1945 yilning 5-iyuligacha davom etdi. Filippin orollari uchun janglar davrida, Ivodzuma orolini egallash maqsadida operatsiya o‘tkazildi. Ushbu orollarning egallanishi bilan Amerika xavo kuchlari, bevosita Yaponiya xududlariga xavo atakalarini kuchaytirish uchun qo‘shimcha aerodromlarga ega bo‘ldilar.

Shu bilan bir vaqtda Tinch okeanidagi Okinava orolini egallash uchun eng yirik operatsiyalardan biri o‘tkazildi. Bu orol metropoliya va Osiyo qit’asi bo‘sag‘alarida joylashgan bo‘lib, aerodromlarni qurishga qulay va flot uchun yakor to‘xtash joylariga ega edi, bu erda yirik quruqlikdagi qo‘shinlarni joylashtirish imkoniyati katta edi. Orolni 90 mingta atrofida yapon qo‘shinlari mudofaa qildi. Xavodan ularni 250 ta samolyotlar ximoya etib turdi.

Ittifoqchilar qo‘mondonligining rejasi,orolni bosib olish uchun yirik desantni orolning kuchsiz ximoyalangan g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga tushurishni ko‘zda tutdi. Keyinchalik xujumni

sharqiy, shimoliy va janubiy yo‘nalishlarda rivojlantirib, dushman kuchlarini bo‘laklarga bo‘lib tashlab, keyin ularni tor-mor etish ko‘zda tutildi. Operatsiyani o‘tkazish uchun 10-Amerika armiyasi (4 ta pd, 3 ta dengiz piyodalari diviziyalari), 5-Aamerika floti, Angliya avinosets birlashmalari-xammasi bo‘lib 450 ming odam, 13717 ta jangovar va yordamchi kemalar va 1727 ta samolyotlar jalb etildi.

1-aprelda, kuchli artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin orolning g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga desant tushurilishi boshlandi. Kunning oxirida 50 mingtagacha odamlar va 200 ta suzuvchi tanklarni tushurishga muvaffaq bo‘lindi. 5- aprelda qo‘shinlar dushman garnizonini bo‘laklarga bo‘lib tashlab orolning sharqiy qirg‘oq bo‘ylariga etdilar. Yaponlarning, desant operatsiyasini, o‘z flotlarining kam sonli kuchlari va kamikadzelardan tashkil topgan samolyotlar ekipajlarini ommaviy qo‘llab, operatsiyani barbod etish uchun xarakatlari amalga oshmadi. 22-iyunda orol ittifoqchilar tomonidan to‘lig‘icha bosib olindi.

Okinava orolini bosib olish bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiya ittifoqchilarning Tinch okeani xavzalaridagi so‘nggi operatsiyalari bo‘ldi, shundan keyin metropoliya orollariga bostirib kirish uchun tayyorgarlik ko‘rila boshlandi.

Shu vaqtga kelib, Yaponiyaning axvoli butkul yomonlashib ketdi. gitlerchilar Germaniyasi kapitulyasiya qildi va Yaponiya yakkalinib qoldi. Xalq ozodlik xarakatlari qariyib butun Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarini qamrab oldi.

Sovet Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirishga tayyorlana boshladi. Shunga qaramasdan 1945 yil 6 va 9 avgust kunlarida AQSH xumron doiralarining buyruqlariga ko‘ra Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaxarlariga atom bombalari tashlandi. Atom bombalarining qo‘llanishi Harbiy-nuqtai nazaridan xech-bir kerakligi yo‘q edi. Shu bilan birga atom bombalarining qo‘llanishi Yaponiyani kapitulyasiya etgan asosiy omil emas edi. Faqat Yaponiyaning asosiy zarbdor kuchi bo‘lgan Kvantun armiyasining tor-mor etilishi va Manchjuriya va Koreyadagi muxim iqtisodiy bazalarning qo‘ldan ketishi, 1945 yil 2-sentyabrda Yaponiyaning so‘zsiz kapitulyasiya to‘g‘risidagi aktni imzolashga majbur etdi va shu bilan Ikkinchi jaxon urushi tugadi.

Tinch okeanidagi Harbiy xarakatlar o‘z xarakteri va olib borilish xususiyatiga ko‘ra Evropada olib borilgan urushlardan ancha qolishar edi. Ittifoqchilar tomonidan bu xarakatlarda 4 ta dala armiyalari, uchta flot, uchta xavo armiyalari xamda quruqlikdagi qo‘shinlar, Harbiy dengiz va xavo kuchlarining aloxida birlashmalari va qismlari qatnashdilar.

Harbiy xarakatlar shuni ko‘rsatdiki, operativ va strategik vazifalar odatda, Qurolli Kuchlar xamma turlarining birgalikdagi xarakatlari bilan xal etildi. Urush xarakatlari avval AQSH va Angliyada xukm surgan flotda liniyachi kemalarning bosh rolni o‘ynash nazariyasini bekor qildi. Ularninig o‘rnini tez xarakatlanuvchi avianosetslar egalladi. Ko‘pgina dengiz janglari va to‘qnashuvlarida jangning oqibatini avianosetslar aviatsiyasi xal etdi.

Ittifoqchilar qo‘shinlarining jangovar xarakatlari, Tinch okeani xavzalarida jangovar desant operatsiyalarini tayyorlash va olib borish bo‘yicha Harbiy tarixning ayrim ochilmagan qirralarini ochib berdi. Dengiz desant operatsiyalarining ko‘pchiligida ishtirok etgan quruqlikdagi qo‘shinlar bir-ikkita diviziyadan oshmadi. Faqat aloxida yirik operatsiyalarda (Leyte, Luson va Okinava orollarini bosib olishda) quruqlikdagi qo‘shinlar diviziyalarining soni ettitaga etdi. Lekin xamma xollarda xam quruqlikdagi qo‘shinlarning xarakatlari yirik aviatsiya va flotning kuchlari bilan qo‘llab-quvvatlanib turildi. Operatsiyalarga tayyorgarlik 2-3 oy davomida olib borildi. Bunda asosiy e’tibor razvedkani tashkil etishga, xavoda xukmronlikka erishishga va zarbani to‘satdan berishga qaratildi.

Desant tushurish rayoni aniqlanayotganda, aerodrom va Harbiy dengiz bazalarini tezlik bilan qurish uchun qulay, bitta ikkita orollar tanlanar edi. Ular egallanganidan keyin boshqa orollarning egallanishi yoki qurshovga olinishi amalga oshirilar edi. Bu, kuch va vositalarni ommalashtirishga imkon yaratib, dushman ustidan qat’iy ustunlikni ta’minlar edi.

Dengiz desantini tushurish artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin, odatda ertalabki soatlarda, qiqqa muddatlarda amalga oshirilar edi. Diviziya 2-6 km li, armiya korpusi 4-12 km li uchastkalarda tushurildi. Qism va birlashmalarning jangovar tartiblari bir eshelonda qurildi. Desant tushurilganidan keyin xujum surati pasayib ketar edi, ayrim sutkalarda u yuzlab metrlarni

tashkil etar edi. Bu xammasi ittifoqchilar qo‘shinlarining chakalakzorlarda jang olib borishga tayyor emasliklari, tekis, ravon yo‘llarga bog‘lanib qolganliklari, ularning qat’iysizliklari va o‘ta extiyotkorliklari bilan tushuntiriladi. YApon piyodalarining fanatlarcha qat’iy qarshiliklari, ularning chakalakzorlar, tog‘liklar va tungi sharoitlardan moxirona foydalanishlari xam muxim omillardan biridir.

Dengiz desanti tushurilishini ta’minlashda juda ko‘p avianos aviatsiyalari jalb qilindi (1500-2100 tagacha samolyotlar).

Kam sonli dala artilleriyasi desant operatsiyalarida qo‘llanildi. Bu etishmovchilikni ittifoqchilar qo‘mondonligi aviatsiya va kema artilleriyasi zarbalari bilan to‘ldirishga xarakat qildi.

Desant tushurilishida birinchi eshelonlar safida suzuvchi tanklar keng qo‘llanildi, platsdarmlarni egallash va ushlab turishda piyodalarning imkoniyatlari ancha oshdi. Zirщli tank birlashmalari, Harbiy xarakatlar teatrining xususiyatiga ko‘ra keng qo‘llanilmadi.

Tinch okeani orollari oralig‘idagi masofalar kattaligi uchun ittifoqchilar flotining xarakatlanuvchi bazalarda joylashishi, ya’ni suzuvchi doklardagi birlashmalar, ustaxonalar, tankerlar, moddiy zaxiralar transport kemalari katta rol o‘ynadi.

Tinch okeanidagi urushlarda cheklangan masshtablarda yangi kurash vositalari (atom bombasi, napalmlar, reaktiv snaryadlar), avvaldan ma’lum, lekin ancha takomillashgan vositalar (radiolokatsion, radionavigatsion vositalar, suzib yuruvchi omborlar va ustaxonalar va xar xil desant vositalari) qo‘llanildi. Bu vositalarning ko‘pchiligi urushdan keyingi yillarda o‘zlarining keyingi rivojlanish bosqichlariga o‘tdilar.

Umuman AQSH va Angliya Qurolli Kuchlari Tinch okeani xavzalaridagi jangovar xarakatlar mobaynida, dengiz desant operatsiyalarini tashkil etish va olib borishda katta tajriba orttirdilar.

Germaniya fashizmi va Yaponiya militarizmi va ularning sheriklari ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba-jaxon tarixidagi va sobiq Sovet Qurolli Kuchlari solnomasining sharafli zarvarag‘idagi olamshumul voqeadir.

Ikkinchi jaxon urushining daxshatli soyasi Evropa, Osiyo va Afrikaning bepoyon xududlarini qamrab, jaxonning xamma okeanlari akvatoriyasini egalladi.

U Shimolda Yangi Er va Alyaska qirg‘oqlarigacha, g‘arbda Evropaning Atlantika qirg‘oqlarigacha, Sharqda Kuril orollarigacha, Janubda Misr, Xindiston va Avstraliya chegaralarigacha etdi. 6 yil davom etgan bu urushda 61 ta davlat ishtirok etdi. Qurolli kurashda 120 mlng. mexnatga yaroqli axoli safarbar etildi. Harbiy xarakatlar 40 ta davlatlar xudud larida olib borildi.

Sobiq Sovet qurolli kuchlari ikkinchi jaxon urushida g‘alabaga erishishda avangard rolini o‘ynadi. 30 dan ortiq front, 50 tagacha armiya operatsiyalarini o‘tkazgan qurolli kuchlar fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga o‘z xissani qo‘shdi, davlat tuprog‘idan dushmanni quvib chiqardi, sharqiy Evropani fashistlarlar qulligidan, shimoliy sharqiy Osiyo xalqlarini Yaponiya militaristlaridan xalos etdi. Shu bilan birga shuni ta’kidlash lozimki, urushda sobiq Sovet xalqi o‘zining 27 milliondan ortiqroq kishisini qurbon berdi.

Shunday qilib, 1945 yilning 2 sentyabrida, fashistlar Germaniyasi tomonidan yondirilgan va 60 milliondan ortiqroq kishining xayotiga zomin bo‘lgan Ikkinchi jaxon urushi alangansi so‘ndirildi.

1941-1945 yillardagi urushning boshlanishi bilan sovet-german fronti Ikkinchi jaxon urushining asosiy fronti bo‘lib qoldi. O‘rta Er dengizi, G‘arbiy-Evropa va Tinch okeani Harbiy – xarakatlar teatrlaridagi jangovar xarakatlar yordamchi xususiyatga ega bo‘ldi va Sovet qurolli kuchlarining g‘alabalarining ta’siri ostida rivojlandi.

Amerika-Angliya koalitsiyasining strategiyasi dushmanni xoldan toydirishga qaratilgan urushni olib borishga yo‘naltirildi. Bunday strategiyaning muxim tamoyili, xam Germaniyaga qarshi, xam Yaponiyaga qarshi Harbiy xarakatlarni birma-bir amalga oshirish bo‘ldi.

Avval bu xarakatlar Germaniya va Yaponidan ancha uzoq bo‘lgan rayonlarda nisbatan kam kuchlar bilan olib borildi. Lekin yirik operatsiyalarni ular urushning yakunlovchi davrida, Qizil Armiyaning g‘alabalari uning oqibatini xal qilganidan keyin boshladilar.

Ikkinchi jaxon urushi paytida ittifoqchilarning qurolli kuchlari, vaziyatning turli sharoitlarida, turli Harbiy-xarakatlar teatrlarida xujum va mudofaa operatsiyalarini olib borishda katta tajribalarga ega bo‘ldilar.

## Yaponiyaning taslim bo‘lishi.

Ittifoqchilar qo‘mondonligining rejasi,orolni bosib olish uchun yirik desantni orolning kuchsiz ximoyalangan g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga tushurishni ko‘zda tutdi. Keyinchalik xujumni sharqiy, shimoliy va janubiy yo‘nalishlarda rivojlantirib, dushman kuchlarini bo‘laklarga bo‘lib tashlab, keyin ularni tor-mor etish ko‘zda tutildi. Operatsiyani o‘tkazish uchun 10-Amerika armiyasi (4 ta pd, 3 ta dengiz piyodalari diviziyalari), 5-Aamerika floti, Angliya avinosets birlashmalari-xammasi bo‘lib 450 ming odam, 13717 ta jangovar va yordamchi kemalar va 1727 ta samolyotlar jalb etildi.

1-aprelda, kuchli artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin orolning g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga desant tushurilishi boshlandi. Kunning oxirida 50 mingtagacha odamlar va 200 ta suzuvchi tanklarni tushurishga muvaffaq bo‘lindi. 5- aprelda qo‘shinlar dushman garnizonini bo‘laklarga bo‘lib tashlab orolning sharqiy qirg‘oq bo‘ylariga etdilar. Yaponlarning, desant operatsiyasini, o‘z flotlarining kam sonli kuchlari va kamikadzelardan tashkil topgan samolyotlar ekipajlarini ommaviy qo‘llab, operatsiyani barbod etish uchun xarakatlari amalga oshmadi. 22-iyunda orol ittifoqchilar tomonidan to‘lig‘icha bosib olindi.

Okinava orolini bosib olish bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiya ittifoqchilarning Tinch okeani xavzalaridagi so‘nggi operatsiyalari bo‘ldi, shundan keyin metropoliya orollariga bostirib kirish uchun tayyorgarlik ko‘rila boshlandi.

Shu vaqtga kelib, Yaponiyaning axvoli butkul yomonlashib ketdi. gitlerchilar Germaniyasi kapitulyasiya qildi va Yaponiya yakkalinib qoldi. Xalq ozodlik xarakatlari qariyib butun Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarini qamrab  oldi.

Sovet Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirishga tayyorlana boshladi. Shunga qaramasdan 1945 yil 6 va 9 avgust kunlarida AQSH xumron doiralarining buyruqlariga ko‘ra Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaxarlariga atom bombalari tashlandi. Atom bombalarining qo‘llanishi Harbiy-nuqtai nazaridan xech-bir kerakligi yo‘q edi. Shu bilan birga atom bombalarining qo‘llanishi Yaponiyani kapitulyasiya etgan asosiy omil emas edi. Faqat Yaponiyaning asosiy zarbdor kuchi bo‘lgan Kvantun armiyasining tor-mor etilishi va Manchjuriya va Koreyadagi muxim iqtisodiy bazalarning qo‘ldan ketishi, 1945 yil 2-sentyabrda Yaponiyaning so‘zsiz kapitulyasiya to‘g‘risidagi aktni imzolashga majbur etdi va shu bilan Ikkinchi jaxon urushi tugadi.

“Birgalikda o’qiymiz” texnikasi

Birgalikda o’qish: Sobiq Sovet qurolli kuchlari ikkinchi jaxon urushida g‘alabaga erishishda avangard rolini o‘ynadi. 30 dan ortiq front, 50 tagacha armiya operatsiyalarini o‘tkazgan qurolli kuchlar fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga o‘z xissani qo‘shdi, davlat tuprog‘idan dushmanni quvib chiqardi, sharqiy Evropani  fashistlarlar qulligidan, shimoliy sharqiy Osiyo xalqlarini Yaponiya militaristlaridan xalos etdi. Shu bilan birga shuni ta’kidlash lozimki, urushda sobiq Sovet xalqi o‘zining 27 milliondan ortiqroq kishisini qurbon berdi.

Xar bir guruxning maqsadi boshqa barcha guruxlar ishtirokchilari mavzu savollarni to’la xajimda egallab olishdan iborat

## Sobiq Sovet va Yapon urushida qo‘llanilgan hujum va mudofaa janglari taktikasi.

2-Uzoq Sharq fronti oldida yapon qo‘shinlari 15 avgustda Xarbinga chekina boshladilar, bu Baykalorti va 1-Uzoq Sharq fronti qo‘shinlarining, ularning front ortiga chiqishlari bilan boshlandi.

Sovet qo‘shinlarining shiddatli xujumlari va Kvantun armiyasining tor-mor etilishi muqarrarligi, yapon qo‘mondonligini Sovet qo‘mondonligining so‘zsiz kapitulyasiya

to‘g‘risidagi talabini bajarishga majbur etdi. 19 avgustdan Manchjuriyada yapon qo‘shinlari frontning katta qismida kapitulyasiya talablarini bajarishni boshladilar, qo‘shinlarimiz Kvantun armiyasi askarlarini qurolsizlantirishga, kapitulyasiya qilgan qo‘shinlarni qabul qilishga va Manchjuriya va Shimoliy Koreyani yapon bosqinchilaridan ozod etishga kirishdilar.

Dushman kapitulyasiyasini qabul qilish, Xarbin, Dalniy, Port-Artur, Pxenyan va boshqa shaxarlarda tartibni saqlash va moddiy boyliklarni ximoya etish uchun xavo desantlari tushurildi va ular joylarda garnizonlarni qurolsizlantirdilar. Manchjuriyada jang xarakatlarining boshlanishi bilan 2-Uzoq Sharq fronti qo‘shinlari (16-armiya) Tinch okean floti bilan birgalikda Janubiy Saxalinni (1945 y. 11-25.08) va Kuril orollarini (1945 y.18.8-1.09) ozod etishga kirishdilar.

Quruqlikdagi va dengiz kuchlarining aviatsiya qo‘llab-quvvatlovidagi birlashgan murakkab xujumlari bilan Janubiy Saxalinda dushman qarshiligi sindirildi va 25 avgustda u erda dushman kuchlarini tor-mor etish tugatildi.

Kuril orollarida joylashgan ommaviy yapon qo‘shinlari Yaponiya Qurolli Kuchlarining Manchjuriyadagi mag‘lubiyati munosobati bilan kapitulyasiya qildi. Yapon qo‘shinlarini qurolsizlantirish va asirga olishni tezlatish uchun xarkatchan otryadlar va xavo desantlari tashkil etilib, boshqa orollarga jo‘natildi.

Kvantun armiyasining tor-mor etilishi bilan Yaponiya xukumati SSSRga, AQSH va Angliyaga xam qarshi urushni davom ettira olmasligini tan oldi va 1945 yil 2-sentyabrda Yapon dengizida, AQSH XDF linkori «Missuri» bortida so‘zsiz kapitulyasiya to‘g‘risidagi aktni imzoladi. Dushmanning kichik-kichik guruxlari bilan janglar 1945 yilning 9-sentyabrigacha davom etdi.

1945 yil 9 avgustdan–2 sentyabrgacha Sovet Armiyasi Manchjuriyada yaponlarning 22 ta diviziyasini tor-mor etdi. Yaponlar, o‘lganlar bilan faqat 800 mingdan ortiq odamini yo‘qotdi, 500 mingdan ortiq askar va ofitserlari asirga olindi, jumladan 148 generallar, xamda Kvantun armiyasining xamma qurol-yarog‘ va anjomlari egallandi.

Shunday qilib, militaristik Yaponiyaning tor-mor etilishi natijasida Ikkinchi jaxon urushning oxirgi o‘chog‘i o‘chirildi, butun dunyoda tinchlik o‘rnatildi va Yaponiyaning SSSRga taщdidi bartaraf etildi. Sovet Ittifoqiga Saxalinning janubiy qismi qaytarildi va Kuril orollari berildi, bu bilan davlatning okean bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi tiklandi va sharqda mudofaa bazasi mustaxkamlandi.

Sovet Qurolli Kuchlarining Uzoq Sharqdagi g‘alabasi Manchjuriya va Shimoliy Koreyani yapon bosqinchilaridan ozod etib, Xitoy xalqining Amerika monopolizmi tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan ichki reaksiyaga qarshi milliy ozodlik xarakati kurashlarining keng yoyilishi va g‘alaba bilan tugashi uchun qulay sharoit yaratdi.

Militaristik Yaponiyaning mag‘lubiyati, mustamlaka qulligiga qarshi o‘z milliy mustaqilligi uchun Xindiston, Xidixitoy, Indoneziya va Janubiy-Sharqiy Osiyodaga boshqa mamlakatlar xalqlarining milliy-ozodlik xarkatlarining keng avj olishiga olib keldi.

1945 yil avgustdagi Sovet Qurolli Kuchlarining Uzoq Sharqdagi jangovar xarakatlari, Sovet Harbiy san’atini, Uzoq SHarq Harbiy-xarakatlar teatrida (XXT) yirik xujum operatsiyalarni tabiatning qiyin sharoitlarida amalga oshirish tajribasi bilan boyitdi.

1941-1945 yillarda Tinch okeanidagi Harbiy xarakatlar YAponiya uchun strategik va siyosiy vaziyatning yomonlashgan sharoitlarida rivojlandi.

1944 yilda Yaponiya xukmron doiralari, Ganges, Markus, Ueyk, Marshal orollarida, Yangi Gvineyaning sharqiy qismida, Indoneziya, Malayi va Birma orollarida kuchli mudofaani yaratib, Amerika-Angliya qo‘shinlarini keyingi xarakatlariga yo‘l qo‘ymaslikka xarakat qildilar. Bu bilan birga Xitoyga xujumni rivojlantirib, Markaziy va Janubiy Xitoyni egallab, Osiyo qit’asida mustaxkam o‘rnashib ular, qo‘shimcha zaxiralarni olib kelib urushni davom ettirishni rejalashtirdilar.

Yaponiyaning quruqlikdagi qo‘shinlarining asosiy kuchlari va aviatsiyasi Xitoyda, Manchjuriyada, Koreyada va metropoliyada jamlandi, faqat 13 ta diviziya, 600 tagacha samolyotlar va birlashgan flot (3 ta liniyachi kemalar, 4 ta avianosetslar, 16 ta kreyserlar, ikkita

suv osti kemalari eskadrasi va bir nechta eskadra minonosetslar) Tinch okeani orollarida joylashdi.

Yaponiya XDF ning asosiy kuchlari xam metropoliyadagi bazalarda va Janubiy-Xitoy bazalarida joylashtirildi.

Umuman yapon qo‘mondonligi tomonidan Tinch okeanida operatsiyalarni o‘tkazish uchun ajratilgan kuchlar etarli emas edi.

Shu vaqtga kelib ittifoqchilar Tinch okeanida dushman ustidan aviatsiya va flot bo‘yicha ustunlikni yaratdilar. Ular 24 tacha atrofida diviziyalarga, 16 ta liniyachi kemalarga, 33 ta kreyserlarga, 35 ta avianosetslarga, 280 ta esminetslarga va 4150 ta samlyotlarga ega edilar. Ularning qo‘shin guruxlari tarqoq xolda emas edi. Tinch okeanining markaziy qismida admiral Nimetsning operativ guruxi xarakatlanayotgan edi (3, 5-desant korpuslari, 3, 5-flotlar va 7-щavo armiyasi). Okeanning Janubiy-G‘arbiy qismida general Makarturaning operativ guruxi joylashdi (6-amerika va 1-avstraliya armiyalari, 7-flot va 5-xavo armiyasi). Angliya-Amerika qo‘shinlari dushman ustidan diviziyalar soni bo‘yicha ikki marta, aviatsiya va XDF bo‘yicha bir-necha marotaba ustunlikka erishdilar, bu ularga keng ko‘lamli xujum xarakatlarini olib borish imkoniyatini berdi.

Lekin Amerika-Angliya qo‘mondonligining 1944 yildagi rejalari yil oxirida Filippin va Ryukko orollariga qarshi xarakatlariga qulay sharoit yaratish uchun asta-sekin yaponlarni Marshall, Karolin va Mariin orollaridan xamda Yangi Gvineyadan siqib chiqarishni ko‘zda tutdi.

Tinch okeanining Markaziy qismida jang xarakatlari 2-fevralda boshlandi. Fevral davomida ittifoqchilar qo‘shinlari Marshall orollarini egalladilar.10 avgustda ular Mariin orollarini egallashni tugatdilar, sentyabrda esa Palau va Ulugi orollarini bosib olish bilan Karolin orollaridagi yapon garnizonlarini qurshab oldilar. 1944 yil 15 iyunda amerikaliklar birinchi marta napalmli aviatsiya bombalarini Saylan orolida qo‘lladilar.

Shu davr mobaynida general Makarturaning operativ guruxi Admiralteystv guruxidagi asosiy orollarni va Yangi Gvineya orolining katta qismini egalladi.

Ittifoqchilar qo‘shinlarining Yangi Gvineya orollari g‘arbiy qirg‘oq bo‘ylariga chiqishlari va ular tomonlaridan Morotay orollarining bosib olinishi, Filippin orollarini egallash uchun operatsiyalarni o‘tkazishga qulay sharoit yaratdi. Filippin orollarini 14-yapon armiyasi (6 ta diviziya, 1 ta brigada) mudofaa etayotgan edi. Xavo xujumlaridan ximoya etish uchun ular, 600 tagacha baza, 120 ta atrofida avianosets samolyotlarini jalb etishlari mumkin edi. Filippin rayonida yirik XXK yo‘q edi.

Amerika qo‘mondonligi avval. Leyte orolini, keyin qolgan orollarni egallashga qaror qildi. Bu vazifani bajarish uchun 6-Amerika armiyasi va ikkita zaxira diviziyalari (200 ming odam), 3-, 7-flotlar (885 tagacha kemalar, jumladan 30 ta avianosetslar) va 1580 ta samolyotlar (1280 tasi avianosetslarda) jalb etildi.

Desant tushurilishi 20 oktyabrda kema artilleriyasi va aviatsiya zarbalari to‘suvi ostida boshlandi. Yapon qo‘mondonligi vaziyatni tiklash uchun flotning asosiy kuchlari bilan (9 ta linkor, 4 ta avianosets, 19 ta kreyserlar va 33 ta eskadra minonosetslari) yashirincha Filippin orollariga chiqishga va to‘satdan ittifoqchilar flotiga zarba berishga qaror qildi. Lekin yaponlarning orollar tomon xarakatlanayotganligini Amerika razvedkasi o‘z vaqtida aniqladi.

1944 yil 23-25 oktyabrlarda Engano burnining sharqida Samar orolida Surigao ko‘rfazida flotning janglari keng qanot yoydi. Bu Ikkinchi jaxon urushidagi eng katta dengiz jangi bo‘lib, unda dengiz jangini olib borish taktikasidagi katta o‘zgarishlar ko‘zga tashlandi. Yaponiya floti, dushmandan avianosetslar bo‘yicha kuchsizligi sababli, liniyachi kemalar va kreyserlarning zarba berish kuchlaridan maksimal foydalanishni maqsad qilib qo‘ydi. Amerika floti avianosets aviatsiyalari bo‘yicha ustunlikka erishgan bo‘lib, yapon kemalariga, ular yaqinlashib kelgunlariga qadar zarba berish imkoniyatiga ega edi. Bundan tashqari, radiolokatsion texnika bo‘yicha ustunlik, amerikaliklarga boshqaruvni, razvedkani yaxshi tashkil etish, xamda jangni tungi sharoitlarda samarali olib borish imkoniyatni berdi.

Bu ustunlikdan foydalangan Amerika floti dushmanni tor-mor etdi. Uch kunda yaponlar 4 ta avianosetsini, 3 ta liniyachi kemalarini, 10 ta kreyserlarini, 11 ta esminetslarini yo‘qotdilar.

Dengiz jangining oqibati butun desant operatsiyasi taqdirini xal etdi. 22-dekabrda Leyta orolidagi yapon garnizoni kapitulyasiya qildi.

Shunday qilib, 1944 yil oxirida Harbiy xarakatlar Tinch okeani zonasidan Janubiy Xitoy daryosiga va Yaponiyaning yaqin bo‘sag‘alariga o‘tkazildi.

Osiyo qit’asida yaponlar 1944 yilda o‘z bosqinchilik maqsadlarini amalga oshira olmadilar. Xitoyda keng quloch yoygan partizanlar xarakati va Xitoy qo‘shinlarining faol xarakatlari yaponlarning Markaziy Xitoyni okkupatsiya qilish rejalarini barbod etdi.

Ittifoqchilar qo‘shinlari Birmalik vatanparvarlar bilan xamkorlikda shimoliy Birmani yaponlardan tozaladilar. Xindixitoy va Indoneziyada xalq ozodlik xarakatlari keng qanot yoydi. Ayniqsa Yaponiyaning Harbiy-siyosiy vaziyatining yomonlashuviga, agressiya bo‘yicha uning sherigi xisoblangan Germaniyaning xalokat yoqasida qolganligi va uning Yaponiyaga xar qanday yordam ko‘rsatish imkoniyatidan maxrum etilganligi katta ta’sir ko‘rsatdi.

Yaponiya xali xam yirik qruqlikdagi qo‘shinlarga, katta odamlar va strategik xom ashyo zaxiralariga ega bo‘lib, qurolini qo‘yib mag‘lubiyatni tan olgisi kelmas edi.

Ittifoqchilar qo‘mondonligi 1946 yilning baxorigacha, uzoq vaqt urush olib borishni ko‘zda tutdi, lekin ularning kerakli miqdordagi quruqlikdagi qo‘shinlari mintaqada yqo‘ edi. Shuning uchun AQSH va Angliya xukumatlari Yalta konferensiyasidan oldin SSSRdan yordam so‘rab murojaat etishga majbur bo‘ldilar. Sovet Ittifoqi, Ikkinchi jaxon urushini tezroq tugatish va Osiyo xalqlarini yaponlar qulligidan xalos bo‘lishlariga yordam berish maqsadida, fashistlar kapitulyasiyasidan keyin uch oy o‘tgach Yaponiga qarshi urushga kirishga rozilik bergan edi.

Bunday quvvatlovga tayangan Amerika-Angliya qo‘shinlari, Filippin orollari arxipelagida jangovar xaraktlarni boshladilar va bu xarakatlar 1945 yilning 5-iyuligacha davom etdi. Filippin orollari uchun janglar davrida, Ivodzuma orolini egallash maqsadida operatsiya o‘tkazildi. Ushbu orollarning egallanishi bilan Amerika xavo kuchlari, bevosita Yaponiya xududlariga xavo atakalarini kuchaytirish uchun qo‘shimcha aerodromlarga ega bo‘ldilar.

## Harbiy siyosiy yakunlar, hujum taktikasining o`ziga xos belgilari.

Harbiy xarakatlar shuni ko‘rsatdiki, operativ va strategik vazifalar odatda, Qurolli Kuchlar xamma turlarining birgalikdagi xarakatlari bilan xal etildi. Urush xarakatlari avval AQSH va Angliyada xukm surgan flotda liniyachi kemalarning bosh rolni o‘ynash nazariyasini bekor qildi. Ularninig o‘rnini tez xarakatlanuvchi avianosetslar egalladi. Ko‘pgina dengiz janglari va to‘qnashuvlarida jangning oqibatini avianosetslar aviatsiyasi xal etdi.

Ittifoqchilar qo‘shinlarining jangovar xarakatlari, Tinch okeani xavzalarida jangovar desant operatsiyalarini tayyorlash va olib borish bo‘yicha Harbiy tarixning ayrim ochilmagan qirralarini ochib berdi. Dengiz desant operatsiyalarining ko‘pchiligida ishtirok etgan quruqlikdagi qo‘shinlar bir-ikkita diviziyadan oshmadi. Faqat aloxida yirik operatsiyalarda (Leyte, Luson va Okinava orollarini bosib olishda) quruqlikdagi qo‘shinlar diviziyalarining soni ettitaga etdi. Lekin xamma xollarda xam quruqlikdagi qo‘shinlarning xarakatlari yirik aviatsiya va flotning kuchlari bilan qo‘llab-quvvatlanib turildi. Operatsiyalarga tayyorgarlik 2-3 oy davomida olib borildi. Bunda asosiy e’tibor razvedkani tashkil etishga, xavoda xukmronlikka erishishga va zarbani to‘satdan berishga qaratildi.

Desant tushurish rayoni aniqlanayotganda, aerodrom va Harbiy dengiz bazalarini tezlik bilan qurish uchun qulay, bitta ikkita orollar tanlanar edi. Ular egallanganidan keyin boshqa orollarning egallanishi yoki qurshovga olinishi amalga oshirilar edi. Bu, kuch va vositalarni ommalashtirishga imkon yaratib, dushman ustidan qat’iy ustunlikni ta’minlar edi.

Dengiz desantini tushurish artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin, odatda ertalabki soatlarda, qiqqa muddatlarda amalga oshirilar edi. Diviziya 2-6 km li, armiya korpusi 4-12 km li uchastkalarda tushurildi. Qism va birlashmalarning jangovar tartiblari bir eshelonda qurildi. Desant tushurilganidan keyin xujum surati pasayib ketar edi, ayrim sutkalarda u yuzlab metrlarni tashkil etar edi. Bu xammasi ittifoqchilar qo‘shinlarining chakalakzorlarda jang olib borishga tayyor emasliklari, tekis, ravon yo‘llarga bog‘lanib qolganliklari, ularning qat’iysizliklari va o‘ta extiyotkorliklari bilan tushuntiriladi. YApon piyodalarining fanatlarcha qat’iy qarshiliklari,

ularning chakalakzorlar, tog‘liklar va tungi sharoitlardan moxirona foydalanishlari xam muxim omillardan biridir.

Dengiz desanti tushurilishini ta’minlashda juda ko‘p avianos aviatsiyalari jalb qilindi (1500-2100 tagacha samolyotlar).

Kam sonli dala artilleriyasi desant operatsiyalarida qo‘llanildi. Bu etishmovchilikni ittifoqchilar qo‘mondonligi aviatsiya va kema artilleriyasi zarbalari bilan to‘ldirishga xarakat qildi.

1. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi (bundan buyon matnda Doktrina deb yuritiladi) harbiy sohada O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlashga doir prinsiplar va yondashuvlarni belgilaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Doktrinaning mudofaa xususiyatiga egaligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi hech bir davlatni o‘zining dushmani deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda, o‘zaro naf ko‘rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo‘li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o‘zgarmasligini tan olish asosida quradi.

3. Doktrina:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi;

mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqadi;

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining va mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga oladi;

harbiy mojarolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha davlat, jamiyat va fuqarolar faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlari va usullarini ochib beradi;

davlatning kelajakda mudofaa sohasidagi siyosati ustuvorliklarini, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) tayyorlash, qurish va qo‘llashning asosiy prinsiplari va yo‘nalishlarini belgilaydi.

4. Doktrinani ro‘yobga chiqarish O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yagona davlat siyosati doirasida amalga oshiriladi.

5. Ushbu Doktrinada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

alohida davr — safarbarlik (harbiy holatni joriy etish) to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan boshlanadigan davr, shu jumladan harbiy harakatlar olib boriladigan butun davr;

davlatning harbiy tashkiloti — davlat boshqaruvi va harbiy boshqaruv organlarining, Qurolli Kuchlarning, urush davri uchun tuziladigan boshqa organlar, muassasalar va maxsus tuzilmalarning, shuningdek mudofaa sanoati kompleksi majmui bo‘lib, ularning birgalikdagi faoliyati harbiy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘ladi;

mamlakat mudofaasi — O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta’minlovchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborotga oid, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlar tizimi;

milliy xavfsizlikka harbiy sohadagi tahdidlar — O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy kuch qo‘llanilishi haqiqatan mumkinligini tavsiflovchi omillar;

noqonuniy qurolli tuzilmalar — milliy va xalqaro qonun hujjatlariga xilof ravishda shakllantirilgan, terrorchilik, ekstremistik, jinoiy yoki boshqa maqsadlarni ko‘zlovchi qurolli birlashmalar, otryadlar, guruhlar;

tahdid soluvchi davr — vaqtning turli muddat davom etadigan, qoida tariqasida, harbiy mojaro boshlanishidan oldinga to‘g‘ri keladigan hamda harbiy-siyosiy vaziyat o‘ta keskinlashganligi bilan tavsiflanadigan davri;

favqulodda vaziyat — odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga zarar etishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

qurolli mojaro — davlatlar o‘rtasidagi (xalqaro qurolli mojaro) yoki bir davlat hududi doirasidagi (ichki qurolli mojaro) qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, milliy, etnik, diniy va boshqa ziddiyatlarni hal etish maqsadidagi miqyosi cheklangan qurolli to‘qnashuv (harakat, janjal) bo‘lib, bunda urush holati e’lon qilinmaydi;

harbiy mojaro — davlatlar o‘rtasidagi yoki davlatning ichki qarama-qarshiliklarini harbiy kuch qo‘llagan holda hal etish shakli bo‘lib, bu qurolli kurash olib borishning barcha turlarini, shu jumladan urushlar va qurolli mojarolarni qamrab oladi;

harbiy tajovuz — O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va davlat mustaqilligiga qarshi harbiy kuchni qo‘llash;

harbiy xavfsizlik — milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlardan himoyalanganlik holati.

## II. DOKTRINANING HARBIY-SIYOSIY JIHATLARI

### 1. Harbiy-siyosiy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari

Globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi — geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o‘zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanadi.

Xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalarining erkin talqin etilishi hamda tanlab qo‘llanilishi hollari tobora kuchaymoqda.

Ushbu bandning birinchi va ikkinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan xavotirli tendensiyalar mavjud tanglik o‘choqlarining global miqyosda keskinlashuviga hamda yangilari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida jahondagi holat tobora murakkablashmoqda, taxmin qilinishi qiyin bo‘lgan xususiyat kasb etmoqda.

O‘z navbatida Markaziy Osiyodagi vaziyatga terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikning saqlanib turgan xavf-xatarlari va tahdidlari salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Afg‘onistondagi noqonuniy qurolli tuzilmalar faoliyati mintaqa xavfsizligiga alohida xavf solmoqda.

7. Mazkur bo‘limning 6-bandida ko‘rsatilgan omillar harbiy kuchni qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda davlatning mudofaa salohiyati harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlarni jilovlash, neytrallashtirish va tugatishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib qoladi.

### 2. Harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan asosiy tahdidlar

8. Harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan asosiy tahdidlar quyidagilardan iborat:

harbiy harakatlarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga ko‘chishi xavfi bo‘lgan harbiy mojarolar;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi yaqinida qo‘shinlar turkumlarini mintaqada kuchlar mutanosibligi buzilishiga olib keladigan tarzda hamda O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuzga tayyorgarlik ko‘rilayotganidan darak beradigan tarzda namoyishkorona ko‘paytirish;

O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga va hududiy yaxlitligiga tajovuz qilish;

bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga yoxud qo‘shni davlatlarning chegara oldi tumanlariga tashlash uchun noqonuniy qurolli tuzilmalarni tashkil etish, o‘qitish va qurollantirish;

narkotrafik, qurol-yarog‘, o‘q-dori, zaharli va portlovchi moddalar, qo‘poruvchilik-terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan boshqa vositalar kontrabandasi bilan bog‘liq transchegaraviy va xalqaro uyushgan jinoiy faoliyat;

axborot-kommunikatsiya makonida O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati

9. O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;

davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlash;

Markaziy Osiyoda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni, xavfsizlikni, barqarorlikni va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash;

davlatning harbiy tashkilotini muntazam ravishda rivojlantirish, uni O‘zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga shay holatda saqlab turish.

10. O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplarga asoslangan:

boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni daf etish hollari mustasno;

xavfsizlikning bo‘linmasligi, o‘z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo‘l qo‘yilmasligi;

boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har qanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o‘zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o‘zida saqlab qolish;

mudofaaning etarli darajada bo‘lishi;

harbiy qurilishning zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga monand bo‘lishi;

yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish;

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to‘g‘risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik;

o‘z hududida chet el harbiy bazalari va ob’ektlarining joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

Qurolli Kuchlarning xorijdagi tinchlik o‘rnatish bilan bog‘liq operatsiyalarda va harbiy mojarolarda ishtirok etmasligi;

xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga va o‘ziga xos madaniy tamadduniga tayanish.

11. O‘zbekiston Respublikasi tinchliksevar siyosatni olib borar ekan, harbiy mojarolarning oldini olishda faol ishtirok etishni ustuvor vazifalardan biri deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

a) milliy darajada:

davlat harbiy tashkilotining o‘z maqsadiga muvofiq harakat qilishga shayligini saqlab turish;

o‘z mudofaa sanoati kompleksini va uning ilmiy-ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish;

ijtimoiy institutlarga va hokimiyat organlariga bo‘lgan ishonchga putur etkazishga, shuningdek davlatning ichki ishlariga aralashish maqsadida aholining ommaviy ongiga axborot-mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan ilg‘or texnologik echimlarni va boshqa echimlarni qo‘llash;

b) mintaqaviy darajada:

mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solishga ko‘maklashish, transchegaraviy suv oqimlari resurslaridan foydalanish masalalarini hal etish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini tugallash, ekologik barqarorlikni ta’minlash, favqulodda vaziyatlarga hamda tabiiy va texnogen xususiyatdagi transchegaraviy tahdidlarga e’tibor qaratish yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni ko‘rish;

mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tashqi hamda ichki tahdidlar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularni neytrallashtirish, ekstremizm, terrorizm, uyushgan hamda transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar bilan o‘zaro hamfikrlik va amaliy hamkorlikni mustahkamlash;

mintaqa davlatlari o‘rtasida harbiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish, ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash;

v) xalqaro darajada:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining, boshqa xalqaro tashkilotlar va institutlarning xalqaro xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarida ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining uzoq muddatli manfaatlaridan kelib chiqqan holda manfaatdor mamlakatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va saqlab turish hamda davlatlararo o‘zaro manfaatli, mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yish;

ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik borasidagi global sa’y-harakatlarga ko‘maklashish;

ekstremizm va xalqaro terrorizm ko‘rinishlarining oldini olish va ularga chek qo‘yish;

xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish.

12. O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan o‘z huquqini amalga oshirar ekan, o‘z Qurolli Kuchlarini:

harbiy tajovuzni daf etish;

harbiy sohadagi milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi ekstremizm, terrorizm va boshqa g‘ayriqonuniy ko‘rinishlarga qarshi kurashish;

favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish;

xavfsizlik va huquq-tartibotni ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashish maqsadida qo‘llashi mumkin.

## III. DOKTRINANING HARBIY-STRATEGIK JIHATLARI

### 1. Zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyati

13. Xalqaro harbiy-siyosiy vaziyat beqaror rivojlanayotgan sharoitlarda O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga turli ko‘rinishdagi harbiy mojarolarga uning jalb etilishi ehtimolini istisno etmaydigan tahdidlar saqlanib qolmoqda.

14. Zamonaviy harbiy mojarolarning o‘ziga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

ziddiyatlarni hal etish uchun harbiy kuch ishlatish zarurligi to‘g‘risidagi siyosiy vajlarni va xalqaro jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun oldindan axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatish;

harbiy kuch bilan bir qatorda noharbiy tusdagi (siyosiy, iqtisodiy, axborot-psixologik va boshqa) chora-tadbirlardan faol foydalanish;

yuqori aniqlikka ega qurollarni, radioelektron kurash vositalarini, uchuvchisiz uchish apparatlarini va robotlashtirilgan komplekslarni, tarmoqli avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qo‘llash;

qarshi kurashayotgan tomonlarning butun hududida ob’ektlarning aniq nuqtalarini nishonga urishga qodirlik;

qo‘shinlar turkumlarining yuksak darajada harakatchanligi va etarli darajadaligi;

maxsus operatsiya kuchlarining, noqonuniy qurolli tuzilmalarning, xususiy harbiy kompaniyalar va boshqa yollanma shaxslarning kurash olib borishning qo‘poruvchilik hamda terrorchilik usullaridan foydalanib harbiy mojarolarda faol ishtirok etishi;

mahalliy aholining harbiy mojarolarga keng jalb etilishi va o‘ta zaifligi;

vayron qilinishi keng ko‘lamli favqulodda vaziyatlarni, shu jumladan transchegaraviy favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan muhim davlat infratuzilmasi ob’ektlariga aniq yo‘naltirilgan holda zarba berish (faoliyat ko‘rsatishini buzish);

bir shakldagi harbiy mojaroning tez orada boshqa shakldagisiga o‘zgarishi ehtimolining yuqoriligi.

**Mamlakatni ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari**

15. Harbiy sohada O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta’minlash davlatning bosh vazifalaridan biridir va u ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga oldindan tayyorgarlik ko‘rishdan, ularni jilovlash hamda ularning oldini olishdan iboratdir.

16. Mamlakatni ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

mudofaa vazifalarini hal etish uchun harbiy tashkilotning barcha tarkibiy qismlari muvofiqlashtirilishini va o‘zaro hamkorlikda ishlashini ta’minlash;

harbiy-siyosiy vaziyatning rivojlanish tendensiyalarini monitoring va prognoz qilish hamda milliy xavfsizlikka harbiy sohadagi tahdidlarni neytrallashtirish borasida o‘z vaqtida monand chora-tadbirlar ko‘rish;

mudofaa vazifalarini hal etish uchun qulay siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni saqlab turishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mamlakatning safarbarlik tayyorgarligi, hududni tezkor jihozlash va harbiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

davlat harbiy tashkilotini mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq mudofaa vazifalarini samarali hal etishni ta’minlaydigan tarzda rejali rivojlantirish;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlash tizimini takomillashtirish;

muhim davlat (harbiy) ob’ektlarini qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimlari ishining samaradorligini oshirish;

axborot xavfsizligi tizimini shakllantirish, axborot yordamida faol kurashish shakllari, usullari va vositalarini ishlab chiqish;

davlat harbiy tashkilotining boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

Qurolli Kuchlarga vazifalarni o‘z vaqtida qo‘yish va aniqlashtirish, ularning harakatlarini moddiy-texnikaviy jihatdan har tomonlama ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usini mustahkamlash borasida uzluksiz ish olib borish, shuningdek Qurolli Kuchlarning shaxsiy tarkibini ma’naviy-axloqiy va psixologik jihatdan samarali tayyorlash.

3. Qurolli Kuchlar, ularning asosiy vazifalari va ularni qo‘llash asoslari

17. Qurolli Kuchlar davlat harbiy tashkilotining va mamlakat mudofaa tizimining negizi bo‘lib, harbiy mojarolarni jilovlash hamda ularning oldini olish, shuningdek davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlash uchun mo‘ljallangandir.

Qurolli Kuchlar tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining, boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning tegishli boshqaruv organlari, qo‘shinlari, harbiy tuzilmalari va muassasalari, shuningdek Milliy gvardiya kiradi.

18. Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) tinchlik davrida:
harbiy-siyosiy vaziyatning rivojlanishini doimiy ravishda tizimli tahlil va prognoz qilish;
harbiy sohada milliy xavfsizlikka boʻlgan tahdidlar toʻgʻrisida mamlakat mudofaa tizimining barcha kuchlari va vositalarini oʻz vaqtida ogohlantirish (xabardor qilish);
yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatga va davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq Qurolli Kuchlarning qoʻllanilishini batafsil va monand rejalashtirish;
boshqaruv organlari va qoʻshinlarning (kuchlar va vositalarning) jangovar shayligini hamda jangovar qobiliyatini qurolli mojarolarning oldi olinishini ta’minlaydigan darajada saqlab turish;
urush boshlanishi xavfi tugʻilgan taqdirda Qurolli Kuchlarning strategik jihatdan yoyilishga shayligini ta’minlash;
Oʻzbekiston Respublikasining davlat chegarasini himoya qilish va qoʻriqlash;
muhim davlat (harbiy) ob’ektlari va kommunikatsiyalarini qoʻriqlash hamda mudofaa qilish;
favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish;
favqulodda holat rejimini saqlab turish;
mamlakat hududini tezkorlik bilan jihozlashga va harbiy infratuzilmani rivojlantirishga doir tadbirlarni oʻtkazish;
hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimlarini belgilangan muddatlarda yoyishga hamda tegishli vazifalarni samarali bajarishga shay holda saqlab turish;
buzgʻunchi kuchlarning davlat hokimiyati va boshqaruvi asoslariga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka qarshi yoʻnaltirilgan hamda harbiy xavfsizlikka zarar etkazishga qaratilgan qoʻporuvchilik faoliyatiga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga koʻmaklashish;
boshqaruv organlari va qoʻshinlarning tezkor hamda jangovar tayyorgarlik rejalarini tashkil etish hamda bajarish;
b) tahdid boʻlayotgan davrda:
Qurolli Kuchlarni yuqori darajadagi jangovar shaylikka keltirish boʻyicha kompleks tadbirlarni oʻtkazish;
Qurolli Kuchlarni strategik jihatdan yoyish;
hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimlarini yoyish;
harbiy holat rejimini saqlab turish;
v) urush davrida:
harbiy tajovuzni daf etish va tajovuzkorning qoʻshinlariga zarba berish;
tajovuzkorni Oʻzbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga zid boʻlmagan shartlar asosida harbiy harakatlarni toʻxtatishga majbur qilish.
19. Qurolli Kuchlarni qoʻllash Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining — Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qoʻmondonining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi.
Qurolli Kuchlarni qoʻllash shakllari va usullari haqiqatan yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatni hamda Oʻzbekiston Respublikasiga nisbatan tajovuzkor harakatlar xususiyatini hisobga olgan holda belgilanadi.

**Qurolli Kuchlarning aholini va ob’ektlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish boʻyicha harakatlari**

20. Mamlakatning butun hududida aholini hamda potensial xavfli ob’ektlarni zamonaviy hujum vositalarining shikast etkazuvchi omillari ta’siridan, qoʻporuvchilik-terrorchilik harakatlaridan va favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimi tashkil etiladi.
21. Halokat yuz bergan hududlarda va zarba oʻchoqlarida muhandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy hamda boshqa turdagi razvedka, qidiruv-qutqaruv, evakuatsiya va boshqa shoshilinch ishlarni bajarish, jabrlangan odamlarning hayot faoliyatini birinchi navbatda ta’minlash,

ob’ektlarning faoliyatini tiklash, shuningdek fuqaro muhofazasiga doir qolgan vazifalarni bajarish oldindan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan qo‘shma rejalarga muvofiq Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy hamda ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, fuqaro muhofazasining hududiy va ob’ektlardagi tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi.

5. Mamlakat mudofaasiga va Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish

22. Mamlakat mudofaasiga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy bosh qo‘mondoni amalga oshiradi. U O‘zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining va harbiy qurilishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat harbiy tashkilotining mudofaa vazifalarini hal etish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy, moddiy va boshqa resurslarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini har tomonlama ta’minlash, mudofaa manfaatlarini ko‘zlab mamlakat hududini tezkorlik bilan jihozlash masalalarini hal etadi, Qurolli Kuchlarning qurol-yarog‘, harbiy texnika va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishi hamda ta’minlanishini tashkil etadi, davlat harbiy buyurtmalarini shakllantirish va mudofaa ahamiyatiga molik ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta’minlaydi, mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik tayyorgarligini tashkil etadi, fuqaro muhofazasiga rahbarlikni amalga oshiradi.

24. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida belgilangan doirada mudofaa vazifalarini hal qilishda ishtirok etadi.

25. Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi harbiy tuzilmalarga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyaning markaziy devonlari, shuningdek boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning boshqaruv organlari amalga oshiradi.

Mudofaa vaziri urush davri sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo‘mondonining o‘rinbosari hisoblanadi.

26. Qurolli Kuchlar Bosh shtabi tinchlik davrida mamlakat mudofaasini rejalashtirishning va urush davrida Qurolli Kuchlarni tezkor boshqarishning asosiy organidir.

Tinchlik davrida Qurolli Kuchlar Bosh shtabi tashkiliy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiradi va vazirga bo‘ysunadi, urush davrida esa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo‘mondonining ishchi organiga aylanadi.

27. Harbiy okrug Qurolli Kuchlarning asosiy harbiy-ma’muriy birligi va hududiy umumqo‘shin tezkor-strategik birlashmasi hisoblanadi. Harbiy okrug qo‘mondonligi mamlakatni qurolli himoya qilish manfaatlarini ko‘zlab tinchlik va urush davrida bo‘ysunuvidagi qo‘shinlarni tezkor rejalashtirish hamda boshqarishni, shuningdek Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi va uning hududiy chegaralarida joylashtirilgan barcha harbiy tuzilmalarning belgilangan yo‘nalishda yagona tarzda rejalashtirilishini, muvofiqlashtirilishini va hamkorligini amalga oshiradi.

**Davlat harbiy tashkilotini rivojlantirishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari**

28. Davlat harbiy tashkilotini rivojlantirishning asosiy vazifalari milliy xavfsizlikka harbiy sohada mavjud bo‘lgan va potensial tahdidlarni, zamonaviy harbiy mojarolarning o‘ziga xos xususiyatlarini, harbiy san’at nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini, shuningdek davlatning haqiqiy imkoniyatlari va resurslarini inobatga olgan holda mamlakatning mudofaa tizimini yanada takomillashtirishdan, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini oshirishdan iborat.

29. Davlat harbiy tashkilotini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

harbiy sohada milliy xavfsizlikning ta’minlanishini strategik rejalashtirish davlat tizimini qonunchilik yo‘li bilan tartibga solish samaradorligini oshirish;

mamlakat mudofaasini rejalashtirish tizimini takomillashtirish;

davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlash vazifalariga va iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq davlatning harbiy tashkiloti tuzilmasini, tarkibini hamda tarkibiy qismlari sonini maqbullashtirish;

mamlakatning safarbarlik tayyorgarligini, davlat harbiy tashkilotining faoliyat yuritishini iqtisodiy jihatdan ta’minlash tizimini takomillashtirish;

harbiy fanni rivojlantirish va harbiy xavfsizlikni ta’minlash sohasida qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy jihatdan mustahkam tizimini takomillashtirish;

mudofaaning iqtisodiy, texnologik va harbiy-texnik bazasining asosi sifatida mudofaa sanoati kompleksini bosqichma-bosqich rivojlantirish;

qo‘shinlarni qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnikaning zamonaviy va istiqbolli namunalari bilan qayta jihozlash;

hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimlarini takomillashtirish;

harbiy xizmatchilarni va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishga doir yangi mexanizmlarni ishlab chiqish;

aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali mexanizmlarini mazkur jarayonga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilgan holda amaliyotga joriy etish;

axborot xavfsizligini ta’minlashga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish.

30. Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

harbiy qurilishning milliy va xorijiy tajribasini inobatga olgan holda qo‘shinlar hamda Qurolli Kuchlar harbiy tuzilmalarining tashkil etilishini, tuzilishini va tarkibini takomillashtirish;

qo‘shinlarning jangovar va safarbarlik shayligi, qo‘shinlarning tezkor, jangovar, ma’naviy-ma’rifiy va psixologik tayyorgarligini rejalashtirish hamda tashkil etish, shuningdek ta’lim olgan safarbarlik zaxirasini tayyorlash tizimlarini takomillashtirish;

barcha darajalardagi boshqaruv organlarini maqbullashtirish, qo‘shinlarni va qurol-yarog‘ni boshqarishning yagona himoyalangan axborot-kommunikatsiya tizimlarini shakllantirish;

qo‘shinlarning operatsiyalari va taktik harakatlarini tezkor (jangovar) ta’minlash tuzilmalarini yanada rivojlantirish;

harbiy ta’lim hamda milliy harbiy ilmiy va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini yuksaltirish.

## IV. DOKTRINANING HARBIY-IQTISODIY JIHATLARI

### 1. Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlash asoslari

31. Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlashning maqsadi tinchlik va urush davrida davlat harbiy tashkilotining O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosatini amalga oshirish uchun etarlicha moliyaviy, moddiy-texnikaviy va boshqa resurslarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini qanoatlantirishdan iboratdir.

32. Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlash quyidagi prinsiplarga asoslangan:

a) davlat harbiy tashkilotini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash darajasining mamlakat harbiy xavfsizligi vazifalariga hamda iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiqligi;

b) harbiy-iqtisodiy faoliyatni boshqarishda markazlashtirish;

v) moliyaviy, moddiy-texnikaviy va boshqa resurslarni davlat harbiy tashkilotini tegishli maqsadli dasturlarni ishlab chiqish orqali rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal etishga yo‘naltirish.

33. Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

harbiy va ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulotni etkazib berish hamda ishlab chiqarishga, mamlakat mudofaasi ehtiyojlari uchun ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishga doir davlat buyurtmalarini joylashtirishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini, shuningdek Qurolli Kuchlarni qurol-yarog‘, harbiy hamda maxsus texnikaning modernizatsiya qilingan va istiqbolli namunalari bilan ta’minlash dasturlarini iqtisodiy hamda moliyaviy jihatdan o‘z vaqtida va oqilona ta’minlash;

harbiy xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltiriladigan moliyaviy va moddiy resurslar xarajatlarini maqbullashtirish, davlat harbiy tashkilotining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liq, uyg‘un holda rivojlantirish asosida ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;

qo‘shinlarni va qurol-yarog‘ni boshqarishning unifikatsiya qilingan, himoyalangan axborot-kommunikatsiya tizimlarini razvedka, ogohlantirish, radioelektron kurash tizimlarini, shuningdek yuqori aniqlikdagi nishonga urish vositalarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish uchun iqtisodiy va moliyaviy sharoitlar yaratish;

mamlakatning, Qurolli Kuchlarning va harbiy infratuzilmaning ilmiy-texnikaviy, texnologik va ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish;

harbiy va ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulotdagi, shuningdek ularni ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish texnologiyalaridagi intellektual mulk ob’ektlarining huquqiy himoya qilinishini ta’minlash;

iqtisodiyotning fuqarolarga oid va harbiy sektorlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish hamda davlatning harbiy-iqtisodiy faoliyatini uning harbiy xavfsizligini ta’minlash manfaatlarini ko‘zlab muvofiqlashtirish;

harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining turmush darajasini yuksaltirish, qonun hujjatlarida belgilangan ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirish;

mamlakatning safarbarlik shayligi va safarbarlik tayyorgarligi tizimlarini takomillashtirish;

moddiy vositalar zaxiralarini shakllantirish;

o‘zaro manfaatli xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirish.

34. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tarkibiy qismi bo‘lgan mudofaa byudjeti mamlakat mudofaasini moliyaviy jihatdan ta’minlashning asosidir. Mudofaa byudjeti davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini va davlat harbiy tashkilotining mudofaa vazifalarini hal etish uchun haqiqiy talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

35. Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi harbiy xizmatni o‘tash tartibini, ichki ta’minotini, uy-joy, tibbiy va pensiya ta’minotini takomillashtirishga qaratilgan qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va jamiyatda harbiy xizmatning nufuzi, obro‘si oshirilishini ta’minlaydigan davlat dasturlarini ro‘yobga chiqarishning boshqa ishlab chiqilgan samarali mexanizmlari asosida amalga oshiriladi.

36. Xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik Qurolli Kuchlarni qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnikaning eng yangi hamda istiqbolli namunalari bilan ta’minlash, ularni modernizatsiya qilish, ta’mirlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha vazifalarni hal etish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, mudofaa sanoati kompleksiga chet el investitsiyalari hamda texnologiyalarini jalb etish, shuningdek harbiy, harbiy-texnik kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatiga muvofiq tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

### 2. Mamlakatning safarbarlik tayyorgarligi

37. O‘zbekiston Respublikasi safarbarlik tayyorgarligining asosiy maqsadi iqtisodiyotni, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, hududlarni, aholini va Qurolli Kuchlarni harbiy tajovuzning daf etilishini ta’minlashga hamda urush davrida davlat va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirishga tayyorlashdan iborat.

38. Mamlakat safarbarlik tayyorgarligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik sohasidagi qonunchilik va normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish hamda takomillashtirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida mulk shaklidan va idoraviy mansubligidan qat’i nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini belgilash;

mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik rejasini shakllantirish;

harbiy va fuqarolar uchun mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi (ta’mirlovchi) ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hamda joylashtirishga doir asosli qarorlar va rejalarni, davlatning moddiy zaxiralarini, fuqaro muhofazasi ob’ektlari va mol-mulkini jamlash normativlarini, shuningdek alohida davrda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishiga doir ko‘rsatkichlar ishlanmalarini ishlab chiqish;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga alohida davrda mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha safarbarlik topshiriqlarini belgilash;

iqtisodiyotni boshqarish tizimining alohida davrda barqaror faoliyat ko‘rsatishga shayligini ta’minlash;

urush davrida iqtisodiyotning barqaror faoliyat ko‘rsatishini va aholining hayot faoliyatini ta’minlaydigan davlat infratuzilma ob’ektlarini rivojlantirish;

urush davrida Qurolli Kuchlarga topshirish uchun yoki mamlakat iqtisodiyoti manfaatlarini ko‘zlab foydalanish uchun mo‘ljallangan maxsus tuzilmalar va muassasalarni tashkil etish hamda shay holatda saqlab turish;

davlat zaxiralarida moddiy boyliklar zaxiralarini shakllantirish;

moliya va soliq tizimlarining urush davrida faoliyat ko‘rsatishga shayligini ta’minlash;

Qurolli Kuchlarning safarbar holda yoyilishini va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga shay holatga keltirilishini har tomonlama ta’minlash.

**Mamlakatning mudofaa sanoati kompleksi**

39. Qurolli Kuchlarning qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnikaning modernizatsiya qilingan hamda istiqbolli namunalariga, shuningdek boshqa harbiy-texnikaviy mol-mulkka bo‘lgan talab-ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo‘ljallangan mudofaa sanoati kompleksini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish mamlakat mudofaasining iqtisodiy, texnologik va harbiy-texnikaviy bazasining asosini tashkil etadi.

40. Mamlakat mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

mudofaa sanoati korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining samarali ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi o‘rta muddatli dasturlarni amalga oshirish;

harbiy-texnikaviy yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini shakllantirish hamda o‘tkazishning davlat tizimini joriy etish;

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va manfaatdor xorijiy sheriklar bilan kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish;

harbiy maqsadga mo‘ljallangan mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish, ta’mirlash va modernizatsiya qilish sohasidagi talab yuqori bo‘lgan texnologiyalarni o‘zlashtirish;

boshqaruv kadrlarini, ilmiy, muhandis-texnik va ishchi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish, iqtisodiyotning harbiy sektoridagi mehnat faoliyatining jozibadorligini oshirish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi ijtimoiy chora-tadbirlarni joriy etish.

Harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlar ko‘rinishlarining o‘zgarishlariga, harbiy-siyosiy vaziyat sharoitlariga, zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga, davlat harbiy tashkilotini rivojlantirish vazifalari va yo‘nalishlariga bog‘liq holda Doktrinaning ayrim qoidalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlashtirilishi hamda to‘ldirilishi mumkin.

Harbiy xavfsizlikni ta’minlash sohasida davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy bosh qo‘mondoni tomonidan aniqlashtiriladi.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,*
*10.01.2018 y., 03/18/458/0537-son)*

2. O’zbek halqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan xissasi.

Fashistlar Germaniyasi 1941 yil yozida, 22 iyun yakshanba kuni tongotarida xujum qilmaslik xaqidagi avgust shartnomasi shartlarini buzib, Sovet Ittifoqi hududiga halokatli urush

olovini yog‘dirdi. Sovet Itiffoqi xalqlari uchun og‘ir sinovlar vaqti va ularning nemis-fashist bosqinchlariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi.

Gitlerchilarning SHarqqa doir harbiy muddaolarini o‘zida gavdalantirgan «Barbarossa» rejasiga «YAshin tezlikdagi urush» g‘oyasi asos bo‘lgan edi. Sovet mamlakatini bitta qisqa muddatli kompaniya jarayonida mag‘lub qilish va urishni 1941 yil kuzida tamomlash mo‘ljallangan edi.

Boshlangan urush davlat xayotining barcha jabhalarida o‘zgarishlar qilishini, shiddatli mudofaa uchun kuch-g‘ayrat sarflashni talab etardi. SHu davr asosiy talabi «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun» degan chaqiriqqa o‘z ifodasini topgan edi.

1941 yil 30 iyunda I.V Stalin boshchiligida Davlat Mudofaa Qo‘mitasi (DMQ) tashkil topdi.boshlangan urush sharoitida sovet Qurolli Kuchlariga strategik ra’barlikni amalga oshiruvchi favqulotda organ sifatida Stalin boshliq Oliy bosh Qo‘mondon Qarorgohi tashkil etildi. 8 avgustda Stalin Oliy Bosh Qo‘mondon lavozimini qabul qildi.

O‘zbek xalqi gitelchilarga qarshi koalitsiyadagi boshqa xalqlar bilan elkama-elka bir safda turib «Jigarrang vabo»ni yo‘q qilishga munosib xissa qo‘shdi. Fashist zolimlariga qarshi kurashda O‘zbekiston xalqining faol ishtirok etishi uning milliy ruhining qudratli nomyon bo‘lishi edi.

Xar kuni frontga jo‘natish istagi bilan harbiy komissarliklarga kelib turgan arizalar oqimi O‘zbekistonliklarning milliy vatanparvarlik ruhi yuksakligining yaqqol namunasi bo‘ldi. Urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga ko‘ngillilaridan 14 mingdan ortiq ariza tushgan.

O‘lka aholisi anoanaviy vatanparvarligining ajoyib namunalaridan biri frontga umumxalq yordami ko‘rastish edi. O‘zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jamg‘armasining tashkil etish xaraktida faol ishtirok etdilar. Mudofaa jamg‘armasiga ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar bir kunlik, fuqarolarning shaxsiy jamg‘armalari, qimmatba’o boyliklar tushdi. O‘zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg‘armasiga jami 649,9 mln. so‘m pul, 22 kg. oltin va kumush topshirdi.

O‘zbekiston harbiy texnika, asosan tank kolonalari va jangovar samolyotlar eskadriliyalari qurilishiga mablag‘ to‘plash harakati keng quloch yozdi. Masalan, «O‘zbekiston kolxozchsi» tank kollonasi qurulishiga respublika kolxozchilari o‘zlarining shaxsiy jamg‘armalaridan 1942 1il dekabrda 260 mln so‘m to‘pladilar.

Aholi tomonidan issiq buyumlar to‘plash va tayyorlash Vatan himoyachilari xaqida insoniy g‘am’o‘rlikning yorqin ko‘rinishi bo‘ldi. Frontga paxtali kurtkalar, kalta po‘stinlar, kigiz etiklar, sharflar, qo‘lqoplar, paypoqlar, jimperlar va ‘okozalar jo‘natib turildi.

Ikkinchi jahon urishi yillarida yaqqol namoyon bo‘lgan qudratli vatanparvarlik o‘zbek xalqining maonaviy sog‘lomligidan dalolat edi. Bolshevistik maomurlarning ko‘pdan-ko‘p ruhiy taosir ko‘rsatishiga, mustabid tuzumining ateistik va maonaviy ekstremizmiga qaramasdan, o‘zbek halqi o‘zining chuqur milliy-maonaviy negizlarini saqlab qoldi. Bular uning ko‘p ming yillik tarixi va insonparvarlik anoanalariga, umuminsoniy va milliy qadriyatlariga uzviy ravishda singib ketgan edi.

**G‘alaba yo‘lidagi mashaqqatli mehnat.**

Sovet-German urushi boshlang‘ich davrining eng murakkab va maosuliyati vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solishdan iborat edi.

SHuni aytish kerakki, mamlakat xalq xo‘jaligini qayta qurish og‘ir sharoitlarda kechdi. Moddiy, moliyaviy va mexnat resusrlarini front e’tiyojlariga muvoffiq qayta taqsimlash, harbiy ma’sulotlar ishlab chiqarishni qisqartirishi, ishlab chiqarishni g‘arbdan ko‘chirish uni mamlakat ichkarisidan rayonlarda tezlik bilan ishga tushirish zarur edi. Bularning hammasi faqat ‘addan tashqari qisqa muddatlarda, shu jumladan, ko‘pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni bosqinchilar bosib olgan bir sharoitda amalga oshirish kerak edi.

26 iyundan boshlab mamlkatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish ‘aftasida 11 soatgacha uzaytirildi. ‘aqiqatda esa u 12-14 soatga etar edi. Taotilga chiqish bekor qilindi. Bu hol

ishchi xizmatchilarni sonini ko‘paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari ‘ajmini taxminan 1/3 ga oshirish imkonini berdi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo‘yildi. Korxonalardan o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa ‘ukm qilinardi.

Kadrlarning keskin suratda tanqisligi, sanoat ‘om ashyosi, yoqilg‘i, dastgohlar, asboblar ni’oyatda etishmasligiga qaramsdan, 1941 yil dekabrga kelib, Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi boshqa 230 ta korxona mudofaa ma’sulotlari bera boshladi.

Ittifoqning g‘arbiy viloyatlaridan respublikaga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, montaj qilish va g‘oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish O‘zbekistonliklardan katta kuch-g‘ayrat sarf etishni talb qilardi. O‘zbekistonga hammasi bo‘lib 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilindi. 1941 yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarning qariyib 50 tasi ishga tushirildi.Sanoat ishlab chiqarishga xotin-qizlar ayniqsa faol jalb qilindi. Agar 1940 yilda sanoatda ishlovchilar orasidagi xotin-qizlar salomog‘i 34% tashkil etgan bo‘lsa, 1942 yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘sib,63,5% ga etdi.

Ochlik va ni’oyatda charchab-toliqishdan sillasi qurishga qaramasdan sanoat xodimlari fronti qurol-yarog‘, jangovar texnika, moddiy resurslar bilan taominlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solardilar. Ular urush davomida frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo‘q qiluvchi qurol, 60 mingga YAqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1mln. dona granat, 300 mingta parshyut, 5 ta bronepoezd, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom, kir yuvish poezdi, 2200 ta ko‘chma oshxona va boshqa ko‘pgina harbiy anjomlar etkazib berdilar. Bu O‘zbekiston xalqini o‘zi emay-ichmay, dushmanni tor-mor qilish uchun umumxalq kurashga qo‘shgan munosib hissasi edi.

**O‘zbek xalqining yuksak gumanizmi**.

O‘zbek xalqi SHarq maonaviyatining eng yaxshi anoanalariga amal qilib, urushning ayanchli yillarida ittifoqning dushman vaqtincha bosib olgan hududlaridagi aholiga do‘stona bag‘rini keng ochdi, o‘z yurtidan ayrilgan quvg‘inlarni, urush qurbonlarini qalb xarorati bilan isitdi, ularni g‘am’o‘rlik va me’mondo‘stlik bilan ko‘nglini ko‘tardi, qardosh xalqlarga iqtisodiyotni tiklashda va madaniy qurilishni yo‘lga qo‘yishda yordam berdi. Respublika aholisining o‘zi qayg‘uli urush yillarida ni’oyatda nochor yashashiga qaramasdan shunday yordam qo‘lini cho‘zdi.

Mamlakatning dushman vaqtincha bosib olgan hududlarini va front YAqinidagi tumanlarni tashlab chiqqan dastlabki o‘n minglab kishilar respublikaga 1941 yilning yozidayoq kela boshlagan edi. O‘zbekiston urush yillari Rossiyaning bosib olingan rayonlaridan - Ukraninadan, Belorussiyadan hammasi bo‘lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi.

Respublika shaharlari va qishloqlari aholisi bu erga kelgan fuqarolarni me’mondo‘stlik bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar joy berib, o‘zi siqilib yashadi, ko‘chib kelganlarni to‘ydirish uchun oxirgi bo‘lak nonini ham bo‘lib berdi, ular uchun poyabzal, kiyim-bosh to‘pladi, ko‘chirib keltirilganlarga yordam berish maqsadida Farg‘ona viloyati mehnatkashlarining tashabbusi bilan shaharlarga don, savzavot, kartoshka go‘sht ma’sulotlari ortilgan karvonlar etib kela boshladi.

O‘zbekiston aholisi ota-onasidan va uyidan ajratgan bolalarni ayniqsa samimiy g‘am’o‘rlik bilan qabul qildi. «Sen etim emassan!» o‘zbek shoirining qalb qaoridan otilib chiqqan bu samimiy so‘zlar butun o‘zbek xalqining ‘ayajonli xis-tuyg‘ularini ifodalar edi. O‘zbekistonliklar baxtsiz bolalarni o‘z quchog‘iga olish, ularning ko‘nglini ko‘tarish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish uchun qo‘laridan kelgan narsalarni ham qildilar.

Urush boshlangandan keyin darhol respublika xukumatining gospital bazasini tashkil etishga kirishildi. Evakuatsiya qilingan gospitallarga Toshkentdagi va O‘zbekistonning boshqa yirik shaharlaridagi eng yaxshi binolar ajratib berildi. 1942 yilning oxirida O‘zbekiston hududida 113 ta ekakuatsiya gospitali joylashtirlgan edi.

O‘zbekiston tibbiyot xodimlarining qa’ramonana mehnati va jamoatchilikning juda katta yordami tufayli respublika gospitallarida bo‘lgan yarador askarlar va ofitserlarning

aksariyat ko‘pchiligi o‘z sog‘lig‘ini tiklab, yana safga qaytdilar. 1941-1942 yillar mobaynida O‘zbekistonning evakuatsiya gospitallaridan 100 mingga YAqin yarador va bemorlar davolangan edi. Ulardan 88 ming kishi davolanishni muvaffaqiyatli o‘tkazdi.

O‘zbekistonliklar urush frontlarida yarador bo‘lgan jangchilarni chuqur samimiy e’tibor va qalb xarorati bilan qurshab oldilar. Aslida, O‘zbekiston urush yillarida umumittifoq gospitaliga aylangan edi. Bu erda yuzlarcha turli-tuman tibbiy muassalar shifoxonalar, ilmiy tadqiqot muassasalari ish olib bordi.

**O‘zbekistonliklarning urush jangohlaridagi jasoratlari**

O‘zbekistonliklar ikkinchi jahon urush frontlarida ona yurtlari uchun olib borilganayovsiz janglarda, kuchli va makkor dushmanga qarshi qonli urushda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qa’ramonlik va mardlik, qo‘lda qurol bilan jonajon zaminni himoya qila olishlik butun qudrati bilan namoyon bo‘ldi.

Eng yangi tarixiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ikkinchi jahon urushda O‘zbekistonda 1 mln 433230 kishi qatnashdi. «Bir qaraganda, - deb taokidlagan edi I.Karimov, - bu raqam uncha katta tuyulmasligi mumkin», lekin «1941 yilda O‘zbekiston aholisi bor-yo‘g‘i… 6,5 million kishi ekanligi eslasak, respublika xalqi boshiga tushgan sinovning naqadar katta ekani yaqqol ko‘rinadi».

Bosqinchilarga qarshi qo‘lga qurol olib jang qilgan O‘zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan 263005 kishi halok bo‘lgan qolgan.

1941 yilning kuziga kelib, frontdagi vaziyat hamon nemislar foydasiga hal bo‘layotgan edi. Dushman Moskvaga zo‘r berib YAqinlashib keldi. 1941 yil 5 dekabrda Moskva ostonalaridagi jangda burilish pallasi boshlandi. 1942 yil yanvariga kelib dushman 100-250 km orqali uloqtirib tashlandi.

Moskva himoyachilarining jangovar saflaridaO‘zbekiston vakillari ham munosib o‘rin egalladilar. Masalan, mudofaa jangchilarining borishida Turkiston harbiy okrugida tashkil etilgan 316 o‘qchi diviziyasi mislsiz jasorat ko‘rsatdi. Toshkentdagi harbiy va harbiy-siyosiy bilim yurtlarining 180 nafar tinglovchilari diviziyaning qo‘mondonlik va siyosiy tarkibning tashkil etdi. Diviziyaga general-mayor I.V.Panfilov qo‘mondonlik qildi. Jangovar harakatlar mobaynida panfilovchilar 114 ta tank, 26 mingdan ortiq askar va oiferlarni 5 ta samolyotni va boshqa ko‘pgina texnikani ishdan chiqardilar.

1942 yil qishki xujum kunlarida o‘zbek xalqining shonli farzandi Qo‘chqor Turdiev bir necha marta mardlik va jasorat ko‘rsatgan. 1942 yil may oyida Sovet Ittifoqi qa’ramoni degan unvoniga sazovor bo‘ldi.

Volga va Don daryolari so’illarida o‘zbek jangchilaridan A’ad Bobomurotov birgina jangchining o‘zida 4 ta dushman tankini yo‘q qilgan. Boboqul Abzalov esa 51 fashistni er tishlatdi. G‘arbiy frontdan Qo‘ziboev, Toshpo‘latov, Abdurasulov va boshqalar ham botir jangchilar shuxratiga ‘aqli ravishda sazovor bo‘ldilar.

Orel-Kursk jangida Sovet Ittifoqi qa’ramni Ahmadjon SHukurov, Mansur Abdullin, Ataulla Soli’ov o‘z nomlarini so‘nmas shon-shuxratga burkadilar. Minglab O‘zbekistonlik jangchilar orden va medallar bilan mukofotlandi. Dneprni kechib o‘tishi va bunda fidokorlik qa’ramonlik ko‘rsatganliklari uchun hammasi bo‘lib 100 ta hamyurtimiz Sovet Ittifoqi Qa’ramoni unvoniga sazovor bo‘ldilar.

Fashizmga qarshi kurashning barcha frontlarida bo‘lgani kabi partizanlar harakatida ham o‘zbek xalqining shonli farzandlari faol ishtirok etdilar. 2-Leningrad partizanlar brigadasi tarkibida bo‘lgan vatandoshlarimizdan Odamboy Murotov, Nig‘mon Rajabov,YUnus Nigmatullin dushman garnizonini yo‘q qilishdagi operatsiyada qatnashib 650 nemis askari va ofitseri, yirik o‘q dori ombori va 13 ta zotni yo‘q qildilar.

Belorus partizanlari orasida ‘aqli ravishda obro‘ eotiborga ega bo‘lgan Mamadali Topiboldiev jangovar jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qa’ramoni degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekistonlik partizanlar Ukraina tuprog‘ida yuksak shon-shavkat namunalarini ko‘rsatdilar. Ular S.A.Kovpak, A.N.Saburov, A.F.Fyodorov va boshqalarning Ukraina hududida

jang qilgan partizan qismlari, harbiy qo‘shinlari otryadlarida jang qildilar. O‘zbekistonlik jangchilarning jasoratlari ikkinchi jahon urushi tarixidan muhim va o‘chmas sahifa bo‘lib qoldi.

## 13-14-mavzu: XX asr oxiri XXI asr boshidagi lokal urushlar tajribasi va ulardan kelib chiqadigan xulosalar.

Reja

1. XX asr oxiri XXI asr boshidagi lokal urushlar tajribasi va ulardan kelib chiqadigan xulosalar.
2.Jahondagi lokal urushlar.
3.Afg’onistondagi 1979-1989 yillardagi urush sabablari

Vaqti:2 soat;
Joyi:O‘quv xonasi;
Uslubi: Tushuntirish, so‘zlab berish, ko‘rsatish;
Shakli: ma’ruza.

XXI asr boshlaridagi harbiy harakatlarni o’tkazish va takomillashtirish usullari.




ҲАРБИЙ МОЖАРО
Давлатлар , давлат ичидаги – ижтимоий гурухлар, этник ва диний жамиятлар ўртасидаги ҳарбий куч воситаси ишлатилган тўқнашув, ўзаро кураш
Қуролли кураш
Ҳарбий фан предмети . Урушнинг таркибий асоси.
Бутун моддий оламда (ерда,хавода,сувда, сув остида ва коинотда) турли масштабда ўтказиладиган ҳарбий харакатлар йиғиндиси бўлиб, урушнинг стратегик (ҳарбий-техник) томонини белгилайди
ХХ-АСРДА ҚУРОЛЛИ КУРАШЛАР ЭВОЛЮЦИЯСИ
40- йиллар
50-чи – 60-чи йиллар
70-80-чи йиллар
80-йиллардан
ИЛМИЙ-ТЕХНИК РИВОЖЛАНИШ ДИНАМИКАСИ
Харбий техника ва қурол яратиш технологиясига физика ва химия қонунларини тадбиқ этилиши
Харбий техника ва қурол яратиш технологиясига физика ва химия қонунларини тадбиқ этилиши
Харбий техника ва қурол яратиш технологиясига физика ва химия қонунларини тадбиқ этилиши
Харбий техника ва қурол яратиш технологиясига физика ва химия қонунларини тадбиқ этилиши
ХАРБИЙ ТЕХНИКА ВА ҚУРОЛЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ
1-авлод қуролларини такомиллаштириш
Ядро-ракета қуролини пайдо бўлиши, 2-авлод қуролини яратилиши
Давлат ахамиятига молик бўлган мураккаб қурол тизимини яратиш (ПВО, РКО ва х.к.),2-авлод қуролини яратилиши, АСУ
Харбий техника ва қурол яратиш технологиясига физика ва химия қонунларини тадбиқ этилиши
ҚУРОЛЛИ КУРАШ ШАКЛ ВА УСУЛЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ
Қўшилма ва ҳарбий қисмларнинг ўт очиш қудрати ва харакатчанлигининг ортиши
ҚК нинг янги турларини қўллаш шаклларини, континентлар аро ҳарбий харакат қилиш йўлларини ишлаб чиқиш
Ҳарбий харакатлар қатламининг коинотгача кенгайиши, мураккаб қурол тизимларнини кенг кўламда қўлланилиши
Мавжуд қуролларни тубдан қайта ишлаб чиқиш ва қуролли курашнинг янги шаклини пайдо бўлиши (Ахборот)
5


6


ДАВЛАТНИНГ ҲАРБИЙ ҚУРИЛИШИ
Қуролли Кучларнинг қурилиши
Уруш холатида Қуролли Кучларни қўллашни режалаштириш
Ҳарбий ҳаракатларнинг усул ва шакллари
Сафарбарликни амалга оширишнинг кўлами ва тартиби
Қўшинларнинг жанговар ва тезкор тайёргарлиги
ҚК ва аҳолининг руҳий-психологик тайёрлиги
Ҳудудларни ҳарбий масала жихатдан тайёрлаш
Ҳарбий хавфсизлик бўйича бошқарув фаолиятини амалга ошириш
хушёрлик
Доимий жанговар шайлик
КЕЛАЖАК УРУШЛАРИНИНГ ХАРАКТЕРИ ВА МАЗМУНИ
Ҳарбий тўқнашувлар характери истиқболини белгилаш қуйидаги имкониятларни беради:
• Қандай душман билан ва ҳарбий тўқнашувнинг қайси турига тайёрланиш кераклиги хақидаги тасаввурни;
• ҚК, ҳарбий маъмурият ва ташкилотлар олдида қандай вазфаларни бажариш турибди;
• Уларни қурилишини қандай амалга ошириш керак.
7


1990 йилларда
100 дан ортиқ уруш бўлиб ўтди;
90 та мамлакат қатнашди;
9 миллионгача одам халок бўлди ;
Ҳар йили ўртача 35 та уруш бўлиб ўтди.
11




## ҲАРБИЙ СОҲА ИНҚИЛОБИ

Олтинчи авлод

Янги физик тамойиллар бўйича ишлаб чиқилган,юқори аниқликда зарба берувчи ва мудофаа қуроли, ахборот технологиялари қуроли, радиоэлектрон кураш олиб бориш куч ва воситалари.

**Урушнинг асосий мақсади** – ҳар қандай давлатни яқин алоқага киришмасдан иқтисодини йўққа чиқариш, агрессордан олис ҳар қандай масофадан туриб унга зарба бериш.



# УРУШ АВЛОДЛАРИ

12-13- аср.
18-19-аср .
20-аср
1945 й.
2007-
2010 й.

### БИРИНЧИ АВЛОД

Совуқ қурол-яроқлар. Қўл билан жанг қилиш, курашиш.
Пиёда ва отлиқ бўлинма ва қисмларнинг жанги.
**Асосий мақсад** – душманни қириб ташлаш,уни қуроли ва бойликларига эгалик қилиш.

### ИККИНЧИ АВЛОД

Порох, силлиқ стволли қурол. Пиёда аскарлари бўлинмалари, қисм ва қўшилмаларининг хандақлардан (окопдан) фойдаонган ҳода жанг қилиши.
Денгиз кучларининг денгизнинг қирғоқ қисмларида ҳарбий ҳаракатлар олиб бориши.
**Асосий мақсад** – душманни қириб ташлаш, уни худуди ва бойликларига эгалик қилиш.

### УЧИНЧИ АВЛОД

Ўйма стволли, кўп ўқ отувчи, ўқ отувчилиги, аниқлиги ва ўқ отиш узоқлиги оширилган қуролнинг пайдо бўлиши. Умумқўшин қисмларининг траншея ва окоплардатуриб уруш олиб бориши. Океан ва денгизларда жанговар ҳаракатлар.
**Асосий мақсад**– душман қуролли кучларини яксон қилиб, уни иқтисодига путур етказиш ва сиёсий тузимни ағдариш.

### ТЎРТИНЧИ АВЛОД

Автоматик ва реактив қурол, қуруқликдаги қўшинлар, танклар, авиация, флот, транспорт ва алоқа воситалари. Қуруқликдаги траншея урушлари, қўшинларга ҳаводан зарба бериш, океан ва денгизлардаги урушлар.
**Асосий мақсад**– душман Қуролли Кучларини яксон қилиб, унинг иқтисодий қудратини синдириш , мавжуд сиёсий тузимни ағдариш.

### БЕШИНЧИ АВЛОД

Ядровий уруш шубхасиз катта - стратегик масштабларни қамраб олади.
**Унда ҳеч қандай мақсаларга эришилмайди** – ядро қуролини биринчи бўлиб қўллаган томон, иккинчисидан кейинроқ халок бўлади.

### ОЛТИНЧИ АВЛОД

Янги физик тамойиллар бўйича ишлаб чиқилган,юқори аниқликда зарба берувчи ва мудофаа қуроли, ахборот технологиялари қуроли, радиоэлектрон кураш олиб бориш куч ва воситалари.
**Урушнинг асосий мақсади** – ҳар қандай давлатни яқин алоқага киришмасдан иқтисодини йўққа чиқариш, агрессордан олис ҳар қандай масофадан туриб унга зарба бериш.





## Tinchlikparvar operatsiyalari o’tkazish bo’yichaa tajribalarni kuzatib borish evolyutsiyasi.

Chet-el harbiy eksportlarining fikrlaricha zamonaviy harbiy to‘qnashuvlarida hamma qo‘shinlarining hamjihatlik bilan jang olib borilishida va eng zaruri avtomatlashtirilgan jangovor aloqa informasiya sistemalarini yoki zamonaviy aloqa sistemasidan va zamonaviy oxirgi texnologiya yutuqlaridan foydalanilgan xoldagi qurol va texnikalarini qo‘llash tushuniladi. SHundan kelib chiqqan xolda AQSH QK ga xos dunyoda harbiy jihatdan rivojlangan mamlakatlardan biri AQSH QKlarining asosiy tandensiyasi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki:

--Aloqa sistemasi va dushman xaqida ma’lumot ya’ni informasiyani dushmanga nisbatdan ustuvorligi.

--Dushman QKlariga, aholisiga ongiga psixologik ma’lumotlar bilan ta’sir ko‘rsatish.

--Harbiy xarakatni har taraflama olib borish. YA’ni havo kosmik, quruklikdan, dengizdan va informasional sfera bo‘yicha dushmanning ichkarisiga va hamma yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatish.

--Harbiy operasiyalarni saqlab qolish. Harbiy harakatlarninng asosiy va bosh formalarini, yangi ko‘rinishlarini keltirib chiqarish: Kosmik, raketalariga qarshi informasion psixologik radio elektron, o‘t ochish, robotlashtirish va boshqalar.

--Harbiy xizmatchilar, texnika, qurollarini qisqartirib zamonaviy nishonga aniq uruvchi, avtomatlashtirilgan qurollar bilan foydalanish, ya’ni sifatini oshirish.

Bo‘larning hammasi YUgoslaviya, Afg‘oniston, Iroqda qo‘llanilgan.

Tinchlikparvar operasiyalari o‘tkazish bo‘yicha eksportlarning qarashlari evolyusiyasi.

Oxirgi yillarda xalqaro tinchlikparvar harakatlarining mazmuni muntazam o‘zgardi.

Tinchlikparvar missiyalarini bajaruvchi yaxshi va sifatli qurollangan harbiy kontingentlarining roli sezilarli darajada kuchaydi. Buni biz YUgoslaviya, Kambodja, Afg‘oniston va kechagina Livanda kuzatish mumkin edi.

Ekspertlarning aytishicha tinchlikparvar operasiyalarini ikki katta guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh bu 1945 yildan to 1985 yilgacha, ikkinchi guruh –1985 yildan to hozirgi kungacha.

Birinchi davrdagi tinchlikparvar operasiyalar an’anaviy nom olgan bo‘lib va uch keng darajali harbiy vazifani o‘z ichiga olgan: kuzatuvchi tinchlikni saqlash operasiyalari, va kuch ishlatish usullari. Bunga Koreys urushi (1950-1953), Kongo urushi (1962-1964), misol bo‘ladi.

Tinchlikparvar operasiyani BMT tomonidan amalga oshiriladi. BMTda tinchlikparvar misiyani amalga oshirishning ishlab chiqildi:

-Quroli to‘qnashuvlarni, konfliktlarini keng tus olishiga yo‘l qo‘ymaslik.

-Harbiy harakatlarni to‘xtatish.

-Vaziyatni engillashtirish.

-Ikki tomonni to‘liq kelishuvga olib kelish va harbiy harakatni to‘xtatish.

1945 yildan—1985 yilgacha tinchlikni saqlash bo‘yicha bir necha asosiy prinsiplar tashkil etildi:

-MDXning havfsizlik kengashining majburiy sanksiyasi.

- Tinchlikparvar operasiyalarini o‘tkazish uchun olib borayogan ikki tomonning roziligi.

- Tinchlikparvar qo‘shinlarini boshqarish va qo‘mondonlik qilish bevosita BMT tomonidan tashkil qilish.

- Tinchlikparvar kuchlarni mojorolashayotgan tomoglar zonasiga kirmovchi davlatlardan tuzish.

- Tinchlikparvar kuchlarni neytralligi, hech kim tomonidan emasligi.

-BMT qo‘shinlarida og‘ir texnika va qurollarining o‘qlari va qurolni faqat o‘z himoyasi uchun ishlatish.

Quroli tuzilmalarning taktik harakatlari to‘satdan, qo‘qqisdan harakatlarga asoslangan.

Bu xaqda harbiy fan doktori Sergey Batyushkin islom armiyasining zamonaviy mojarolarida jang olib borish “uslubini” olasiz, kuzatish yo‘li bilan tasdiqlanadi.

Oxirgi 10 yillik davomidagi Afg‘oniston, YUgoslaviya, CHecheniston va Dog‘iston respublikalarida bo‘layotgan voqealar shuni ko‘rsatdiki dushmanning ya’ni noqonuniy qurolli tizimlarining shaxsiy tarkibi, tashkiliy strukturasi o‘zgaruvchandir.

Qurolli tuzilmalarning jamlash (kompletovaniya) prinsipi-hududiydir. Qishloqdan-guruh; yoki kichik otryad; jamoadan-otryad; qurolli tuzilma. SHaxsiy tarkibni yoshi-16 yoshdan 65 yoshgacha.

Guruhning shaxsiy tarkibida- 10 tadan to 50 tagacha odam, kichik otryad- 50 tadan to 100 tagacha, otryad- 100 tadan 500 gacha qurolli tuzilma 500 tadan to 3500 gacha.

Harbiy tuzilmalarning harakatlari bosqinchilik, terroristik aksiya o‘tkazishga asoslangan. Ularning asosiy ob’ektlari: Aloqa liniyalari va elektr tarmoqlari, davlat muassasalari, ho‘jalik korxonalari, maxalliy boshqaruv organlari xodimlari, ziyolilar va harbiy komandirlar.

Bosqinchilik ishlari maxsus tayyorlangan guruh (otryad) tomonidan o‘tkaziladi. Odatda bu guruhlar bir necha guruhlarga bo‘linib har biri o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishadi.

2. Zamonaviy jangda shaxsiy tarkibni ximoya qilish.

SHaxsiy tarkibni dushmano‘qidan himoya qilishda odatiy uslub ya’ni okop, transheya, blendajlardan foydalanish o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bu uslub eng samarali hisoblanadi ammo terroristlar bilan olib boriladigan janglarda o‘q otar qurollardan himoyalanishning yangi uslublaridan foydalanish samarali bo‘lmoqda.

Afg‘oniston, CHechenistonda yig‘ilgan malakalar shuni taqozo qildiki, shaxsiy tarkibning himoyasida o‘z turar joyining doimiy o‘zgaruvchanligi tez quriluvchi qo‘riqlash zastavalari, blokpostlardan foydalanish samarali bo‘lar ekan.

SHu sababdan blokpost, qo‘riqlash zastavalarining qurayotganda okop, transheyalarini qazish bilan birgalikda qo‘l ostidagi materiallardan foydalanish mumkin. Masalan: tuproq, qum bilan to‘ldirilgan qoplar. Qoplar tariqasida istalgan material yangi va eski harbiy kiyim-kechak ishlatilishi mumkin.

Aholini yashaydigan joylarga yaqinroq bo‘lgan istalgan beton blok va beton bo‘lakchalari qurilishlardan olish mumkin.

Snayper o‘qidan himoyalanish uchun sinalgan zamonaviy bronjiletlardan foydalanilmoqda.

Jangovor mashinalarning temir qirqim listlari o‘qlardan yaxshi himoya vositasi hisoblanadi.

Amerika harbiy bazalari Markaziy Osiyoda.

Hozirgi kunga kelib AQSH antiterror kompaniyalarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Gruziya mamlakatlarida o‘zlarini harbiy bazalarini va havo kuchlarini ta’minlash komandalarini tashkil etishdi. Birgina O‘zbekistonda «Xonabod» aviabazasida 1000ga yaqin AQSH harbiylari joylashgan edi lekin 2005 yil O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarilib yuborildi.

Qirg‘izistonning «Manos» aeroportida AQSH harbiylaridan tashqari, Fransuzlar, Italiyaliklar, Ispanlar va boshqa davlatlar harbiy vakillari ushbu bazada joylashgan.

Tojikiston va Turkmanistonda Amerika havo kuchlari komandalari joylashgan bo‘lib, bu komandalar 15 kishidan oshmagan harbiy xizmatchilardan iborat. Ular asosan harbiy samolyotlarni zapravka qilish, yoqilg‘i sotib olish va boshqa ishlar bilan shug‘ullanadi.

Gruziyada AQSH harbiy instruktorlari, Gruzin harbiylarini o‘qitish va ta’minlash dasturi bo‘yicha ishlaydilar. Siyosatchilarni takidlashicha AQSH harbiylarining joylashuvi geografiyasi asosan harbiy samolyotlarini qabul qilish, ta’mirlash va yoqilg‘i quyish bilan birgalikda AQSH samolyotlarini uchish qobiliyatlarini oshirish uchun mo‘ljallangan.

Masalan: «Manos» aerodromida o‘z vaqtida Sobiq Ittifoq armiyasining, ya’ni bombardimonchi aviasiyasining zahiradagi bazasi bo‘lib xizmat qilgan.

SHimoliy Atlantik harbiy bloki (nato) 1949 yil 4 aprel kuni 12 ta davlat a’zolari tashkil etildi: Belgiya, Kanada, Daniya, Fransiya, Islandiya, Italiya Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, AQSH.

Vashingtonda imzolangan NATOning shartnomasida asosan jamoaviy xabarsizlikni ta’minlash, o‘z navbatida Sobiq Ittifoq tomonidan agressiyaga qarshi havfsizlikni ta’minlash ko‘zda tutilgan. Keyinchalik AQSH davlati Gretsiya vo Tursiya davlatlarini 1952 yilda NATOga a’zo bo‘ldi. 1955 yilda Germaniya.F.R, 1982 yilda Isroil va kechagina 1999 yilda Pol’sha, CHexiya va Vengriya.

Hozirgi kunga kelib NATOga a’zolar soni 26taga etdi, 2004 yilda NATOga 3ta Boltiqbo‘yi davlatlari; Estoniya, Latviya va Litva, shu jumladan Bolgariya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya.

Talabgor davlatlardan; Albaniya va Moldaviya, Rossiya va Ukraina davlatlari NATO bilan o‘ziga xos aloqalarni o‘rnatishdi.

## Maxalliy urushlarning harbiy-siyosiy tasnifi.

CHet el harbiy ekspertlarning fikriga ko‘ra, zamonaviy mahalliy (lokal) urush va qurolli to‘qnashularning tavsiflash, ularning harbiy-siyosiy va stretegik maqsadalarini, tarkibi, xususiyati va miqyosini, harbiy kuchlarning halqaro munosabatlarning ijtimoiy tizimida tutgan o‘rni va rolinianiqlash va baholash imkoniyatini beradi.

Modomiki bizni XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi mahalliy urush va qurolli to‘qnashuvlar qiziqtirayotgan bo‘lsa, izlanishlarning asosiga qayday toifa (tushuncha), prinsiplar, usullar va ularning ko‘rsatkichilarini aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hali ham mahalliy urush va qurolli to‘qnashuvlarning quyidagi sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari o‘zining ahamiyatligini yo‘qatgan emas:

-xususiyati;
-harbiy siyosiy maqsadlari;
-harbiy harakatlarning miqyosi;
-qurolli kuchlarni qo‘llashning usul va shakllari;
-ijtimoiy tarkibi;
-halqaro huquq me’yorlariga muvofiqligi;
-to‘qnashuvga jalb qilingan davlatlar soni;
-jangovar harakatlar teatrining xususiyati;
-ekologiyaga ta’silari (oqibatlari) va boshqalar.

Mahalliy urush va qurolli to‘qnashuvlar ilmiy tasniflash uchun avvalom bor urush tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. Urush tushunchasiga birinchi bo‘lib nemets harbiy nazariyachisi Karl fon Klauzevits tomonidan uning “Urush to‘g‘risida” asarida ilmiy tarif bergan, ya’ni urush bu siyosat harakat, amma shu o‘rinda u siyosiy qurol ham, siyosiy munosabatlarning davomi va ularning boshqa vositalar bilan o‘tkazishdir.

Hozirgi kunda urush tushunchasiga turlicha tariflar berilmoqda.

Urush — davlatlar yoki mamlakatlar ittifoqini siyosatining davomi, ijtimoiy guruhlar, millat (xalq)lar, davlatlar o‘rtasidagi nizolarning kuch, odatda, qurolli kuchlar yordamida siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa maqsadlarga erishishidir. Urushda asosiy va hal qiluvchi vosita sifatida qurolli kuchlardan, shuningdek, kurashishning iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy va boshqa vositalaridan foydalaniladi. Urushlar davlatlar olib boradigan ichki va tashqi siyosat natijasidir.

Urushlarning asosiy tarkibi o‘z ichiga qurolli kurashlarni oladi. Qurolli kurashlar – qarama-qarshi tomonlar tomonidan barcha tabiiy muhitlarda (quruqlikda, fazoda, suvda va koinotda) turli xil miqyosdagi harbiy harakatlarni olib borishdir.

Ularning maqsadi – dushmanning quroli kuchlarini tor-mor qilish yoki ularning jangovar qobiliyatiga putur etkazish, uning hududini bostirib olish va dushman davlati hukumatining yoki mamlaktalar ittifoqi rahbariyatini tinchlik sulhini tuzishga majburlash.

Qurolli to‘qnashuvda jangovar harakatlar bilan bir qatorda iqtisodiy, diplomatik, g‘oyaviy, axborot-psixologik va boshqa kurash shakllari qo‘llaniladi. Har qanday urushning boshlanishi oldidan harbiy-iqtisodiy tangliklar bo‘lib o‘tadi.

Urush va qurolli to‘qnashuvlarning tasniflarini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichilariga makon, vaqt, sifat va miqdor ko‘rsatkichilar, hamda ularni hal eti turlari kirdi va ushbu ko‘rsatkichilar zamonaviy harbiy to‘qnashuvlarni tasniflashning asosini tashkil etadi.

Shuni takidlab o‘tish keraki, xorijiy harbiy-tarixiy adabiyotlardi “harbiy mojaro” termini ko‘plab ishlatilmoqda. Harbiy mojaro - har qanday to‘qnashuv, qarama-qarshiliklar, harbiy kuchlarni qo‘llash yo‘li bilan davlatlar, halqlar, katta ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish usulidir. Bu tushuncha keng qamrovli bo‘lib, ko‘proq aniq tushunchalar va ta’riflar keng ko‘lamli masalalarni qamrab oladi. Harbiy mojarolar urushlar (mahalliy, mintaqaviy va keng ko‘lamli) va qurolli mojarolar (to‘qnashuvlar) kiradi.

Zamonaviy urushni (qurolli mojaroni) quyidagi mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin:

-harbiy-siyosiy maqsadlar bo‘yicha – adolatli (BMT nizomiga zid bo‘lmagan, halqaro huquq prinsiplari va me’yorlariga asoslangan, o‘zini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan) va nohaq urush (BMT nizomiga zid bo‘lgan, halqaro huquq prinsiplari va me’yorlariga asoslanmagan, hamda tajovuzkor xususiyatiga ega) ;

-ko‘lamligi bo‘yicha – mahalliy, mintaqaviy, keng ko‘lamli va jahon urushlari;

-dunyo hamjamiyatining qo‘llab-quvvatlash darajasiga ko‘ra – shak-shubhasiz, ma’lub darajada, maqullanmagan, halqaro cheklovlar qo‘llash;

-mojaroda qatnashish xususiyati bo‘yicha – bevosita va bilvosita;

-qarama-qarshi qo‘shinlarning (kuchlarning) sifati bo‘yicha – muntazam, nomuntazam yoki aralash kular, bosqinchi tuzilmalar, davlatga qarshi terroristlarning gruppirovkasi;

qurolli kurashda qo‘llanilgan vositasiga ko‘ra - yadroviy va ommaviy qirg‘in qurollarining boshqa turlarini qo‘llashga, faqat oddiy (an’anaviy) talofat etkazish vositalari qo‘llashga, psixoligik urushlar vositalarini (psixotrop, psixotron va boshqalar) qo‘llash orqali axborot qarama-qarshilik, o‘ta aniqlikdagi qurollar tizimini qo‘llashga;

-keskinligi bo‘yicha – yuqori, o‘rta va past darajali;

-yuqori darajali to‘qnashuv – davlatlar va harbiy koalitsiyalar orasidagi barcha qurol turlarini, shu bilan birga yadro quroligacha, dushmanning butun xududi bo‘ylab qo‘llanishi;

-o‘rtacha darajali to‘qnashuvlar – ikki davlat orasidagi, bunda urush olib borayotgan tomonlar barcha kuch va vositalarini qo‘llashadi, ammo OQQ qo‘llanilmaydi;

-past darajali to‘qnashuvlar (PDT) – cheklangan siyosiy-harbiy kurash bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki ruhiy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan, turli xil bosimlar, ya’ni terrorizm va qo‘zg‘olon harakatlari yordami orqali boshlanadigan, geografik xududi va qo‘llaniladigan qurollar, taktika va zulm o‘tkazish darajasining cheklanganligi.

-hal etishning usulari bo‘yicha – qo‘qqisdan hujum, tajovuzning kengayishi;

-davomiligi bo‘yicha – vaqtinchalik, uzoq davom etadigan (ya’ni – holdan toydirish urushi);

-mojaroning joylashgan xududi bo‘yicha – davlat ichidagi, chegara oldi, mamlakatdan uzoqdagi;

-qo‘shinlarning (kuchlarning) jalb qilish miqdori bo‘yicha – cheklangan harbiy kontingentdan to ikkala tarafdan qo‘shinlarning (kuchlarning) operativ-strategik gruppirovkasigacha;

-urushga mamlakatlarning jalb qilinish soni bo‘yicha – koalitsion (ittifoq), ittifoqni bitti davlat qarshi yoki bitta davlatning boshqa mamlakatga qarshi;

-jangovar harakatlar teatrining xususiyati bo‘yicha – qit’ada, okeanda, dengizda, havoda va koinotda;

-harbiy harakatlarni olib borish usul va shaklllari bo‘yicha – operatsiya, jangovar harakatlar (an’anaviy), partizan, noan’anaviy, tugallanmagan, keng miqyosli, qamalli, pozitsion, manyovrli, maxsus vazifalarni bajaruvchi kuchlarning operatsiyalari, aksilterror va terrorizmga qarshi operatsiyalar.

Urushlar turining quyidagicha aniqlash mumkin:

Jahon urushi – mamlakatlar koalitsiyasi yoki (bloklar,uyushmalar) yoki dunyo hamjamiyatining yirik davlatlari o‘rtasida, butun er shariga yoki uning katta qismiga tarqaydigan

va dunyo hamjamiyatining katta qismining manfaatlariga dahldor global qurolli qarama-qarshilik. Bunday urush o‘ta qat’iy harbiy-siyosiy maqsadlar, yuqori darjadagi keskinlik va jangovar harakatlarning jo‘shqinligi, oddiy yoki barcha talofat etkazish qurollarini (yadroviy) qo‘llash sharoitlarida, jangovar harakatlarning ko‘lami va keskinligi bilan ajraladi, yirik vayronagarchiliklar, qarama-qarshi tomonlar qurolli kuchlarining va tinch aholi ichida ko‘p sonli qurbonlar olib keladi.

Jahon urushlari qurolli mojaroning, mahalliy yoki mintaqaviy urushlarning tarqalishi natijasi bo‘lishi mumkin va qatnashuvchi davlatlardan katta miqdordagi ma’naviy va moddiy safarbarlikni talab qiladi.

Keng ko‘lamli urush - ikki yoki davlatlarning guruhi o‘rtasidagi urush bo‘lib, uning davom etish jarayonida kurashga qit’adagi (harbiy geografik hududdagi) etakchi mamlakatlarning ko‘p qismini o‘z doirasiga tortib oladi, harbiy harakatlar qit’a jangovar harakatlar teatri, unga tutashgan okean (dengiz) akvatoriyasi va uning ustidagi havo-kosmos bo‘shlig‘i chegarasida olib boriladi.

Mintaqaviy urush - ikki yoki bir necha davlatlar (davlatlar koalitsiyasi) qatnash urush bo‘lib, bunda harbiy harakatlar bir mintaqaning ikki yoki undan ko‘p tarqoq strategik yo‘nalishlarda olib boriladi, va ushbu mintaqada joylashgan ko‘plab davlatlarning manfaatlariga daxldor bo‘lgan urush.

Mintaqaviy urush mahalliy urushning yoki qurolli mojaroning tarqalish natijasi bo‘lishi mumkin.

Mahalliy urush - tushunchasi XIX asrning so‘nggi choragida paydo bo‘lgan. Bu tarixiy davrida er sharini taqsimlashning global siyosatini belgilash turli mamlakatlar o‘rtasida kurashlarning faollashgani bilan xarakterlanadi. Bu urushlar (1898)-Amerika Ispaniya, Rossiya-YAponiya (1904-1905), (1911-1912) Italiya-Turkiya o‘z ichiga oladi. Xitoy (1931), Italo-Fransiya urushi (1935-1936), Ispaniya (1939-1936) urushlari misol bo‘la oladi.

Mahalliy urushlar XX asrning 50-60-yillariga kelib Koreya, Janubiy-SHarqiy Osiyo, YAqin SHarq va dunyoning boshqa mintaqalarida keng tarqala boshladi va ular bugun ham davom etmoqda.

Mahalliy urush - ikki yoki bir necha davlatlar orasidagi o‘zining cheklagan siyosiy maqsadlari va harbiy harakatlarni olib borish miqyosi, hamda faqat ularning milliy, siyosiy, xududiy, etnokonfessional va boshqa qarashlariga daxldordir.

Mahalliy urushlar jangovar harakatlarni hududiy ko‘lamining cheklanganligi, unda qo‘shinlar (kuchlar) sonini uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorining jalb qilinishi, odatda oddiy qurol-yarog‘lar qo‘llanish jihatlari bilan farqlanadi. Mahalliy urrushlarga mamlakat ichidagi va fuqaro urrushlarni ham qo‘shsa bo‘ladi. Bunday urushlarning davomiyligi turlicha bo‘lishi mumkin etishi, ularning miqyosi, keskinligi va yuqori darajadagi jadalligi etakchi davlatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita qatnashishiga bog‘liq.

Fuqaro urushi – bir davlat ichidagi ijtimoiy qarama-qarshilikni echishning keskin usuli bo‘lib, ijtimoiy, etnik, diniy guruhlarning iqtisodiy, siyosiy va boshqa manfaatlarini amalga oshirishdagi qurolli qarama-qarshilikdir. Fuqaro urushlari urushlarning o‘zgacha turining sifatida real ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-diniy va boshqa sabablar paydo bo‘lishi orqali chuqur umummilliy tanglikka olib keladi. Ushbu urush qurolli kurashning turli-tuman shakllarda olib boriladi – qurolli kuchlarning harbiy (jangovar) harakatlari, qurolli qo‘zg‘olon, partizanlar va isyonchilarning kurashi.

Qurolli mojaro - bir davlat ichida yoki qo‘shni davlatlar orasidagi milliy, etnik, diniy va boshqa qarama-qarshiliklarni qurol-yarog‘ vositalari qo‘llash orqali hal etishning bir usul bo‘lib, bunda davlat (davlatlar) urush xususiyatiga ega bo‘lgan o‘ziga xos xolatga o‘tmaydi.

Harbiy harakatlar qurolli mojarolarda, odatda, maydoni chegara bilan cheklangan xududdan tashqariga chiqmaydi. Qurolli to‘qnashuvning asosiy xavfli tomoni shundaki, chunki u mahalliy urushga aylanib ketishi mumkin. Qurolli mojarolarda jangovar harakatlarni yoyilib ketishidan ushlab qolishning asosiy sharoitlari – uni xujum bo‘lgan tomon orqali tez va qat’iy tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Bu mojarolarga chegara oldi to‘qnashuvlar, qurolli to‘qnashuvlar, harbiy aksiyalar, ig‘vogar va boshqa to‘qnashuvlarni kiritish mumkin. Siyosiy, hududiy, diniy, milliy-etnik va boshqa qarama-qarshiliklarni bir mamlakat ichida yoki uning tashqarisida miqyosi bo‘yicha cheklangan oddiy qurollarni qo‘llash orqali olib boriladigan urushning bir turi.

2. Mahalliy urushlarning kelib chiqish sabablari, ulardagi jangovar harakatlarning asosiy shakl va usullari, saboq va xulosalar.

Afg‘oniston hududida bo‘lib o‘tgan urushlar to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, birinchi navbatda Afg‘onistonning Angliya bosqinchilik mustamlaka siyosatiga qarshi 1838-1842, 1878-1880, 1919 yillarda bo‘lib o‘tgan ingliz-afg‘on urushlarini aytib o‘tish joiz.

Demak, Birinchi ingliz-afg‘on urushi (1834-1842 yy.) ingliz qo‘shinlarining (30 mingdan ortiq) Bolan dovoni orqali Qandahor, G‘azni shaharlarini egallab, Qobulga chiqish maqsadida bostirib kirishi bilan boshlandi. Peshovardagi afg‘on kuchlarining bir qismini chalg‘itish uchun Xayber dovoniga yordamchi zarba berildi. Afg‘on armiyasi dushman qo‘shinidan soni (taxm. 15 ming kishi) va qurol-yarog‘i jihatidan sezilarli darajada zaif edi. 1839 yilda inglizlar Qandahor, G‘azni va Qobul shaharlarini egallashdi. Mustamlakachilarning harakatlariga javoban mamlakatda xalq partizan urushi boshlandi. Inglizlar tomonidan qo‘yilgan shoh SHujo o‘ldirildi, istilochi armiya tarqatib yuborildi, uning qoldiqlari Qobuldan chiqib ketdi. 1842 yilda Angliya Afg‘onistonga jazo otryadi yubordi, lekin muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1842 yilning oxirida inglizlar mag‘lubiyatini tan olib, Afg‘oniston hududini tark etishga majbur bo‘ldilar.

Ikkinchi urush (1878-1880 yy.) ingliz qo‘shinlarining (36 ming kishi) 3ta kolonna bo‘lib Xayber, Kurram va Bolan dovonlari orqali bostirib kirishi bilan boshlandi. Son va qurol-yaroq jihatidan zaifroq bo‘lgan afg‘on armiyasi chekinishga majbur bo‘ldi. 1879 yilning yanvar oyida inglizlar Qandahorni egalladilar. 1879 yilining 26 mayida amir YOqubxon Angliya bilan Gandamak sulhini tuzdi, unga binoan Afg‘oniston Angliyaga qaram davlatga aylandi. Bu haqoratomuz sulh Afg‘onistonda noroziliklarni keltirib chiqardi. 1879 yilda xalq qo‘zg‘oloni boshlandi. Afg‘onistondagi ingliz rezidenti o‘ldirildi. 1880 yilning 27 iyul kuni Mayvand yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda afg‘onlar ingliz brigadasini to‘liq yakson qilib tashlashdi. Qobulda inglizlar qo‘zg‘olonchilarning 100 minglik armiyasi tomonidan qurshab olindilar. Afg‘onlarning mardonavor qarshiligi Angliyani Afg‘onistonni bosib olish fikridan voz kechishga va amir Abdurahmon bilan murosaga kelishga majbur qildi. 1880 yildagi kelishuvga asosan Afg‘oniston ichki ishlarida mustaqillikka erishdi, lekin tashqi ishlari Angliya nazorati ostiga tushib qoldi. 1881 yilda Angliya qo‘shinlari mamlakatdan olib chiqib ketildi.

Uchinchi urush (1919 y.) Angliya tomonidan 1919 yilning fevral oyida hokimiyatga kelgan Omonulloxon 1919 yilning 28 fevral kuni Afg‘onistonning mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng boshlandi. 6 may kuni Angliya Afg‘onistonga urush e’lon qildi. Afg‘on muntazam qo‘shinlari (40 ming kishi) Xayber, Vaziriston va Qandahor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlanayotgan 3ta kolonnaga bo‘lingan edi.

Kuch va vositalardagi ustunlik yana, 340 ming armiyaga ega bo‘lgan Angliya tomonida bo‘ldi. Xayber yo‘nalishida bo‘lib o‘tgan jangda inglizlar g‘alaba qozonishga erishdilar. Vaziriston yo‘nalishida esa afg‘onlar inglizlarni mag‘lubiyatga uchratib, 27 may kuni Tol qal’asini qamal qildilar. Chegara qabilalarining inglizlarga qarshi qo‘zg‘onlarining boshlanishi va Hindistondagi ozodlik harakatining kuchayishi mustamlakachilarning ahvolini qiyinlashtirib qo‘ydi.

YUzaga kelgan vaziyat Angliyani urushni davom ettirishdan voz kechishga majbur etdi. 1919 yilning 8 avgust kuni Ravalpindi shahrida dastlabki tinchlik sulhi tuzildi. 1921 yilning oktyabr oyida Angliya va Afg‘oniston o‘rtasida shartnoma tuzildi, bunga ko‘ra Angliya Afg‘onistonni mustaqilligini tan oldi.

Afg‘oniston hududida bo‘lib o‘tgan urushlar to‘g‘risida gapirilganda, 1979-1989 yillarda mamlakatga kirgan sovet qo‘shinlari va Afg‘oniston hukumatining islom qo‘zg‘olonchilariga qarshi urushini alohida ta’kidlab o‘tish kerak.

Ko‘pchilik ekspertlarning fikriga ko‘ra, o‘ttiz yildan beri Afg‘onistonda davom etayotgan fuqarolik urushining asosiy sababi deb, afg‘on jamiyatining turli ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida

avvaldan mavjud bo‘lgan kuchlar muvozanatini buzgan 1978 yilda bo‘lib o‘tgan “savr inqilobi” ko‘rsatiladi.

1978 yildagi aprel voqealari natijasida Afg‘onistonda hokimiyatga Nur Muhammad Taraqiy boshchiligidagi Afg‘oniston xalq demokratik partiyasi keldi. Hokimiyatining dastlabki davrida AXDP o‘z oldiga afg‘on jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida bir qancha ilg‘or o‘zgarishlarni amalga oshirishni maqsad qilib oldi.

SHu bilan birga, islohotlarni amalga oshirishda afg‘on jamiyatining asrlar mobaynida o‘zgarmasdan mavjud bo‘lib kelgan ma’naviy asoslari, urf-odatlari, afg‘on xalqining tabiati va xulq-atvori inobatga olinmadi. Islohotlar keskin choralar bilan amalga oshirildi. Ushbu harakatlarga javoban muxolifatchi kuchlar qurolli qarshilik ko‘rsatishni boshlab yubordilar.

Afg‘oniston rahbariyati muxolifat kuchlarni bo‘ysundirish uchun SSSRga harbiy yordam so‘rab murojaat qiladi.

KPSS MK siyosiy byurosi afg‘on muammosini hal etish uchun Afg‘onistonga qo‘shin kiritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. 1979 yilning 25 dekabr kuni Termiz va Kushka, shuningdek, Moskva – Toshkent – Qobul havo yo‘nalishi orqali Afg‘onistonga sovet qo‘shinlarining cheklangan kontingentini olib kirish boshlandi.

Sovet harbiy-siyosiy rahbariyati tomonidan sovet qurolli chegaralangan kuchlari (SQCHK)ni Afg‘oniston hududiga kiritilishiga uchta asosiy omillarni mavjudligi turtki bo‘ldi:

-mamlakat etkachisini o‘zgartirish va “Xalq” fraksiyasi rahbariyatini “Parcham” fraksiyasi vakillariga almashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan AXDPning siyosiy yo‘nalishini to‘g‘rilash zarurati;

-AXDP tuzumiga ichki va tashqi dushmanlar bilan kurashishda harbiy yordam berish;

-qurollangan afg‘on muxolifatchi otryadlari tomonidan olib borilayotgan jangovar harakatlarni sovet hududiga ko‘chib o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida sovet-afg‘on chegarasi xavfsizligini ta’minlash;

-Afg‘oniston hududiga sovet qurolli chegaralangan kuchlarini kiritishning yuqorida keltirilgan strategik maqsadidan kelib chiqib, sovet qo‘shinlari gruppirovkasi oldida quyidagi asosiy vazifalar turar edi:

Birinchi vazifa X.Amin va uning atrofidagi odamlarni afg‘on davlatini boshqarishdan chetlatishdan iborat edi.

Ikkinchi vazifa qurollangan afg‘on muxolifatchi otryadlarining jangovar ruhini tushirish va xalq hokimiyati organlarining faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida qo‘shinlar gruppirovkasining harbiy qudratini namoyish etish va Afg‘onistonning muhim ma’muriy markazlarida nazorat o‘rnatishni o‘z ichiga olgan edi.

SQCHK oldida turgan uchinchi vazifa, Afg‘oniston qurolli kuchlariga qurollangan afg‘on muxolifatchi otryadlari bilan kurashishda yordam berish, shuningdek, muxolifatchilarning eng faol va yirik tuzilmalariga qarshi operatsiyalar o‘tkazishni ko‘zda tutgan edi.

To‘rtinchi vazifa Pokiston hududidan qurollangan afg‘on muxolifatchi otryadlari a’zolarini hamda qurol-yarog‘ va o‘q-dori ortilgan karvonlarni o‘tishini oldini olish maqsadida afg‘on-pokiston chegarasini yopishni ko‘zda tutgan edi.

Beshinchi vazifa, Afg‘oniston hududidan o‘tgan eng muhim kommunikatsiyalarni qo‘riqlashdan iborat edi.

Oltinchi vazifa SQCHK kiritilgandan so‘ng, Afg‘onstonning shimoliy viloyatlari chegaraoldi tumanlarida o‘zlarining xorijiy markazlari ko‘rsatmalariga binoan sovet hududlarida qo‘poruvchi harakatlarni olib borishga intilayotgan qurollangan afg‘on muxolifatchi otryadlarining faollashuvidan keyin belgilab berildi.

Afg‘oniston hududidagi to‘qqiz yillik urushdagi jangovar harakatlarda 500 ming sovet harbiy xizmatchilari ishtirok etdi. Afg‘onistondagi SQCHKning soni ayrim davrlarda 120 ming kishini tashkil qilgan.

Afg‘onistonda Sovet qo‘shinlarining cheklangan kontingenti tomonidan jangovar harakatlar rejali va rejasiz harakatlar davomida olib borilgan.

Katta hajmdagi operatsiyalarni o‘tkazishdagi harakatlarda quyidagi usul va uslublar qo‘llanilgan:

-aholi punktlari va ko‘k hudularni qurshab olish va ularni keyingi oralab tekshirib chiqish;

-dushmanning omborlarini topish va yo‘q qilish uchun reyd va razvedka-qidiruv harakatlari olib borish;

-bo‘linmalarni vodiy va daralar ostidan jangovar guruhlar himoyasi osti hukmron tepaliklar va cho‘qqilarning ikkala tomonidan harakatlari;

-tog‘ so‘qmoqlaridagi aylanib o‘tidigan otryadlarning pistirma harakatlari;

-dushmanning chekinyapgan va yaqinlashyapgan guruhlariga talofat etkazish maqsadida aviatsiya zarbalari va artilleriya o‘tlari tog‘ning o‘tishi qiyin bo‘lgan hududlariga;

-isyonchilarning chekinyapgan va yaqinlashyapgan ehtimolli yo‘llariga siljiydigan va havodan minalashtirish;

-TakHD zirx guruhi va aylanib o‘tish otryadlari bilan hamkorlikda operatsiyani butun ichkarisi bo‘ylab ommaviy qo‘llash;

-dushmanni vodiy, daralarni har tomonidan va hukmron tepaliklar oldindan qo‘lga olgan holda butunlay tekshirib chiqish yo‘li bilan yakson qilish.

Ushbu harakatlar asosan rejali jangovar harakatldar davomida amalga oshirilgan.

Rejasiz jangovar harakatlarda quyidagi jangovar harakatlarning usul va shakllari qo‘llanilgan:

-qo‘shilma va qismlarning alohida jangovar harakatlari;

-kuchaytirilgan batalonlarning reyd harakatlari;

-navbatchi bo‘linmalarni javobgarlik zonalaridagi jangovar harakatlari;

-karvonlarni tekshirish;

-karvon marshrutlari va dushmanning davlat ichkarisidagi ko‘chishlar yo‘llarida pistirma harakatlar;

-bosqinlar;

-dushman guruhlari va alohida ob’ektlarini yakson qilish uchun aviatsiyaning mustaqil jangovar harakatlari;

-er osti suv tarmoqlari – kyarizlar hududlardagi harakatlar.

Sovet qo‘shinlari olib chiqib ketilgandan keyin ham Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilmadi. 1970 yillardan buyon Afg‘onistonda davom etayotgan va 1992 yili Najibulla tuzimining qulashi bilan ham tugamagan fuqarolar urushi eng avjiga chiqqan davrda 1994 yili Qandahorda “Tolibon” harakati vujudga keldi.

1994 yilning noyabr oyi boshida toliblar Qandahorni o‘z nazoratiga oldilar. SHundan keyin “Tolibon” Afg‘oniston bo‘ylab o‘z yurishlarini davom ettirdi. “Tolibon”ning qo‘lab-quvvatlanishi, ularning korrupsiyaga qarshi kurashlari va nazorat ostidagi hududlarida tartib o‘rnatishdagi muvoffaqiyatlari bilan izohlanadi. 1994 yilning oxiriga kelib “Tolibon”safida 12 ming kishini bor edi. 1995 yilning fevral oyi ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu harakat 30 ta afg‘on viloyatining 9 ni qo‘lga kiritdi, bu vaqtda toliblarning soni 25 ming kishini tashkil etardi.

1995 yilning sentyabr oyida “Tolibon” kuchlari Hirotni egalladilar, oktyabr oyda esa Qobulga yangitdan xujumni boshladilar. 1996 yilning 11 sentyabr oyida toliblar Jalolobodni, undan keyin, 26 sentyabr kuni Qobulni egalladilar.

Toliblar 1997 yilning may va sentyabr oylarida mamlakatning shimolidagi muhim strategik shahar – Mozori-SHarifni egallashga urinib ko‘rdilar, ammo har ikkalasida ham toliblarning Mozori-SHarifdagi hukmronligi bir necha kun davom etib, undan keyin isyon ko‘targan mahalliy axoli ularni shahardan quvib chiqardilar.

SHimoliy alyans nomi bilan tanilgan aksiltolib kuchlar 1997 yilning iyun oyida Afg‘onistonni qutqarish uchun Birlashgan islom frontini tuzganliklarini e’lon qildilar. Lekin 1998 yili “Tolibon” harakati SHimoliy alyans qo‘shinlarini chekintirib, Afg‘oniston hududunining 90 foizini nazorat ostiga oldilar.

1998 yilning avgust oyida Mozori-SHarif qaytadan “Tolibon” harakati tomonidan egallandi va 1997 yildagi qo‘zg‘olonni qaytarilishiga yo‘l qo‘ymaslikka chaqiruvchi ommaviy qatllar bilan davom etdi.

2001-2003 yillardagi aksilterroristik operatsiyasi.

2011 yilning 11 sentyabr kuni terrorchi-shahidlar bir nechta fuqaro samolyotlarini qo‘lga oldilar va ularni Nyu-Yorkdagi xalqaro savdo markazining ikkita osmono‘par binolari hamda Vashingtondagi Pentagonning binosiga yo‘naltirdilar.

**2011 yilning 11 sentyabr kunidagi fojeali voqealardan bir kun o‘tib BMT Xavfsizlik Kengashi 1368-sonli Rezolyusiyani qabul qildi. AQSH hududida amalga oshirilgan terroristik harakatlarni qoralab, Xavfsizlik Kengashi barcha davlatlarni «terroristik hujumlarning ijrochilari, tashkilotchilari va homiylarini jazoga tortish uchun harakatlarni birlashtirishga» chaqirdi.**

**AQSH Prezidenti va Kongressi «Al-Qoida» islom tashkiloti rahbariyati va infratuzilmasini yo‘q qilish hamda Afg‘onistondagi «Tolibon» islom harakatining hukmron tuzumini ag‘darib tashlash maqsadida aksilterroristik operatsiyasini o‘tkazishga qaror qildi.**

**Rejalashtirilgan operatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari:**

**-«Al-Qoida» tashkilotining etakchilari va «Tolibon» islom harakati rahbarlarini bevosita yo‘q qilishga yo‘naltirilganligi;**

**-jangovar harakatlar olib borish bilan birga parallel ravishda Afg‘oniston halqiga gumanitar yordam ko‘rsatish – ya’ni «birgalikda harakat, ammo qarshi emas» qoidasiga amal qilgan holda;**

**-AQSH manfaatlari maqsadlariga to‘g‘ri keladigan Tolibon harakatga qarshi kuchlarning qurollangan tuzilmalari bilan birga Afg‘oniston Islom armiyasi (AIA) harbiy tashkilotini yo‘q qilish;**

**-maxsus operatsiyalar kuchlarini keng ko‘lamda razvedka vazifalarini bajarish, hamda bevosita jangovar harakatlar olib borishga qo‘llash.**

**«Bukilmas ozodlik» operatsiyasini tayyorlash yigirma to‘rt sutka davom etdi. Uni amalga oshirish uchun AQSH, Buyuk Britaniya va ularning ittifoqchilari qo‘shinlarini o‘z ichiga olgan 30 ming kishilik gruppirovka to‘plandi.**

**Arabiston dengizi havzasida, Pokiston qirg‘oqlari yaqinida AQSH HDKning 5 va 7 flotlari kemalaridan iborat harbiy-dengiz zarbdor guruh, shuningdek, aviatsiya zarbdor guruhi tuzildi. Gruppirovka tarkibiga Buyuk Britaniya (SAS) maxsus bo‘linmalari kiritildi. Koalitsiya kuchlarining umumiy soni 15 ming kishiga yaqin SHimoliy alyansning otryadlari qo‘llab-quvvatlab turdi. Alyansning tuzilmalari 50 dona zirhli texnika va ikki dona «Mi-24» vertolyoti bilan qurollangan edilar.**

**2001 yilning oktyabr oyida Buyukbritaniyaning Hind okeanidagi – Diego Garsiya orolidagi aviabazada, YAqin SHarqda joylashgan boshqa aerodrom va aviabazalarda, hamda Arabiston dengizi va Fors ko‘rfazidagi aviatashuvchi guruhda 200 ta samolyotlari, 25 ga yaqin strategik bombardimonchi samolyotlar, 10 ga yaqin razvedka samolyotlari jamlangan edi. Dengiz havzasidagi jangovar kemalar eskadrasi 50 donani tashkil qildi, ulardan 10 tasi qanotli raketalarni tashuvchi kemalar edi.**

**Tolibon harbiy kuchlariga keladigan bo‘lsak, ularning ixtiyorida ham muntazam, ham nomuntazam qurollangan tuzilmalar bor edi. Tolibonlarning nomuntazam tuzilamalari soni 120 ming kishini tashkil qilgan. Keyingi jangovar harakatlar shuni ko‘rsatdiki, Tolibonning nomuntazam tuzilmalari o‘zlarining harakatchanligi va shaxsiy tarkibning yuqori axloqiy-ruhiy barqarorligi sababli, jangovar qobiliyati yuqoriroq va aksilterror koalitsiya bo‘linmalariga qarshilik ko‘rsatgan asosiy kuch bo‘lib qoldi.**

**«Bukilmas ozodlik» operatsiyasi havo hujum operatsiyasidan boshlandi va o‘ttiz uch kun davom etdi (2001 yilning 7 oktyabridan 9 noyabrigacha). Havodan zarbalar, birinchi navbatda, «Al-Qoida» va toliblarning asosiy bazalari joylashgan janubiy hududlarga berildi. Zarbalar HHM vositalari, radar va «er-havo» raketa majmualari, aerodromlar,**

**qo‘mondonlik markazlari va aloqa punktlari, shuningdek, Qobul, Qandahor, Jalolobod, Hirot atrofidagi terrorchilarni tayyorlash lagerlariga berildi.**

**AQSH va Buyuk Britaniya aviatsiyasi 5-7 ming metrdan kam bo‘lmagan balandlikda va sutkaning tungi vaqtida harakatlandi, bu esa toliblarning zenit qurollaridan nishonga olish imkoniyatidan mahrum qildi.**

**Quruqlikdagi hujum operatsiyasi o‘ttiz to‘qqiz kun davom etdi (2001 yilning 9 noyabridan 17 dekabrigacha). Afg‘onistonni toliblardan ozod etishdagi janglarning asosiy qiyinchiligi «SHimoliy alyans» qo‘shinlari zimmasiga tushdi. Jangovar harakatlar olib borayotgan «SHimoliy alyans» qo‘shinlari tarkibiga operatsiya qo‘mondonligi tomonidan AQSH maxsus operatsiya kuchlarining harbiy xizmatchilari kiritildi. Ko‘rsatilgan guruhlarning bajarishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalari: tolibonlar joylashgan hudud to‘g‘risida ma’lumot yig‘ish, SHimoliy alyansning hujum qilayotgan otryadlari bilan aloqa va hamkorlikni ushlab turish, KMKning raketa-bomba zarbalarini yo‘naltirish va nishonlarni belgilab berishdan iborat edi.**

**Alyans kuchlari Tolibon va «Al-Qoida» tomonidan kuchli qurolli qarshilikka uchramadilar. Toliblar mahalliy xalq orasiga singib ketishdi va tog‘larda ishonchli tarzda yashirinib olishdi.**

**Aksilterroristik operatsiya mobaynida psixologik urush arsenalidagi harakatlardan keng foydalanildi. Butun operatsiya mobaynida 27 mln. aholisi bor Afg‘oniston hududiga targ‘ibot ruhidagi 80 mln. varaqa tarqatildi. AQSH samolyotlaridan afg‘on shahar va qishloqlariga fiksatsiya qilingan qabul chastotali minglab portativ radiopriyomniklar tashlandi.**

Toliblarga qarshi kuchlarning AQSH HHK ko‘magidagi xujumlari natijasida toliblarning qarshiligi bostirildi va ular partizan urushi taktikasiga o‘tdilar.

«Bukilmas ozodlik» operatsiyasi uni tashabbuskorlari uchun kam yo‘qotishlar bilan yakunlandi. Lekin uning vazifalari ko‘p jihatdan bajarilmay qoldi.

Shu o‘rinda Afg‘onitondagi “Tolibon” islom harakati va “Al-qoida” tashkilotining jangarilari tomonidan qo‘llanilgan taktik harakatlarga to‘xtalib o‘tsak.

Ular tomonidan asosan quyidagi taktik g‘arakatlar qo‘o‘lanilgan;

-tayanch punktlarini olisdagi va chiqib bo‘lmaydigan xududlarida o‘rnatishdi;

-granatomyot va merganlik o‘t ochishlar va huquqiy tartib organlari vakillariga qo‘qqisdan hujumlar;

-pistirmalar, transport kolonnlariga qarshi qo‘lbola yasalgan portlovchi vositalardan foydalanib hujumlar;

-o‘g‘irlashlar va davlat xizmatchilari va hokimiyat tarafdor bo‘lgan qabila etakchilarini o‘ldirish;

-rivojlanish bo‘yicha loyihalar va jamoat infratuzilmalariga qarshi qo‘poruvchi aksiyalar;

-aholi puktlari va havfsizlik kuchlariga qarshi shahidlardan foydalanib teraktlar;

-pul undirish maqsadida nazorat punktlari o‘rnatish;

-narkotik, oltin va qurol-yarog‘ kontrabandasi;

-axborot etkazuvchilar, politsiya xodimlari, davlat xizmatchilari va huquqiy tartib organlarining qarindoshlarini yo‘q qilish;

-garov evaziga pul undirish maqsadida badavlat insonlarni o‘g‘irlash;

-omma oldida jazolar va dushmanlarni bostirish uchun qatllar;

-internet tarmog‘idan, elektron va bosma OAV dushmanlarni qo‘rqitish va o‘zlari yaxshi ko‘rsatish targ‘ibot qilish uchun foydalanish.

«Bukilmas ozodlik» harbiy operatsiyasi natijalarining tahlili quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon yaratadi.

Katta agrar xududni kundalik nazoratda ushlab turish uchun yirik quruqlikdagi kuchlardan doimiy foydalanish kerak, ularning kam miqdorini aviatsiya yoki yo‘ldoshli razvedka o‘rnini to‘ldira olaymaydi.

Havo-desant (MOK) qo‘shinlarini roli ahamiyatli bo‘lib qolmoqda, qurshovga olingan dushman otryadlarni yo‘q qilish bo‘yicha hujum operatsiyalarni olib borishlari kerak.

Asossiz keng ko‘lamda raketa-bomba zarbalari qo‘llash o‘z orqasidan tinch aholi o‘rtasida ommaviy qurbonlarni va isyonchilarga qarshi kuchlarning obro‘sizlantirishga olib keladi.

Ikkala tomondan kichik harakatchan guruhlarni qo‘llash, patrul va qo‘poruvchi otryadlarni qo‘shganda, ularning taqdiri ko‘pgina shaxsiy omillarga bog‘liq.

Rossiya Federatsiya xududida bo‘lib o‘tgan mahalliy mojaroga, ya’ni shimoliy Kavkazning CHecheniston respublikada Rossiya qurolli kuchlari tomonidan olib borilgan jangovar harakatlarga to‘xtalamiz. Ushbu xududda Rossiya kuchlari kuchlari tomonidan ikkita kampaniya davomida jangovar harakatlar olib borilgan.

Birinchi CHechen kampaniyasi 1994 yidan to 1996 yilgacha Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 30 noyabr 1994 y. “CHecheniston Respublikasi hududida konstitutsion qonun va tartibni tiklash chora-tadbirlari“ to‘g‘risida farmoniga asosan.

Ushbu kampaniya qo‘yilgan asosiy vazifalar quyidalarda iborat edi:

CHecheniston Respublikasidagi vaziyatni barqorlikka keltirish;

NQT qurolsizlantirish, qarshilik ko‘rsatganda ularni yakson qilish;

Respublikada konstitutsion qonuniy va tartibni RF qonunlariga asosan tiklash.

Ikkinchi CHechen kampaniyasi (rasmiy ravishda aksilterror operatsiya) deb nomlandi.

SHimoliy Kavkazning chegarodosh xududlari va CHechenistonda jangovar harakatlar 30 sentyabr 1999 yil boshlandi. Jangovar harakatlarning faol davri 1999 yildan 2000 yilgacha davom etdi, keyin Rossiya qurolli kuchlari tomonidan CHecheniston xududida nazorat o‘rnatgan sari, mojaro uzoqqa cho‘zila bordi.

Operatsiyaga tayyorgarlik ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlari:

operatsiyani o‘tkazish uchun birlashgan qo‘mondonlik gruppirovkasi (BQG) tashkil qilindi, ularning tarkibiga QK, IQ, CHQ va temiryo‘l qo‘shinlarining qo‘shilma va qismlari, boshqa idoralarning kuch va vositalari kiritildi;

BQG boshqarish uchun (SHimoliy Kavkaz HO bazasida) boshqarma tashkil etildi, uning tarkibiga boshqa vazirlik va idoralarning tezkor guruxlari kiritildi;

turli xil vazirlik va idoralarning kuch va vositalari jalb etilgan operatsiya, uninga qo‘yilgan vazifaning maxsus echimi bilan farqlanadigan, RF hududida oldin o‘tkazilmagan edi va qurolli tuzilmalarning bunday operatsiyaga tayyorlanish va olib borish bo‘yicha tajribasi yo‘q edi;

jangovar vazifani RF respublikalarining birida CHechenistondagi keskinlikka jamoatning munosabotining bir xil emasligiga qaramay bajarish kerak edi.

Birinchi CHechen kampaniyasidagi noqonuniy qurollangan tuzilmalar jangovar harakatlarni asosan uch bosqichda olib borishdi.

Birinchi bosqichda (dekabr 1994y.) NQT katta tuzilmalar bilan jang olib bordi. Otryadlar mahalliy halqdan va yollanmachilardan tuzildi.

Ikkinchi bosqich (avgustdan dekabr 1995 y.) katta hajmdagi jangovar harakatlar olib borilmadi. Federal qo‘shinlar harakatlari juda foydali kuzatish va ogohlantirish tizimi tashkillashtirildi, qo‘poruvchi va terroristik harakatlar kuchaytirildi.

Uchinchi bosqichda (1996y. boshi) NQT faolligi oshdi, jangovar harakatlar asosan tog‘larda olib borildi.

-Jangovar harakatlar davomida jangarilar quyidagi asosiy taktik harakatlar usullaridan foydalanishdi:

-Hujum (bosqin) va blokpost, NO‘P, alohida tayanch punktlarini bosib olish;

-qo‘shinlarning pozitsiyalarini o‘qqa tutish;

-bosqin;

-terroristik harakatlar;

-mina va snayper urushlari.

Ushbu harakatlardan tashqari keng ko‘lamda partizan usullarni qo‘llashdi:

-mudofaa hududlarini tinch aholi, machit, maktablar bilan to‘sish;

-jangarilarni chekinishini to‘sishga o‘smirlarni qo‘llash;

-siyosiy rahbariyat va oqsoqollar bilan “tinchlik muzokaralar” taktikasi orqali qayta guruhlashga vaqtdan yutish maqsadida;

-tinch aholi orasida “tarqab ketish” taktikasi va RF harbiy xizmatchilari o‘xshatib yashirinish.

Jangarilarning yuqorida qayd etilgan taktik harakatlariga qaqrshi Rossiya federatsiya qurolli kuchlari birinchi CHechen kampaniyasi davomida quyidagi taktik harakatlarni qo‘llashdi:

-reyd harakatlar;

-tayanch nuqtalar va hududlarni qurshab olish;

-hukmron balandliklarni egallash;

-taktik desantlar bilan NQT zaxiralarini kelish (ketish) yo‘llarini oldindan qo‘lga tushirish;

-dushmanni aldash uchun yolg‘on harakatlar;

-qo‘shinlarning blokpostlarga harakatlanish marshrutlarini qurshab olish;

-harakatchan ishg‘olchi guruhlar (otryadlar) harakatlari;

-aldamchi harakatlar va boshqalar.

RF FQ SHimoliy Kavkazdagi birinchi kampaniyada davomida jangovar qo‘llash tajribasi bo‘yicha hulosalar

Federal kuchlar qo‘mondonligi qo‘shinlarni jangovar qo‘llashni “odatdagi qoidalar” nuqtai nazardan rejalashtirdi. Qo‘shinlar guruhiga operatsiya zonalari o‘rniga aniq harakatlar polosasi belgilandi;

Federal kuchlarni tarkibidagi barcha qo‘shilma, qism va bo‘linmalar orasidagi bo‘sh tashkil etilgan hamkorlik;

front va vertolet aviatsiyani, hamda o‘zoqqa otar artilleriyani jangovar imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagani;

qo‘shinlarni boshqarish tizimida qo‘shinlar (kuch) guruhini birlashmasi qo‘mondonligi tomonidan turli xil idoralar qurolli tarkibini ishonchli markazlashgan boshqaruv tashkillashtirilmagani;

NQT texnik razvedka vositalariga qarshi REK tadbirlari to‘liq ta’minlab bera olmadi;

Federal kuchlarning qayta guruxlash, boshqaruv punktlarini, o‘t ochish pozitsiyalari, ta’minot ob’ktlari joylash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni chiqib ketishi, NQT qo‘poruv harakatlarni, bosqin, pistirma qo‘yishda rejalashtirish va olib borishni engillashtirdi;

Federal kuchlarni shaxsiy tarkibining bo‘sh tayyorgarlik ko‘rgani;

TTK pastligi – eskirgan (2-3 kapital ta’mirlangan) va texnik imkoniyatlarini ishlatib bo‘lgan (vertoletlar, tanklar, PJM, BTR, aloqa vositalari) ishlatilishi;

bo‘linma va qismlarda kichik hajmdagi topografik xaritalarni yo‘qligi;

Federal qo‘shinlar (kuchlar) boshqaruv organilari halq va joydagi boshqaruv hokimiyatlari bilan bo‘sh tashkil etilgan hamkorlik.

NQT harakatlarini asosiy ko‘rinishlari

NQT faol qurolli to‘qnashuvlardan tortib, to pozitsion janglargacha, partizan harakatlargacha o‘tishgan, keyinchalik yana keng ko‘lamli harakatlar qo‘llashdi.

aholi punktlarini mudofaasini ko‘p miqdordagi kuch va vositalarni (300 va undan ortiq kishi) jalb qilgan olib borishdi, kuchli mustahkamlangan tayanch nuqtalarini jihozlab, tayanch nuqtlariga kelish yo‘llarini minalashtirgan holda.

pistirma harakatlarini mina-portlash vositalarini keng qo‘llagan holda amalga oshirishdi. Pistirma joylarini oldindan tayyorlandi. O‘t ochish pozitsiyalari jihozlashdi, minalar va fugaslar o‘rnatishgan;

faol qo‘poruv-terroristik harakatlar olib borildi;

tayanch bazalar va qurol zaxiralari omborlari, o‘q-dorilar, dori-darmonlar va oziq-ovqat tarmoqlarini tuzishdi.

qo‘poruv, bosqin va reydni muntazam tashkillashtirish. NQT katta kuchlarini joylashish hududlariga chekinishi, odatdagicha qo‘lga olingan garovdagilarning pana qilgan holda amalga oshirilardi.

jangovar harakatlar, qo‘poruv va terroristik akt o‘tkazish uchun guruhlar (5-10 kishi) tuzilardi va qo‘yilgan vazifadan kelib chiqqan holda 300 va undan ortiq kishilik tuzilmalar tuzilar edi.

jangarilarini ob’ektlarga kirish ko‘rini  qiyin sharoitlarda yoki tungi vaqtda olib borilgan, ko‘pincha mahalliy halq, qochqin, militsiya xodimi sifatida;

hujum qilish ob’ektini jangarilarning strategiyasiga asosan «Urushni Rossiya hududiga o‘tkazish» taktik  va operativ ichkarisida ham tanlangan, Buynaksk, Vogodon, Moskva va boshqa aholi punktlaridagi terroristik aktlar tasdiqladi.

Ikkinchi CHechen kampaniyasi davomida NQT quyidagi taktik harakatlarni qo‘llashdi:

ochagli mudofaa, pistirma, tuzoq, shiddatli reyd va tezkor otryadlar bosqinlari keng ko‘lamda qo‘llash, doimiy razvedka olib borish;

kichik guruhlar (3-5 kishi) harakatlari, o‘z ichiga granametchi, mergan, pulemetchi va 1-2 avtomatchini olgan;

NQT doimiy bezovta harakatlarini olib borish uchun minomet, ZQ, KPVT, DSHK, AGS, reaktiv ustanovka seksiyasi o‘rnatilgan UAZ, JIP rusmli mashinalardan keng foydalanishgan.

jangarilar artilleriya tayyorgarligi boshlanishidan bevosita oldin havfsiz hududga shiddat bilan chiqish va shu hududda berkinishni amalga oshirishdi. FK shaxsiy tarkibining hujumga o‘tgandan keyin ularni 100-150 m.  yaqindan otib tashlashar edilar.

Federal kuchlar qo‘shinlarini harakatlanish yo‘llarida tayanch nuqtalarini belgilashar, qaysiki pozitsiyada 2-3 kishi bo‘lar edi. Asta-sekin chekinib, bo‘linmalarni o‘zlarini qulay yo‘nalishga aldab tortishar, shundan so‘ng qanotlarga hujum uyushtirishardi.

jangning birinchi daqiqalarida merganlar qo‘mondon tarkibini va ancha faol askar va serjantlarni o‘qqa tutishardi, sarosimani yuzaga keltirish uchun.

razvedkani olib borish uchun asosan mahalliy halqdan (ko‘pincha ayollar, qariyalar, bolalar) qo‘llanishardi.

Rossiya federatsiyasi qurolli kuchlari tomonidan ikkinchi CHechen kampaniyasi ikki bosqichda o‘tkazildi.

Aksilterror operatsiyani birinchi bosqichida jangovar harakatlar hududlarda muayyan cheklash tadbirlari o‘tkazildi. Bunda REK vositalari keng miqyosida qo‘llanildi, qo‘shinlar qo‘llash taxmin qilingan butun hudud bo‘ylab OAV va fuqaroga mo‘ljallangan boshqaruv markazlarini bostirish olib borildi.

Ikkinchi bosqichda dushmanning yangidan aniqlangan uzoqqa otish vositalari, ombor va bazalari, qaytadan tiklangan boshqaruv markazlari, hamda muayyan cheklangan hududlardan chiqishga urinayotgan jangari guruhlari yoki yanada katta guruhlarga to‘planayotgan jangarilarni yo‘q qilish nazarga olingandi.

Ikkinchi bosqichni tugash davrida FK qo‘shinlarining bir qism kuchlari operatsiyalar davomida dushman hududida reyd harakatlari olib borishdi.

Ikkinchi kampaniyadagi jangovar harakatlarning ajratib (farqlab) turadigan xususiyatlar

Birinchi. Ikkinchi CHechen kampaniyasi davomida MV QQ va IIV IQ orasida chambarchas hamkorlik tashkil qilindi. Bundan tashqari CHechenistondagi birlashgan qo‘shinlar guruhi miqdori salmoqli darajada ko‘paytirildi va jangovar harakatlar boshlanishiga NQT qaraganda tirik kuch va qurol-aslahada 5-7 karrali ustunlik bor edi (birinchi kampaniyada Grozniy shahrini egallashda 1:2,5 NQT foydasiga bo‘lgan).

Ikkinchi. 1999y. oktyabr va noyabr oylaridagi hujum jarayonida qo‘shinlar barcha o‘t ochish vazifalarini shtrumchi vertolet, quruqlikdagi kuchlarning zarbdor vertoletlari va artilleriya bilan hal qilindi.

Uchinchi. Birinchi marta artilleriyani boshqarish detsentralizatsiya (markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o‘tish yoki o‘tkazish) amalga oshirildi: u oldingi bo‘linmalar

vazifalarini hal qilish maqsadida qo‘llanildi, bunda NQT uzoq masofadan turub talofat etkazdi, shu bilan qo‘shinlar orasida yo‘qotishlarni sezirali darajada kamaytirdi.

To‘rtinchi. Qo‘shinlar birlashma guruhini qo‘mondonligi dushman bilan yaqindan jang olib borish amalda rejalashtirishdan chiqarib tashladi. Qo‘shinlar aholi punktlaridan tashqari hujum qilishdi, tog‘li hududlarda – tizmalarning yuqori suv ayrish qismlaridan, yurishlar odadtan yo‘ldan tashqarida amalga oshirildi, o‘rab olish va manevr keng miqyosida qo‘llanildi.

Beshinchi. Qo‘yidagi harakatlar usulllari ishlab chiqarildi:

QQ tuzilmalari hududni (AP) o‘rab olish, o‘t ochish nuqtalari bostirish, o‘rab olingan hududda IQ kuchlari bilan razved-qidiruv tadbirlari o‘tkazish;

operatsiyani yakunlangandan keyin IIV IQ bo‘linmalari qo‘riqlash postlarini yoki NO‘P egallashgan, egallangan aholi punktidan chiqish va kelish yo‘llarini nazorat qilishgan.

Oltinchi. Qo‘shinlar shaharlarni og‘ir zixrli texnika bilan to‘g‘ridan ishg‘ol qilmasdan ularni shaharni qurshab olish va uni to‘la o‘rab olish (ajratish) uchun qo‘llashgan. SHundan so‘ng shaharga bir necha yuz merganlar yo‘naltirilgan, ularning asosiy vazifalari dushmanning tirik kuchlarini yo‘q qilish va razvedka ishlarini olib borish bo‘lgan.

Ettinchi. Mahalliy aholi bilan ishlarni yaxshi tashkil qilinganligi. Halqning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini echishga katta e’tibor berildi.

Sakkizinchi. Bir necha muvaffaqiyatli ruhiy operatsiyalar o‘tkazildi. Mahalliy rahbariyat bilan kelishgan holda CHecheniston hududida elektr ta’minoti va aloqa uzib qo‘yildi, neft va gaz o‘tkazish yo‘llari yopildi, shu orqali kuchli ruhiy ta’sir etkazildi va jangarilarni jangovar ruhi yo‘qoldi.

## Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga tahdid va xatarlar.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy siyosiy vaziyatning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqamizda iqtisodiy, siyosiy va harbiy xususiyatga ega tahdidlar mavjudligi, bulardan tashqari separatizm, ekstremizm va halqaro terrorizmning faollashgani, mamlakatimizning milliy manfaatlari himoyasi va uning xavfsizligini ta’minlashga jiddiy muammolar keltirib chiqarmoqda.

Bundan tashqari, murrakab ijtimoiy, demografik va migratsiya ahvoli, xududiy kelishmovchilik va hali hal bo‘lmagan chegara muammolarining borligi, suv manbaalarining etishmovchiligi, narkotrafik va odam savdosi, qurollarni noqonuniy savdosi – bu ham yangi, noan’anaviy tahdidlarning to‘liq ro‘yxati emas, vaziyat juda murakkab ekanligidan dalolat beradi.

SHulardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, yaqin istiqbolda Markaziy Osiyo mintaqasida keng miqyosidagi urush bo‘lmasligini, shu bilan birga qo‘shni davlatlar va mamlakatimmiz xududida noqonuniy qurollangan tuzilmalari jangarilarining harakatlanishlari mumkin, ularning harakatlari chegara oldi to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishi, muhim sanoat ob’ektlari, kommunikatsiya va halq xo‘jaligi ob’ektlarida terroristik aksiyalar o‘tkazishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

So‘nggi yillar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, halqaro terroristlarning qurollangan tuzilmalari tomonidan olib boriladigan harakatlarining asosiy vazifasi - vaziyatni izdan chiqarish, aholi o‘rtasida vahima va sarosimani taraqatish, mamlakat nufuziga uning halqi oldida putur etkazish bo‘lmoqda.

Ushbu o‘rinda XX asr oxri - XXI asr boshidagi (Iroq, Afg‘oniston, SHimoliy Kavkaz, Liviya, Suriya va boshqalar) qurolli to‘qnashuvlarning tahlili noqonuniy qurollangan tuzilmalarning (terroristlarning) taktik harakatlarida quyidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda:

-olis va chiqib bo‘lmaydigan xududlarda tayanch punktlarini o‘rnatish;

-granatomyot va mergan otishlari, va huquq-tartib organlari vakillariga qo‘qqisdan hujum qilish;

-pistirmalar, transport kolonnalariga qo‘lbola yasalgan portovlovchi qurilmalarni qo‘llash orqali hujumlar;

-davlat xizmatchilarini va hukumatga hayrixox bo‘lgan qabila oqsoqollarini o‘g‘irlash va o‘ldirish;

-jamiyat infratuzilmalari va rivojlanish bo‘yicha loyihalariga qarshi qo‘poruv aksiyalari;

-aholi punktlari va xavfsizlik kuchlariga qarshi shahidlardan foydalangan holda portlatishlarni o‘tkazish;

-pul undirish maqsadida nazorat punktlarini o‘rnatish;

-qurol-yarog‘, oltin va narkotiklar kontrabadasi;

-axborotchilarni, politsiya xodimlarining qarindoshlarini, davlat xizmatchilari va huquq-targ‘ibot organlari tarafdorlarini yo‘q qilish;

-pul undirish uchun davlatmand shaxslarni o‘g‘irlash;

-dushmanlarni bostirish (bo‘ysindirish) uchun ommaviy jazolash va qatl etishlar;

-dushmanlarni qo‘rqitish va boshqalarning hayrixoxligiga erishish uchun internet tarmog‘idan, elektron va bosma OAVdan foydalanish orqali targ‘ibotlarni olib borish va boshqalar.

SHuning uchun hozirgi vaqtda mamlakatning milliy manfaatlari himoyasini va uning xavfsizligini ta’minlash uchun Qurolli Kuchlarni qurish, tayyorgarligi va qo‘llash muammolarini tushunish pritsipial jihatdan yangi yondashuvlarni izlash kerakligi ya’nada aniq bo‘lib qolmoqda.

XX asr oxri - XXI asr boshidagi harbiy to‘qnashuvlar tahlili maxsus operatsiyalarning (qo‘shinlar maxsus harakatlarining) roli va ahamiyatini ko‘paygani, maxsus operatsiya kuchlari tomonidan mustaqil yoki umumqo‘shin bo‘linmalari bilan hamkorlikda o‘tkazilganligi ushbu to‘qnashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib qolmoqda.

Ushbu nuqtai nazardan Fors ko‘rfazidagi (1991, 2003 yy.), CHecheniston Respublikasidagi (1994, 1999 yy.), Afg‘onistondagi (2001-2014 yy.), hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tomonidan halqaro ekstremistik terroristik tashkilotlarning qurollangan tuzilmalari jangari guruhlarini Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida (2000 y.) qurshab olish va yo‘q qilish bo‘yicha olib borgan maxsus operatsiyalaridagi jangovar harakatlar yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

SHulardan kelib chiqib, oxirgi vaqtlarda dunyoning ko‘plab etakchi davlatlarning (AQSH va NATOga a’zo mamlakatlar, Rossiya, XXR va boshqa bir qancha davlatlar), shu jumladan qo‘shni davlatlar mudofaa vazirliklari rahbariyatining qo‘shinlar maxsus harakatlarini (maxsus operatsiyalarni) tashkil etish va olib borishga bo‘lgan qarashlari o‘zgardi.

Etakchi xorijiy harbiy ekspertlar tomonidan, maxsus operatsiyalarni oddiy qurollarni qo‘llash bilan olib boriladigan an’anaviy jangovar harakatlardan ajratish kerakligi aytilmoqda.

Ushbu farqlarga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

-maxsus operatsiya nafaqat harbiy, balki siyosiy operatsiya bo‘lib qolmoqda. Biroq siyosiy maqsadlarga erishish uchun ko‘pincha harbiy kuchlarni qo‘llashni o‘ziga xos usullariga, avvalom bor maxsus operatsiya kuchlarining harakatlariga tayanmoqdalar;

-maxsus operatsiyalarning bosh operativ prinsiplaridan biri bu kuchlardan oqilona foydalanish va ularni tejash;

-maxsus operatsiyalar qo‘qqislik, tezlik, operatsiya xududlarini kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik xususiyatlariga ega;

-maxsus operatsiyalarda qurolli kuchlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishda tanlab olish, cheklangan yoki umuman mustasno qilingan bo‘lishi kerak.

NATO qo‘mondonligining qarashlari bo‘yicha “maxsus operatsiya” termini jangovar harakatlar teatrda MOKlarini jangovar qo‘llash bo‘yicha butun bir tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi va nafaqat operativ otryadlarning belgilangan xududlarda yoyilishi mo‘ljallangan, shu bilan birga qurolli kurashni olib borish vaqtida yoki undan oldin ularni ta’minlovchi organlar va boshqarishni ham. Maxsus operatsiyalar beshta turga ajratiladi, har biri aniq bir shakldagi vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan.

Razved-qo‘poruv harakatlar - dushman to‘g‘risida ma’lumotlarni yig‘ish, harakatlanuvchi ob’ektlarni koordinatlarini aniqlash, aviatsiyani yo‘naltirish, artilleriya va raketalar zarbalarini to‘g‘irlash, dushman ob’ektlarini izdan chiqarish, yuqumli kasalliklarni tarqatish, radio-texnik razvedka va radio-elektron kurash olib borishga qaratilgan.

Qo‘poruv harakatlar - partizan taktikasini qo‘llashga asoslangan bo‘lib, dushmanning muhim xududlarida yoki ular tomonidan nazorat qilinadigan xududlarda MOKlari otryadlari tomonidan olib boriladi. Bu, odatan partizan va isyonchilar harakatini tashkillashtirish, harbiy asirlarni ozod qilish, qo‘poruv va to‘sqinlik qilishdan iborat.

MOKlarining operativ tuzilmalarining maxsus harakatlari qurollar, harbiy texnika, muhim hujjatlarning namunalarini, hamda ko‘zga ko‘ringan siyosiy, davlat va harbiy arboblarni qo‘lga olish, harbiy asir va qamalganlarni ozod qilish, terroristlarga qarshi kurashni olib borishga mo‘ljallangan.

Xorijiy davlatlarning havfsizligini ta’minlash operatsiyalari – avvalom bor, partizan va isyonkorlar harakatlariga qarshi kurash, ya’ni aksilpartizan va aksilisyonkor kurashga mo‘ljallangan. Ko‘pincha bu harakatlar past darajali to‘qnashuvlarda yordam berish oraqali amal oshiriladi.

Ushbu harakatlar bazalarni yo‘q qilish, isyonchi va partizanlarning harakatlanish marshrutlarini to‘sish, aholi ustidan nazorat va kuzatuvni o‘rnatish, razvedka tarmoqlari va yashirin tashkilotlarni aniqlash, olis xududlarda jangovar harakatlarni olib borish, chegara oldi xududlarida reyd operatsiyalarini olib borish, chet eldan qurol-yarog‘ va oziq-ovqatlarni etkazib berilishini to‘sib qo‘yish tadbirlarini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Maxsus operatsiyalar odatda, ta’minlovchi harakatlar bilan boshlanadi, ammo ular tinchlik vaqtidagi sharoitlarda ham o‘tkazilishi mumkin.

Ushbu harakatlar o‘z ichiga qo‘yidagilarni oladi:

-MOK maqsadida razvedkani olib borish;

-singish (operativ otryadlarni ichkariga tashlash) va olib chiqish (dushman xududidan MOK otryadlarini olib chiqish);

-jangovar va front orti ta’minoti;

-psixologik (ruhiy) operatsiyalar (aniq turdagi tafakkur va hulqni shakllantirish maqsadida tashviqotlarni olib borish);

-ma’muriy ta’sirlar (yuzaga kelagan vaziyatdan kelib chiqib mahalliy boshqaruv, sog‘likni saqlash, ta’lim berish organlarini tashkil etish, sanitariya ta’minoti, qurilish ishlari, qishloq xo‘jaligi, transport tashish va boshqa vazifalarni echishda yordam berishni nazarga olgan).

Psixologik operatsiyalar (psixologik ta’sirlar) - targ‘ibot orqali g‘oyaviy qo‘poruvni kasb etib, asosini yolg‘on xabarlarni  va faktlarni buzib ko‘rsatishlar asosini tashkil etadi, etnik ehtiroslarni yondiruvchi, aniq siyosiy partiya va tuzumlarni yomon ko‘rish va ishonchni yo‘qotish, alohida davlatlar siyosatlarini jihatlarini berkitish, begona xududlarga qurolli bostirib kirishni tayyorlashdan iborat.

Maxsus operatsiyalarning har bir turi aniq bir harakatlar usulini yoki aniq bir turdagi vazifani bajarishga mo‘ljallangan. Misol uchun, razvedka-qo‘poruv faoliyat – kuzatuv, radio va radio-texnik razvedka, radioelektron kurash, qidiruv operatsiyalar, pistirma va bosqinlarni amalga oshirishlarni o‘z ichigi olishi mumkin. Qo‘poruv aksiyalar uchun reydlar, tahlikaga soluvchi (yo‘l, rels, mina urushlari) va ishg‘olchi harakatlar, o‘t qo‘yish, isyonchi va partizanlarning chiqishlari xarakterlidir.

Jangovar ta’minot, misol uchun, dushman ortidagi keskin vaziyatlarga tushib qolgan MOK operativ otryadlarini aviatsiya yoki artilleriya orqali qo‘llab quvvatlashni, front orti ta’minoti – ombor zaxiralarini va jihozlangan maxfiy (pana) joylarni tashkil etish, havodan va dengiz orqali  moddiy-texnik ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

NATOga a’zo davlatlar armiyalari MOKlarining psixologik operatsiyalar va fuqaro ma’muryati bo‘linmalari o‘tkazadigan psixologik ta’sir tadbirlari, maqbul siyosiy vaziyatni tashkil etish, halqaro ijtimoiy fikrni shakllantirish, dushmanning jangovar ruhiyatini pasaytirish va uning nufuzini barbod qilish, asirga tushganlar va aholi bilan ishlarni olib borishni nazarga oladi.

YUqorida koʻrsatilgan vazifalar NATOga a'zo davlatlarning MOK tomonidan Fors koʻrfazidagi urushlar, Liviyadagi qurolli toʻqnashuvda, hamda 2001-2014 yillarda Afgʻonistondagi aksillterror operatsiyalar davomida tashkil etildi va olib borildi.

Afgʻonistondagi "Engilmas ozodlik" aksilterror operatsiyasi davomida MOK tomonidan qoʻllanilgan tayyorgarlik tartibi, harakatlarning shakl va usullari, AQSH QK qoʻmondonligi tomonidan jangovar qoʻllash boʻyicha "YAngi strategiya" deb atalmoqda va boshqa mintaqalarda shunga oʻxshash operatsiyalarni oʻtkazish uchun har tomonlama qoʻlay deb hisoblamoqda.

Rossiya Federatsiya harbiy mutaxassislarining "maxsus operatsiya", "qoʻshinlar maxsus harakati" terminlariga boʻlgan qarashlari boʻyicha ushbu harakatlarda na faqat maxsus vazifalarni bajaruvchi qism (boʻlinmalar), shu bilan birga umumqoʻshin qism va boʻlinmalarning kontingentidan ham foydalaniladi.

RF QK SHimoliy Kavkazdagi (1994-1996, 1999-2002yy.) aksilterror operatsiyalarida Sovet qoʻshinlarining cheklangan kontingentining Afgʻonistonda (1979-1989yy.) olgan amaliy jangovar tajribasidan kelib chiqib harakatlarning turli xil usul va shakllari qoʻllanildi:

-aholi punktlari va katta boʻlmagan yashil xududlarni qurshovga olish va keyinchalik ularda tozalashni amalga oshirish;

-dushmanning omborlarini aniqlash va yoʻq qilish uchun reyd va razved-qidiruv harakatlarini oʻtkazish;

-boʻlinmalarni vodiy va daralar ichidan jangovar guruhlar himoyasi ostida hukmron tepaliklar va choʻqqilarning ikkala tomonidan harakatlari;

-togʻ soʻqmoqlarini aylanib oʻtadigan otryadlarning pistirma harakatlari;

-texnika uchun togʻning oʻtishi qiyin boʻlgan hududlardagi dushmanning chekinayotgan va yaqinlashayotgan guruhlariga talofat etkazish maqsadida aviatsiya zarbalari va artilleriya oʻtlari;

-isyonchilarning chekinayotgan va yaqinlashayotgan ehtimolli yoʻllariga harakatchan va havodan minalashtirish;

-TakHDlarini zirxli guruh va aylanib oʻtish otryadlari bilan hamkorlikda operatsiyani butun ichkarisi boʻylab qoʻllash;

-vodiy, daralarni har tomonidan va hukmron tepaliklar oldindan qoʻlga olgan holda butunlay tekshirib chiqish yoʻli bilan dushmanni yakson qilish va boshqalar.

RF QK SHimoliy Kavkazda olgan amaliy jangovar tajribasidan kelib chiqib qurolli kuchlar tarkibida yangi tarkibiy qism – tegishli jangovar boʻlinmalarga ega maxsus operatsiyalar qoʻmondonligi paydo boʻldi.

Maxsus operatsiyalar qoʻmondonligi barcha majmui maxsus tadbirlarni va qurolli toʻqnashuvlar, keng miqyosdagi urushlarda qatnashish va boshqa qurollangan tuzilmalar bilan hamkorlikda yoki mustaqil vazifalarni aksilterror operatsiyalar davomida bajarishga moʻljallangan.

RF MV rahbariyatining qarashlariga asosan er sharining har qayday nuqtasida kuchlarini qoʻllash, ichki havfsizlikni ta'minlash, terrorizm va halqaro jinoyatchilik bilan kurash MOKlarining oʻziga xos vazifalari boʻlishi kerak. Bunda asosiy e'tibor aksilterror operatsiyalari tashkil etish va olib borishga, ayniqsa tez harakatchan jangovar harakatlar shariotida jangovar harakatlar xududida harakatlanish va oʻzgartirishga qaratilmoqda.

SHu oʻrinda Afgʻoniston QKlarida ham MOK tuzishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. NATO hujjatlari boʻyicha Afgʻon Milliy armiyasi (AMA) MOK qoʻmondonligi yoki "maxsus operatsiyalar diviziyasi" Afgʻonistonning rasmiy hujjatlari boʻyicha 2011 yili tashkil etilgan va 2013 yilga 12 ming koʻproq harbiy xizmatchidan iborat. MOK qoʻmondoligi tashkiliy jihatdan MOK brigadasi, maxsus vazifalarni bajaruvchi "komandos" brigadasi va armiya korpuslariga berilgan oltita "komandos" batalonlari, hamda maxsus operatsiyalar avaiqanoti va oʻquv markazini oʻz ichiga olgan. SHu bilan birga 2013 yilning oxriga kelib 500 kishilik psixologik operatsiyalar batalonini tashkil etish yakunlangan.

**Terrorizmga qarshi jaxon birlashish harakatini muvofiqlashtirish uchun kurash va uning samaralari.**

11-sentyabrda Vashington va N'yu-Yorkdagi, daxshatli voqealar, terroristik tajovuzlardan so'ng dunyo miqyosidagi global bo'lib turgan masalalar, terrorizmning daxshatli basharasi namoyon bo'lgandan keyin, insoniyatni kelgusi taraqqiyoti uchun avvalo terrorizm balosidan qutilish birinchi darajadagi engishi lozim bo'lgan muammo ekanini ko'rsatadi.

Bugun xalqaro siyosiy sa'nada davlatlararo uchrashuvlar va turli sammitlarda bu balo-qazoga faqat birgalikda kurashish va harakatlarni muvofiqlashtirish orqaligina erishish mumkin ekanligi xaqida ko'p gapirishmoqda va kech bo'lsa ham yakuniy xulosa sifatida qabul qilinmoqda. Bir necha yil davomida terrorizmga qarshi kurashish, Afg'onistondagi murakkab vaziyat xususida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov xalqaro jamiyatga tinmay murojat qilib kelgan edi. CHunki, sobiq SSSR parchalanish natijasida siyosiy kuchlarning jahoniy qarama-qarshiligi barham topgan bo'lsada dunyoda tinchlik, barqarorlik xali mo'rt, murakkab va muammoli bo'lib qolaveradi. XXI asr bo'sag'asida dunyoda uning geografik, siyosiy tuzilishida tub o'zgarishlar yuz berish munosabatida endilikda mamlakat xavfsizligi eng dolzarb masalaga aylanganligini o'quvchi yoshlar bilib olishi lozim. Prezidentimiz I.A.Karimov - «Bundan buyon ham tashvishli xodisalar bizni chetlab o'z yo'lidi rivojlanaveradi, barqarorlik o'z-o'ziga saqlanaveradi, mamlakatning kelajagi esa o'z-o'zidan ta'minlangan deya fikr yuritishni ham siyosiy, ham fuqaroviy kaltabinlikdan boshqa narsa emas deb hisoblaymiz» -deya o'rinli ta'kidlaydi.

11 sentyabrdagi qonli terrorchilikdan keyin AQSH xalqaro xamjamiyatga murojat qilib, xar bir mamlakatdan terrorga munosabatini belgilashni va uni e'lon qilishni so'radi. Ushbu masalada «Siz yo biz bilan, yo biz bilan emassiz» degan qat'iy fikr 'atto ulg'timativ tarzda qo'yildi. Amerika Qo'shma SHtatlarining bu chaqirishni yuzdan ortiq mamlakatlar qo'llab – quvvatlab chiqdilar. Mazkur masalaning mo'iyatini ochib berish uchun yuqorida qayd etganimizdek, davlatimiz raxbari I.Karimovning Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999 yilda bo'lib o'tgan Istambul Sammitida qilgan ma'ruzalarida Xalqaro terrorizmga qarshi kurashuvchi yagona markaz tuzish lozimligi to'g'risidagi taklifni, shuningdek, BMT ning 2000 yilda bo'lib o'tgan «Ming yillik sammiti» da qilgan ma'ruzalarida mazkur masala yuzasidan O'rtaga tashlangan takliflari moxiyatini o'qituvchi talaba yoshlarga tushuntirib berishi lozim.

11 sentyabrning fojiasidan so'ng O'zbekiston raxbari dunyodagi qator yirik va rivojlangan mamlkatlar Prezidentlari bilan telefon orqali muloqotda bo'ldi, I.Karimovning AQSH Prezidenti Jorj Bush, Buyuk Britaniya Bosh vaziri Toni Bleer, Ukraina Preztdenti Leonid Kuchma va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin bilan o'tkazgan muloqotlari. Vladimir Rushaylo, Donald Ramsfedning Toshkentga tashriflarining bosh mazmuni, asosiy negzi nima bilan bog'liq? Bu davlatlarning O'zbekistonga bo'lgan bunday qiziqishi nima bilan bog'liq?

Bularning hammasi bugun barcha siyosatchilarni birlashtirmoqda. Birinchidan - bu terrorchilikning butun jahon a'liga katta tashvish va xavotir uyg'otayotgani va ikkinchidan - bu muammolarning echimini topishda o'zaro kelishib, harakatlarni muvofiqlashtirish hamkorlikda ish olib borish zaruriyatidir. Qolaversa, halqaro terrorizmga qarshi kurash bir yoki bir qancha mamlakat ishi emasligini o'quvchi xis qilishi lozimdir. Tabiiyki, bu masalalar echimida Afg'onistonga qo'shni bo'lgan O'zbekistonning fikri, sa'y-harakatlari o'rin tutadi. Ilgari ham «6+2» guruhiga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi, Afg'on mojarosini tinch yo'l bilan hal etishni asosiy tamoyillarini belgilab bergan edi. Biroq, bu tashabbuslar boshqa ba'zi bir davlatlarning geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlari, olib borilgan ikki xil standartlar siyosati oqibati etarli natija bera olmaganini aytib o'tish lozim. Butun jahon hamjamiyati xalqaro terrorizm bilan kurashayotgan bugungi ma'suliyatli bir paytda, ba'zi siyosiy kuchlar uchun bu kurashni oxiriga etkazishni chetda qolib, Markaziy Osiyo davlatlari eng avvalo, Afg'oniston kimning ta'siri ostida qolishi muhimroq bo'lib qolmoqda.

11 sentyabr mudxish voqealariga qadar jahon hamjamiyati tomonidan terrorizm va ekstremizm xavfi xaqida ko'p gapirilsa ham u bilan kurashish uchun amaliy va qat'iy choralar

ko‘rilmagan edi. Endilikda jahondagi taraqqiyparvar davlatlarning yovuzlikka qarshi birlashgani eng muxim faktorga aylandi. Xususan, Italiya harbiy kuchlari va harbiy harakatlariga yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi. ‘atto, o‘z betaraflik siyosati bilan yaxshi tanilgan SHveysariya xukumati ham terrorizm bilan kurashishda YAqindan yordam berish maqsadida insonparvarlik yuklari ortilgan samolyotlar uchun o‘z xavo xududi ochiqligini ma’lum qildi. Nqyu-York sha’rida BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasidagi asosiy masalalar orasida terrorizm muammosi ko‘rib chiqildi. Uning ishida O‘zbekiton tomonidan mamlakatimiz tashqi ishlar Vaziri Abdulaziz Xalilov ishtirok etdi. Amerikadagi bu tadbirlar doirasida BMT ning Bosh qarorgoxida «6+2» formulasi bo‘yicha Afg‘onistonga chegaradosh bo‘lgan mamlakat va Rossiya hamda AQSH tashqi ishlar vaziri darajasida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. BMT Bosh kotibining Afg‘oniston bo‘yicha vakili Lasdar Broximiy tomonlarga ishlab chiqarilgan rezolyusiyani taqdim etdi va Afg‘onistondagi vaziyat, muvaqqat xukumatning tuzimini, uning faoliyati xavfsizligini ta’minlash borasida ma’ruza qildi.

SHu yilning 7 oktyabridan boshlab amalga oshirilayotgan harbiy kompaniyada Amerika aviatsiyasi terrorchilar bazalari va uyalarini yo‘q qilish maqsadida raketa-bomba zarbalarini bermoqda. SHuningdek, terroristlar tomonidan kimyoviy, biologik va radiologik qurol, giyoxvandlik moddalari ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan ob’ektlarni yo‘q qilishmoqda. Bu ham o‘z o‘rnida terroristlarni sarosimaga solib, harakatlarini muvofiqlashtirishga imkon beryapti.

YAqin vaqtlargacha Afg‘oniston xududining atigi 5 % ini nazorat qilayotgan Birlashgan front bugunga kelib mamlakatning deyarli barcha qismini ozod etishga erishdi. Xususan, Mozori Sharif, Quddus, Qalam Nov, Bolshon, Xayroton, Puli Xumri, Xirot, Qobul, Qandaxor kabi yirik shaharlar Birlashgan front tomoniga o‘tmoqda. Ozod etilgan shaharlarda toliblar tomonidan tadbiq etilgan bircha ta’qiqlar bekor qilindi. jumladan, endilikda shaharda musiqa tinglash, ayollarning ishlashi va ta’lim olishiga ruhsat berildi.

Uzoq vaqt mobaynida tinchlik bo‘lmagan bu yurtda odamlarning yashashi, hayot tarziga shubxasiz salbiy ta’sir o‘tkazgan. Bugungi kunda Germaniya poytaxtidagi kelishuv asosida Afg‘oniston muvaqqat xukumati tuzildi. Bu xukumat olti oydan keyin to‘planadigan xalq vakillari majlisi - jirg‘agacha ishlaydi. Ushbu Jirg‘adan so‘ng Afg‘onistonda tashkil topilgan xukumatlar qanday bo‘lishidan va kimlardan tashkil topishidan qat’iy nazar, eng avvalo, Afg‘on xalqining oddiy odamlarning manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim.

2.Terrorizm - jaxondagi tinchlik barqarorlik va taraqqiyotning dushmani.

2001 yilning 11 sentyabrida mazkur ma’shum voqealar amalga oshirilgandan so‘ng, ommaviy axborot vositalari orqali oddiy kishilarning suxbatlarida terrorizm xaqida ko‘p gapira boshlandi. Terrorizm so‘zi, xalqaro terrorizm tushunchasi kecha yoki undan paydo bo‘lmagan bo‘lsa ham uning taxdidi ayniqsa, Evropa uchun endi-endi, tushunila boshlandi. Bu borada siyosatchilar, siyosatshunos olimlar, iqtisodchilar ham so‘z yurita boshladilar. Demak, biz barcha uchun katta taqdid solayotgan terrorizm, insoniyatning dushmani xaqida, uning yovuz niyatlari va kerak bo‘lsa basharasini YAqindan bilishimiz lozim. Shunda u bilan kurashi, terrorizm oqibatlarini muxokama qilib o‘tirmasdan uning oldini olish real bo‘ladi.

Bizning tushunchamizdagi terrorizm Evropa XVIII asrda siyosiy saxnaga chiqqan bo‘lsa Islom dunyosida dastlab VII asrning 2-yarmida, diniy, mafkuraviy jixatdan 3 ta asosiy yo‘nalish- xorijiylik, sunniylik, shiyalik paydo bo‘lishidan boshlandi desak xato bo‘lmaydi. Chunki, Islom dunyosida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan oqimlarning paydo bo‘lishi, keyinchalik turli xil g‘oya va mafkuralarning vujudga kelishiga olib keldi. Shu jumladan, terrorizm ildizlari ham qadim davrga borib taqaladi. Keyinchalik XVIII-XIX asrda axmadiya oqimlari vujudga kelgan. Hozirda biz bilgan Islom bilan bog‘liq barcha oqimlar va firqalar dinda amal qilayotgan, rasman joriy mazxablarning jumladan, sunniylikning ham asosiy g‘oyalariga zid qarashlarni olg‘a surmoqdalar.

Talaba yoshlar hozirgi kunda biz uchun katta tashvishga sabab bo‘layotgan vaxobiylar oqimi XVII va XX asrda tashkil etilgan «Xizbut-Taxrir al-Islomiy» firqasi to‘g‘risida aniq tassavurga ega bo‘lishi lozim. Bu oqim va firqa tarafdorlari zamon talablarini pisand etmasdan, ko‘r-ko‘rona o‘z maslaklariga etishib olgan holda qilayotgan ishlar targ‘iboti, dinimiz, uning

butunligiga, birligiga, musulmonlarning ezgu ishlariga, tinch-totuv yashashlariga raxna solmoqda.

Islom ekstrimizmi va aqidaparastlikdan jaxon tinchligi barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta’siri xaqida so‘z yuritar ekanmiz, nafaqat uning Islom dini ichidagi sabablariga balki, uni keltirib chiqaradigan, rag‘batlantiradigan jixatlarga ham murojat qilsak. Ulardan birinchisi ilgari mustamlakachilikning ananaviy bosqinchilik usullari bo‘lgan bo‘lsa, hozir yangi mustamlakachilik va buyuk davlatchilik shovinizmidir. Masalan: Xemper ismli ingliz josusi SHayx-Maxmud nomi bilan ish yuritib, dastlab 1730 yili vaxxobiylar oqimi asoschisi Abdulvaxob bilan uchrashgan. Keyinchalik u o‘z kundaliklarida bunday deb yozgan: «Biz vaxxobiylik deb atalgan dinni yaratdik. Najd shaharchasi uning markazi bo‘lib qoldi. Buyuk Britaniyaning mustamlaka ishlari vazirligi, faoliyatimizni ma’qullab, turli yordam ko‘rsatib, kerakli anjomlar bilan ta’minlab turdi…». Demak, sun’iy ravishda vaxxobiylik oqimini yaratib, musulmonlarni chin dindan qaytarish o‘sha davrda aynan Buyuk Britaniya mustamlakachilariga kerak bo‘lganligi ayon bo‘ldi.

Ikkinchi sabab esa xalqaro munosabatlarda musulmonlarga qarshi zo‘ravonlik, musulmon davlatlarining G‘arb mamlakatlaridan kuchayib ketmasligiga erishish niyati «parchalab tashla va xukumronlik qil» degan ko‘p sinalgan siyosatni davom ettirishdan iboratdir.

O‘quvchi yoshlar qadimiyat va O‘rta asrlarda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilg‘or fikrlarga qarshi terror harakatlari amalga oshirilganligi, zardo‘shtiylik muqaddas kitobi «Avesto» ning yo‘q qilinishi olimlarning osilishi uzuatlar, «Iso itlari», Jordano Bruno va xakozolar misolini o‘rganish. O‘quvchi-yoshlarimiz terrorizmga qarshi kurash ayniqsa, bizning mamlakatimiz O‘zbekiston uchun juda zarur ekanligini anglab etish lozim. CHunki, mustaqilligimiz qo‘lga kiritilgan vaqtdan boshlab eng katta xavf bu yon qo‘shnilarimiz bo‘lgan Afg‘oniston va Tojikistonda ro‘y bergan qonli voqealar ta’siri bizga ham o‘tmaydi degan kafolatning yo‘qligida edi. SHuning uchun ham aksilterror operatsiyasida ishtiroki xususida O‘zbekiston o‘z pozitsiyasini aniq bayon qilib berdi. Bunda O‘zbekiston Afg‘onistondagi terrorizmni, uning bazalarin tag-tomiri bilan yo‘qotish, bu xavf-xatarni mintaqada yo‘q qilish harakatini qo‘llab-quvvatlaydi. Biz koalitsiyada emasmiz, koalitsiya deganda talaba yoshlar - xalqaro terrorizmga qarshi kurashuvi, harbiy xujumlarni aviatsiya va piyod qo‘shinlarni harakatga keltirishga tayyor bo‘lgan AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa davlatlarni tushunish kerak.

Jaxondagi yuzdan ortiq davlatlar terrorizmga barxam berish borasida boshlagan harakatni qo‘llab-quvvatlashlarini ma’lum qildilar. Biz xalqaro xamjamiyatni qo‘llab-quvvatlaymiz. O‘zbekiston Afg‘onistonga yaqin qo‘shni sifatida bu o‘lkad tinchlik xotirjamlik, bunyodkorlik va baxtli hayot bo‘lishining eng birinchi tarafdoridir. O‘zbekiston Prezdenti I.A.Karimov o‘z bayonotida O‘zbekiston xukumati gumanitar masalalarda yaqindan yordam berishini ta’kidladi va bu bilan o‘zimizning insonparvarlik niyatlarning samimiy ekanini bildirdi. Bayonotdagi gaplarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol misoli yaqindagina Termizdagi Xayraton ko‘prigining shu maqsadlarda qaytadan ochilishidir. O‘zbekiston ramziy qilib aytganda Afg‘onistonga insonparvarlik yordami ko‘prigini barpo etdi.

**O‘zbekiston xalqining milliy tafakkur tarzi-terrorizmga qarshi omil sifatida**.

Terrorchilik degan illat tag-tomiri bilan sug‘urib tashlanmas ekan, bu achchiq qismat jaxondagi ‘ir bir inson yoki xalqning boshiga tushishi mumkinligi ayon bo‘lib qoldi. shuning uchun ham jaxonning ko‘plab davlatlari terrorchilarni batamom jismoniy yo‘q qilib tashlash tarafdori bo‘lib chiqdi. Inson ongini zaxarlashga qaratilgan ekstremistik va terroristik g‘oyalarning jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi, bir vosita mavjud. Uning nomi insonparvarlik, tinchlikparvar, ma’rifatparvar va bunyodkor milliy- diniy qadriyatlarimiz ekanligini xalqimizga aloxida singdirishimiz kerak. Hammamizga ma’lumki, sobiq ittifoq davrida milliy, diniy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirish siyosati olib borildi. Biz endi mustaqil davlat sifatida deyarli unitilayozgan o‘tmishimizni butun borliq muxabbati va buyukligi bilan ko‘z oldimizda keltirmoqdamiz. Mustaqillik sharofati bilan xalqimizda o‘zligini anglash va

milliy o‘yg‘onish ‘issiyotidan g‘arzli maqsadlarda foydalanishga harakat qilgan kimsalar Islom arkonlarini to‘la anglamayotgan sodda yoshlarimizni ekstremistik g‘oyalarga kirishiga harakat qilishga urinishlar bo‘lib o‘tdi. talaba-yoshlarimiz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Fidokor» gazetasi (8.06.2000 y.) muxbiri savollariga bergan javoblarida mafkura dunyosida bo‘shliqga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi, hozirgi paytda ro‘y berayotgan ayrim salbiy xolatlar yovuz kishilar, avvalo, mafkuraviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘layotganligida, deb ta’kidlashni ma’nosini bilib olishlari zarur.

Yurtboshimizning kimda-kim bizning mustaqil taraqqiyot yo‘limizni, orzu-maqsadlarimizga erishish yo‘lini to‘smoqchi bo‘lsa, avvalo, xali suyagi qotmagan mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning ma’naviyatni buzadi, ularni azaliy tabiatimiz va muqqadas odatlarimizga mutloqo zid bo‘lgan g‘oyalar bilan tanishib, o‘zlarining g‘arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yo‘lida qurol ko‘tarishga urinadi deb uqtirib kelishini talaba-yoshlar bilib olishi kerak.

Yoshlarimiz ongini zaxarlashga qaratilgan keskin biryoqlama, radikal qarashlarning ananalarimizga mutloqo yot bo‘lgan ekstremistik va terroristik g‘oyalarning jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi yana bir qudratli vosita - bu xalq qadriyatlarini tiklash va milliy o‘zlikni anglash xissini uyg‘otish ekanligini Prezidentimiz uqtirib o‘tganligi bejiz emas. Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashdan ma’naviy sarchashmalarimizga uning ildizlariga qaytshdan iborat tabiiy jarayon deb xisoblaymiz. Xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilgan. SHunday ekan, aytishimiz mumkinki, ushbu qadriyatlar kishilar, xususan yoshlarimizni o‘z Vataniga sadoqat ruxida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. YOshlarimizning ongini yot g‘oyalar kirib kelishiga qarshi qudratli vosita sifatida bunyodkor, milliy, diniy qadriyatlarimizdir.

Ma’lumki o‘lkamizda Islom dini tarqalgunga qadar (VII asr oxiri VIII asr) ajdodlarimiz e’tiqod qilgan zardushtiylik dinining muqaddas «Avesto» kitobi bo‘lgan. Bu kitob Islom dini paydo bo‘lgunga qadar ajdodlarimiz jahonda birinchi bo‘lib yaratganning yakkaligi va xaqligiga imon keltirgan xalq ekanligini bildiradi. Biz e’tiqodga erishgunga qadar ajdodlarimiz uzoq o‘tmishdan boshlab ma’naviy izlanish, o‘zligini tanish yo‘lida bosib o‘tgan tafakkur bosqichlariga erishib, uning mevasi sifatidagi xaq yo‘lini topganlarini o‘quvchi yoshlar xis qilishi lozim.

O‘quvchi-talabalar ongiga insonni ezgu o‘y, ezgu so‘z chaqiruvchi noyob muqaddas kitob bizning zaminimizda qadimgi Turon zaminida yaratilganligi va bu bilan faxrlanish hissini uyg‘otishimiz kerak bo‘ladi. CHunki «Avesto» - qadimgi tarix, din, etnografiya, tarixiy geografiya, axloqiy-falsafiy qarashlar, iloxiyat va boshqaruv ko‘plab soxalar uchun qiziqarli ma’lumotlar beruvchi ilk yozma yodgorlikdir. Gap shundaki, zardushtiylik dini Islom dinidan bir yarim ming yillar avval Xudoning yagonaligini tan olgan buyuk din ekanini, Islom dini esa bu xaqiqatni yanada yuksak mutlaq maqsadga ko‘targani xalqimizda faxr Vatanga bo‘lgan munosabatni uyg‘otishi shubxasizdir.

CHunki, xar xil sanamlarga sig‘inuvchi qabilaviy, dinlar, ya’ni ko‘p xudolik kishilar o‘rtasida g‘araz, fisqu-fasod, qabilaviy dinlar o‘rtasida g‘oyaviy qarama-qarshiliklarning tug‘ilishiga olib kelgan.

Qabilalarni birlashtirish, ularni bir dinga e’tiqod qilishiga o‘rgatish esa ular o‘rtasida do‘stlik, birodarlk hislarini vujudga keltirgan. Er, suv, xavo, olov muqaddas sanalgan bu din kishilar o‘rtasida ezgulik urug‘ini sochganligi uchun ham ulug‘ dinga aylangan.

Arabiston yarim orolida vujudga kelgan Islom dini O‘rta Osiyoga VIII asr boshlarida kirib kelgan bo‘lsa, ko‘chmanchi arab qabilalaridan madaniy jixatdan ustun bo‘lgan Movaraunnaxr aholisi Islomni qabul qilish bilan birga kundalik turmush tarzida o‘zlari e’tiqod qilgan zardushtiylik dini an’analaridan butunlay voz kecha olmadilar.

Yangilikka intiluvchi ma’rifatparvar xalqimiz Islom dini asoslarini tezda qabul qilib, uni boyitdilar. Yurtimizda Islom bilimining buyuk olimlari etishib chiqdiki, bu allomalar jaxon sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo‘shganlgini Hozirgi kunda butun jahon tan olmoqda. Shuning

uchun ham milliy diny qadriyatlarimiz xalqimizni ayniqsa, yosh avlodni Vatanga muxabbat, ajdodlarga hurmat va sadoqat, zo‘ravonlikka nafrat ruhida tarbiyalash, ularni ezgulik va bunyodkorlikka da’vat etuvchi bitmas-tuganmas kuch qudrat manbaidir. Ular nafaqat mafkuraviy bo‘shliqning yuzaga kelishiga, balki ming yillardan beri xalol mexnat va olamshumul kashfiyotlari ila jaxon sivilizatsiyasiga salmoqli xissa qo‘shib kelayotgan xalqimizning mentalitetiga tamomila zid terrorchilik g‘oyalarining kirib kelishiga qashi mustaxkam qalqondir.

## Jahondagi lokal urushlar.

Dunyoda rivojlanishning ma’lum tendensiyasi ko‘p yillar davom etgan «sovuq urushdan» xalqaro munosabatlarning yumshatilishi va rivojlangan davlatlarning harbiy qarama-qarshilik darajasining pasayishi hisoblanadi. shu bilan birga G‘arb bilan Sharq o‘rtasida munosabatlarning m’yorlanish jarayonida dunyoning ko‘pgina mintaqalarida olib borilayotgan va boshlanishi muqarrar bo‘lgan mojarolarning qisqartirilishi kuzatilmoqda.

Tarixchilarning hisoblashlaricha Er yuzida oxirgi 5500 yil ichida 14 000 tadan ortiq urushlar bo‘lib o‘tgan, ularda 3,5 mlyard insonlar qurbon bo‘lganlar. Insoniyat o‘zining tarixi davomida faqat 292 yil tinchlik sharoitida yashagan, ya’ni har yuz yilda bir haftadan kamroq.

Tarixiy jarayonning o‘ziga xos belgisi shundan iboratki, xalqaro masalalarni hal etishda harbiy kuch asosiy vosita hisoblangan.

Mahalliy (lokal) urushlarning harbiy-siyosiy xarakteristikasi

O‘zining ijtimoiy-siyosiy mazmuniga ko‘ra ochilayotgan, boshlanayotgan mahalliy (lokal) urushlar davlatlarning siyosatlarini, qurolli kuchlarini qo‘llab davom ettirishlaridir.

Mahalliy (lokal) urushlarning jahon urushlaridan farqi shundan iboratki, mahalliy (lokal) urushlar cheklangan siyosiy maqsadlarni ta’qib etadi. Bu esa harbiy harakatlar masshtablarining cheklanganligi, ularda ishtirok etayotgan harbiylarning ko‘p sonliligi, mahalliy (lokal) urushlar strategiyasi va taktikasining o‘ziga xosligi bilan shartlanadi. Lekin hozirgi zamondagi mahalliy (lokal) urushlar o‘zining keng ko‘lamligi bilan farq qiladi, ularda katta talofatlar kuzatiladi va doimo bu urushlarning jahon urushlariga aylanib ketish xavfi borligi kuzatiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda 100 dan ortiq mahalliy (lokal) urushlar bo‘lib o‘tdi. Ularning orasida hal etilmagan hududiy masalalar, yangi bozorlarni zabt etish, davlatlarning dunyoning ma’lum bir mintaqasida o‘z mavqelarini saqlab qolish va o‘z iqtisodiy muammolarini hal etish uchun yuzaga kelgan urushlarni ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi zamondagi mahalliy urushlarda qarama-qarshi tomonlar odatda yakka holda harakatlanmaydilar. Jahon arenasida shakllangan kuchlar nisbati va xalqaro aloqalarda bunday urushlarda har ikkala tomon boshqa bir davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Qurolli kurash olib borish kuch va vositalaridan foydalanish darajasi bo‘yicha urushdan keyingi mahalliy (lokal) urushlar va harbiy mojarolar quyidagilarga bo‘linadi:

- regulyar qurolli kuchlarning qatnashuvi va ularning zamonaviy qurol-yarog‘larining hamma turlarini, yadro qurolidan tashqari qo‘llashlari;
- regulyar qurolli kuchlar bilan bargalikda noregulyar bo‘linmalarning ishtiroki va oddiy qurollarning, ko‘p hollarda eskirgan qurollarning qo‘llanishi.

Mahalliy (lokal) urushlarning aksariyat qismi ikkita besh yillikka (1956-1960, 1961-1965 y.) to‘g‘ri keldi.

Bu davr «sovuq urush»ning eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan va rivojlangan davlatlarning mustamlaka tizimining emirilishi davri edi. 1960-yillarnining ikkinchi yarmidan va 1970-yillari xalqaro maydonda kuchlar nisbatining o‘zgarishi natijasida mahalliy (lokal) urushlarning soni kamaydi.

XX-asrning 50-90-yillarida-Ikkinchi jahon urushidan keyin Er sharining turli joylarida alohida davlatlar va davlatlar guruhlari o‘rtasida urushlar bo‘lib o‘tdi. Mana shu davr mobaynida 200 tadan ortiq kichik harbiy mojarolar 20 tacha atrofida o‘rtacha sur’atdagi cheklangan urushlar bo‘lib o‘tdi.

Ularning orasida katta ahamiyatga ega bo‘lganlari quyidagilardir: 1950-1953 y. Koreya urushi, 1959-1975 y. Vetnam urushi, 1967, 1973, 1982-yillardagi YAqin SHarqda Isroil va arab davlatlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushlar, 1982-yildagi Angliya va Argentina o‘rtasidagi harbiy mojarolar, 1979-1982 yillardagi Afg‘onistondagi urush, 1991-yildan boshlangan Fors ko‘rfazidagi urushlar va boshqalar.

Hamma mahalliy (lokal) urushlar oddiy qurollar qo‘llanib olib borildi. Ammo har ikkala urush olib boruvchi tomonlar Amerika va NATO ga a’zo bo‘lgan davlatlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘maklariga tayanib, yoki SSSR va Varshava shartnomasiga a’zo bo‘lgan davlatlarning qo‘llab-quvvatlashlariga tayanib harakat qildilar. Ko‘p hollarda urushlar o‘zaro kelishuvlar asosida va o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qisman erishilib nihoyasiga etgan. Siyosat bobida bu urushlar odatda xalqaro ahvolning keskinlashuviga, «sovuq urush» ning rivojlanishiga olib kelgan. Harbiy ma’noda ular harbiy harakatlarning yangi formalari, shakllari va usullarining yaratilishiga olib keldi.

## Yirik mahalliy (lokal) urushlarning sharhi

### *Koreya urushi(1950-1953 y)*

1945-yil avgustida Qizil Armiya Koreyaning shimoliy qismini yaponlardan ozod qildi. Ittifoqchi davlatlarning o‘zaro kelishuvlariga muvofiq 38 paralleldan shimolini Sovet qo‘shinlari janubini esa Amerikalik qo‘shinlar egalladilar. Keyinchalik yagona Koreya davlatini barpo etishga kelishib olindi. 1948-yilda Sovet qo‘shinlari Koreyadan olib chiqilib ketildi. 1948-yil avgustida Koreyada Amerika ishtirokida Li Sin Man davlati tashkil etildi va Janubiy Koreya armiyasi tashkil etila boshlandi. 1948-yil kuzida davlat shimolida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tashkil etildi SHimoliy Koreyada o‘zining qurolli kuchlarini tashkil etdi. 1950-yil yozida uning safida quruqlikdagi qo‘shinlar, havo-desant qo‘shinlari va harbiy-dengiz kuchlari kiritildi. Koreyadagi urush to‘rt davrga bo‘lindi. 1950-yilda SHimoliy Koreya qo‘shinlari 30 minutlik artilleriya tayyorgarligidan keyin Janubiy Koreyani o‘ziga bo‘ysindirish va davlatni SHimoliy Koreya rahbari Kim Ir Sen hukumatiga birlashtirish maqsadida 38-paralleldan o‘tdi. Janubiy Koreya qo‘shinlari shimoldan boshlangan agressiyaga qarshi tura olmadilar va uch kundan keyin uning poytaxti Seul egallandi, shimolliklar hujumni rivojlantirib janubga tomon harakatlandilar va bir yarim oy mobaynida 250-350 km ga olg‘a harakatlandilar. Li Si Manning Janubiy Koreya hukumati BMT ga yordam so‘rab murojaat qildi.

BMT ning shimoliy Koreyaga qo‘shinlarni olib chiqish to‘g‘risidagi ultumatumi javobsiz qoldirilganidan keyin BMT Xavfsizlik Kengashiga a’zo bo‘lgan davlatlarni Janubiy Koreyaga harbiy va boshqa turda yordam ko‘rsatishga chaqirdi.

BMT ning bu da’vatini o‘zlariga bayroq qilib olgan Amerika harbiy-havo va harbiy-dengiz kuchlarini va quruqlikdagi qo‘shinlarini Koreyada joylashtirishni boshladi.

Koreya Xalq Armiyasining harakatlari qat’iy xarakterga ega bo‘ldi. Tog‘li, o‘rmonli joylardan va dushmanning yo‘llarga bog‘liqliklaridan mohirona foydalanib ular qanotlardan zarbalar berishga intildilar. Lekin shaxsiy tarkib va jangovar texnikadagi yo‘qotishlar va amerikaliklarning havodagi hukumronliklari tufayli KXA to‘xtatib qolindi. Dushman Pusan platsdarmida mustahkamlanib oldi. 1950-yil iyul oyi oxirida Janubiy Koreya Pusan portidan tashqari shimolliklar tomonidan to‘lig‘icha egallandi.

Urushning ikkinchi davri amerikalik qo‘shinlarning hujumlari bilan boshlandi (1950 y. 16-sentyabr-24 oktyabr). Amerika qo‘mondonligining maqsadi Inchxonda dengiz desantini to‘satdan tushirib va 8-Amerika armiyasi kuchlari bilan Pusan platsdarmidan hujumga o‘tish va KXA kuchlarini qurshab olish va tor-mor etishdan iborat bo‘ldi.

16-sentyabrda boshlangan shiddatli janglardan keyin dushman KXA mudofaasini yorib o‘tishga, oktyabr oyi o‘rtalarida jangovar harakatlarni 38-paralleldan shimolga o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldi, ayrim uchastkalarda Xitoy chegaralariga yaqinlashib qolindi, bu o‘z navbatida Xitoyga xavf tug‘dirdi. Xitoy xalqi Koreyaning mehnatkash xalqiga agressorlarga qarshi urushda yordam ko‘rsatishini bildirdi. 1950-yil 19-oktyabrda Xitoy Xalq Ko‘ngillilar (XXK) birlashmalarining SHimoliy Koreya tomoniga harakatlari boshlandi (30 ta piyodalar va to‘rtta

artilleriya diviziyalari). Ular KXA birlashmalari bilan 1950-yil 25-oktyabrda Unzan, Xichen rayonlarida Amerika va Janubiy Koreya qo‘shinlariga harakatlanish mobaynida zarba berdilar va ularni 45-50 km ga uloqtirib tashladilar. 1951-yil 10-iyulda urushning uchinchi davri boshlandi. Keyinchalik hujumni rivojlantirib Xitoy Xalq Ko‘ngillilari (XXK) va KXA qo‘shinlari 1951-yil 8-yanvarda 38-paralleldan janubga tomon 80-100 km harakatlandilar. Lekin joy sharoitlarini, kuch va vositalarning kamchiligini hisobga olib 20-fevraldan 20 aprelgacha Xitoy Xalq Ko‘ngillilari (XXK) va KXA qo‘shinlari 38-parallel marrasiga chekinib mudofaaga o‘tdilar.

1951-yilning 10-iyulidan Koreyadagi urushning to‘rtinchi davri boshlanib, 1953-yilning 27-iyuligacha davom etdi. Qo‘shinlarining texnik jihozlanishlaridagi ustunlikka, bakteriologik (biologik), yondiruvchi va kimyoviy qurollarining qo‘llashlariga qaramasdan agressor qo‘shinlari Xitoy Xalq Ko‘ngillilari (XXK) va KXA qo‘shinlarining mudofaasini engib o‘ta olmadilar va hech qanday hududiy muvaffaqiyatga erisha olmadilar. KXA qo‘shinlari uchun urushning bu davri faol mudofaani tashkil etish va olib borishdagi oldinga tashlangan qadam bo‘ldi va katta tajriba orttirildi. Tunnellar asosida yaratilgan, tayanch punktlaridan tashkil topgan mudofaa tizimi tog‘ sharoitlarida o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsatdi. KXA ning mudofaadagi faol harakatlari va barqarorliklari hamda jahon hamjamiyatining ortib borayotgan talablari 1953-yil 27-iyulda Koreyada urushni to‘xtatish haqidagi bitimni imzolanishigan olib keldi.

## Vetnamdagi urush (1964-1973 y.)

Fransuz mustamlakachilari ustidan qozonilgan g‘alaba Vetnam xalqining tinchlik yo‘li bilan birlashishi uchun qulay fursat yaratdi. Lekin bu AQSH imperialistlari rejasiga to‘g‘ri kelmas edi. Janubiy Vetnamda marionet (qo‘g‘irchoq) davlati tashkil etilib, amerikalik maslahatchilar ko‘magida armiya yarata boshlandi va Vetnamning ozodligi va milliy mustaqilligi uchun kurashayotgan vatanparvarlarga qarshi operatsiyalarni olib bora boshladi. Janubiy Vetnam xalqi imperialistlarga qarshi qurolli kurashga ko‘tarildi.

Janubiy Vetnamni ozod qilish Milliy fronti (JVOMF) 1961-yil 15-fevralda janubiy Vetnamni ozod qilish Milliy armiyasini tuzish haqida qaror qabul qildi va faol jang harakatlarini boshladi. Marionet tuzimini saqlab qolish uchun amerikaliklar Vetnam xalqiga qarshi ochiqchasiga agressiya yo‘liga o‘tib oldilar. Uning bahonasi bo‘lib Amerika kemalarining Tonkin ko‘rfazida Vetnamliklarning torpedo katerlari bilan ataylab to‘qnashtirilishi bo‘ldi. Bundan foydalanib amerikaliklar 5-avgustda VDR ni bombardimon qila boshladi. Janubiy Vetnamga shoshilinch ravishda Amerika qo‘shinlari keltirila boshlandi va 1965-yilning oxirida ularning soni 185 ming kishiga etdi. Ushbu rayonga yangi jangovar texnika va qurol-yarog‘lar jo‘natila boshlandi. Aprel-may oylarida amerikaliklar bir-nechta qirish operatsiyalarini o‘tkazdilar. Yirik kalibrli pulemyotlar va raketalar bilan qurollangan vertolyotlar guruhi, parizanlar yig‘ilgan rayonlarni aniqlab, ularga zarbalar bera boshladilar va radio orqali quruqlikdagi qo‘shinlarga ularning koordinatalarini bera boshladilar. Bosqinchilar hamma vositalari bilan vatanparvarlarni qira boshladilar.

1966 yilning boshida AQSH qurolli kuchlari soni 200 ming kishiga etkazildi. YAnvar oxirida-fevral boshida ular Vetnam armiyasiga qarshi havodan berilayotgan bombardimon zarbalari bilan birgalikda yirik hujumlarni amalga oshirdilar. Katta janglar boshlanib ketdi, uning davomida agressor katta talofatlar ko‘rdi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha olmadi. Janubiy Vetnamning vatanparvarlariga qarshi janglarda 1967-yilning noyabrida 1,2 mln kishi ishtirok etdi, jumladan 500 ming amerikalik askarlar. 1968-yil JVOMF ning siyosiy o‘rni mustahkamlandi, aholi orasida uning obro‘si va ta’siri oshdi. Bular hammasi jangovar harakatlarni olib borish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Shu vaqtga kelib JVOMF 10 ta piyodalar diviziyalariga, bir-nechta piyodalar polklari va ko‘plab alohida piyodalar batalonlariga ega bo‘lib, ularning soni 300 ming kishiga etdi, mahalliy qo‘shinlar va partizanlar bilan esa 1 mln kishiga etdi.

1969-yil iyunida Janubiy Vetnam xalq vakillari s’ezdi Janubiy Vetnam Respublikasi tashkil topganini e’lon qildi.

Muhim harbiy hodisalar Vetnam armiyasining 1968, 1969 yillardagi birinchi va ikkinchi umumiy hujumlari, 1971-yildagi mudofaa operatsiyasi, 1972-yildagi strategik hujum va mudofaa operatsiyalari bo‘ldi. Ularning davomida vatanparvar kuchlar Amerika agressorlariga katta talofatlar etkazdilar. Amerikaliklarning yo‘qotishlari halok bo‘lganlar bilan-50 ming kishini, yaradorlar bilan 250 ming kishini tashkil etdi. Urushdagi jiddiy talofatlari va dunyo hamjamiyatining noroziligi tufayli Amerika hukumati 1973-yil 27-yanvarda urushni to‘xtatish va Vetnamda tinchlikni tiklash to‘g‘risida bitimni imzolashga majbur bo‘ldi.

**1956-yildagi Misr urushi.**

Birinchi arab-isroil urushi Amerika va Buyuk Britaniya tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Isroil va Arab davlatlari guruhlari (Misr, Iordaniya, Iroq, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni va YAman) o‘rtasida bo‘lib o‘tdi. Urush harakatlari 1948-yil 15-mayda BMT tomonidan Isroil davlati barpo etilishi bilan, arab davlatlari tomonidan uni barbod etish uchun qilgan harakatlari natijasida boshlandi. Javob harakatlari bilan Isroil hujumni qaytardi va Palastin hududining qariyib yarmini bosib oldi. 1949-yilda urush demilitarlashgan hududni yaratish to‘g‘risidagi bitimni imzolash bilan tugadi.

1952-yilda Misr xalqi monarxiya tuzumini ag‘darib tashladi va 1953-yilda Respublika mustaqilligi e’lon qilindi. Yosh davlatning o‘z siyosiy mustaqilligini mustahkamlash yo‘lidagi keyingi qadami-bu 1956-yilda Suvaysh kanalini milliylashtirish bo‘ldi. Misr hukumatining bu haqgo‘y harakati Angliya-Fransiya imperialistlarining qarshiligiga uchradi va ular Isroil bilan birgalikda Misrga bostirib kirish rejasini tayyorlay boshladilar. Agressiyaning maqsadi-Kamol Nosir hukumatini ag‘darib tashlash, Suvaysh kanalini bosib olish va Yaqin Sharqda o‘z mavqelarini mustahkamlashdan iborat edi. Agressiyani amalga oshirish uchun 230 ming askar va ofitserlar, 600 ta tank, 650 ta dan ortiq samolyotlar va 130 tadan ortiq jangovar kemalar jalb qilindi. Urushning boshida yosh Misr davlati armiyasida 90 mingta odam va 130 ta atrofida samolyotlar bor edi.

Angliya-Fransiya qo‘mondonligining rejasiga ko‘ra jangovar harakatlarni Isroil qo‘shinlari Sinay yarim orolidan boshlashi kerak edi. Keyinchalik qo‘shinlarga, aerodromlarga ma’muriy markazlarga ommaviy aviatsiya zarbalari berilganidan keyin, dengiz va havo desantlarini ketma-ket Port-Said va Port-Faud portlari tushurish, Suvaysh kanalini egallash va hujumni davlat ichkarisiga rivojlantirib Qohirani bosib olish ko‘zda tutildi.

1956-yil 29-oktyabrda Isroil qo‘shinlari Suvaysh va Isroil yo‘nalishlariga zarbalar berdi. Suvaysh yo‘nalishida ular 29-oktyabr kuni kechqurun El-Kuntila rayoniga chiqdilar, shaharni egalladilar va Naxlga hujumni rivojlantirdilar.

5-noyabrda Angliya-Fransiya qo‘mondonligi Port-Said va Port-Faud rayonlariga o‘z deasantlarini tushirdilar. Portlarni himoya qilayotgan Misr qo‘shinlari ularga qarshilik ko‘rsatdilar. Interventlar o‘z kuchlarini orttirib 6-noyabrda dengiz desantini ushbu portlarga tushirdilar.

Bosqinchilar Suvaysh kanalini, Qohirani bosib olishni va operatsiya natijalarini o‘z foydalariga hal etishga umid bog‘ladilar. Lekin ularning rejalari amalga oshmadi. 1956-yil 2-noyabrda qator davlatlarning taziqlari ostida BMT Bosh Assambleyasi urushni to‘xtatish va qo‘shinlarni olib chiqib ketish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

**Arab davlatlariga qarshi Isroil agressiyasi (1967 y.)**

Suvaysh kanali avantyurasining barbod bo‘lganligi Isroil agressorlariga ta’lim bo‘lmadi. Davlatda arab davlatlariga nisbatan nafrat ortib bordi. BAR, Suriya, Iordaniya, chegaralarida harbiy provakatsiyalar avj olib ketdi. AQSH va uning NATO blogidagi ittifoqchilari vositachiligida va yordamida Isroil arab davlatlariga hujum qilish uchun tayyorgarlikni boshlab yubordi. Agressiya boshida Isroil armiyasi to‘lig‘icha Amerika va Angliyaning zamonaviy qurollari va texnikasi bilan qayta qurollandi. U o‘z safiga 275 ming odamga, 1000 ta tanklarga, 450 ta samolyotlarga va 26 ta jangovar kemalarga ega bo‘ldi. Hujum rejasiga ko‘ra agressorlar, aviatsiyaning yirik kuchlari va zirhli tank va mexanizatsiyalashgan qo‘shinlarning to‘satdan zarbalari bilan tashabbusni qo‘lga kiritish, navbatma-navbat BAR, Suriya, Iordaniya qurolli

kuchlarini tor-mor etish va 3-4 kun ichida hal etuvchi natijalarni qo‘lga kiritishi kerak edi. Bosh zarbani Misr qo‘shinlariga berish ko‘zda tutildi.

Urush harakatlari 1967-yilning 5 iyunida Isroilning Misr, Suriya, Iordaniyaga havo hujumi bilan boshlandi. Isroil aviatsiyasi to‘satdan berilgan zarbadan va misrliklarning qudratli havo-hujumidan mudofaa vositalariga ega emasliklaridan foydalanib, Misr aviabazalariga ikkita ketma-ket zarbalarni berdi. Birinchi ikki soat ichida arablar HHK 65 % yakson qilindi, 16 ta aerodromlarda uchish-qo‘nish yo‘laklari yaroqsiz holga keltirildi. Havoda hukmronlikni qo‘lga kiritib Isroil aviatsiyasi quruqlikdagi qo‘shinlarni qo‘llab-quvvatlashga kirishdi.

Isroil quruqlikdagi qo‘shinlari harbiy harakatlarning boshlanishi bilan Sinay yarim orolida Kantara, Ismoil va Suvaysh yo‘nalishiga hujumni boshladilar. Qurshab olish manyovrlari keng qo‘llana boshlandi. Avval o‘tib bo‘lmaydigan deb hisoblangan, shuning uchun BAR qo‘shinlari tomonidan egallanmagan uchastkalarda Isroil qo‘shinlari vertolyotlardan tushirila boshlandi va tank kolonnalariga yorib kirib ular uch kundan keyin Sinay yarim orolining ichkarisiga yorib kirdilar, Suvaysh kanaliga eltuvchi kommunikatsiyalarni kesib qo‘ydilar va chekinayotgan BAR qo‘shinlarini qurshovga oldilar.

Iordaniya aerodromlariga va qo‘shinlari to‘plangan joylarga ommalashtirilgan aviatsiya zarbalarini berib Isroil qo‘shinlari shimol tomondan Nablus yo‘nalishiga hujumga o‘tdilar. Dushmanni to‘xtatib qolish uchun qilingan harakatlar muvaffaqiyat keltirmadi. 7-iyun oxirida Iordaniya qo‘shinlari tor-mor etildi.

9-iyunda Isroil armiyasi aviatsiya ko‘magida Suriya frontida hujumga o‘tdi va asosiy zarbani El-Kuneytra, Damashq yo‘nalishiga berdi. Isroil qo‘shinlari Suriya hududiga 26 km suqulib kirdilar. Ushbu marrada jangovar harakatlar 13 iyungacha davom etdi. Faqat xalqaro hamjamiyatning aralashuvi agressorni hujumni to‘xtatishga majbur etdi.

<u>Arab-Isroil urushi (1973 yil 6-25 oktyabr).</u>

Isroilning davom etgan agressiyasi to‘rtinchi arab-isroil urushiga olib keldi. Urushga tayyorgarlik ko‘rib Isroil davlatning harbiy qudratini oshirib bordi. Quruqlikdagi qo‘shinlar 33 ta brigadaga (ulardan 10 tasi tank brigadalari) va bir nechta jangovar va ta’minlash batalonlariga ega bo‘ldi. Qo‘shinlarda 1700 ta tank, 450 taga yaqin bronetransportyorlar, 488 ta jangovar samolyotlar mavjud edi. Qurol-yarog‘larning ko‘pchiligini amerikaliklar namunasidagi qurollar tashkil etdi. Harbiy-dengiz flotida 58 ta jangovar kemalar bor edi. Avval boshda Isroil qo‘mondonligi urush harakatlarini Suriyaga qarshi rejalashtirdi. Suriya qo‘shinlarini tor-mor etganidan keyin Isroil qo‘mondonligi faol hujumkor jang harakatlarini Misrga qaratishni ko‘zda tutdi.

Bu urush mahalliy (lokal) urushlar orasida unda qatnashayotgan qo‘shinlar va jangovar texnikaning soni bo‘yicha eng katta urush bo‘ldi (Fors ko‘rfazidagi urushdan tashqari).

1973 yil 6-8 oktyabrlar davomida Misr qo‘shinlari Suvaysh kanalini muvaffaqiyatli jang bilan kechib o‘tdilar, uning sharqiy qirg‘og‘ini ozod qildilar va Sinay yarim oroli bo‘ylab 15-30 km chuqurlikka harakatlandilar. SHu vaqt mobaynida Suriya armiyasi Golan balandligining katta qismini va El-Kuneytra shahrini ozod qildilar. Har ikkala frontlarda ham katta tank janglari bo‘lib o‘tib, ularda yuzlab tanklar, zirhli mashinalar, o‘nlab samolyotlar qatnashdi. PTURS va har xil turdagi zenit raketalari keng qo‘llanildi.

9-14 oktyabrlarda Isroil qo‘mondonligi Suriya frontida yirik qo‘shin guruhlarini yoydi va Damashqqa qarshi hujumni boshladi. Suriya qo‘shinlari tashkillashgan holda ikkinchi mudofaa chizig‘iga o‘tdilar. Misrliklar bu davrda Sinay yarim orolida erishilgan marrada mustahkamlandilar.

15 oktyabrdan Isroil qo‘shinlari asosiy harakatlarni Sinay frontiga o‘tkazdilar. 2- va 3- Misr armiyalari bo‘shliqlariga qarshi zarbalarni berib, Isroil qo‘shinlari Suvaysh kanalini kechib o‘tdilar va uning g‘arbiy qirg‘og‘ida ancha hududni egalladilar, Suvayshni qurshab oldilar.

1973-yil 25 oktyabrda BMT Xavfsizlik Kengashining qarori bilan jangovar harakatlar tugatildi. Tomonlarning yo‘qotishlari: o‘lganlar va yaradorlar bilan 20 ming odamni, 2700 tacha tanklar, 330 tadan ortiq samolyotlar va ko‘plab jangovar texnikalarni tashkil etdi. Arab davlatlari Isroil tomonidan 1967-yilda bosib olingan katta hududni o‘zlariga qaytardilar. Suriya

frotidagi janglarda Iroq, Iordaniya, Marokash qo‘shinlari faol ishtirok etdilar, Misr armiyasiga yordamlashish uchun Quvayt, Liviya, Jazoir va Saudiya Arbistoni o‘zlarining harbiy birlashmalarini jo‘natdilar. Isroilning tajovuzkorona siyosati shunga olib keldiki, u bilan 20 Afrika davlatlari diplomatik munsabatalarni bekor qildilar, ko‘pgina Evropa davlatlari Amerikaning Isroil siyosatini qo‘llab-quvvatlash yo‘lidan borishdan voz kechdilar.

**Fors ko‘rfazidagi jangovar harakatlar (1991 y.)**

1990-yil 2-avgustda Iroqning Quvaytga bostirib kirishi natijasida Fors ko‘rfazi rayonida xavfli inqiroz yuzaga keldi.

Bu urush dunyoning energetik xom ashyo zaxiralari rayonlarining birida hukumronlik qilish uchun yuzaga keldi. Urush katta masshtabli tusga kirdi: 1,2 mln odam, 80 tacha diviziyalar, 9500 ta tanklar va artilleriya orudiyalari, 2700 tadan ortiq samolyotlar jalb qilindi.

Ko‘p millatli kuchlar iroqliklar ustidan jangovar samolyotlar bo‘yicha 3 marta, jangovar vertolyotlar bo‘yicha 16 marta, tanklar bo‘yicha 4,3 marta ustunlik yaratdi.

Urush boshida ko‘p millatli kuchlarni (KMK) Amerikadan va Evropadan havo va dengiz orqali, 10-12 ming km uzoqlikdan strategik tashib keltirish amalga oshirildi. Bunda havodan tashuvni amalga oshirish uchun 650 ta transport samolyotlari va 130 ta zapravkachi-samolyotlar jal etildi. Strategik aviatsiya parvoz davomida 3-4 marta, taktik aviatsiya 10 martagacha havoda yonilg‘ilarini to‘ldirishga majbur bo‘ldi. KMK jangovar harakatlarini ta’minlash uchun qudratli orbita guruhi tashkil etilib, ularning soni 35 ta kosmik apparatni tashkil etdi.

Iroqning tajovuzi ushbu rayonda «CHO‘L QALQONI» («HIT PUSTO‘NE») ramkasidagi operatsiyada masshtabi bo‘yicha yirik qo‘shin guruhlarini yoyish bilan shartlandi.

Iroq rahbariyatining o‘z qo‘shinlarini bosib olingan hududlardan olib chiqishdan bosh tortganidan keyin 1991-yil 17-yanvarda «CHO‘L TO‘FONI» («BURYA PUSTINI»), keyinchalik esa «CHO‘L QILICHI» («MECH PUSTINE») doirasidagi operatsiyalar boshlandi.

«CHO‘L QILICHI» («MECH PUSTINI») operatsiyasining maqsadi quyidagilardan iborat: Saudiya Arabistoni davlati hududini himoya qilish; Iroq qo‘shinlarini so‘zsiz olib chiqilishini amalga oshirish; YAqin SHarqda qarama-qarshi kurashayotgan kuchlarning tenglashtirshni ta’minlash; muhim neft ishlab chiqarish rayonlari ustidan Amerika nazoratini saqlab qolish va uning mintaqada harbiy aralashuni uzoq muddatda saqlab qolish.

«CHO‘L TO‘FONI» («BURYA PUSTINI») operativ-strategik masshtabdagi havo-er operatsiyasi tarzida rejalashtirildi. Uning maqsadi-6-8 sutka mobaynida havo-hujum operatsiyalarini o‘tkazish, uning davomida Iroqning davlat tizimini izdan chiqarish, masofadan turib zarbalarni berib Quvaytdagi Iroq qo‘shin guruhlarini yakson qilish, chuqur operativ zahiralarga talofatlar etkazish, hamda dushman xalqiga va armiyasiga ruhiy ta’sir ko‘rsatish bo‘ldi. Keyinchalik quruqlikdagi qo‘shinlarning faol harakatlari bilan 10-15 sutka ichida dushmanni tor-mor etish va bosib olingan hududni ozod qilish ko‘zda tutildi.

«CHO‘L TO‘FONI» («BURYA PUSTINI») 1991-yil 17 yanvarda boshlandi va aviatsiyani misli ko‘rilmagan kenglikda ommalashgan qo‘llanishi bilan xarakterlandi. Aynan aviatsiya ittifoqchilarning hujumkor qudratining asosiy elementi bo‘ldi. Urushning birinchi besh haftasidagi jangovar harakatlar mahalliy (lokal) xarakterga ega bo‘ldi va bunda muhim rolni aviatsiya o‘ynadi.

«CHO‘L QALQONI» («HIT PUSTO‘NE») operatsiyasining yakunlovchi dooirasida jangovar harakatlarga quruqlikdagi qo‘shinlar kiritilganida dushmanning asosiy kuchlari katta talofatlar ko‘rib holdan toygan edi. SHuning uchun quruqlikdagi operatsiyalar tezkorlik xarakteriga ega bo‘lib, taxminan 100 soat davom etdi.

43-sutka davom etgan urush mobaynida aviatsiya har kuni o‘rtacha 2000 tagacha samolyot parvozini amalga oshirdi. Ko‘p millatli kuchlar aviatsiyasi hammasi bo‘lib 41 ta samolyot va vertolyotlarni yo‘qotdi. Iroq aviatsiyasi 42 ta samolyot va vertolyotlarni havoda va 81 tasini aerodromlarda yo‘qotdi.

Aviatsiya jangovar harakatlarining yangi o‘ziga xos xususiyatlari yuqori aniqlikdagi qurollarni qo‘llash va dengizdan uchirilayotgan qanotli raketalar bilan vaqtlar bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirib zarbalarni berish bo‘ldi.

Fors ko‘rfazidagi urush «CHO‘L QALQONI» («HIT PUSTO‘NE») hujumkor operatsiyasi bilan yakunlandi. Operatsiya maqsadi, rejasi Iroq qo‘shinlariga ikkita qurshab oluvchi zarbani berishni ko‘zda tutdi. Birinchi zarba Quvaytga berildi, ikkinchi zarba Quvaytning shimolrog‘iga respublika gvardiyasini chekinish yo‘llarini to‘sib qo‘yish maqsadida ittifoqchilar qo‘shinlarini Efrat daryosi marralariga harakatlanishlarini ta’minlashni ko‘zda tutib berildi.

Sutkalab berilayotgan aviatsiya zarbalaridan va uchib kelayotgan samolyotlarning tovushidan Iroq askarlari o‘zlarini idora va nazorat qilish hollaridan mahrum bo‘la boshladilar. Ommaviy avitsiyaning qo‘llanishi bilan kelib chiqqan ruhiy shikastlanish va u bilan bog‘liq jang olib borish qobiliyatini yo‘qotish, bu urushning o‘ziga xos belgilaridan biri bo‘ldi. Havodan berilgan zarbalar davomida Quvayt chegaralari bo‘ylab joylashgan Iroq bo‘linmalari shaxsiy tarkibining 50 % dan ortig‘i tor-mor etildi.

«CHO‘L QALQONI» («HIT PUSTO‘NE») operatsiyasi keng masshtabli havo hujumlari bilan boshlandi. U uch sutka davom etdi (1991-yil 17 yanvardan19 yanvargacha). Ko‘pmillatli kuchlar Quruqlikdagi qo‘shinlari o‘z qurollanishlarida zamonaviy M-1A1 «ABRAMS» tanklariga, «BREDLI» BMP lariga, 203,2 mm li va 152 mm li gaubitsalarga, «APPACH» vertolyotlariga va yangi muxandislik vositalariga ega edilar.

Amerikaliklar birinchi bor yangi Razvedka Zarba Majmuasi RZM «DJISAK» ni (RUK-razvedo‘vatelno-udarno‘y kompleks) qo‘lladilar. Uning aniqlash va yakson qilish uzoqligi 160 km ni tashkil etadi. Undan tashqari zalp bilan zarba berish reaktiv tizimi (RSZO) MLRS va tankka qarshi yuqori aniqlikdagi raketalar qo‘llanildi.

«APPACH» vertolyotlarida gipertezlikdagi, zarba berish uzoqligi 5 km gacha bo‘lgan tankka qarshi XVM raketasi sinovdan o‘tkazildi va qo‘llanildi. Iroq operativ-taktik raketasi «SKAD»dan himoya qilish vositasi sifatida modernizatsiyalashtirilgan ZRK «PETRIOT» ishlatildi.

Aviatsiyada strategik bombardimonchi samolyotlar V-52, qiruvchi samolyotlar F-16 «STELS», hamda taktik qiruvchi samolyotlar F-16, F-18, F-111, «TORNADO», shturmchi samolyotlar A10A qo‘llanildi.

Iroq qurolli kuchlari T-62, T-72, BMP-1,2, 152 mm li O‘YUAQ (SAU) «AKATSIYA», 122 mm li O‘YUAQ (SAU) «GVOZDIKA», SU-24, SU-25, MiG-23, MiG-29, «MIRAJ-2000» samolyotlariga ega edi.

Jangovar harakatlar tajribalari, o‘ta mobil kuchlar, avvalom bor tanklar mudofaada ikkinchi eshelonda qo‘llanilganligini, piyodalar va motopiyoda brigadalari tanklar bilan kuchaytirildi, bu o‘z navbatida ularning zarba qudratlarini oshirdi.

Artilleriya bo‘lingan holda divizion-divizion bo‘lib brigadaning birinchi va ikkinchi eshelonlarida qo‘llanildi. Zenit artilleriyasi ham xuddi shunday qo‘llanildi.

Tank bo‘linmalari pozitsion mudofaani olib borishga orientirlantirildi, qarshi atakalar va qarshi zarbalar vaziyatga qarab joy-joyida o‘tkazildi. Mudofaa pozitsiyalari 2-3 km chuqurlik bilan, pozitsiyalar oralig‘ida 1,5-4 km bo‘shliqlar bilan yaratildi. Har bir pozitsiya 3-4 ta transheya bilan jihozlandi. YOppasiga transheyalar yaratilmadi, vzvod va otdeleniyalar uchun transheyalar qazildi. Har bir pozitsiyaning asosini batalon mudofaa rayoni, ularda rota tayanch punktlari tashkil etdi. Rota tyanch punktlarining o‘lchami front bo‘ylab 1000-1300 metrga, chuqurlik bo‘ylab 1000-1200 m ga, vzvod tayanch punkti front bo‘ylab 200-600 metrga, chuqurlik bo‘ylab 300 m gacha teng bo‘lib, ularning oralig‘larida 150-200 m gacha pozitsiya bo‘lgan. Otdeleniya front bo‘ylab 120-200 m chuqurlik bo‘ylab 200 m gacha pozitsiyani mudofaa qilgan.

Joylarning muxandilik munosabatida jihozlashga va mudofaaga, muxandislik to‘siqlari tizimini yaratishga katta e’tibor qaratilgan. Fortifikatsion inshootlarning asosini to‘liq profildagi transheyalar uchastkalari, aloqa yo‘lakchalari (xodo‘ soobheniya) o‘t ochish

vositalari va HHM vositalari uchun okoplar, hamda shaxsiy tarkib uchun pana joylar tashkil etgan. Tank okoplari temir-beton plitalari, to‘lqinsimon temirlar, qum to‘ldirilgan qoplar bilan yopilgan, keyin esa maskirovka qilingan. Ta’minlash chizig‘ida oldingi marradan 600-2000 metr uzoqlikda chuqurligi 2-3 metr, kengligi 6-8 metr bo‘lgan chuqurliklar qazilib, ko‘p hollarda napalm yoki neft bilan to‘ldirilgan. Oldingi chiziq oldida kengligi 4 metr va balandligi 3 metr bo‘lgan tuproqdan baladliklar yaratilgan, ular tank pozitsiyalarini to‘sib turgan. Tepaliklar va tankka qarshi chuqurliklarning oraliqlari mina maydonlari va 2, 3 qator tikanli sim to‘siqlari bilan to‘silgan.

Tankka qarshi mudofaaning asosini tanklarga qarshi o‘t ochish, birinchi galda tanklar, PTURlarning zarbalari tashkil etgan.

Mahalliy (lokal) urushlarda harbiy san’atning e’tiborga molik tomonlari

Kapitalistik armiyalar tomonidan harbiy harakatlar, odatda son jihatdan ustun bo‘lgan sharoitlarda, qurolli kuchlar hamma turlarining kuchlari va vositalarini jalb etib o‘tkazilgan.

Tajriba ko‘rsatganidaek, mahalliy (lokal) urushlarni boshlashning turli tuman usullari orasida asosiylari quyidagilar: bir yoki bir-necha davlatlarning mustaqil davlatga ochiqdan-ochiq bostirib kirishi, marionet (qo‘g‘irchoq) tuzimlardan foydalanib, keyinchalik yirik kapitalistik davlatlarning qurolli aralashuvi, yirik kapitalistik davlatlar tomonidan tayyorlangan tajovuzkor kuchlarning mustaqil davlatga bostirib kirishi, imperialistik davlatlar mustamlaka qurolli kuchlari bilan mahalliy (lokal) urushlarni boshlash.

Strategik harakatlarning asosiy usuli sifatida bosqinchilar birinchi qudratli zarbani berishni tanladilar. SHu bilan birga strategik mudofaa chetda qolmadi. Ko‘p hollarda u bosib olingan rayonlarda mustahkamlanish, harbiy-havo, harbiy-dengiz va boshqa muhim strategik ob’ektlarni ushlab turish uchun amalga oshirilgan.

Harbiy-harakalar teatrida qo‘shinlarga rahbarlik qilish markazlashgan holda amalga oshirilgan.

Mahalliy (lokal) urushlarda maqsadlarga erishish va operativ-strategik vazifalarni hal etishning asosiy og‘irligi quruqlikdagi qo‘shinlarning zimmasiga tushdi. Ular ishtirok etgan hujumkor harakatlar ikkita asosiy turga bo‘lindi: Ikkinchi jahon urushi tajribalaridan kelib chiqib ularning regulyar armiyalarga qarshi harakatlari va xalq lashkarlari va partizanlarga qarshi qidiruv va qirish harakatlari.

Regulyar armiyalarga qarshi operatsiyalarning asosiy formasi asosiy zarba bilan va bir-ikkita ikkilamchi zarbalarni berib dushman mudofaasini yorib o‘tish bo‘ldi. Bunday operatsiyalarni olib borish uchun ko‘p hollarda qo‘shinlarning jangovar tartiblari bir eshelonda qurildi, bu o‘z navbatida dastlabki qudratli birinchi zarbani berishni va operatsiyaning boshida yirik operativ muvaffaqiyatni ta’minlar edi.

Qidiruv va qirish operatsiyalari bir necha rayonlarda ketma-ket yoki bir vaqtning o‘zida manyovrning turli usullarini qo‘llab o‘tkazildi. «Qurshab olish» manyovri ma’lum bir rayonni bir necha yo‘nalishlardan qidiruv o‘tkazish yo‘li bilan olib borildi. Bundan ko‘zlangan maqsad, dushmanni aviatsiya va boshqa o‘t ochish vositalarining ommaviy zarbalari bilan yakson qilish mumkin bo‘lgan zonaga o‘tishga majbur qilish bo‘ldi. «Halqa» manyovri vertolyotlardan tushirilgan aeromobil qo‘shinlar bilan o‘tkazildi. «To‘qmoq» va «Nakovalnya» manyovrlari ikkita qo‘shin guruhlarining harakatlari usulida amalga oshirilgan, bunda guruhlardan biri qamrab olish pozitsiyasini egallagan.

Amerika qo‘shinlarining Janubiy Vetnamdagi ko‘pgina mudofaa operatsiyalari harbiy bazalarni, aerodromlarni, yirik shaharlarni, yo‘llarni ushlab turish maqsadida o‘tkazilgan.

Amerikaliklar kuch jihatidan ayniqsa, jangovar texnika bo‘yicha ustun bo‘lganda qarshi zarbalarni o‘tkazganlar.

Kapitalistik davlatlar armiyalari hujumkor jangdan oldin artilleriya va aviatsiya tayyorgarligini o‘tkazganlar. Piyodalar va tanklarning hujumlari bevosita artilleriya va aviatsiya qo‘llab-quvvatlovida o‘tkazilgan. YOrib o‘tish sur’ati bir sutkada 2-10 km ga etdi. Ta’qib etish ilg‘or otryadlar bilan olib borilgan.

Isroil armiyasining o‘zi xos harakati aylanib o‘tish manyovrlari bo‘ldi. Frontdan zarbalar juda kam amalga oshirilgan va dushman tomonidan mudofaa etilayotgan ob’ektni aylanib o‘tishning imkoni bo‘lmasa qo‘llanilgan. Isroil qo‘shinlari hujumni rivojlantirishda ko‘p hollarda taktik havo desantini qo‘llagan, buning natijasida hujum sur’ati bir sutkada 70 km gacha oshirilgan.

Xalq-ozodlik armiyalariga qarshi hujum, asosan yoyilgan jangovar tartiblarda markaz yo‘nalishiga asta-sekin birlashish bilan joyning ma’lum uchastkasida qidiruv ishlarini olib borish usuli bilan amalga oshirilgan.

Mahalliy (lokal) urushlarda bosqinchilikni amalga oshirayotgan armiyalar ko‘p hollarda mudofaa jangini olib borishga majbur bo‘lganlar. Bunda janglar, yoppasiga mudofaani olib borish uchun muxandislik munosabatida yaxshi jihozlangan, tayanch punktlarida mudofaalanayotgan doimiy garnizonlar tomonidan olib borilgan. Muhim rayonning mudofaasi batalon rayoni masshtabida olib borilib, o‘z ichiga rota va vzvod tayanch punktlarini olgan. O‘t ochish tizimi tabiiy to‘siqlarni va yaratilgan g‘ovlarni hisobga olib yaratilgan. «O‘lik» bo‘shliqlar minalashtirilgan va g‘ovlar yaratilib kuchaytirilan. Mudofaaning asosini front bo‘ylab va front chuqurligida yoyilgan va bir-birovi bilan aloqa yo‘lakchalari (xodo‘ soobheniya) orqali birlashtirilgan jangovar postlar tashkil etgan. Tayanch punktining yaqinida yuklarni qabul qilish va vertolyotlar qo‘nishi uchun maydoncha tayyorlangan. Mabaali mudofaa bilan birga ko‘p hollarda interventlar janglarni transheyalar tizimi bilan jihozlagan pozitsion mudofaani tashkil etib olib borganlar (Koreya urushi).

Mahalliy (lokal) urushlarning ko‘pchiligida operatsiyalar va janglarning maqsadlariga quruqlikdagi qo‘shinlarning hamma qo‘shin turlarining kuchlari bilan erishilgan. Ham hujumda, ham mudofaada dushmanni bosib qo‘yishning muhim vositasi artilleriya bo‘ldi. SHu bilan birga chakalakzorlar va urushning partizanlik xarakaterlari sharoitida yirik kalibrli artilleriya kutilgan natijalarni bermaydi, deb hisoblangan. Bu sharoitlarda odatda, minomyotlar va kichik kalibrli gaubitsalar qo‘llanilgan. 1973-yildagi Arab-Isroil urushida o‘zi yurar artilleriya va PTUR lar yuqori samara ko‘rsatdilar. Bu urushda birinchi marta oddiy zaryadli taktik raketalar qo‘llanildi.

Ko‘pgina mahalliy (lokal) urushlarda zirhli tank qo‘shinlari keng qo‘llanildilar. Ular jangning oqibatini hal etishda muhim rol o‘ynadilar. Tanklarni qo‘llash xususiyatlari konkret harbiy-harakatlar teatri sharoitlari va qarama-qarshi tomonning kuchlaridan kelib chiqib aniqlandi. Ko‘p hollarda ular birlashmalar safida dushman mudofaasini yorib o‘tish va yo‘nalishlar bo‘yicha keyingi hujumni rivojlantirish uchun qo‘llanildilar. Lekin ko‘pgina mahalliy (lokal) urushlarda tank bo‘linmalari piyodalarni bevosita qo‘llab-quvvatlash tanklari PBQQT (NPP) sifatida dushman mudofaasini muxandislik munosabatida yaxshi jihozlangan uchastkalarini yorib o‘tish va artilleriyaning yopiq o‘t ochish pozitsiyalaridan o‘tishni kuchaytirish uchun qo‘llanildilar.

Mahalliy (lokal) urushlarda agressorlar HHK ni keng qo‘lladilar. Harbiy-harakatlar teatrining xususiyatlaridan kelib chiqib va partizanlik harakatlarining keng ko‘lamligini hisobga olib samolyotlar va vertolyotlar operatsiyalarda muvaffaqiyatga erishish uchun yagona yuqori manyovrli vosita bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi bilan taqqoslaganda reaktiv aviatsiyani qo‘llash yangilik bo‘ldi.

Harbiy-dengiz floti har xil vazifalarni bajardilar. Flot ayniqsa, Koreya urushi davrida keng qo‘llanildi. Dengiz desantini tashlashni tashkil etish yangilik bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushidan farqli o‘laroq desantlash uchun avianoslarda joylashgan vertolyot aviatsiyasi qo‘llanildi (Angliya-Fransiya-Isroilning 1956-yildagi Misrdagi agressiyasi).

Mahalliy (lokal) urushlar havo desantlarini tushirish tajribalariga boy. Ular tomonidan hal etiladigan vazifalar turli-tuman bo‘ldi-muhim ob’ektlarni egallash, pistirmalarni tashkil etish, tinch aholiga qarshi qirish operatsiyalarini o‘tkazish va boshqalar, bunda ham parashyut, ham piyoda harakatlangan desantlardan foydalanildi.

Interventlar qurolli kuchlari otiladigan-yondiruvchi qurollarni keng qo‘lladilar, jumladan napalm qo‘llanildi. Xalqaro m’yorlar bilan hisoblashmasdan Amerika Vetnamda zaharlovchi moddalar, Koreyada bakterologik qurollardan keng foydalandilar.

Xalq-ozodlik armiyalarining hujumkor operatsiyalari, maqsadlarning qat’iyligi, joydan mohirona foydalanishdagi harakatlarda intiluvchanlik, aylanib o‘tish va qurshab olishlarni keng qo‘llash, jangovar harakatlarni tungi sharoitlarda olib borish bilan farq qildi.

JVOMF qo‘shinlari hujumkor operatsiyalarining xususiyati jangovar harakatlarning o‘ta muvofiq tarzda olib borilishi bo‘ldi. Dushmanning front bo‘ylab 800-1000 km da joylashgan yuzlab tayanch punktlari, bazalari, aerodromlariga bir vaqtning o‘zida ataka qilingan.

Xalq-ozodlik armiyalarining hujumkor operatsiyalarida qo‘shin turlari va aviatsiyani qo‘llash bo‘yicha juda boy tajriba orttirildi. 1973-yildagi Arab-Isroil urushida mudofaani yorib o‘tishda yirik tank guruhlari qo‘llanildi. Odatda ular ikkinchi eshelonda joylashib, motopiyodalar tomonidan erishilgan muvaffaqiyatni rivojlantirish vazifasini bajarganlar.

JVOMF qo‘shinlari mudofaa operatsiyalarini tayyorlash va olib borishda o‘zlarining xususiyatlariga ega bo‘ldilar. Mudofaa partizanlarning faol harakatlari bilan muofiqlikda muhim ob’ektlarni ushlab turish, hamda pistirmalarni yaratish, yo‘llarni buzib tashlash asosida qurildi.

Arab-Isroil urushlarida asosiy e’tibor kuchli tankka qarshi mudofaaga va HHM ga qaratildi.

Mahalliy (lokal) urushlarning tajribasi tungi janglarning, ayniqsa texnik munosabatda ustun bo‘lgan dushmanga qarshi va aviatsiyaning hukmronligida samaradorligini yana bir marta ta’kidladi. Har bir urushda jangni tashkil etish ko‘p hollarda joyning xarakteri va konkret harbiy-harakatlar teatrining boshqa xususiyatlari bilan aniqlandi.

Janubiy Vetnamdagi Amerika agressorlariga qarshi urushda hujumkor jang taktikasiga yangi o‘ziga xos belgilar ko‘rindi. Dushmanning manbaali mudofaasining ko‘zga yaqqol tashlangan xususiyati munosabati bilan ixcham guruhlar yaratilmadi. Tayanch punktlariga hujum qilish uchun batalon-rota safidagi kuchlar jalb qilindi. Agar tayanch punkti dushman tomonidan egallangan hududda joylashgan bo‘lsa, unda u erga chiqish dushman mudofaasi orasidagi bo‘shliqlardan o‘tish usuli bilan amalga oshirilgan. Ataka asosan tunda shiddat bilan o‘tkazilgan. Ob’ekt yakson qilinganidan keyin tezlik bilan ortga qaytilgan. Joyni yaxshi bilish, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan razvedka, yuqori manyovrchanlik va harakatchanlik kichik otryadlarga o‘z qo‘llariga jangovar harakatlar tashabbusini kiritish va dushmanga katta talofatlar etkazish uchun omil yaratgan.

Mudofaada (Koreya, Vetnam) tunnellarda yopiq o‘t ochish pozitsiyasi, texnika va shaxsiy tarkib uchun pana joylar yaratilib keng qo‘llanildi. Tunnellarni qurish umumiy mudofaa rejasiga kiritildi va transheyalar va aloqa yo‘laklari tizimlari bilan bog‘landi. Ular 500 kg li bombalar zarbasiga dosh bera olar edilar. Batalon mudofaa rayonida muhim yo‘nalishlarda o‘rtacha 1 km gacha er osti galareyalari, 5 km gacha transheyalar va 2-3 km aloqa yo‘laklari yaratildi. Mudofaaning barqarorligi transheyalarning bir necha yarusli joylashishi bilan oshdi. Jangovar amaliyot kuchli tankka qarshi mudofaaning yaratilishini tashkil etish kerakligini ko‘rsatdi. U taktik mudofaaning butun chuqurligida qurildi va o‘z ichiga PTUR, to‘g‘ri navodka bilan otish artilleriyasini, tank kelishi xavfi bor yo‘nalishlarda tankka qarshi zaxiralarni, HTO (POZ) va mina to‘siqlarini olgan. O‘zining samaradorligi bilan PTUR hamma tankka qarshi vositalardan ustun bo‘ldi.

## Mahalliy (lokal) urushlar tajribalaridan kelib chiqqan xulosalar

Qurolli kurash olib borishning yangicha vositalari va usullarining qo‘llanishi shaxsiy tarkibni o‘rgatish va tarbiyalash masalalarini boshqacha, yangicha tarza olib borishni talab qildi. Harbiy tayyorgarlik va qurol-yarog‘ va jangovar texnikani mukammal egallash bilan birga shaxsiy tarkibdan yuqori ruhiy tayyorgarlik ham talab qilindi.

Rivojlangan g‘arb davlatlari armiyalari tomonidan harbiy harakatlar, odatda son jihatdan ustun bo‘lgan sharoitlarda qurolli kuchlar turlarining kuchlari va vositalarini jalb qilib o‘tkazildi.

Tajriba ko‘rsatganidak mahalliy (lokal) urushlarni boshlash usullari orasida, bir yoki bir-nechta davlatlarning mustaqil davlatga ochiqchasiga hujumlari, marionet tuzumlaridan foydalanish va keyinchalik yirik davlatlarning ishtiroklari, mustaqil davlat hududiga yirik g‘arb davlatlari tomonidan tayyorlangan reaksion kuchlarning bostirib kirishi, rivojlangan davlatlarning mustamlaka qurolli kuchlari bilan mahalliy (lokal) urushlarni boshlash bo‘ldi.

Strategik harakatlarning asosiy usuli qilib agressorlar birinchi qudratli zarbani berib hujumga o‘tishni tanladilar. Shu bilan birga strategik mudofaa ham keng qo‘llanildi.

Regulyar armiyalarga qarshi operatsiyalarning asosiy usuli bosh zarbani va bir ikkita yordamchi zarbalarni berib dushman mudofaasini yorib o‘tish bo‘ldi. Bunday operatsiyani olib borish uchun ko‘p hollarda qo‘shinlarning qurulishi bir eshelonli bo‘ldi, bunda birinchi qudratli zarbani berish va operatsiya boshida yirik strategik muvaffaqiyatga erishish ta’minlanar edi.

Qidiruv-qirish operatsiyalari ketma-ket yoki bir vaqtning o‘zida bir nechta rayonlarda manyovrning hamma turlarini qo‘llab o‘tkazildi. «Qurshab olish» manyovri ma’lum bir rayonni bir necha yo‘nalishlardan qidiruv o‘tkazish yo‘li bilan olib borildi. Bundan ko‘zlangan maqsad, dushmanni aviatsiya va boshqa o‘t ochish vositalarining ommaviy zarbalari bilan yakson qilish mumkin bo‘lgan zonaga o‘tishga majbur qilish bo‘ldi. «Halqa» manyovri vertolyotlardan tushirilgan aeromobil qo‘shinlar bilan o‘tkazildi. «To‘qmoq» va «Nakovalnya» manyovrlari ikkita qo‘shin guruhlarining harakatlari usulida amalga oshirilgan, bunda guruhlardan biri qamrab olish pozitsiyasini egallagan.

Ko‘pgina mahalliy urushlarda zirhli tank qo‘shinlari ommaviy qo‘llanildi. Ularning jangning oqibati uchun muhim rolni o‘ynadilar. Ko‘p hollarda ular birlashmalar tarkibida dushman mudofaasini yorib o‘tish va yo‘nalishlar bo‘ylab hujumni rivojlantirish uchun qo‘llanildilar.

Harbiy-havo kuchlari ko‘plab qo‘llanildilar. Partizanlar harakatlari va joyning sharoitlaridan kelib chiqib samolyotlar va vertolyotlar operatsiyalarda muvaffaqiyatga erishishning yagona vositasi bo‘lib qoldilar. Urushdan farqli o‘laroq reaktiv aviatsiyasi qo‘llanildi.

Harbiy-dengiz floti turli maqsadlar uchun qo‘llanildi. Ayniqsa ular Koreya urushi davrida keng qo‘llanildilar. Desantlashtirish uchun avianoslarda joylashgan vertolyotlar qo‘llanildi (1956-yildagi Misr urushi).

Agressorlar tomonidan yondiruvchi qurollar, napalmlar ishlatildi. Amerikaliklar Vetnamda zaharli moddalarni, Koreyada bakterologik qurollarni qo‘lladilar.

Xalq ozodlik armiyalari operatsiyalarida qo‘shin turlari va aviatsiyani qo‘llash bo‘yicha ma’lum bir tajribaga ega bo‘lindi. 1973-yildagi arab-isroil urushida mudofaani yorib o‘tish uchun yirik tank birlashmalari qo‘llanildi. Odatda ular ikkinchi eshelonda qo‘yilib, motopiyodalar erishgan muvaffaqiyatni rivojlantirish uchun belgilandilar.

Janglarning olib borilishiga va uning natijasiga aviatsiya katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning yuqori imkoniyatlari havoda hukmronlikni qo‘lga kiritish, qism va birlashmalarning bevosita hujumlarini qo‘llab-quvvatlash, dushman zaxiralarini etib kelishini, moddiy vositalarni etkazishni barbod qilish va boshqalarni ta’minladi.

Mahalliy (lokal) urushlar amaliyoti urushlarda rivojlangan texnologiyalar, samarali qurollar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilgan bo‘lsa ham ularda inson rolining katta ahamiyatini ko‘rsatdi.

Ko‘pgina mahalliy (lokal) urushlar o‘tish qiyin bo‘lgan uchastkalarda olib borilganiga qaramasdan tank qo‘shinlari keng qo‘llanildi va bunda muhim hal qiluvchi rolni o‘ynadi. Hujumda tanklar qo‘shin guruhlariga biriktirilib, katta chuqurliklarga yuqori manyovrli harakatlarni olib borishga imkoniyat yaratdilar.

Raketa-yadro qurolining rivojlanishi bilan janglar va operatsiyalarni o‘tkazish usullari o‘zgartirildi. Ularning rivojlanishi hujumkor harakatlarning keng front bo‘ylab olib borilishi, yoppasiga frontlardan voz kechish va alohida yo‘nalishlarda harakatlanishga o‘tish yo‘lidan bordi.

Mahalliy (lokal) urushlarda aviatsiyaning, ayniqsa taktik va armiya aviatsiyasining roli oshdi. Shu bilan birga  Vetnamda strategik aviatsiya ham keng qo‘llanildi. HHK qismlari va

birlashmalari quruqlikdagi qo‘shinlarni havodan himoya qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash, hamda moddiy-texnikaviy vositalarni tashib keltirishni amalga oshirdilar.

Harbiy-dengiz kuchlaridan foydalanishda o‘ziga xos belgi, mustaqil jangovar harakatlarni olib borish va quruqlikdagi qo‘shinlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘ldi. Flot birgalikdagi operatsiyalarda muvaffaqiyatga erishishda katta rol o‘ynadi, u dushmanning ishlab chiqarish ob’ektlariga va quruqlikdagi qo‘shinlar guruhlariga zarbalarni berdi, desantni tashlashni, qirg‘oqbo‘yini qamal qilishni amalga oshirdi, dengizda tashishlarni, qo‘shinlarni qayta to‘plash va evakuatsiya qilishni ta’minladi.